

M.A. MIRUSMONOV

**FOYDALI QAZILMA KONLARINI
QIDIRISH VA RAZVEDKA QILISH
ASOSLARI**

TOSHKENT

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

M.A.MIRUSMONOV

**FOYDALI QAZILMA KONLARINI
QIDIRISH VA RAZVEDKA QILISH
ASOSLARI**

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi
tomonidan o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan*

TOSHKENT – 2022

UO'K: 553 (575.1)
KBK: 41.3. (5 Узб)

M.A.Mirusmonov. Foydali qazilma konlarini qidirish va razvedka qilish asoslari. O'quv qo'llanma. – T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi». 2022, 254 b.

ISBN 978-9943-8049-0-6

Ushbu o'quv qo'llanma Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan fan dasturi asosida yozilgan. Ushbu dasturga mos tarzda barcha mavzular yettiha modulga jamlangan. Birinchi modulda foydali qazilma konlarini qidirish va razvedka qilishning nazariy asoslari haqida umumiyligida tushunchalar berilgan. Ikkinci modul foydali qazilma konlarini qidirish va razvedka qilishning geologik asoslariga bag'ishlangan bo'lib, asosiy e'tibor qidirish mezonlariga qaratilgan. Uchinchi modulda foydali qazilma konlarini qidirish belgilari yoritilgan. Foydali qazilma konlarini qidirish va razvedka qilish usullariga bag'ishlangan mavzular to'rtinchchi modulga jamlangan. Besinchchi modul foydali qazilmalarni namunalash bo'yicha beshta mavzudan iborat. Oltinchi va yettingchi modullarda foydali qazilma konlarini razvedka qilish va ularni geologik-iqtisodiy baholash bo'yicha mavzular yoritilgan.

Учебное пособие подготовлено в соответствии с типовой программой дисциплины утвержденной Министерством высшего и среднего специального образования РУз. Согласно программы все темы объединены в семь модулей. В первом модуле даны общие понятия о теоретических основах поисков и разведки месторождений полезных ископаемых. Во втором модуле основное внимание уделено геологическим поисковым предпосылкам. В третьем модуле освещены геологические поисковые признаки. В четвертом модуле собраны темы посвященные методам поисков и разведки месторождений полезных ископаемых. Пятый модуль включает в себя пять тем по опробованию полезных ископаемых. В шестом и седьмом модулях рассмотрены темы по разведке и геолого-экономической оценке месторождений полезных ископаемых. Данное пособие предназначено для студентов геологических и горных специальностей высших учебных заведений.

The manual has been prepared in accordance with the standard discipline program approved by the Ministry of Higher and Secondary Specialized Education of the Republic of Uzbekistan. According to the program, all topics are combined into seven modules. The first module provides general concepts about the theoretical foundations of prospecting and exploration of mineral deposits. The second module focuses on geological prospecting assumptions. The third module highlights geological prospecting features. The fourth module contains topics devoted to methods of prospecting and exploration of mineral deposits. The fifth module includes five topics on mineral sampling. In the sixth and seventh modules, topics on exploration and geological and economic assessment of mineral deposits are considered. This manual is intended for students of geological and mining specialties of higher educational institutions.

UO'K: 553 (575.1)
KBK: 41.3. (5 Узб)

Taqribchilar:

X.A.Akbarov – O'zbekiston FA akademigi, geologiya-mineraloziya fanlari doktori, professor:
N.M.Xaqberdiyev – “Davlat geologiya axborot markazi” DK direktori o'rinosari,
geologiya-mineraloziya fanlari bo'yicha PhD.

ISBN 978-9943-8049-0-6

KIRISH

Ushbu o'quv qo'llanma Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi tomonidan tasdiqlangan fan dasturi asosida yozilgan bo'lib, muallifning oxirgi 22 yil davomida "5311700 - Foydali qazilmalar geologiyasi, qidiruv va razvedkasi (qattiq qazilmalar)" ta'lif yo'nalishi talabalari uchun o'qigan ma'ruzalarini to'plamidan iborat. Qo'llanma 2018-yilda ilk bor chop etilgan ma'ruzalar matnining kengaytirilgan va to'ldirilgan nashridir.

O'quv qo'llanma foydali qazilma konlarini qidirish va razvedka qilish asoslari fani dasturini to'liq qamrab olgan o'zbek tilidagi birinchi qo'llanmadir. Shu kungacha chop etilgan qo'llanmalar dasturning barcha bo'limlarini to'liq yoritib bermagan edi. Barcha mavzular 7 ta modulga jamlangan. Birinchi modulda foydali qazilma konlarini qidirish va razvedka qilishning nazariy asoslari haqida umumiy tushunchalar, geologiya-qidiruv ishlarini bosqichlarga ajratilishi, qidirish va razvedka qilishning asosiy obyektlari va foydali qazilma konlarini tasniflash tamoyillari berilgan. Ikkinci modul foydali qazilma konlarini qidirish va razvedka qilishning geologik asoslariga bag'ishlangan bo'lib, asosiy e'tibor qidirishning stratigrafik, litologik, magmatik, tektonik-strukturaviy, mineralogik, geokimyoiy, metamorfik, geomorfologik, paleogeografik va boshqa mezonlariga qaratilgan. Uchinchi modulda foydali qazilma konlarini qidirishning bevosita va bilvosita belgilari yoritilgan. Foydali qazilma konlarini qidirish va razvedka qilish usullariga bag'ishlangan mavzular to'rtinchi modulga jamlangan. Bunda usullarning ikki tamoyil bo'yicha tasniflanishi, qidirish va razvedka qilishning asosiy texnik vositalari hamda usullar majmuasini tanlab olishga ta'sir ko'rsatuvchi omillar keltirilgan. Beshinchi modul foydali qazilmalarni namunalash masalalariga bag'ishlangan bo'lib, namunalashning maqsad va vazifalari bo'yicha turlari, namuna olish usullari, namunalarga ishlov berish, namunalarni tahlil qilish usullari va namunalashni nazorat qilish kabi beshta mavzudan iborat. Oltinchi modulda foydali qazilma konlarini razvedka qilish vazifalari va tamoyillari, usullari hamda bosqichlari, sistemalari

va to‘rlarining zichligi hamda razvedka jarayonida olib boriladigan gidrogeologik va injener-geologik kuzatushlar bo‘yicha masalalar ko‘rib chiqilgan. Yettinchi modulda foydali qazilma konlarini geologik-iqtisodiy baholash bo‘yicha mavzular yoritilgan.

Geologiya sohasi amaliyotida hozirgi kunlarda ham loyihamalar va hisobotlar yozish hamda ish yuritish rus tilida olib borilayotganini hisobga olib, asosiy atamalar “qidirish” va “razvedka” ko‘rinishida qo‘llanildi.

Bu o‘quv qo‘llanma foydali qazilma konlarini qidirish va razvedka qilishga bag‘ishlangan bo‘lib, «nimani qidirish», «qayerdan qidirish», «qanday qilib qidirish» va «qanday baholash» kerak degan savollarga javob berishi ko‘zda tutilgan. Qo‘llanmani yaratishda turli mamlakatlarda bu sohada chop etilgan adabiyotlardan foydalangan holda, muallifning 45 yillik tajribasi asos bo‘lib xizmat qilgan.

Kelajakda o‘quv qo‘llanma asosida fan bo‘yicha darslik tayyorlash rejalashtirilgan. Shuning uchun muallif o‘quv qo‘llanma bilan tanishgan mutaxassislarining fikr va mulohazalarini mamnunlik bilan ko‘rib chiqish uchun ularni mmirusmanov@mail.ru elektron manziliga murojaat etishlarini kutib qoladi.

1. FOYDALI QAZILMA KONLARINI QIDIRISH VA RAZVEDKA QILISHNING NAZARIY ASOSLARI

1.1. “Foydali qazilma konlarini qidirish va razvedka qilish asoslari” faniga kirish

Fanning maqsad va vazifalari. O‘zbekiston Respublikasida xalq xo‘jaligining turli tarmoqlarida qo‘llaniladigan har xil turdagidan ma’danli va noma’dan foydali qazilma turlari mavjud. XX asr davomida nodir, rangli, siyrak yer elementlari, radioaktiv va qora metallarning ko‘plab konlari va istiqbolli ma’danlashuvlari aniqlangan. Shunga qaramasdan bularning ba’zi birlari bundan bir necha asrlar va hatto ming yillar oldin ajdodlarimiz tomonidan aniqlangan va foydalanib kelingan.

Respublika mustaqilligining oxirgi o’n yilligida geologiya xizmati xalq xo‘jaligining asosiy tarmoqlaridan biriga aylandi. Bugungi kunda O‘zbekistonda 30 dan ortiq turdagidi xomashyoni qamrab olgan 100 dan ortiq konlar razvedka qilingan. O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududining geologik o‘rganilganlik darajasi bo‘yicha dunyoda oldingi o‘rinlardan birini egallaydi. Bularning hammasi geoglarning ko‘p yillik samarali mehnatlari evaziga hosil bo‘lgan. Respublika o‘zining bozor iqtisodiyotini qurayotgan bir paytda mineral xomashyo bazasini rivojlantirish juda ham zarurdir. Respublikamiz oltin va uran zaxiralari bo‘yicha birinchi beshlikka, oltin, uran va mis qazib olishda birinchi o‘nlikda. MDH davlatlari ichida oltinning zaxirasi va qazib chiqarishda ikkinchi, kumush va mis bo‘yicha uchunchi o‘rinni egallagan.

Oltin, mis, kumush, rux, qo‘rg‘oshin, volfram, molibden kabi foydali qazilmalarining zaxiralarini razvedka qilishda ko‘plab shaxtalar, rudniklar, karyerlar va ikkita yirik Navoiy hamda Olmaliq kon-metallurgiya kombinatlari xizmat ko‘rsatib kelmoqda.

Hozirgi kunda respublika bo‘yicha geologiya-qidiruv va razvedka ishlari Geologiya va mineral resurslar Davlat Qo‘mitasining ixtisoslashgan geologiya-qidiruv korxonalari tomonidan olib borilmoqda. O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng geologiya-qidiruv

ishlarini oqilona va tejamkorlik bilan olib borish maqsadida mazkur ishlarni bosqichma-bosqich bajarishning quyidagi ketma-ketligi qabul qilingan: 1) regional geologik tadqiqotlar; 2) 1:50000 (yoki 1:25000) masshtabdagi davlat geologik xaritalash ishlari; 3) qidirish ishlari; 4) baholash ishlari; 5) razvedka qilish ishlari; 6) qo'shimcha razvedka qilish ishlari; 7) ekspluatatsion razvedka qilish ishlari.

Mukammal razvedka qilingan konlar davlat zaxiralari bo'yicha komissiya (DZK) tasdig'idan o'tsa, obyekt sifatida o'zlashtirishga yoki sotishga tayyor hisoblanadi.

Foydali qazilma konlarini qidirish va razvedka qilish bir tomondan fan bo'lsa, ikkinchi tomondan, geologiya-qidiruv ishlari sohasining asosiy mazmunini tashkil etadi. Bu fan geologiya sohasi bajaradigan ishlarning nazariy asoslарини о'ргатади.

«Foydali qazilma konlarini qidirish va razvedka qilish asoslari» fani 5311700-“Foydali qazilma konlari geologiyasi, qidiruv va razvedkasi (qattiq qazilmalar)” yo'nalishi bo'yicha ixtisoslik fanlar blokiga kiradi va 6-semestrda o'qitiladi. Fanni o'qitishda barcha umumiyligini va maxsus geologik fanlaridan olingan bilimlar asos bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun bu fan uchinchi kursda, yuqoridagi fanlardan keyin, malakaviy amaliyotdan oldin o'qitiladi.

Fanni o'qitishdan maqsad konlarni qidirish va razvedka qilishning nazariy asoslарини va usullарини, foydali qazilma konlarining sanoat va genetik turlarini, geologiya qidiruv ishlari bosqichlarini, qidirish belgilari va mezonlarini, foydali qazilmalarni namunalash, foydali qazilma konlarini qidirish hamda razvedkasida texnik vositalarni qo'llash va foydali qazilma konlari zaxiralarini hisoblashning turli usullарини о'rganishdir.

«Foydali qazilma konlarini qidirish va razvedka qilish asoslari» o'quv fanining vazifasi shundan iboratki, fanni o'zlashtirish jarayonida o'zlashtiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- foydali qazilma konlarini qidirish va razvedka qilishning nazariy asoslari;
- geologik va geologik-iqtisodiy kategoriyalarning farqi;
- foydali qazilma konlarini qidirishning iqtisodiy va matematik nazariy asoslari **haqida tasavvurga ega bo'lishi**;
- foydali qazilma konlarini qidirish va razvedka qilishning obyektlarini;

- foydali qazilma konlarini qidirish va razvedka qilishning geologik assoslarini;
- FQKlarini qidirishning stratigrafik, litologik, magmatik, strukturaviy, mineralogik, geokimyoviy va boshqa mezonlarini;
- FQKlarini qidirishning bevosa va bilvosita belgilarini;
- qidirish usullarini va ularni qo'llash sharoitlarini;
- qidirish va razvedka qilishning texnik vositalarini;
- razvedka vazifalari va tizimlarini;
- geologiya-qidiruv ishlarida namunalash maqsadlari va usullarini;
- namunalarga ishlov berish qoidalarini;
- zaxira hisoblash usullarini ***bilishi va ulardan foydalana olishi***;
- o'quv-geologik xaritalari bo'yicha qidirish mezonlari va qidirish belgilarini aniqlash;
- turli geologik vaziyatlar uchun namunalash usullarini tanlash;
- zaxira hisoblash usullarini qo'llash ***ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim***.

Qo'yilgan vazifalar o'qish jarayonida talabalarning ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda faol ishtirok etishi, adabiyotlar bilan mustaqil ishlashi va o'qituvchi kuzatuvida mustaqil ta'lim olishi bilan amalgaloshadi.

Fanning boshqa fanlar bilan aloqalari. Bu fan boshqa geologik fanlar orasida eng oxirida o'qitiladigan fan bo'lib, barcha geologik fanlarning bilimiga tayanishi zarur. Bo'lajak geolog mutaxassis sifatida geologiya-qidiruv ishlarini olib borishi uchun barcha geologik fanlarni (umumiyligi geologiya, stratigrafiya, strukturalar geologiyasi, mineralogiya, petrografiya, gidrogeologiya, burg'ilash, kon-qidiruv lahimlarini o'tish, foydali qazilmalar geologiyasi va h.k.) mustahkam egallagan bo'lishi kerak. Umumta'lim fanlaridan esa matematika va iqtisodiyot alohida ahamiyatga ega.

«FQKlarini qidirish va razvedka qilish» bir tomondan – geologik fan bo'lsa, ikkinchi tomondan – xalq xo'jaligining ishlab-chiqarish sohasidir. Ko'pchilik iqtisodchilar geologiya-qidiruv ishlari (GQI) sohasini material ishlab chiqarish sohasiga kiritadilar. Bu jihatdan soha bajaradigan ish va fanning nomi mos tushadi.

Geologlar mehnatining natijasi ochilgan va razvedka qilingan konlardagi foydali qazilma zaxirasidir. GQI larining muhim qismini ilmiy analiz (tahlil) qilish, sistemalashtirish, umumlashtirish va bashoratlash ishlari tashkil etadi.

Qidirish va razvedka qilish fanining predmeti va boshqa fanlar bilan bog'liqligi xalq xo'jaligining bu fan oldiga qo'ygan talablaridan kelib chiqadi.

«Qidirish» va «razvedka qilish» atamalarining farqi bu ishlarning vazifasi bilan belgilanadi.

Qidirishning vazifasi – FQKlarini izlab topish.

Razvedka qilishning vazifasi – izlab topilgan FQKlarining, uni qazib olish uchun muhim bo'lgan barcha xususiyatlarini o'rghanish.

Qidirish vazifasini muvaffaqiyatli, planli va ilmiy asoslangan holda bajarish uchun quyidagilar zarur:

- FQKlarining joylashishini belgilovchi qonuniyatlar (faktorlar, qidirish mezonlari)ni bilish (o'rghanib chiqish);
- turli sharoitlardagi konlarning qidirish belgilarini o'rghanish;
- samarali qidirish usullarining kompleksini ishlab chiqish va ularni tabiiy sharoit va qidirish belgilariga qarab ishlatish sharoitlarini aniqlab olish;
- qidirish ishlarning natijalari bo'yicha konning sanoat uchun ahamiyatiga baho berish va sanoat uchun yaroqsiz obyektlarni o'z vaqtida «brakovka» qilish.

Razvedka qilish jarayonida quyidagi geologik, tog'-texnik, texnologik va iqtisodiy ma'lumotlar yig'ilishi kerak:

- foydali qazilma uyumlarining cho'zilishi, yotishi, qalinligi bo'yicha shakli va o'lchamlari;
- foydali qazilma tanalarining yotish elementlari va chuqurligi, ularning fazodagi o'zaro munosabati;
- foydali qazilma tanalarining ichki tuzilishi;
- foydali qazilmaning tarkibi va sifati, shu jumladan uning texnologik va texnik xususiyatlari;
- foydali qazilmalarni o'rab turgan jinslarning tarkibi, ularning tog'-texnik xususiyatlari (zichligi, g'ovakligi, mustahkamligi va h.k.);
- foydali qazilmalarning gidrogeologik sharoitlari (suv gorizontlarining sathi, suvlanganlik darajasi va h.k.);

– konning ochilish va qazib olish tog‘-texnik sharoitlari (foydali qazilma va o‘rab turuvchi tog‘ jinslarining mustahkamligi, hajmiy massasi, maydalanish koeffitsiyenti, gazlar va temperatura rejimlari va h.k.).

Yuqoridagi ma'lumotlarni olish uchun:

- to‘g‘ridan-to‘g‘ri kuzatishlar;
- o‘lchashlar;
- jinslarni va foydali qazilmalarni o‘rganish va analiz qilish ***ishlari olib borilishi kerak.***

Lekin tabiatda to‘laligicha kuzatish uchun «ochiq», «imkon beruvchi» obyektlar deyarli yo‘q. Bundan tashqari, hamma qismi bir xil bo‘lgan konlar ham yo‘q. Shuning uchun bir nuqtadan olingan ma'lumotni boshqa nuqtaga har doim ham tatbiq etib bo‘lmaydi. Sanoat uchun esa, o‘rtacha (butun kon bo‘yicha) ma'lumotlardan tashqari, ularning o‘zgarish qonuniyatlari va yo‘nalishlarini ham bilish zarur.

Qidirish va razvedka qilish usullari ishonchli nazariy va amaliy bilimlarga tayangan holda, foydali qazilma uyumlarini maksimal darajada to‘la o‘rganishga asoslangan bo‘lsagina amaliy ahamiyat kasb etadi. Har qanday holda ham bajariladigan ishlar konni to‘liqligicha o‘zlashtirishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Butun jarayonda mablag‘larni tejash uchun ishonchli nazariy asoslardan foydalanish va ishlarni eng maqbul ketma-ketlikda bajarish talab etiladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, foydali qazilma konlari ko‘p jihatdan shu paytgacha ma’lum darajadagi baxtli tasodif tufayli topilgan va yaqin kelajakda ham shunday bo‘lib qolishi mumkin. Lekin zamonaviy iqtisodiyot ta’sodifga tayanishi mumkin emas. Shuning uchun ilmiy asoslangan qidirish va razvedka qilish mezonlari hamda usullarini rivojlantirish davr talabidir.

Adabiyotlar. G‘arb davlatlarida «Economic geology» (Iqtisodiy geologiya) deb yuritiluvchi, bizda «Foydali qazilmalar» degan yo‘nalishga to‘g‘ri keladigan fanning «genetic economic geology», ya‘ni «Foydali qazilma konlari geologiyasi» qismidan 1920-yillarda «Foydali qazilma konlarini qidirish va razvedka qilish» fani ajralib, alohida fan sifatida shakllana boshlagan. Bu tendensiya Sovet Ittifoqida (SSSRda) eng yaqqol namoyon bo‘lgan, chunki planlashtirilgan iqtisodiyot sharoitida foydali qazilmalarni razvedka qilish aniq ilmiy yondashuvni talab qilgan. Sovet Ittifoqidagi qidirish va razvedka

qilishning birinchi besh yillik tajribasi V.M.Kreyter va boshqalar tomonidan umumlashtirilib, 1931-yilda "Материалы к методам поисков и разведки полезных ископаемых" va 1932-yilda "Опробование" nomlaridagi ishlar chop etildi. Shuningdek, V.M.Kreyter tomonidan 1940-yilda «Поиски и разведка полезных ископаемых» (Foydali qazilmalarni qidirish va razvedka qilish) nomli darslik chop etildi. Bu darslik qayta ishlangan holda 1961 (1-tom) hamda 1962 (2-tom)-yillarda «Foydali qazilma konlarini qidirish va razvedka qilish» nomi bilan qayta chop etildi.

V.I.Smirnov tomonidan 1950-yilda chop etilgan «Подсчет запасов минерального сырья» (Mineral xomashyo zaxirasini hisoblash) kitobida foydali qazilmalar zaxiralarini hisoblash bo'yicha yo'riqnomalar keltirilgan. Bu kitobning kengaytirilgan nashri 1960- yilda bir qator hammualliflar ishtirotkida «Подсчет запасов месторождений полезных ископаемых» (Foydali qazilma konlarining zaxiralarini hisoblash) nomi ostida chop etildi.

G'arb adabiyotida qidirish va razvedka qilish yo'nalishi kamroq yoritilgan. Bunda har bir geolog o'z ustozidan o'rgangan usullarni qo'llashni afzal ko'rghan. AQSHda eng tanilgan adabiyotlar sifatida X.E.MakKinstring "Mining Geology(Konchilik geologiyasi)" (1948) va Dj.D.Forresterning "Principles of Field and Mining Geology(Dala va konchilik geologiyasi tamoyillari)" (1946) nashrlari ko'rsatib o'tiladi.

1965-yilda Avstraliyada L.J.Lawrence tahririyati ostida qidirish va razvedka qilish bo'yicha darslik chop etilgan.

Keyinchalik bu sohada chop etilgan adabiyotlardan Uilyam S.Peters tomonidan 1978-yilda yozilgan foydali qazilmalar geologiyasi, ularni razvedka qilish va qazib olishga bag'ishlangan asarni, 1974-yilda Levinson tomonidan yozilgan geokimyoviy qidirish asoslariga bag'ishlangan asarni, 1981-yilda Laskowski tomonidan yozilgan foydali qazilmalarni qayta ishlashga bag'ishlangan asarlarni ko'rsatish mumkin.

2018-yildagi internet orqali konlarni qidirish va razvedka qilish bo'yicha eng ko'p sotilgan ingliz tilidagi darslik sifatida Chexoslovakiyada yozilgan M.Kujvart va M.Boxmerning «Prospecting and exploration of mineral deposits(1986)» (Foydali qazilma konlarini qidirish va razvedka qilish) kitobini alohida qayd etish lozim.

Fransuz tilidagi adabiyotlardan 1963-yilda chop etilgan P.Rotyening "Les gisements metallifères" (Ma'danlı konlar) asarıda geolojiya-qidiruv sohasiga keng e'tibor berilgan. 1946-yilda chop etilgan P.Despudjop va G.Termyening "Introduction à l'étude de la métallogénie et à la prospection minière" (Metallogeniyaga va foydali qazilmalarini qidirishga kirish) asarıda esa bu sohaga faqatgina 20 varaq ajratilgan. Avvalroq (1943-yilda) chop etilgan L.Tiboning «Recherche et étude économique des gîtes métallifères» (Ma'danlı konlarni qidirish va iqtisodiy tadqiq qilish) asarını eslatib o'tish o'rnlidir.

Nemis tilida «Foydali qazilma konlarini qidirish va razvedka qilish» sohasi bo'yicha to'liq ma'lumotli adabiyot – «Prospektion und feldmässigebeurteilung von Lagerstätten (Konlarni razvedka qilish va baholash)» 1964-yilda G.Seshke tomonidan, yana biri «Geowissenschaftliche Methoden (Erster Teil des Zweitenbandes des Lehrbuchs der angewandten Geologie)» (Geoilmiy usullar (Amaliy geolojiya bo'yicha darslik ikkinchi tomining birinchi qismi) A.Bents va X.Dj.Martini tomonidan 1968-yilda chop etilgan. 1979-yilda L.Bauman, Y.Nikolskiy va M.Volf «Einführung in die Geologie und Erkundung von Lagerstätten» (Foydali qazilmalar geologiyasi va razvedkasi asoslari) kitobini chop etdilar.

Bir qator g'arb davlatlari mutaxassislari qidirish va razvedkaning alohida masalalarini yoritishga harakat qilishgan. Bulardan quyida-gilarni ko'rsatib o'tish mumkin: R.Blanshar, P.F.Bosvell, A.Lokk – ochilmalarini baholash; K.Fulton, T.S.Lovering, L.S.Xaff – yopiq konlarni geokimyoiy usullar bilan qidirish; D.V.Brunton, T.A.Rikard, B.Preskott – ma'danlardan namunalar olish; K.Rebern va X.Milner – sochilma konlarni qidirish va razvedka qilish; M.X.Bernxem, V.A.Djons, S.G.Laski, S.O.Svanson – foydali qazilma zaxiralarini hisoblash.

Quyidagi davriy nashrlar qidirish va razvedka qilish masalalariga bag'ishlangan: Economic Geology (AQSH), Разведка и охрана недр (Rossiya), Геология рудных месторождений (Rossiya), Геология и геофизика (Rossiya), Zeitschrift für angewandte Geologie (Germaniya) va boshqalar. O'zbekistonda bu sohada «Geologiya va mineral resurslari» ilmiy-texnika jurnali chop etiladi.

Razvedkachi-geokimyogarlar assotsiatsiyasi tomonidan har ikki-uch yilda simpoziumlar tashkil etiladi. Bular 1966-yilda Ottavada,

1968-yilda Denverda, 1970-yilda Torontoda, 1972-yilda Londonda, 1974-yilda Vankuverda, 1976-yilda Sidneyda, 1978-yilda Denverda, 1980-yilda Gannoverda, 1983-yilda Xelsinkida o'tkazilgan. Bundan tashqari bu assotsiatsiya tomonidan «Journal of Geochemical Exploration» (Geokimyoviy Razvedka Jurnalı) chop etiladi.

1.2. Fanning nazariy asoslari haqida umumiy tushunchalar

Nazariy asoslarni tushunish uchun zarur bo'lgan umumiy tushunchalar.

Nazariya faqat shunda nazariya deyilishi mumkinki, agar u hodisa va jarayonlarni, ularning xususiyatlarini bashorat qila olsa.

Har qanday umumlashtirish va xulosa chiqarish o'z ichiga bashoratlashni oladi.

Qidirish va razvedka qilishning bosh obyekti – «bo'sh jinslar» bilan o'rالgan foydali qazilma (yoki ma'dan).

«Foydali qazilma koni» obyekt sifatida iqtisodiy samara bilan foydalanish uchun qidirish va razvedka jarayonida ajratiladi.

Bo'sh jins va foydali qazilma (yoki ma'dan) bir-birlaridan o'zlarining iqtisodiy yoki geologik-iqtisodiy ko'rsatkichlari bilan farqlanadilar. Shuning uchun qidirish va razvedkaning nazariy asoslaridan birini *minenral xomashyo iqtisodiyoti* tashkil etadi.

Foydali qazilma (ma'dan) va foydali qazilma koni o'z mohiyatiga ko'ra geologik jismalardir. Ularning paydo bo'lishi va joylashishi geologik qonuniyatlarga bo'ysunadi. Shuning uchun ularni bilish va ulardan qidirish va razvedka jarayonida foydalanish «FQKlarini qidirish va razvedka qilish»ning *geologik asosini* tashkil etadi.

Geologik jarayonlar juda ko'p holatlar, sharoitlar, vaziyatlar va sabablarga bog'liq bo'lgan ko'p faktorli jarayonlardir. Geologik qonuniyatlar ehtimollik xarakteriga egadir. Bu qonuniyatlarani aniqlash geologik va geofizik uslublardan tashqari matematik asoslanishni ham talab etadi. Shuning uchun geologik-iqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblashda, ayniqsa ularning o'rtacha miqdorlarini hisoblashda *matematikaning «ehtimollar nazariyasi» qoidalarini* qo'llash talab etiladi.

Shunday qilib, *qidirish va razvedka qilish obyektingi mohiyati* uchta fan (*geologiya, iqtisodiyot, matematika*) uslublari yordamida ochib berilishi va tavsiflanishi mumkin.

Qidirish va razvedka qilish vazifalarining bajarilishi yuqorida keltirilgan uchta fan usullari kompleksini qo'llashni talab etadi.

Qidirish va bashoratlashning geologik asoslari.

Yuqorida aytib o'tilganidek, foydali qazilma (ma'dan) va foydali qazilma koni o'z mohiyatiga ko'ra geologik jismlardir. Ularning paydo bo'lishi va joylashishi geologik qonuniyatlariga bo'ysunadi. Shuning uchun ularni bilish va ulardan qidirish va razvedka jarayonida foydalanish «FQKlarini qidirish va bashoratlash»ning *geologik asosini* tashkil etadi.

Geologik jarayonlar juda ko'p holatlар, sharoitlar, vaziyatlar va sabablarga bog'liq bo'lgan *ko'p faktorli jarayonlardir*. Geologik qonuniyatlarning ko'philigi ehtimollik xarakteriga egadir.

Qidirish va bashoratlashning geologik asoslari bo'lib qidirish mezonlari va qidirish belgilari xizmat qiladi.

Foydali qazilma konining u yoki bu turini topish imkoniyati borligini ko'rsatuvchi har qanday geologik bilimlar *qidirish mezonlari* hisoblanadi.

Foydali qazilma borligidan yoki bor bo'lishi mumkinligidan darak beruvchi dalillar *qidirish belgilari* deyiladi.

Barcha foydali qazilma konlarini Yer qobig'ining shu foydali qazilma joylashgan qismida sodir bo'lgan turli geologik jarayonlar natijasida paydo bo'lgan geologik jismlar deb ko'rib chiqish mumkin. Bu konlarning paydo bo'lish va joylashish qonuniyatlarini turli geologik fanlar tushuntirib beradi. Umumiy geologiya Yer qobig'ida sodir bo'ladigan jarayonlar, ularning xususiyatlarini, bu jarayonlarning tasniflanishini tushuntirib beradi. Tarixiy geologiya stratigrafiya asoslarini, paleontologiya va jarayonlarning yoshini aniqlash masalalarini tushuntirib beradi. Mineralogiya fani Yer qobig'ida kimyoiy elementlarning mayjud bo'lish shakllarini, ya'ni minerallarning turlari, xususiyatlari, hosil bo'lish sharoitlarini va ishlatalish sohalarini o'rgatadi. Petrografiya fani esa turli minerallarning majmualaridan tashkil topgan tog' jinslarini o'rgatadi. Turli tog' jinslari turli sharoitlarda paydo bo'lib, turli xususiyatlarga ega bo'ladilar va turli foydali qazilmalarni o'z tarkibida saqlashlari mumkin. Foydali qazilmalar geologiyasi fani qidirish va razvedka qilish uchun mezonlarni tanlashda eng katta ahamiyatga ega bo'lgan fan hisoblanadi. Bu fan turli

genetik va sanoat turlariga mansub konlarning hosil bo'lish sharoitlarini tushuntirib berish orqali qidirish mezonlarining asosini ta'minlab beradi.

«Geologik», «iqtisodiy» va «geologik-iqtisodiy» tushunchalarining farqlari. FQKlarini qidirish va razvedka qilishning iqtisodiy asoslari.

Qidirish va razvedka qilish avvalambor «foydali qazilma»ni «bo'sh jins»dan ajratishni o'rganishdan boshlanadi. Bu ikki tushuncha geologik-iqtisodiy kategoriylar (tushunchalar)dir. Bularning ikkalasi ham aslida tog' jinsidir. Tog' jinsi esa bu – geologik tushuncha.

Toza iqtisodiy tushunchalarga «xomashyo», «kapital qo'yilma», «rentabellik» kabi tushunchalar kiradi.

Qidirish va razvedka qilish jarayonida kon bo'yicha to'planadigan ma'lumotlarning ko'pchiligi «geologik-iqtisodiy» tushunchalar sirasiga kiradi. Chunki har bir kon o'ziga xos geologik-sanoatbop parametrlarga (GSP) ega. Bunday parametrlar: yotish sharoitlari va chuqurligi; ma'dan tanalari va ochiladigan jinslarning qalinligi; ma'dansiz qatlamlarning qalinligi va holati; mineralogik tarkibi, foydali va zararli komponentlar miqdori; ma'danlar va qamrovchi jinslarning turg'unligi; suv kelish miqdori va h.k.

Muayyan kondagi konkret GSPlar yig'indisi konning umumiy iqtisodiy ko'rsatkichlarini belgilab beradi.

Sanoat uchun konlarni texnik jihatdan imkoniyatli va iqtisodiy jihatdan manfaatli o'zlashtirishni ta'minlovchi GSPlarning chegaraviy miqdorlari (konditsiyalari)ni bilish muhimdir.

Pirovard natijada ana shu GSP bo'yicha foydali qazilma chegaralaniib, uning zaxirasi hisoblanadi.

Konlarning iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha tasniflanishi

Konlarning iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha tasniflanishida tasniflovchi belgi sifatida turli GSPlarning ko'rsatkichlari qo'llanilishi mumkin. Bular orasida eng asosiyлари quyidagilardir:

- foydali qazilma uyumlarining qalinligi;
- foydali qazilma sifati;
- foydali qazilmaning yotish sharoitlari;
- qamrovchi jinslar kesimining barqarorligi;

- konni qazib olish sharoitlari;
- foydali qazilma uyumlari tarkibining barqarorligi;
- konning kattaligi;
- konning geologik-sanoat turi.

I. Foydali qazilma uyumlarining qalinligi bo'yicha tasniflash o'z navbatida bir nechta ko'rsatkichlar bo'yicha ko'rib chiqiladi. Avvalambor foydali qazilma uyumlarining qalinligi **konditsion** (sanoat talabiga javob beradigan) yoki **nokonditsion** (sanoat talabiga javob bermaydigan) bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, konchilik ishida quyidagi tasniflash qabul qilingan:

• *Qalinlikning barqarorligi bo'yicha:*

1) *qalinligi barqaror uyumlar.* Uyumlarning ishchi chegaralari 100% butun, ya'ni uzilmagan;

2) *qalinligi nisbatan barqaror uyumlar.* Uyumlarning ishchi chegaralari 75% butun, yoki 25%ga uzilgan;

3) *qalinligi beqaror uyumlar.* Uyumlarning ishchi chegaralari 50% gacha butun, yoki 50%gacha uzilgan;

4) *qalinligi o'ta beqaror uyumlar.* Uyumlarning ishchi chegaralari 50% dan butun, yoki 50%dan ortig'i uzilgan;

• *Qalinligining kattaligi bo'yicha:*

a) *yupqa qatlamsimon uyumlar.* Qalinligi 1-1,5 m dan kam bo'lgan ma'dan tanalari;

b) *o'rtacha qalinlikdagi uyumlar.* Foydali qazilma tanasining qalinligi 1-1,5 m dan 3-4 m gacha;

d) *katta qalinlikdagi uyumlar.* Foydali qazilma tanasining qalinligi 3-4 m dan 8-10 m gacha;

e) *juda katta qalinlikdagi uyumlar.* Foydali qazilma tanasining qalinligi 10 m dan 50 m gacha;

f) *o'ta katta qalinlikdagi uyumlar.* Foydali qazilma tanasining qalinligi 50 m dan ko'p.

II. Foydali qazilmalarini sifati bo'yicha tasniflash turli foydali qazilmalar uchun turlicha bo'lishi mumkin. Masalan oltin konlarida eng muhim sifat ko'rsatkichlari – oltinning ma'dandagi mineralogik shaklidir.

Bu jihatdan oltinning quyidagi mineralogik shakllari ajratiladi:

– yirik o'lchamli erkin oltin;

- yirik va mayda o'lchamli erkin oltin (sianlanish usulida ajratib olinishi mumkin bo'lgan oltin);
- sulfidlarda bog'langan o'ta dispers oltin (sianlanish usulida ajratib olinishi qiyin bo'lgan oltin).

Ko'pchilik konlarda oltinning yuqorida ko'rsatilgan uchala turi ham uchrashi mumkin. Unda konning iqtisodiy baholanishi uchun bu turlarning nisbiy rivojlanganlik darajasi ko'rib chiqiladi.

III. Foydali qazilmani yotish sharoitlari bo'yicha tasniflash

odatda ikkita ko'rsatkich bo'yicha bajariladi.

- ***Yotish burchagi bo'yicha:***

1)gorizontal va juda oz qiyalikdagi foydali qazilma uyumlari (yotish burchaklari 0-5°);

2)biroz qiya joylashgan foydali qazilma uyumlari (yotish burchaklari 5-25°);

3) qiya joylashgan foydali qazilma uyumlari (yotish burchaklari 25-45°);

4) tik joylashgan foydali qazilma uyumlari (yotish burchaklari 45-60°);

5) o'ta tik joylashgan foydali qazilma uyumlari (yotish burchaklari 60-90°).

- ***Yotishining o'zgaruvchanligi bo'yicha:***

a) yotish burchagi barqaror;

b) yotish burchagi o'zgaruvchan;

d) yotish elementlari uziluvchanligi.

IV. Qamrovchi jinslar kesimining barqarorligi bo'yicha

sanoat uchun qulay yoki noqulay konlar ajratilishi mumkin. Bu ko'rsatkich konni qazib olish ishlariga ma'lum darajada ta'sir etuvchi omil sifatida baholanadi.

V. Konni qazib olish sharoitlari bo'yicha tasniflash o'z navbatida bir nechta ko'rsatkichlar bo'yicha ko'rib chiqiladi. Bu ko'rsatkichlar: foydali qazilmaning yotish chuqurligi; gidrogeologik va injener-geologik sharoitlar; qamrovchi jinslar va ma'danlarning qattiqligi va mustahkamligi; konning gazlanganlik darajasi; kondagi termal sharoitlar.

VI. Foydali qazilma uyumlari tarkibining barqarorligi bo'yicha tasniflashda

asosiy e'tibor kondagi ma'danlarning tabiiy turlarini ajratishga va ularning qiyosiy xususiyatlariga baho berishga qaratiladi.

Bunda ma'danlar tarkibidagi tabiiy turlar va texnologik navlar ajratiladi va xaritalanadi.

VII. Konlarning kattaligi bo'yicha tasniflanishi umumiy holda zaxiralarining miqdoriga qarab quyidagi ko'rnishda bo'ladi:

- *kichik zaxirali konlar;*
- *o'rtacha zaxirali konlar;*
- *katta zaxirali konlar;*
- *unikal (noyob) zaxirali konlar.*

Yuqoridagi kon turlarini ajratishda har bir foydali qazilma bo'yicha alohida chegaraviy ko'rsatkichlar mavjud. Masalan, oltin konlari uchun bu tasnif quyidagicha ko'rnishga ega bo'ladi:

- *kichik zaxirali oltin konlari (1-10 tonna oltin);*
- *o'rtacha zaxirali oltin konlari (10-100 tonna oltin);*
- *katta zaxirali oltin konlari (100-1000 tonna oltin);*
- *unikal (noyob) zaxirali oltin konlari (bir necha 1000 tonna oltin).*

VIII. Konning geologik-sanoat turi bo'yicha tasniflashdan maqsad konni to'liq o'rganilganiga qadar, istalgan bosqichda uning sanoat uchun naqadar ahamiyatliliginini aniqlash, ko'p yillik geologiya-qidiruv ishlari tajribalaridan kelib chiqqan holda obyektlarga iloji boricha vaqtliroq baho berish uchun imkoniyat yaratiladi. Bu tasniflash umumlashtirilgan obraz bo'lib, birdaniga konning asosiy ko'pchilik xususiyatlarini baholash imkonini beradi.

Qidirish va ravzedka jarayonida matematikaning alohida roli.

Geologiya-qidiruv ishlari jarayonida olingan ma'lumotlar juda katta bazani hosil qiladi. Bu baza minglab sonlardan iborat bo'ladi. Olingan ma'lumotlarning har biri tekshirilayotgan obyektning ma'lum bir nuqtasiga tegishlidir. Bu nuqtalarning har biri aniq koordinatlarga egadir. Ana shu koordinatlarga ulardan olingan ma'lumotlar, ya'ni analiz natijalari «*bog'lab*» qo'yiladi. Ana shu «*sonlar massivi*» yoki «*ma'lumotlar bazasi*» zaxira hisoblash uchun ishlataladi. Bu hisob-kitoblar esa matematika qoidalari bo'yicha bajarilishi kerak. Aks holda hisoblangan zaxira noto'g'ri bo'ladi. Shu paytda asosiy bajariladigan matematik amallarga yuzani hisoblash, hajmni hisoblash, massani hisoblash, ko'plab alohida ko'rsatkichlar bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichlarni hisoblash kabi amallarni kiritish mumkin. Bu matematik amallarni

bajarishda albatta matematika qonunlarini to‘g‘ri qo‘llash talab etiladi. Geologik qonuniyatlar ehtimollik xarakteriga egadir. Bu qonuniyatlarni aniqlash geologik va geofizik uslublardan tashqari matematik asoslanishni ham talab etadi. Shuning uchun geologik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarni hisoblashda, ayniqsa ularning o‘rtacha miqdorlarini hisoblashda matematikaning «ehtimollar nazariyasi» qoidalarini qo‘llash talab etiladi.

1.3. Qidirish ishlarning bosqichlarga ajratilishi

Foydali qazilmalarni qidirish va razvedka qilish mantiqiy davomiylig ketma-ketligida amalga oshiriladi. Qidirishning maqsadi – foydali qazilma uyumlarini topish va ularga yaroqlilik jihatidan baho berishdir. Keyinchalik esa, konlarning iqtisodiy xususiyatlari o‘rganiladi. Bunda xomashyo sifati namunalar olish yo‘li bilan, zaxiralarni hisoblash esa yer ustni va yer osti tog‘ lahimlarini o‘tish hamda burg‘ilash ishlarini olib borish yordamida bajariladi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng geologiya-qidiruv ishlarini oqilona va tejamkorlik bilan olib borish maqsadida mazkur ishlarni bosqichma-bosqich bajarishning quyidagi ketma-ketligi qabul qilingan: 1) regional geologik tadqiqotlar; 2) 1:50000 (yoki 1:25000) mashtabdagi davlat geologik xaritalash ishlari; 3) qidirish ishlari; 4) baholash ishlari; 5) razvedka qilish ishlari; 6) qo‘srimcha razvedka qilish ishlari; 7) ekspluatatsion razvedka qilish ishlari (1-jadval).

1-jadval

Qattiq foydali qazilmalar uchun geologiya-qidiruv ishlarining bosqichlari

(O‘zbekiston Respublikasi Davgeolqo‘mi 1999- yil 3-sentyabrda tasdiqlagan «... uslubiy ko‘rsatmalar» bilan belgilangan)

| Bosqich nomi | Ishlarning maqsadi | Ishlar natijasi | Izohlar |
|--|---|--|---------|
| I bosqich | | | |
| O‘zbekiston Respublikasi hududini regional geologik o‘rganish. | Katta regionlarning geologik tuzilishini va shu doirada foydali qazilma vujudga kelishi qonunchiligini o‘rganish. | Davlat geologik xaritasi asosida foydali qazilma-larga qulay regional geologik holatlarni va ularni izlash mezoni hamda alomatlarini qabul qilish. | |

| <i>Bosqichning qismlari</i> | | | |
|--|---|--|--|
| A.Regional geologik-geofizik tadqiqotlar. M1:1000000 -1:500000. | Regionning geologik tuzilishini va foydali qazilmalar joylashish umumiy qonunchiligining muhim xususiyatlarini aniqlash uchun geologik-geofizik asosni tuzish. | Geologik, geofizik va bashorat xaritalar hamda geologik regionlarning tayanch chuqurligidagi qirqimlar. | Ma'lum vaqtida doimo, foydali qazilmalar to'g'risida ma'lumotlar yig'iliishi sababli xaritalarga o'zgartirish kiritish maqsadida bajariladi. |
| B.Regional geofizik, geotasvirlash gidro va muhandislik ishlari M 1:200000 (M 1:100000). | Istiqlolli geologik holatlarni aniqlash uchun, regionning geologik tuzilishini o'rGANISH va foydali qazilmalarni izlash mezoni hamda alomattarini asoslash. | Maxsus geologik xaritalar majmuasi: gravitatsion, magnit, radiometrik va h.k. Foydali qazilmalar xaritasini bashoratlangan maydon va strukturalarni ajratgan holda tuzish hamda ularning geologik-iqtisodiy ahamiyatini aniqlash. | Region geologik xaritalashda foydali qazilmalar mavjudligi aniqlansa, qidiruv ishlarini boshlanishiga shu holat asos bo'ladi. |
| II bosqich | | | |
| 1:50000 (1:25000) mashtabli geologik xaritalash. | Hudud tuzilishini katta masshitabda reja bo'yicha o'rganish hamda foydali qazilmalar joylashuviga qulay sharoitlarni yangilash maqsadida, oldin tasvirlangan maydonlarni qo'shimcha o'rganish. Foydali qazilma konlari mavjud bo'lgan va konchilik korxonalarini bor hududlarda ma'danli maydonlarni foydali qazilmalarning joylashish qonunlarini tushunish maqsadida o'rganish va istiqbolli hududlarning (yopiq) bashoratini baholash. | O'rGANILGAN hududlarning davlat geologik xaritasi, izlash ishlarini belgilash maqsadida foydali qazilmalar, bashoratli maydonlar ajratilgan, geologik xarita. Ular bo'yicha foydali qazilmalar bashoratli resurslarini "P ₂ " toifasi bo'yicha baholash va geologik-iqtisodiy ahamiyatini aniqlash. | Foydali qazilmalar mavjudligi aniqlanganda, geologik xaritalash yakunlanmasa ham, keyingi bosqichga o'tish ishlariga tayyorligi boshlanadi. |
| III bosqich | | | |
| Izlash ishlari. | Foydali qazilmalar konlarni topish va kelajakda o'rganish samarasini aniqlash. | Foydali qazilma konlарини топиш ва "P ₁ ", "P ₂ " тоифа бо'yicha bashoratli resurslarni baholash. | |

Bosqich qismlari

| | | | |
|--|--|---|---|
| A) Kelajakka mo'ljallangan maxsus ishlar. | Ma'lum geologik holatdagi foydali qazilmalar kompleksini aniqlash maqsadida belgilangan istiqbolli maydonlarda geokimyo, geofizik, shlix va h.k. tadqiqotlarini o'tkazish. | Ma'danning joylashuvi qonunlarini ko'rsatuvchi geokimyo, geofizik va b. xaritalar, qirqimlarni tuzish. Istiqbolli (perspektiv) maydonlarni ajratish va ularni P ₂ toifa bo'yicha baholash. Ajratilgan obyektgä geologik-iqtisodiy baho berish. | Salbiy natijalar mavjud bo'lsa hisobot tuziladi. Ijobiy natijada ikkinchi (B) qism ishlarini o'tkazishga loyihasi tuziladi. |
| B) Izlash ishlari. | Oldingi ishlar natijasida ajratilgan istiqbolli maydonlarda izlashni o'tkazish. | Foydali qazilma joylashuvining qonunlarini ko'rsatuvchi 1:25000 ÷ 1:1000 masshtabli geologik xaritalar va ulariga tegishli qirqimlar. | |

IV bosqich

| | | | |
|---|---|---|---|
| Baholash. | Aniqlangan foydali qazilma konlarini baholash va ularni razvedkaga tayyorlash. | Aniqlangan foydali qazilma konlarining sanoat uchun ahamiyati borligini tasdiqlash. Zaxiralarini "C ₂ ", "C ₁ " toifa bo'yicha ajratish va bashoratli resurslarni "P ₁ " toifaga muvofiq baholash. | Foydali qazilma borligini aniqlagan holda, tasvirlash va izlash bosqichlari dan so'ng baholash ishlari belgilanishi mumkin. |
| A) Foydali qazilma konlarini dastlabki baholash. | Foydali qazilmani aniqlash uchastkasida joylashuvi qonunchiligini musallashtirish va sanoat uchun ahamiyati borligini baholash. | Foydali qazilma konlarini mufassal baholash ishlarini o'tkazishga zaruriyat borligini hal qiluvchi texnik-iqtisodiy ma'lumotni tuzish. | Salbiy natijalar sababli va TIM asosida, obyektda dastlabki baholashdan so'ng ishlar to'xtatiladi hamda hisobot tuziladi. |
| B) Foydali qazilma konlarini mufassal baholash. | Foydali qazilma konlarining sanoat uchun ahamiyatini baholash. | "C ₂ " zaxiralarini birinchi navbatda o'zlashtirish uchastkalarida esa - "C ₁ " toifalar bo'yicha aniqlash va konni qidiruv ishlarini asoslash uchun texnika-iqtisodiy axborot tuzish. | TIA (texnik-iqtisodiy asoslash) natijasi ijobji bo'lgan holda, yaqin vaqtida foydali qazilma konlarini o'zlashtiruvchi tashkilot ishtirokida qidiruv bo'yicha qaror qabul qilinadi. Istisno tarzida o'zlashtirish ishlari uchun, keyingi bosqichni o'tkazmasdan qaror qabul qilinishi mumkin. |

V bosqich

| | | | |
|------------------|---|---|---|
| Razvedka qilish. | Konni yoki uning bir qismini sanoat tomonidan o'zlashtirishga tayyorlash. | Foydali qazilma konlari razvedkasiga bo'lgan talablariga muvofiq uning moddiy tarkibi, foydali qazilmaning texnologik xossasi, gidrogeologik, muhandislik-geologik, konchilik-geologik hamda tabiyi sharotlarni har tomonlama o'rganish. Zaxiralar razvedkasi "C ₁ "va "C ₂ ", I, II murakkabligi guruhiga tegishli konlarda-zaxiralar qismi "B" toifa bo'yicha o'tkaziladi; Foydali qazilma konlарини o'рганиш тоғ'рисида техник-иқтисадији хисобот тузилади, конни о'злаштириш лойиҳасини та'минлайдиган захиралар тоифалари хисобланади ва ular O'zbekiston Respublikasi Davlat zaxira komissiyasi (DZK) tomonidan tasdiqlanadi, bashorat resursini konning chetida va chuqurligida baholanaadi. | O'zlashtirish loyihasida razvedka kon lahimplari inobatga olinishi kerak. |
|------------------|---|---|---|

VI bosqich

| | | | |
|---|---|---|--|
| Razvedka ishlarini qo'shimcha olib borish zaruriyatি. | Foydali qazilmaning o'zlashtirilgan zaxiralarini qayta qo'shish yoki korxonaning xomashyo bazasini kengaytirish maqsadida konning chet va chuqur qismalarini qayta o'rganish (qo'shimcha razvedka ishlarini olib borish). | Qo'shimcha olib borilgan ishlar bo'yicha ma'lumotlarni birlashtirish. "C ₂ "va"C ₁ " toifali zahiralarini yuqori darajaga o'tkazish. Zarur holatda, foydali qazilmalar zaxirasini qayta hisoblash, DZKsida konditsiyalar TIX hamda zahiralarini qayta tasdiqlash. | O'zlashtirish ishlari olib borilayotgan foydali qazilma konlariда, oldin razvedka orqali hisoblangan zahiralar doirasida; shu ishlar olib borilmaydigani foydali qazilma konlariда esa boshqa korxonaga o'tkazilgan zahiralar chegarasida. |
|---|---|---|--|

VII bosqich

| | | | |
|--|--|--|--|
| Eksplutasion razvedka (tog'korxona o'zlashtirish ishlari olib borilayotgan holda razvedka qilish). | Foydali qazilma konlari zaxirinasini o'zlashtirishning to'laligi va sifat-liligini nazorat qilish hamda qazib olishni tezkor loyihalash maqsadida razvedka qilish davrida qazib olishga tayyorlangan foydali qazilma tanalari-ning sifati (miqdori), joylashuv holati va h.k. to'g'risidagi ma'lumotlarni aniqlab chiqish. | Qazib olishga tayyorlangan bloklar zaxirasinini tezkor hisoblab chiqish. Foydali qazilmalar hajmini qazib olishga tayyorlaydigan va tozalash lahimlarini aniqlashtiradigan materiallar. Konni to'la qazib olish nazoratiga asos bo'luchchi ma'lumotlar hamda foydali qazilmani yer ostida qoldirish va chayqalashtirish (miqdori kamayishi) ni aniqlash. | Konchilik otvod doirasida o'tkaziladi. |
|--|--|--|--|

Geologiya-qidiruv ishlari sohasidagi tadqiqotlarni boshqa tadqiqotlardan, shu jumladan laboratoriya tadqiqotlaridan farqlash zarur. Foydali qazilma konlarini topish, o'rganish va razvedka qilish uzoq davom etadigan jarayondir. Bu jarayon foydali qazilmalarni ilgarilama, dastlabki va mufassal qidirish bosqichlaridagi mezonlar va belgilarni aniqlashdan boshlanib, kondagi zaxiraning tugashi bilan yakunlanadi. Shunga qadar konni o'rganish va geologik-iqtisodiy baholash ishlari davom etaveradi (2-jadval). Bunday qarash mantiqsizday tuyuladi. Lekin «foydali qazilma koni» deganimiz aslida u haqdagi bizning axborotlar to'plami asosida tuzib olingan taassurotimizdir. Bu axborotlar to'plami anchagini cheklangandir. Kon to'g'risidagi to'liq bilimlarimiz faqatgina konni to'liq o'zlashtirganimizdan keyingina, ya'ni foydali qazilmaning hammasi qazib olingandan keyingina paydo bo'ladi.

Konni ochish uchun kerak bo'lgan cheklangan axborot to'plami kon haqidagi to'liq to'plamga nisbatan ancha kamdir.

2-jadvaldagagi qidiruv-razvedka ishlari narxlarining bir foizi 2000 dan 100000 AQSH dollarigacha o'zgarishi mumkin. Masalan, Serro Kolorado (Panama) konining mis-porfir ma'danlarini 1976-yildan boshlab olib borilgan qidiruv-razvedka ishlarining budgeti 20 million dollarini tashkil etgan. Razvedka ishlarining umumiyligi 15 yil va undan ortiq bo'lishi mumkin. Masalan, «Vayt Payn» (Michigan shtati, AQSH) mis koni 1929-yilda ochilib, uni o'zlashtirish 1955- yilda boshlangan (Peters, 1978).

2-jadval

Qidirish va razvedka qilish bosqichlarining davomiyligi va narxi bo'yicha misollar (M.Kujvant va M.Boxmer, 1986 bo'yicha)

| Bosqichlar | Natijalar | Bosqich narxi* | Davomiyligi |
|--|--|----------------|--------------------|
| Qidirish (umumiyligi, dastlabki, mufassal) | Ma'danli to'plamlarni topish, ma'dan namoyonlarini va konlarni ajratish, gipotetik zaxiralarni hisoblash (mufassal qidirish hollarida) | 2 | 1-20 yil |
| Qidiruv-razvedka bosqichi | Sanoatbop va sanoat uchun yaroqsiz konlarni ajratish, taxmin qilingan (C_2) zaxiralarni hisoblash | 3 | 3 oydan 3 yilgacha |

2-jadval davomi

| | | | |
|--|---|----|-----------------------|
| Dostlabki razvedka (ko'pincha avvalgi bosqich davomi sifatida) | Ishonchli taxmin qilingan (C ₁) zaxiralarni hisoblash | 4 | 6 oydan 3 yilgacha |
| Mutassal razvedka (ko'pincha qazib olishga tuyvorgarlik bilan bog'langan) | Ishonchli baholangan (B) zaxiralarni hisoblash | 6 | 2-5 yil |
| Komu o'zlashtirishga tuyvovlash jarayonida shaxta va boyitish fabrikasini qurish | Ishonchli aniqlangan (A) zaxiralarni hisoblash | 85 | 2-5 yil |
| Komu o'zlashtirishni boshlash jarayoni | Ishonchli aniqlangan (A) zaxiralarni hisoblash | | 1 - 6 oy |

* - Bosqich narxi umumiy xarajatlarning % i hisobida berilgan.

1.4. Qidirish va bashoratlashning asosiy obyektlari

Qidirish va bashoratlash obyektlari. Geologiya qidiruv ishlari turli masstabdagi obyektlarda olib boriladi. Bu obyektlarning barchasida ma'lum miqdordagi va muayyan sifatli foydali qazilma borligi asosiy belgidir. Bunday obyektlarga: foydali qazilma, minerallashgan nuqta, ma'dan namoyoni, foydali qazilma koni, ma'danli maydon, ma'danli provinsiya va boshqalar kiradi.

Foydali qazilma – hozirgi paytdagi iqtisodiy, texnik va texnologik nuqtayi nazardan xalq xo'jaligining biron sohasida ishlatishga urziydigan mineral modda.

Minerallashgan nuqta – o'lchamlari va sifati jihatdan sanoat talabiga javob bermaydigan foydali qazilmaning tabiiy to'plami.

Ma'dan namoyoni – faqat sifat jihatdan sanoat talablariga javob beradigan foydali qazilmaning tabiiy to'plami.

Foydali qazilma koni – foydali qazilmaning son va sifat jihatdan sanoat talablariga javob beradigan foydali qazilmaning tabiiy to'plami.

Ma'danli maydon – bir yoki bir nechta foydali qazilma koni yoki ma'dan namoyoni joylashgan hudud.

Ma'danli provinsiya – bir qancha ma'danli maydonlarni o'z ichiga oladigan hudud.

Bundan tashqari har bir qidirish obyekti ichida qidiriladigan va o'rganiladigan "obyekt ichidagi obyekt" lar – ya'ni "***foydali qazilma tanasi***" va "***ma'danlashgan zona***" nomlari bilan ataladigan obyektlarni

ham keltirib o'tish zarur. Bu mayda obyektlar mineralashgan nuqta, ma'dan namoyoni yoki foydali qazilma koni kabi obyektlarning hududida bitta, bir nechta yoki ko'plab miqdorda bo'lishi mumkin.

Foydali qazilma (yoki ma'dan) tanasi – konditsiya ko'rsatkichlari bo'yicha sanoatbop ma'danlar deb tan olinuvchi bir butunlikka ega bo'lган ma'dan uyumlari.

Ma'danli (yoki ma'danlashgan) zonalar – aniqlangan va bosharatlangan ma'dan tanalarini o'z ichiga olgan tarkibida ma'lum miqdordagi foydali minerallari bo'lган zonalar.

Odatda ma'danli zonalarning ichida ma'dan tanalari joylashgan bo'ladi. Demak, bitta kon hududida bitta yoki bir nechta ma'danli zona joylashadi. Ana shu har bir ma'danli zona ichida esa bitta yoki bir nechta ma'dan tanalari joylashgan bo'lishi mumkin.

Turli bosqichlarda qidiriladigan va bashoratlanadigan obyektlar turlicha bo'lishi mumkin. Boshlang'ich bosqichlardan boshlab yakunlovchi bosqichlargacha shartli ravishda bashoratlanadigan obyektlarning mashtabi kichiklashib boradi, chunki o'rganiladigan obyektlarning ham mashtablari kichiklashib boradi (3-jadval).

3-jadval

Turli bosqichlarda bashoratlanadigan obyektlar

| No | Geologiya-qidiruv ishlaringin bosqichlari | Asosan bashoratlanadigan obyektlar | Ba'zan bashoratlanadigan obyektlar |
|----|---|--|--|
| 1. | Regional geologik tadqiqotlar (1:100000 dan 1: 1000000000 gacha mashtablarda olib boriladi) | Ma'danli provinsiya Ma'danli maydon | Foydali qazilma koni Ma'dan namoyoni |
| 2. | Davlat geologik xaritalash ishlari (1:50000 yoki 1:25000 mashtablarda olib boriladi) | Ma'danli maydon Ma'dan namoyoni | Foydali qazilma koni |
| 3. | Qidirish ishlari (1:25000; 1:10000 yoki 1:5000 mashtablarda olib boriladi) | Foydali qazilma koni Ma'dan namoyoni | Ma'danli maydon Minerallashgan nuqta |
| 4. | Baholash ishlari (1:5000 dan 1:1000 gacha mashtablarda olib boriladi) | Ma'dan tanalari. Ma'danli zonalar | Foydali qazilma koni Ma'dan namoyoni |
| 5. | Razvedka ishlari | Ma'dan tanalarining GSPlari, Ma'dan tanalari | Ma'danli zonalar |
| 6. | Qo'shimcha razvedka ishlari | Ma'dan tanalarining GSPlari | Ma'dan tanalari Ma'danli zonalar |
| 7. | Ekspluatatsion razvedka ishlari | Ma'dan tanalarining GSPlari | Hisobga olinmagan yangi ma'dan tanalari |

Bashoratlash xaritalari. Qidirish mezonlari va belgilari asosida bushorat qilingan ma'danlar ko'rsatilagan xaritalar bashoratlash xaritalari deyiladi.

Ma'lumki, har qanday geologik xarita ma'lum miqdorda bushoratlovni o'z ichiga oladi. Bashoratlash xaritalari oddiy geologik xaritalardan shunisi bilan farq qiladiki, bunday xaritalarda hududning geologik tuzilishini ifodalovchi axborotlardan tashqari, hali aniqlanmagan yoki faqat qismangina kuzatilgan foydali qazilma obyektlari (minerallashgan nuqtalar, ma'dan tanalari, ma'danli zonalar, ma'dan namoyonlari yoki foydali qazilma konlari) bashoratlangan ko'rinishda maxsus shartli belgilar yordamida ifodalangan bo'ladi.

Bashoratlash xaritalari ko'pincha qidirish ishlarni bajarish uchun loyiha tuzish jarayonida, shu hududda ilgari bajarilgan barcha ishlarni ko'rib va tahlil qilib chiqish asosida tuziladi. Bu xaritada qidirish ishlarning maqsadini ifodalovchi "ishchi gipoteza"ning nimalarga asoslanganligi ko'rinish turadi va xarita qidirilishi rejalashtirilgan bashoratlangan obyektlarning grafik ifodasi bo'lib xizmat qiladi. Bunday xaritalar geologiya-qidiruv ishlarning har bir bosqichi oxirida, to'plangan materiallar asosida tuzilishi ham mumkin. Bundan tashqari, maxsus tematik (ilmiy tadqiqot) ishlari natijalari asosida ham deyarli har doim hududlarning bashoratli xaritalari tuziladi.

1.5. Foydali qazilma konlarini tasniflash tamoyillari

Geologik adabiyotlarda konlarning ko'plab tasniflarini uchratish mumkin. Har qanday tasnif shartli ravishda bajariladi. Lekin ularni odatda ikki guruhgaga biriktiriladi. Bular – genetik va sanoat ahamiyatiga ko'ra tasniflashdir.

Foydali qazilmalarning genetik klassifikatsiyasi ularning hosil bo'lish sharoitlariga qarab amalaga oshiriladi. Bu tasnifning eng yirik bo'limlari – genetik turlar. Bu turlar odatda, uchta guruhgaga birlashdiriladi – endogen, ekzogen va metamorfogen. Konlarning quyidagi genetik turlari ajratiladi:

Endogen konlar guruhi: – magmatik konlar;

- pegmatit konlar;
- karbonatit konlar;
- kontakt-metamorfik (skarn) konlari;

- pnevmatolit (albitit va greyzen) konlari;
- gidrotermal konlar;
- vulkanogen konlar.

Ekzogen konlar guruhi: – cho'kindi konlar;

- nurash zonasi (qoldiq) konlari;
- infiltratsion konlar.

Metamorfogen konlar guruhi: – metamorfik konlar;
– metamorflashgan konlar.

FQK larining sanoatbop turlari klassifikatsiyasi

Foydali qazilmalarning sanoat turlari odatda, uch guruhga bo'linadi. Bular quyidagilardir:

1)ma'danli qazilmalar (konlar) – turli xil metallarni olish uchun ishlatiladigan foydali qazilma;

2)noma'dan qazilmalar (konlar) – turli nometall elementlarni olish uchun ishlatiladigan foydali qazilmalar, shuningdek qurilish, keramik, abraziv va boshqa materiallar uchun xomashyo sifatida qo'llaniladigan tog' jinslari va minerallar;

3) yonuvchi qazilmalar – tabiiy yoki qayta ishlangan holda yoqilg'i yoki kimyoviy xomashyo sifatida ishlatiladigan qazilmalar.

Sanoatbop guruhlar o'z navbatida bir qancha sanoat turlariga bo'linadi. Bu genetik va sanoat turlari haqidagi ma'lumotlar «Foydali kazilmalarning genetik va sanoat turlari» fani doirasida talabalarga tushuntirilgan.

Foydali qazilma konlarining ko'pchilik genetik turlari orasida faqat bir qismigina o'chovlari va sifati bo'yicha sanoat ahamiyatiga egadir. Qolganlari esa foydali qazilma miqdori va uning sifati bo'yicha yetarlicha to'plam hosil qilmagan. Masalan, Krivoy Rog turiga mansub temirning metamorfik konlari eng mahsuldor konlar bo'lib, dunyodagi yaxshi sifatli temir zaxiralarining yarmidan ko'pini tashkil etadi. Aksincha, gidrotermal turga mansub ko'pchilik konlarda esa ma'danlar miqdori ko'p emas va bunday konlarda yirik konchilik korxonalarini tashkil etish iqtisodiy samara berolmaydi. Biron bir foydali qazilmaning dunyo bo'yicha qazib olinadigan umumiylaj hajmining bir foizini tashkil etuvchi kon turlari sanoatbop konlar deb yuritiladi. Umumlashtirilgan holda hisoblaganda cho'kindi va metamorfik yotqiziqlardagi zaxiralar boshqa turlarga nisbatan iqtisodiy samaraliroqdir.

Gidrotermal konlar orasida metasomatik jarayonlarda jinslarning qayta ishlanishidan kelib chiqqan uyumlar odatda kattaroq zaxiraga ega bo'ldi. Tomirsimon shakklardagi konlarniki esa kichikroq bo'ldi. Ekvogen qoldiq konlar ham katta ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Chunki birlamchi konlardagi foydali komponent tarqoq holda bo'lsa, qoldiqlar tarkibida uning miqdori ancha yuqori bo'lishi mumkin.

Shunday qilib, konning sanoatbop turga kiritilishi uning shakli, o'lchamlari, sifati va qayerda joylashganligi bilan aniqlanadi.

Quyida 4-dan 34-gacha jadvallarda zamonaviy tasniflar asosida turli foydali qazilmalarning sanoat turlari tavsiflangan.

Alohiba mamlakatlarning milliy iqtisodiyoti nuqtayi nazardan qaraganda, kon turlarining sanoatboplilik darajasi dunyo tasnidagi o'rnidan farq qilishi mumkin. Biron bir davlatda sanoat ahamiyatiga ega bo'lgan kon dunyo ishlab chiqarishida sezilarli o'rinni egallamagan bo'lishi mumkin. Konlarni kichik, o'rtacha, yirik va unikal guruhlarga ajratishda turli mamlakatlar o'z iqtisodiy imkoniyatlaridan kelib chiqib, turlicha chegaralarni belgilashi mumkin.

4-jadval

Temir konlarining sanoat turlari

| t/r | Kon turlari | Ma'danlar morfoloyigasi | Sanoatbop minerallar | metall miqdori, % | Kon misollari |
|-----|---------------------------------|---|----------------------------|-------------------|--|
| 1 | Metamorfik (temirli kvarsitlar) | Qatlamsimon | Gematit Magnetit | 50-60 | Krivoy Rog (Ukraina), Kursk (Rossiya), Leyk Superior (AQSH), Braziliya |
| 2 | Cho'kindi (oolit ma'danlar) | Qatlamsimon | Gematit . Siderit Shamozit | 23-40 | Kerch (Rossiya), Lotaringiya (Fransiya) |
| 3 | Skarn | Qatlamsimon va linzasimon | Magnetit Gematit | 30-40 | Gora magnitnaya (Rossiya), Ayron Springz (AQSH) |
| 4 | Magmatik | Linzasimon | Magnetit Gematit | 30-70 | Kiruna (Shvetsiya), Pea Raydj (AQSH) |
| 5 | Gidrotermal-metasomatik | Linzasimon, noto'g'ri shaklli, tomirsimon | Siderit | 30-40 | Ertsberg (Avstriya), Bilbao (Ispaniya), Siegerland (Germaniya) |

Aralashgan komponentlarning maksimal miqdori: S – 0,003%, P – 0,007-1,8%, As – 0,7%, Sn – 0,08%, Zn – 0,2%, Pb – 0,1%, Cr – 1%.

Mineral xomashyolarning sifatiga qo'yiladigan talablar, davrga qarab, barcha mamlakatlarda o'zgarib turadi. Bu talablar har bir kon uchun alohida hisoblab chiqiladi, chunki bu talablar bo'lg'usi kon korxonasingning kutilayotgan iqtisodiy ko'rsatkichlaridan kelib chiqadi. Buning uchun kon korxonasiда bajariladigan barcha ishlarning narxlari baholanib, olinadigan mahsulot tannarxi shu mamlakatdagi va dunyo bozoridagi narxlarga solishtiriladi va natijada konning iqtisodiy rentabelligi baholanadi.

5-jadval

Titan konlarining sanoat turlari

| t/r | Kon turlari | Ma'danlar morfologiyasi | Sanoatbop minerallar | metall miqdori, % | Kon misollari |
|-----|-----------------|--|----------------------|-------------------------------|--------------------------------|
| 1 | Sochilmalar | Allyuvial yotqiziqlardagi qatlamlar va linzalar | Ilmenit | 10-100 kg/t (mineral miqdori) | Kerala (Hindiston) |
| 2 | Kechki magmatik | Asos, o'taasos jinslar va anortozitlardagi boyigan qatlamlar va linzalar | Ilmenit Magnetit | 10 – 50 % TiO ₂ | Tanzania, Allard Leyk (Kanada) |
| 3 | Metamorfik | Amfibolitlar va boshqa metamorfik jinslardagi boyigan zonalar | Ilmenit Rutil | | Shimoliy Karolina (AQSH) |

6- jadval

Marganes konlarining sanoat turlari

| t/r | Kon turlari | Ma'danlar morfologiyasi | Sanoatbop minerallar | metall miqdori, % | Kon misollari |
|-----|---|---|---|----------------------------|---|
| 1 | Qoldiq konlar (dunyoda qazib olinganning 70%si) | Marganesli jinslar va kambag'al konlarning qoplama jinslari | Psilomelan Piroyuzit Manganit | boyitil-gandan so'ng 40-50 | Hindiston, Nsuta (Gana), Braziliya |
| 2 | Cho'kindi konlar | Qatlamsimon va linzasimon | piroyuzit, manganit, rodoroxozit, manganokalsit, oligonit | 15-40 | Chiatura (Gruziya), Nikopol (Ukraina), Imini (Marokash) |
| 3 | Vulkanogen-cho'kindi | Qatlamsimon | Gausmanit, rodoroxozit | 10-50 | Koast Reyndj (AQSH) |
| 4 | Gidrotermal | Tomirsimon | Rodoxozit, Piroyuzit | 20-50 | Byutti (AQSH) |
| 5 | Metamorfik | Qatlamsimon | Braunit, Gausmanit | 20-50 | Postmasburg (JAR) |

Kimyo sanoati uchun xomashyodagi aralashgan komponentlarning maksimal miqdori: Fe – 4%, CaO – 2-3 %, Co, Ni, As – sezilarsiz miqdorda, CuO – 2%.

7- jadval

Xrom konlarining sanoat turlari

| t/r | Kon turlari | Ma'danlar morfologiysi | Sanoatbop minerallar | Metall miqdori, % | Kon misollari |
|-----|-------------|---|----------------------|-------------------|---|
| 1 | Magmatik | Ultrabajitlar va serpentinitlardagi boyigan qatlamlar, linzalar va tomirlar | Xromit | 10-50 | Bushveld (JAR), Greet Dayke (Zimbabwe), Ural (Rossiya), Guleman (Turkiya) |

8- jadval

Nikel konlarining sanoat turlari

| t/r | Kon turlari | Ma'danlar morfologiysi | Sanoatbop minerallar | Metall miqdori, % | Kon misollari |
|-----|---------------------|--|-------------------------------|------------------------------------|--|
| 1 | Likvatsion magmatik | Asos va o'taasos jinslardagi boyigan qatlamlar, linzalar va massiv ma'danlar | Pentlandit Xalkopiri Pirrotin | 1,3 – 4,6 (0,26 boyigan jinslarda) | Sadberi, Tompson (Kanada) Pechenga, Norilsk (Rossiya) |
| 2 | Qoldiq konlar | Ultrabajitlar va serpentinitlardagi qoplama jinslari | Garnierit, nepuit | 1,4 – 4,0 | Xalilovo (Rossiya), Yangi Kaledoniya, Kuba, Braziliya, Sklari (Polsha) |

Foydali qo'shimcha elementlar: Cu, Co, Pt, Pd, Rh, Au, Se; bir oz miqdorda: Pb, Zn, As.

9- jadval

Kobalt konlarining sanoat turlari

| t/r | Kon turlari | Namoyon bo'lishi | Sanoatbop minerallar | Metall miqdori, % | Kon misollari |
|-----|---|--|--------------------------------|--|--|
| 1 | Gidrotermal Ni-Co-Bi-Ag-As va Pb-Zn formatsiyalar | Boshqa metallarni qazib olishda kobalt odatda qo'shimcha mahsulot sifatida olinadi | Linneit, kobaltin, shmaltin | 0,1 – 0,3; to'liq o'zlashtiriladigan ma'danlarda | Xovuaksi (Rossiya), Kobalt (Kanada), Yachimov (Chexiya), Bou Azzer (Marokash), Birma |
| 2 | Misli qumtoshlari | | Geterogenit | 0,06-0,08 | Zair |
| 3 | Likvatsion magmatik Cu-Ni konlari | | Pentlandit, pirrotin, kobaltin | | Sadberi (Kanada) |

10- jadval

Volfram konlarining sanoat turlari

| t/r | Kon turlari | Ma'danlar morfologiysi | Sanoatbop minerallar | Metall miqdori, % | Kon misollari |
|-----|----------------------|--|----------------------|--------------------------------|--|
| 1 | Skarn | Granitoidlar va karbonatlar kontaktidagi qatlamlar va tomirlar | Sheelit | 0,3 – 6,0 WO ₃ | Sang Dong (Koreya), Ingichka (O'zbekiston), AQSH, Meksika, Braziliya |
| 2 | Kvarsli gidro-termal | Granitoidlar kontaktidagi tomirlar | Volframit | 0,4 – 4,0 WO ₃ | Birma, Xitoy, Djida (Rossiya), Sinovek (Chexiya) |
| 3 | Sochil-ma konlar | Elyuvial-kallyuvial qoplamlar, allyuvial yotqiziqlar | Volframit | Kamida 0,01 WO ₃ | Xitoy, Djida (Rossiya) |

Aralashgan komponentlarning maksimal miqdori: P – 0,03-0,2%, S – 0,3-3,0%, As – 0,04-0,2%, Sn – 0,08-1,5%, Cu – 0,1-0,22%.

11- jadval

Molibden konlarining sanoat turlari

| t/r | Kon turlari | Ma'danlar morfologiysi | Sanoatbop minerallar | Metall miqdori, % | Kon misollari |
|-----|--------------|--|----------------------|---|---|
| 1 | Gidro-termal | Kichik intruziyalar-dagi shtokverklar (kvars, molibdenit va/yoki xalkopirit) | Molibdenit | 0,1 – 0,4; boshqa metallarga qo'shimcha sifatida 0,005 – 0,01 | Klaysmaks, (AQSH), Djida, Zabaykale (Rossiya) |
| 2 | Skarn | Granitoidlar va ohak-toshlar kontaktidagi qatlamsimon va tomirsimon jismlar | Molibdenit | 0,1 – 1,0 | Azegour (Marokash), Tirnauz (Rossiya) |
| 3 | Mis-porfir | Intruzivlardagi xol-xol va mayda tomirsimon ma'danlar | Molibdenit | 0,003 – 0,05 | Mis konlarining 1-turiga qaralsin |

Konsentratlardagi aralashgan komponentlarning maksimal miqdori (47—50 % Mo): Cu – 0,5-2,0%; P – 0,07-0,15%; As – 0,07%; Sn – 0,07%; kvars – 5-9%.

12- jadval**Vanadiy konlarining sanoat turlari**

| t/r | Kon turlari | Ma'danlar morfologiysi | Sanoatbop minerallar | V ₂ O ₅ miqdori, % | Kon misollari |
|-----|--------------------------|---|--|--|---|
| 1 | Kontakt-metamorfik | Asfaltitlardagi tomirlar | Patronit, Ca-vanadatlari | 0,7 | Minas Regres (Peru) bu yagona kon |
| 2 | Polimetall (gidrotermal) | V odatda Cu, Pb, Zn, Fe, Ti olishda va neftni qayta ishlashda qo'shimcha mahsulot | Vanadinit, disklozit (polimetall konlarining oksidlanish zonasida) | 1 – 3 | Broken Xill (Avstralija), Tsumeb (Namibiya), Janubiy Angola |
| 3 | Kechki magmatik | | Titanomagnetit | 0,1 – 0,4 | Shvedsiya, Xindiston |
| 4 | Infiltratsion | Xol-xol teksturali qatlamlar | Karnotit, U mineralari | 1 – 5 | Kolorado Platosi (AQSH) |

13- jadval**Mis konlarining sanoat turlari**

| t/r | Kon turlari | Ma'danlar morfologiysi | Sanoatbop minerallar | Metall miqdori, % | Kon misollari |
|-----|--|--|--------------------------------|-------------------|--|
| 1 | Mis-porfirli | Intruzivlardagi xol-xol va mayda tomirsimon ma'danlar | Xalkopirit, bornit, molibdenit | 0,3 – 2 | Bingxem, Elay(AQSH), Kaunrad (Qozog'iston), El Teniente, Chukvikamata (Chili), Medet (Bolgariya), Qalmoqir (O'zbekiston) |
| 2 | Misli qumtoshlar, mansfeld slaneslari va konglomeratlari | Xol-xol va mayda tomirli qatlamlar | Bornit, xalkopirit | 0,6 – 4 | Zambiya, Shaba (Zair), Jezqazg'an (Qozog'iston), Udokan (Rossiya) Mansfeld (Germaniya), Vayt Payn (AQSH), Lubin-Polkovich (Polsha) |
| 3 | Vulkano-magmatik | Shtokverklar, massiv qatlamlar | Piritta tarqalgan xalkopirit | 0,6 – 4 | Rio Tinto (Ispaniya), Ural (Rossiya), Kanada, Kuroko (Yaponiya) |
| 4 | Vulkanogen -cho'kindi | Stratiform | Xalkopirit, pirit, sfalerit | 0,6 – 4 | Besshi, Abukuma, (Yaponiya) |
| 5 | Gidrotermal | Tomirsimon | Mis sulfidlari | 0,6 – 4 | Byutti (AQSH), Bor (Serbiya) |
| 6 | Skarn | Granitoidlar va ohaktoshlar kontaktidagi shtokverklar, tomirlar va qatlamlar | Xalkopirit | 2 – 8 | Bisbi (AQSH), Minusinsk xududi (Rossiya) |

Qo'rg'oshin va rux konlarining sanoat turlari

| t/r | Kon turlari | Ma'danlar morfologiysi | Sanoatbop minerallar | Metall miqdori, % | Kon misollari |
|-----|-----------------------|--|---------------------------------|------------------------------|---|
| 1 | Stratiform-metamorfik | Metamorfik jinslardagi stratiform qatlamlar va linzalar | Galenit, sfalerit, (xalkopirit) | 6 – 12 (Pb) 5 – 12 (Zn) | Sullivan (Kanada), Broken Xill (Avstraliya) |
| 2 | Skarn | Ohaktoshlarda yoki ularning vulkan jinslari bilan kontaktidagi tomirlar va uyumlar | Galenit, sfalerit, (xalkopirit) | 2,5 – 20 (Pb) 5 – 15 (Zn) | Tetyuxe (Rossiya), Oltin Topkan (Tojikiston), Santa Eulalia (Meksika), Xanover (AQSH) |
| 3 | Teletermal-xol-xol | Ohaktoshlarda gi xol-xol va linzasimon tanalar | Galenit, sfalerit, | 3 – 5 (Pb) 3 – 12 (Zn) | Payn Point (Kanada), Mississipi Volley(AQSH), Mirgalimsay (Qozog'is-ton), Upper Sileziya (Polsha) |
| 4 | Gidrotermal | Polimetall tomirlari | Galenit, sfalerit, (xalkopirit) | 5 – 20 (Pb) 12 – 25 (Zn) | Sadon (Rossiya), Frayberg (Germaniya), Sardiniya, Prshibram (Chexiya), Soeur Dalen (AQSH) |
| 5 | Gidrotermal | Vulkanogen jinslardagi sulfidli yoki kvars-karbonatli Pb-Zn ma'danli qatlamlar va linzalar | Galenit, sfalerit, (pirit) | 2 – 25 (Pb) 3 – 12 (Zn) | Altay, Salair (Rossiya). Bavdvin (Birma). Leadvil, Tintik (AQSH) |

Qo'shimcha elementlar: Ag, Au, Cu, bi, As, Sn, Cd, Ga, Ge, Mo, Co, Tl. Qo'rg'oshin konsentratidagi aralashgan komponentlarning maksimal miqdori: Cu – 2-4%, Zn – 8-12%, Fe – 25% gacha; rux konsentratida Cu – 1-1,5%, Fe – 8-9%, Co – foizning bir necha o'ndan bir qismi.

15- jadval

Qalayi konlarining sanoat turlari

| t/r | Kon turlari | Ma'danlar morfologiysi | Sanoatbop minerallar | Metall miqdori, % | Kon misollari |
|-----|--------------|--|----------------------|---|--|
| 1 | Sochilma | Kassiteritli ellyuvial, kallyuvial, allyuvial va litoral zona yotqiziqlari | Kassiterit | 0,05 – 0,8 Sn; (qalin qatlamlarda minimal 0,015; yupqa qatlamlarda 0,03) | Malayziya, Indoneziya, Zair, Nigeriya, Rossiya |
| 2 | Gidro-termal | Sulfidli va xloritli yoki turmalinli tomirlar; polimetalli tomirlar | Kassiterit | 1 – 5 | Oruro (Boliviya) |
| 3 | Greyzen | Granitoidlar va ularning kontaktlaridagi tomirlar va shtokverklar | Kassiterit | Tomirlarda 1-4; Shtokverklarda 0,3-1 (minimal miqdor 0,13 – 0,2) | Xitoy, Komvol (Angliya), Altenberg (Germaniya), Zair, Indoneziya, Sinovek (Chexiya) |
| 4 | Pegmatit | Tomirlar | Kassiterit | 0,2 – 5 Sn + W | Manono (Zair), Kamativi (Zimbabwe) |

Kontsentratdagi aralashgan komponentlarning maksimal miqdori: Pb – 0,5%; WO₃ – 5%.

16- jadval

Simob konlarining sanoat turlari

| t/r | Kon turlari | Ma'danlar morfologiysi | Sanoatbop minerallar | Metall miqdori, % | Kon misollari |
|-----|-----------------------|---|----------------------|-------------------|--|
| 1 | Vulkanogen-cho'kindi | Cho'kindi jinslardagi qatlam, linza va tomirlar | Kinovar | 0,2 – 8 | Almaden (Ispaniya), Monte Amiata (Italiya) |
| 2 | Vulkanogen-metamorfik | Linzalar, uyalar va minerallashgan brekchiyalar | Kinovar | | Nyu Almaden (AQSH) |
| 3 | Gidrotermal | Tomirlar | Shvatsit | 0,2 | Rudnyani (Chexiya) |

Surma konlarining sanoat turlari

| t/r | Kon turlari | Ma'danlar morfologiysi | Sanoatbop minerallar | Metall miqdori, % | Kon misollari |
|-----|-------------|--|----------------------|------------------------------|--|
| 1 | Teletermal | Ohaktosh va qumtoshlardagi massiv va xol-xol ma'dan uyumlari | Antimonit | 5 – 7 (minimal miqdor 2 – 3) | Si-Kchuang-Shan (Xitoy), Qadamjoy (Qirg'iziston) |
| 2 | Gidrotermal | Kvars tomirlari, ayniqsa ohaktoshlarda | Antimonit | 10 – 25 | Boliviya, Meksika, Jazoir, Antimoni King (AQSH) |

Aralashgan komponentlarning maksimal miqdori: As – 0,25%, Cu – 0,03%, Pb – 0,08%.

Vismut konlarining sanoat turlari

| t/r | Kon turlari | Ma'danlar morfologiysi | Sanoatbop minerallar | Metall miqdori, % | Kon misollari |
|-----|--|--|----------------------|---------------------|---|
| 1 | Gidrotermal Bi-Ni-Co-Ag-U formatsiyasi | Tomirlar (boshqa metallarni qazib olishda Bi odatda qo'shimcha mahsulot sifatida olinadi, jumladan Cu, Pb-Zn, Sn va W ma'danlaridan) | Vismutin | Minimal miqdori 0,3 | Krasne gori (Chexiya), Torre Kimpos (Ispaniya), San Gregorio (Peru) |

Alyuminiy konlarining sanoat turlari

| t/r | Kon turlari | Ma'danlar morfologiysi | Sanoatbop minerallar | Metall miqdori, % | Kon misollari |
|-----|---------------|---|----------------------|---|---|
| 1 | Qoldiq konlar | Alyuminiyli nurash po'sti yotqiziqlari va uyumlari (platformalar yuzasida) | Gidrargillit | Al_2O_3 minimal miqdori – 45; SiO_2 maksimal miqdori – 12-15; $\text{Al}_2\text{O}_3:\text{SiO}_2 = > 3$ | Yamayka, Gviana, Surinam, Gvineya, Gana, Hindiston Arkanzas (AQSH), |
| 2 | Cho'kindi | Karstlangan ohaktoshlar yuzasidagi chuqurlarni to'ldiruvchi uyumlar (haqiqiy boksitlar) | Byomit, Diaspor | | Fransiya, Vengriya, Ruminiya, Jugoslaviya, |
| 3 | Cho'kindi | Nostabil platformalarda effuzivlardagi kulrang cho'kindilarning linzalari va qatlamlari | Gidrargillit Byomit | | Xitoy, Tixvinskoe, Krasnaya shapochka (Rossiya) |

20- jadval

Berillyy va litiy konlarining sanoat turlari

| t/r | Kon turlari | Ma`danlar morfologiyasi | Sanoatbop minerallar | Metall miqdori, % | Kon misollari |
|-----|--------------------------|--|----------------------|---|---|
| 1 | Granit pegmatitlari | Pegmatitlardagi kristallar va ularning agregatlari | Berill Spodumen | 0,1 Be (kompleks ma`danlarda 0,02Be), 0,7-1,0 Li ₂ O | Braziliya, Mozambik, Argentina |
| 2 | Kvarsli greyzen zonalari | Nordon granitlardagi tomirlar | Berill Spodumen | | Hindiston |
| 3 | Skarn | Kontakt zonalari | Gelvin | | Ayron Mets (AQSH) |
| 4 | Vulkanogen | Tuf qatlamlari | Bertrandit | | Akvachayl Mets (Meksika), Spor Mets (AQSH) |
| 5 | Greyzen | Mayda tomirchalar | Sinvaldit | | Sinovck (Chexiya) |
| 6 | Cho`kindi va namakoblar | Ko`llarning cho`kindilari va namakopları | | | Sialis Leyk (AQSH) |

21- jadval

Magniy konlarining sanoat turlari

| t/r | Kon turlari | Ma`danlar morfologiyasi | Sanoatbop minerallar | Ishlatilishi, sifati | Kon misollari |
|-----|--|----------------------------|-----------------------------|---|---|
| 1 | Karbonatlarda-gi gidrotermal-metasomatik | Qatlam va linzalar | Magnezit Dolomit | O`tga chidamli g`isht uchun. minimal 43 % MgO (CaO maksimal 4,5%); Mg olish uchun, kuydirilgandan so`ng minimal | Stiria (Avstriya), Satka (Rossiya), Slovakiya |
| 2 | Serpentinit-lardagi hidrotermal | Tomirlar | Amorf magnezit | | Santa Klara (AQSH), Eubola (Gretsiya) |
| 3 | Serpentinit-lardagi infiltratsion | Tomirlar, tutamlar | Amorf tur-roqsimon magnezit | | Xalilovo (Rossiya) |
| 4 | Cho`kindi | Qatlamlar | Amorf magnezit | 87% MgO (CaO maksimal 1.8%; R ₂ O ₃ - 2%); Sement uchun, kuydirilgandan so`ng minimal 75% MgO | Manchjuriya (Xitoy) |
| 5 | Dengiz suvi | | | | Friport (AQSH), Qrim (Rossiya) |
| 6 | Evaporitlar | Tuz konlari-dagi qatlamlar | Karnallit | | Germaniya, Ural (Rossiya), Alseyk (Fransiya) |

22- jadval

Oltin konlarining sanoat turlari

| t/r | Kon turlari | Ma'danlar morfoloyigasi | Sanoatbop minerallar | Metall miqdori, g/t | Kon misollari |
|-----|----------------------------------|---|---|---|---|
| 1 | Metamorf-lashgan sochilma konlar | Kembriygacha davr konglomeratlarning segmentida tarqalgan sochilmalar | Sof tug'ma oltin | 4 – 12 | Vitvatersrand (JAR), Tarkva (Gana), Kanada, Braziliya |
| 2 | Gidrotermal | Kvarsli tomirlar, shtokverklar va tomirlangan zonalar | Sof tug'ma oltin | 4 – 12 (ba'zi konlarda minimal 1 – 2) | Muruntau (O'zbekiston), Ural, Sibir (Rossiya), Mazer Lod (AQSH), Zair |
| 3 | Vulkanogen-gidrotermal | Tomirlar | Sof tug'ma oltin, Au va Ag telluridlari | 6-30 | Ruminiya, Meksika, Indoneziya, Kripl Krik (AQSH), Kalgurli (Avstraliya), Ko'chbuloq (O'zbekiston) |
| 4 | Sochilma konlar | Oltinli ellyuvial, kallyuvial, allyuvial va litoral zona yotqiziglari | Sof tug'ma oltin | 50 mg/m ³ dan bir necha g/m ³ gacha | Lena, Kolima, Zabaykalye (Rossiya), Alyaska (AQSH), Avstraliya |

Aralashgan komponentlarning maksimal miqdori: Cu – 0,1%, Zn – 0,05%, As, Sb, ko'mirsimon modda.

23- jadval

Kumush konlarining sanoat turlari

| t/r | Kon turlari | Ma'danlar morfoloyigasi | Sanoatbop minerallar | Metall miqdori | Kon misollari |
|-----|---|-----------------------------|---|----------------|---|
| 1 | a) gidrotermal Pb-Zn ma'danlari | Tomirlar va linzalar | Pb va Zn olishda qo'shimcha mahsulot | 100 g/t | Kour Dalen (AQSH) |
| | b) gidrotermal Cu ma'danlari | | Cu olishda qo'shimcha maxsulot | | Germaniya, Polsha |
| | s) gidrotermal Ag-Bi-Co-Ni-U ma'danlari | | Sof tug'ma Ag va Bi; Co va Ni arsenidlari | | Erzgebirg (Germaniya – Chexiya) |
| | d)gidrotermal-vulkanogen Au ma'danlari | | Au olishda qo'shimcha maxsulot | | Kripl Krik (AQSH) |
| 2 | Vulkanogen-gidrotermal | Tomirlar va tomirlu zonalar | Argentit, prustit, pirargirit | | Pachuka, El Oro (Meksika). Komstok Lod (AQSH) |

24- jadval

Platina guruhi metallari konlarining sanoat turlari

| t/r | Kon turlari | Ma'danlar morfologiysi | Sanoatbop minerallar | Metall miqdori | Kon misollari |
|-----|---|--|--|---------------------------------|---|
| 1 | Likvatsion magmatik (dunyoda qazib olinganning 70%ni) | Ultrabazit jinslardagi boyigan qatlamlar, linzalar va massiv ma'danlar | Sulfidlardagi sof tug'ma metallar va ularning qotishmalari | 1,5 g/t sulfid ma'danlarda | Sadberi (Kanada), Norilsk (Rossiya), Burundi |
| 2 | Kechki magmatik | Ultrabazit jinslardagi shtok, tomir va uyumlar | Xromshpinelidlar va gortonolitlardagi sof tug'ma metallar va ularning qotishmalari | 3 – 15 g/t (Bushveld konida) | Bushveld, Merensk Rif (JAR), Ural (Rossiya) |
| 3 | Sochilma konlar | Allyuvial yotqiziqlar | Sof tug'ma metallar va ularning qotishmalari | bir necha 100 mg/m ³ | Ural (Rossiya), Choko (Kolumbiya), Gudnyus Bey (AQSH) |

25- jadval

Uran va toriy konlarining sanoat turlari

| t/r | Kon turlari | Ma'danlar morfologiysi | Sanoatbop minerallar | U ₃ O ₈ miq-dori, % | Kon misollari |
|-----|----------------------------------|--|--|---|--|
| 1 | Metamorflash-gan sochilma konlar | Kvarsitlardagi konglomerat uyumlari | Uraninit va boshqalar | 0,02 – 0,15 | Vitvatersrand (JAR), Blind River (Kanada) |
| 2 | Infiltratsion | Arkoz qumtoshlar va konglomeratlardagi qatlamlar va linzalar | Uran vanadatlari, uraninit, U-Th gellari, sirkon | 0,1 – 1 | Shaba (Zair), Gabon, Plato Kolorado (AQSH), Germaniya, Chexiya, Uchquduq (O'zbekiston) |
| 3 | Gidrotermal | Bi-Ni-Co-Ag-U; Pb-Zn-U; U-Cu; U-Mo formatsiyalarining kvars, kvars-karbonat, flyuorit-barit tomirlari va tomirliz zonalari | Uraninit | 0,1 – 2 | Eldorado, Greyt Bir Leyk (Kanada), Yaximov (Chexiya) |

25- jadvalning davomi

| | | | | | |
|---|-------------------------|----------------------------------|----------------------------|-------------|---|
| 4 | Metasomatik pegmatitlar | Kvars o'zagi chetlaridagi uyalar | Uraninit | 0,1 – 1 | Bankroft (Kanada), Hindiston, Argentina |
| 5 | Magmatik | Luyavrit massivlari | Stenstrupin | 0,01 – 0,04 | Illimaussag (Grenlandiya) |
| 6 | Skarn | Linzalar | Uraninit | | Meri Ketlin (Avstraliya) |
| 7 | Sochilma konlar | Dengiz plyajlaridagi yotqiziqlar | Monatsit (U, Th, Ce bilan) | 0,2 – 0,4 | Kerala (Hindiston), Braziliya, Avstraliya |

Istiqboldagi sanoat turlari: fosfatlar (masalan AQSHda ular 0,01% U_3O_8 saqlaydi, bir yillik ishlab chiqarish 1 mln. tonna, juda katta zaxira); yonuvchi slanes va ko'mir (masalan, Dakota, AQSH), achchiqtoshlar (Shvedsiya).

26- jadval

Tantal va niobiy konlarining sanoat turlari

| t/r | Kon turlari | Ma'danlar morfologiysi | Sanoatbop minerallar | Metall miqdori | Kon misollari |
|-----|---|--|------------------------------|---|--|
| 1 | Granit pegmatit | Pegmatit tomirlari va linzalaridagi xol-xol zarralar | Tantalit, kolumbit | | Bernik Leyk (Kanada), Ankole (Uganda) |
| 2 | Karbonatit (Nb_2O_5 ning eng katta rezervlari) | Ultraasos ishqorli jinslardagi noto'g'ri shaklli ma'danlar | Piroxlor | 0,2 – 2,5% Ta_2O_5 | Norvegiya, Oka (Kanada), Araksa (Braziliya), Rossiya |
| 3 | Kechki magmatik | a) Qatlamlashgan ishqorli intruzivlardagi qatlamchalar | Loparit | 0,1 – 0,4% Nb_2O_5 | Xibin tog'lari (Rossiya), Xitoy |
| | | b) albitlashgan leykokrat granitlar va albititlar | Mikrolit | | |
| 4 | Sochilma konlar | Asosan allyuviy yotqiziqlardagi uyumlar | Tantalit, kolumbit, piroxlor | 10 g/m ³ dan bir necha kg/m ³ gacha Ta_2O_5 | Jos Platosi (Nigeriya), Kivu (Zair) |

Kontsentratdagagi aralashgan komponentlarning maksimal miqdori (10% Nb_2O_5): P – 0,05%, Si – 1,5%, Sn, Zr, Ti.

27- jadval

Sirkoniy va siyrak yer elementlari konlarining sanoat turlari

| t/r | Kon turlari | Ma'danlar morfoloyigasi | Sanoatbop minerallar | Metall miqdori | Kon misollari |
|---|--------------|--|--|----------------------|--|
| 1 | Sochilma kon | Qirg'oq bo'yи (litoral zona) yotqiziqlaridagi uyumlar | Sirkon (baddeleit) | 0,5 – 10% minerallar | Hindiston, Avstraliya, AQSH, Braziliya |
| 2 | Qoldiq kon | Nefelinli sienitlarning nurash po'sti (evdialitli) | Baddeleit | | Faqat Braziliyada |
| Siyrak yer elementlari (Y, La, Ce, Pr, Nd, Sm, Eu, Gd, Tb, Dy, Ho, Er, Tm, Yb, Lu) konlari | | | | | |
| 1 | Sochilma kon | Qirg'oq bo'yи (litoral zona) va allyuvial yotqiziqlaridagi uyumlar | Monatsit, ksenotim (Sn, W, Au, Zr mineralari bor joylarda) | | Avstraliya |

28- jadval

Kamyob elementlar konlarining sanoat turlari

| Element | Kon turlari | Element manbai | Miqdori, % | Kon misollari |
|--------------|------------------------------------|---|--|---|
| Seziy | 1.Li-pegmatitlar 2. Evaporitlar | Pollusit Karnallit | Pegmatitlarda 1% Cs ₂ O | MDX, Namibiya, AQSH, Shvedsiya |
| Germa- my | 1. Gidrotermal | Sfalerit, Ge li sulfidlar | Eng ko'p sfaleritda (0,1-0,3% Ge); 5 - 7 g/t ma'danda 5-7 g/t ko'mirda | Tsumeb (Namibiya), Kipushi, Shaba (Zair) |
| | 2.Kaustobiolitlar | | | |
| Tallyy | Gidrotermal | Xalkopirit, sfalerit, galenit, markazit, Tl li Hg-Sb ma'danlari | 0,0n % sulfidlarda | Alsar (Yugoslaviya) |
| Skandiy | 1. Greyzenlar | Sn va W ma'dan-lari konzentratlari | 0,1 % Sc ₂ O | Erzgebirg (Chexiya), Madagaskar |
| | 2. Pegmatitlar | Tortveytit | | |
| Kadmiy | Gidrotermal | Sfalerit | Sfaleritda 5 % gacha Cd (AQSH), minimal 0,002 % gacha kompleks ma'danlarda | Kipushi (Zair) |
| Selen | 1. Gidrotermal 2. Gidrotermal | Sulfidlarda izlari, blokit | 0,00n – 0,0n% bir necha 10% Se | Faqat Boliviyyada |
| Tellur | Gidrotermal | Cu, Pb, Zn va Ni sulfidlardagi izlari | 0,00n – 0,0n% Te | Bingxem (AQSH) |

28- jadvalning davomi

| | | | | |
|------------------|-----------------------------------|---|--|-------------------------------------|
| Rubidiy va Seziy | 1. Pegmatitlar 2. Evaporitlar | Amazonit, lepidolit, pollusit, Karnallit (silvit) | 3,12% gacha Rb ₂ O 1,73% gacha Rb 30 % Cs ₂ O Kon bo'yicha 0,00n-0,04% Rb | Namibiya, MDX, AQSH, Shvedsiya |
| Galliy | 1. Gidrotermal 2.Qoldiq konlar | Cu, Pb—Zn ma'danlari Boksitlar | 0,00n – 0,0n% Ga | AQSH, Germaniya, Italiya |
| Indiy | Gidrotermal | Polimetal ma'danlarni qayta ishlash, ayniqsa sfaleritli ma'danlarni | 0,002% In sulfidli ma'danlarda | AQSH, MDX. |
| Gafniy | Dengiz sochilmalari | Sirkon (Hf:Zr=1:80 dan 1:6 gacha) | Eng ko'pi ba'zi bir baydelleitlarda | AQSH |
| Reniy | Gidrotermal | Molibdenit konsentrati | 0,05 – 100 g/t | Bingxem(AQSH), Mansfeld (Germaniya) |

29- jadval

Metallurgiya uchun minerallar va jinslar konollarining sanoat turlari (magnezit 21-jadvalda)

| Sanoatbop mineral yoki tog' jinsi | Kon turi | Ma'danlar morfologiysi | Ishtilishi, sifati (aralashmalari) | Boshqa sohada ishlatilishi (aralashmalari) | Kon misollari |
|-----------------------------------|------------------------|--|--|---|--|
| Flyuorit | Gidrotermal | Tomirlar va metasomatik linzalar | Flyus uchun – minimal 85 % CaF ₂ (maksimal 5 % SiO ₂ ; BaSO ₄) | Kimyo sanoati uchun – minimal 98 % CaF ₂ (maksimal CaO – 1%; SiO ₂ – 1%; Pb, Ba, S – 0%); Shisha va keramika uchun – minimal 95 % CaF ₂ (SiO ₂ – 3%, CaO – 1%, Fe ₂ O ₃ – 1%) | Xerz (Germaniya), Xitoy, Sharqiy Zabaykalye (Rossiya), Meksika, Fransiya, Keyv-in-Rok (AQSH), Nyufaundlend (Kanada), Krasne Gori (Chexiya) |
| Grafit | 1. Regional-metamorfik | Tokembris jinslaridagi kristall va amorf grafit qatlamlari (5 – 10% C) | Grafit tigellar uchun – boyitilgandan so'ng minimal 85 % C | Quyma va yog'lash materiallari, pigmentlar va qalamnlar; elektr sanoati | Madagaskar, Hindiston, MDH, AQSH, Chexiya, Slovakiya, Avstriya, Seylon |
| | 2. Kontakt-metasomatik | Intruzivlar kontaktida karbonat jinslardagi kristallik grafit tomirlari va linzalari (2-10% C) | (uchuvchan komponentlari maksimal 3%; CO ₂ – 0.3%) | | Botogolskoe (Rossiya), Blek Donald (Kanada) |
| | 3. Kontakt-metamorfik | Ko'mirli cho'kindilar ichidagi amorf grafit qatlamlari (70 – 85% C) | | | Sonora (Meksika), Kureyka (Rossiya), Janubiy Koreya |
| | 4. Qoldiq konlar | I-turga mansub nurash po'sti | | | Madagaskar |

29-jadval davomi

| | | | | | |
|---------------------|-----------------------|--|---|--|--|
| Gillar va kaolinlar | 1. Cho'kindi (gillar) | Ko'l cho'kindilaridagi yotqizqlar | O'tga chidamliklilik 1580-1750°C. 25-40% Al ₂ O ₃ | Qurilish, keramika, qog'oz, rezina, o'tga chidamli mahsulotlar ishlab chiqarish | Chexiya, Slovakiya, Buyuk Britaniya, AQSH |
| | 2. Qoldiq (kaolinlar) | Feldspatoidlarga boy jinslarning nurash po'sti | (Fe ₂ O ₃ maksimal 2-3%, CaO, MgO, TiO ₂ - 1%) | Kao-Ling (Kitoy), Sedles (Chexiya), Kornvol (Buyuk Britaniya), Germanya, Fransiya | Kao-Ling (Kitoy), Sedles (Chexiya), Kornvol (Buyuk Britaniya), Germanya, Fransiya |
| Quymakorlik qumlar | Cho'kindi | Turli cho'kindillardagi yotqizqlar (maksimal ochish qalmligi qum qalinligidan 50%) | Quymakorlik qoliplari uchun (Na ₂ O-K ₂ O maks. 0,5%), CaO+MgO 10%) | Boshqa sohaba ishlatalishi | |

Bundan tashqari metallurgiya sanoati flyuslovchi ohaktoshlar, boksitlar, B birikmlari va Sr minerallarini qo'llaydi.

30-jadval

Kimyo sanoatida ishlataladigan minerallar va jinslar konlarining sanoat turлari

| Sanoatdagi mineral yoki tog'jinsi | Kon turi | Ma'danlar morfologiysi | Sifati (aralashmalari) | Boshqa sohaba ishlatalishi | Kon misollari |
|-----------------------------------|-------------------------|--|--|---------------------------------------|--|
| Fosfatlar | 1. Biokimyoiy cho'kindi | Qatlamlardagi konkretisiyalar va ularning to'plamlari: mayda shag'al va organik qoldigqlar | 8 - 40% P ₂ O ₅ (Fe ₂ O ₃ , Al ₂ O ₃) | O'g'it ishlab chiqarish, metallurgiya | Ukraina, Qoratau (Qozog'iston), AQSH, Okeaniya |
| | 2. Kechki magmatik | Ishqoriy jinslardagi apatit va nefelin to'plamlari | 8 - 9% P ₂ O ₅ (CO ₂ maksimal 6%) | | Xibin tog'lar (Rossiya) |

30- jadval davomi

| | | | | |
|----------------------|--|--|--|--|
| Oltinqugurt va pirit | 1. Biokimiyoviy cho'kindi (oltinqugurt) | Neft yaqinidagi sulfat yotqizqilar ustidagi xol-nol uy umlar va qatlanchalar | Qog'oz va portlovchi moddalar ishlab chiqarish, teksil va kimyo sanoati, o'g'il ishlab chiqarish, metallurgiya | Lujiana, Texas (AQSH), Tamobrez (Polsha) |
| | 2. Gidrotermal metasomatik (Cu konlarining 3-turi) | O'zgargan effuziv jinslardagi qalin pirit linzalari | Flotasiya uchun xomashyoda 5-6% S (bitum, As, Se, Te) | Rio Tinto (Ispaniya), Ural (Rossiya) |
| Margumush | 1. Gidrotermal | Cu, Pb-Zn ma'dadanlarini qayta ishlash ikkilamchi mahsuloti | Arsenopirit | Farmatsievika |
| | 2. Gidrotermal | Au, Ag ma'danlari | Auripigment | Getchel Mayn (AQSH) |
| Bo'r | 1. Cho'kindi | Tuffitardagi bura, kernit va h.k.lar uyumlari | | Kramer (AQSH), Tibet (Xitoy), Turkiya |
| | 2. Evaporillar | Tuzli depressiyalar qalpoqlaridagi uyumlar (axvarit, gidroboratsit, kaliborit) | | Stassfurt (Germaniya) |
| | 3. Istiqboldagi tur: datolit, lyudvigit | | | |
| Tuzlar | Evaporillar (galit, silvin) | Laguna yotqizqilaridagi uyumlar | Oziq-ovqat sanoati, qishloq xo'jaligi | Germaniya, AQSH, MDH davlatlari. |

Kimyo sanoatida ishiltiladigan boshqa materiallar: Chili selitrasи, soda, stronsianit va selestin, achchiqtosh, barit, boksitlar, dolomit, flyuorit, glaukonit, magnezit va kamyoob elementlar.

31-jadval

Boshqa noma'dan foydali qazilma konlarining sanoat turlari

| Sanoatbo p mineral | Kon turi | Ma'danlar morfologiysi | Sifati | Sanoatda ishlatilishi | Kon missollari |
|-----------------------|---|---|---|---|--|
| Asbest | 1. Gidrotermal (xrizotil) (dunyoda ishlab chiqarishining 90%) | Serpentinitlardagi ko'ndalang toiali tomirlar | 0,5 – 15% asbest; tola uzunligi – 0,7 – 18mm | Asbest-sementli varaqlar, quvur-dani matolar, o'tga chidamli matolar, issiqlik va radiatsion izolyatorlar. Kimyo sanoati uchun filtrlar | Bajenovo (Rossiya), Zedford, Blek Leyk (Kanada), Barberton (JAR) |
| | 2. Metamorfik (mo'rt amfibol-asbest) | Temirli kvarsit, qumtosh va serpentinitidagi ko'ndalang va bo'ylama toiali tomirlar | | | Pengo (JAR), Zimbabwe, Svazilend, MDH |
| Slyuddalar | 1. Pegmatitlar (dunyo bo'yicha olinadigan 90% muskovit) | Pegmatitlardagi uyalar va zonalar | Konda 1 – 2% muskovit; minimal miqdor 10 – 80 kg/m ³ | Elektrotexnika sanoati, rezina, qog'oz va bo'y yoqlar uchun to'idiruvchi flogopit | Mamsik (Rossiya), Hindiston, Kanada, Braziliya, Tanzaniya |
| | 2. Kontakt-metasomatik va metamorfik (flogopit) | Intruziv jinslarning dolomitlar bilan kontaktidagi tomir, uya va zonalar | Konda 5 – 20% flogopit | | Slyudyanka (Rossiya), Kanada, Madagaskar, Hindiston |
| P'ezoelek -trik kvars | 3. Qoldiq kon (gidrotermal) vermekult | Ultrabazitlardagi tomirlar va linzalar | | Izolyatsiya (bo'rtirilgan vermekult) | Buldimskoe (Rossiya), Libbi, Montana (AQSH) |
| | 1. Pegmatitlar; gidrotermal va metamorfik kvars tomirlari | Druzalardagi kvars monokristallari | 100 – 2000 g massali monokristallar | Radiotexnika, mashinasozlik | Minas Jerais (Braziliya) |
| 2. Sochilma konlar | | Elyuyviy va kallyuyviy | | | Braziliya |

31-jadval davomi

| | | | | | |
|--|--|--|---|--|--|
| Island shpati | 1. Subvulkanik Piroksen-seolitli jinslar bilan trapplar kontaktlardagi uyalar 2. Metamorfik (Alp turdag'i tomirilar) | Karbonat jinslardagi uyalar | Minimal o'chovlari 25x12x12mm monokristallar | Nikol prizmalar tayorlash | Islandiya, Sibir (Rossiya) |
| Optik flyvorit | 1. Gidrotermal metasomatik 2. Pegmatitlar | Karbonat jinslardagi tomirlarning druzalarida tomirlarining druzalarida | Minimal o'chovlari 10x10x4 mm monokristallar | Optik linzalar | Illinoys (AQSH), Tojikiston Qozog'iston |
| Olmos | 1. Sochilma konlar 2. Ertal magmatik | Alluviyal yotqiziqlardagi uyumlar Diametri 800 m gacha bo'lgan kimberlitarda | 0,1 – 1 karat/m ³ (= 0,02 dan 0,2 g/m ³ gacha) | Qattiq materialarga ishlov berish, zargarlik | Brazilliya, Venesuela, Gayan'a, Zair, Gana, Gvineya, Sharqiy Sibir (Rossiya) JAR, Sharqiy Sibir (Rossiya) |
| Korund va Al ₂ O ₃ ga boy minerala r | 1. Kontakt-pnevmatolit (korund) 2. Metamorfik (najdak) | Alyuminiyli metasomatitlardagi uyalar Marmarlarda va ularning ultrabazitlar bilan kontaktlardagi linzalar va uyalar | Mineral miqdori 40 – 60% | Abrazivlar | Hindiston, AQSH, Semiz Bugu (Qozog'iston) Obuxovskoe (Rossiya), Gretsiya, Turkiya |
| | 3. Metamorfogen (andaluzit) | Al-li metasomatitlardagi uyalar | Minimal 54% Al ₂ O ₃ (Fe ₂ O ₃ +FeO ≤ 1%; K ₂ O+Na ₂ O ≤ 1,5%) Silumin ishlab chiqarishda minimal 59% Al ₂ O ₃ | O'tga chidamlari matolar (samolotlar va kemalar uchun silumin qotishmasi) | Hindiston (Shuningdek sillimanit va kanit kontlari) |

31- jadval davomi

| | | | | | |
|---------------------|--|--|---|--|---|
| Talk | 1. Gidrotermal (talkit) | Serpentinitlardagi linzva tomirlar | Talkidagi talk miqdori minimal 50 % | Qog'oz, bo'yоq, rezina, tekttil ishlab chiqarish; kimyo va metallurgiya sanoati | Chernigov (Rossiya), Virginiya, Vermont (AQSH) |
| | 2. Gidrotermal (talk) | Kristallangan magnezit va dolomit-lardagi, ularning kristallik slaneslar bilan kontaktlardagi tomirlar va linzalar | | | Mautem (Avstriya), Modok (Kanada) |
| Barit va viterit | 1. Gidrotermal | Tomirlar va linzalar | Minimal 70% BaSO ₄ (bo'yоq ishlab chiqarishda – 95%) | Inert to'ldiruvchi, bo'yоq ishlab chiga-rish. kimyo sanoati, burg'ilash eritmalar | MDH davlatlari, AQSH, Rudnyani (Chehiya) |
| | 2. Gidrotermal cho'kindi | Qatlamlar | | | Meggen (Germaniya) |
| Dala shpattari | Pegmatitlar va leykokrat granitoidlar | Tomirlar va linzalarning markaziy qismlari | Minimal 7% ishqoriy metallar; maksimal 1,2% Fe ₂ O ₃ + TiO ₂ | Keramika va shisha sanoati; abrazivlar | AQSH, Kareliya (Rossiya), Ukraina, Shvedsiya, Norvegiya |
| Seolitlar | O'zgargan tuf va tuffitlar | Qatlamsimon jismlar | | Portland cement, to'ldiruvchi, hayvonlar ozu- qasi, xavoni tozalash, ion almashtingichlar, qishloq xo'jaligi | AQSH, Yaponiya, Vengriya |

32- jadval

Qurilish materiallari konlarining sanoat turlari

| Material | Kon turi | Ma'danlar morfologiysi | Sifati |
|----------------------------------|--|---|--|
| Qurilish toshlari | 1. Cho'kindi | Ohaktosh, dolomit va qumtosh qatlamlari | Qurilish toshlari: minimal mustahkamlik 39 MPa (400 kg/cm ²); |
| | 2. Magmatik | Granit, diorit, gabbro, porfirit, bazalt, tuf massivlari | Qoplama bezak tosh: min. mustahkamlik 39 MPa (400 kg/cm ²) ; bloklarning minimal hajmi 0,1 m ³ |
| | 3. Metamorfik | Marmar, kvarsit va slanes qatlamlari | |
| Ohaktoshlar | 1. Cho'kindi | Qatlamlar | Ohak ishlab chiqarishda, CaCO ₃ minimal miqdori 80%, MgCO ₃ maksimal miqdori 10 % |
| | 2. Metamorfik | Qatlamlar | |
| G'isht uchun tuproqlar va gillar | 1. Dengiz va daryo cho'kin-dilari, col va ellyuvial konlar | Qatlamlar (ochilishning maksimal qalinligi tuproq qatlami qalinligining 20 % i) | Karbonatning maksimal miqdori 30 %; |
| Sement xomashyosi | 1. Cho'kindi (ohaktosh, mergel, gil) | Qatlamlar (ochilishning maksimal qalinligi ohaktosh qatlami qalinligining 10 % i) | CaO/(SiO ₂ +Al ₂ O ₃ +Fe ₂ O ₃) = 1,7 – 2,4; SiO ₂ /(Al ₂ O ₃ +Fe ₂ O ₃)=1,7- 2,7; Maksimal ko'satsatichilar: MgO – 7%; Ishqorlar – 0,5%; S – 1%. |
| | 2. Evaporitlar (gips) | Qatlam va linzalar | Minimal 60 % CaSO ₄ ·2H ₂ O (klinkerga qo'shish) |
| Shag'al va qum | Cho'kindi (daryo yotqiziqlari) | Qatlamlar | Maksimal 5 % gil |

33- jadval

Mineral paxta uchun tog' jinslari konlarining sanoat turlari

| Tog' jinsi | Kon turi | Ma'danlar morfologiysi | Sifati |
|------------|-----------|------------------------|--|
| Bazalt | Effuziv | Qotgan oqimlar | SiO ₂ 43,5 – 47,0%; Al ₂ O ₃ 11 – 13%; Fe ₂ O ₃ 9 – 15%; MgO 8 – 11%; Ishqorlar 3 – 5,5% |
| Mergel | Cho'kindi | Qatlamlar | (SiO ₂ %+Al ₂ O ₃ %)/(CaO %+MgO %) = =1,2 – 2,0 (SiO ₂ %+0,5 Al ₂ O ₃ %)/ (1,5MgO%+CaO%+ +0,5(Fe ₂ O ₃ +K ₂ O+Na ₂ O)) = 1,0 – 2,3 |

34-jadval

Kaustobioliarning konlari

| Xomashyo | Asoziy ishlatalishi | Turi yoki navi | Asoziy sifat ko'rsatkichi | Kon turi | Kon misollari |
|--|---|---|---|--|--|
| Antratsit, uchuvchan komponentlari kam bitumli ko'mir | Yoqlig'i | Metaantratsit, antratsit, antratsitli ko'mir | Issiqlik berish qobiliyati, kul miqdori | Burmalangan depressiyalar va botiqliklarda to'plangan formatsiyalar | Pensilvaniya antratsit basseyni (AQSH), Donetsk basseyni (Ukraina), G'arbiy Yevropa ko'mir tasmasi (Germaniya, Belgiya, Fransiya), Buyuk Britaniya |
| Uchuvchan komponentlari o'rtacha bitumli ko'mir | Koks va sanoat gazi ishlab chiqarish, kimyoqiy xomashyo | Kokslanuvchi ko'mir, energetik ko'mir, gazlanuvchi ko'mir | Tarkibidagi kul, oltingugurt, uchuvchan moddalar miqdori | Burmalangan depressiyalar va botiqliklarda to'plangan formatsiyalar | Yuqori Sileziya basseyni, Appalachi basseyni (AQSH), Kuznetsk basseyni (Rossiya), G'arbiy Yevropa ko'mir tasmasi, Saar basseyni, Kaipin basseyni (Xitoy) |
| Uchuvchan komponentlarga boy bitumli ko'mir, qo'ng'ir ko'mir, lignit | Yoqlig'i, ekstraksiya, gazlashtirish | Toshko'mir, yumshoq ko'mir | Tarkibidagi kul va namlik miqdori, issiqlik berish qobiliyati | Platformalarning ichki basseynlaridagi horizontal va biroz qiya to'plangan formatsiyalar | Illinoys basseyni (AQSH), Moskva basseyni (Rossiya), Shar-Si basseyni (Xitoy), Hindiston va JAR basseynlari |
| Torf | Yoqlig'i, qishloq xo'jaligi | Daraxt torfi, o't-o'lan torfi | Namlik miqdori, issiqlik berish qibiliyati | Zamonaviy va yaqin o'tmishda to'plangan formatsiyalaridagi horizontal qatlamlar | Barcha davlatlarda, ayniqsa mo'tadil iqlimi shimaliy davlatlarda |

34- jadval davomi

| Nomashyo | Asosiy ishatilishi | Turi yoki navi | Asosiy sifat ko'rsatkichi | Kon turi | Kon misollari |
|-----------------------|-----------------------------|--------------------------------------|--|---|--|
| Bitumli slanestlar | Yeqilg'i, ekstraksiya | | Kerogen miqdori | Yer qobig'ining barcha strukturaviy elementlari dagi gorizontal va burmalangan formasiyalar | Boltiq bo'yini basseyni (Estoniya, Latviya, Litva), Fushun basseyni (Xitoy), Avstraliya, Shorlandiya |
| Oattiq | Ekstraksiya | Afsalt, mineral saqich (kerit) | Noorganik aralashmalar miqdori | Massiv, xol-xol yoki tomirsimon uyumlar | Trinidad, G'arbiy Ukraina, AQSH. |
| Suyuq neft | Yeqilg'i, kimyoviy xomashyo | Parafinli, naftenli, aromatik yog'li | Oltengurgut miqdori, zichligi, korrelyasiya indeksi (CI) | Turli tutqichilar | Shimoliy dengiz, Yaqin Sharq. Kaspiy dengizi, G'arbiy Sibir, AQSH, Meksika, Venesuela, Indoneziya |
| Gazsimon (tabiiy gaz) | Yeqilg'i, kimyoviy xomashyo | Quruq gaz, ho'l gaz | Issiqlik berish qobiliyat, inert gazzimon moddalar miqdori, Vobbe ko'rsatkichi | Turli tutqichilar | Volga-Ural regioni, AQSH, Kanada, Jazoir, Yaqin Sharq, G'arbiy Sibir, Markaziy Osiyo. |

2. FOYDALI QAZILMA KONLARINI QIDIRISH VA RAZVEDKA QILISHNING GEOLOGIK ASOSLARI

2.1. Qidirish va razvedka qilishning geologik asoslari haqida umumiy tushunchalar

Foydali qazilma (ma'dan) va foydali qazilma koni o'z mohiyatiga ko'ra geologik jismardir. Ularning paydo bo'lishi va joylashishi geologik qonuniyatlarga bo'ysunadi. Shuning uchun ularni bilish va ulardan qidirish va razvedka jarayonida foydalananish «FQKlarini qidirish va razvedka qilish»ning **geologik asosini** tashkil etadi.

Geologik jarayonlar juda ko'p holatlar, sharoitlar, vaziyatlar va sabablarga bog'liq bo'lgan **ko'p faktorli jarayonlardir**. Bu jarayonlarda turli minerallar, qamrovchi jinslar, strukturalar va boshqa geologik obyektlar ishtirok etadi. Bular haqidagi ma'lumotlarni turli geologik fanlar o'rgatadi. Bu fanlardan to'plangan bilimlar va ko'nikmalarning barchasi qidirish uchun qo'llanilishi lozim, chunki ular qidirishning geologik asoslarini tashkil etadi va ularni qidirish mezonlari va qidirish belgilari sifatida ishlatalamiz.

Qidirish va bashoratlashning geologik asoslari bo'lib **Qidirish mezonlari va qidirish belgilari xizmat qiladi**.

Foydali qazilma konining u yoki bu turini topish imkoniyati borligini ko'rsatuvchi har qanday geologik bilimlar **qidirish mezonlari** hisoblanadi.

Foydali qazilma borligidan yoki bor bo'lishi mumkinligidan darak beruvchi dalillar **qidirish belgilari** deyiladi

Barcha foydali qazilma konlarini Yer qobig'ining shu foydali qazilma joylashgan qismida sodir bo'lgan turli geologik jarayonlar natijasida paydo bo'lgan geologik jismalar deb ko'rib chiqish mumkin. Bu konlarning paydo bo'lishi va joylashish qonuniyatlarini turli geologik fanlar tushuntirib beradi. Umumiy geologiya Yer qobig'ida sodir bo'ladigan jarayonlar, ularning xususiyatlarini, bu jarayonlarning tasniflanishi tushuntirib beradi. Tarixiy geologiya stratigrafiya

asoslarini, paleontologiya va jarayonlarning yoshini aniqlash masalalarini tushuntirib beradi. Mineralogiya fani Yer qobig'ida kimyoviy elementlarning mavjud bo'lish shakllarini, ya'ni mineralallarning turlari, xususiyatlari, hosil bo'lish sharoitlarini va ishlatalish sohalarini o'rgatadi. Petrografiya fani esa turli mineralallarning majmualaridan tashkil topgan tog' jinslarini o'rgatadi. Turli tog' jinslari turli sharoitlarda paydo bo'lib, turli xususiyatlarga ega bo'ladilar va turli foydali qazilmalarni o'z tarkibida saqlashlari mumkin. Foydali qazilmalar geologiyasi fani qidirish va razvedka qilish uchun mezonlarni tanlashda eng katta ahamiyatga ega bo'lgan fan hisoblanadi. Bu fan turli genetik va sanoat turlarga mansub konlarning hosil bo'lish sharoitlarini tushuntirib berish orqali qidirish mezonlarining asosini ta'minlab beradi.

Konlarning hosil bo'lishida yer osti suvlarining roli katta ekanligini hisobga olgan holda qidirish mezonlarini o'rganishda gidrogeologiya fanining ahamiyati ham yaqqol namoyon bo'ladi. Ba'zi konlar uchun bu fan bilimlari asosiy mezon bo'lib xizmat qiladi. Masalan uran konlarning qumtoshili-infiltratsion turlari yer osti suvlarining faoliyati bilan chambarchas bog'liqligi tufayli gidrogeologik mezon asosiy rol o'yaydi.

Geofizika, geomorfologiya, geotektonika va boshqa fanlar foydali qazilma konlarning paydo bo'lishida bu jarayonning ba'zi tomonlarini tushuntirib berishi tufayli qidirish mezonlarining mos turlarini ajratib qo'llash imkoniyatini yaratadi.

Demak, tabiatdagi turli geologik obyektlarning turli-tuman xususiyatlarini o'rganadigan geologik fanlar turli qidirish mezonlarini ishlab chiqishga yordam beradi.

Amalda geologik bilimlarni jamlovchi turli geologik fanlarga mos tarzda quyidagi qidirish mezonlarini ajratish mumkin: iqlim, stratigrafiya, fatsiallitologiya, magmatogen, struktura-tektonik, mineral-geokimyoviy, metamorfogen, geomorfologik, hidrogeologik, geofizik va boshqa mezonlarni ajratish mumkin.

Ba'zi mezonlar butun Yer qobig'ida amal qiladi, ba'zilari esa faqat muayyan hududlarda amal qilishi mumkin. Har xil genetik turlarga mansub konlarning joylashishini tushuntirib berishda turli mezonlarning ahamiyati turlichcha bo'lishi mumkin.

Qidirish belgilari esa daliliy ma'lumotlar bo'lgani uchun aslida bizning nazariy bilimlarimizga bog'liq emasdir. Ya'ni belgi bu daliliy topilmadir. Topilma biz kutgan, ya'ni nazariy bashoratlangan joyda va ko'rinishda yoki biz kutmagan joydan va biz kutmagan ko'rinishda topilib qolishi mumkin. Shunisi bilan mezonlar va belgililar bir-biridan farq qiladi. Ba'zi belgilarning ko'p marta kuzatilishi, ularning ilmiy jihatdan tushuntirib berilishi va belgining topilishi tasodifiy emas, balki ma'lum darajada qonuniyatga bo'y sunishini aniqlansa, bu belgi keyinchalik mezon sifatida ishalatilishi mumkin.

Demak, mezonlar bilan belgilarning farqlanishi shartli ravishda bajarilar ekan.

2.2. FQKlarini qidirishning stratigrafik mezonlari

Shu o'rinda "*stratigrafiya*" atamasining ma'nosini eslatib o'tish o'rnlidir. Bu atama ikkita lotincha so'z "*stratos*" – qatlam va "*grafos*" – yozaman yoki tasvirlayman tushunchalaridan tuzilgan bo'lib, qatlamlarni ta'riflash sohasi sifatida tushuniladi.

Bu mezonning mazmuni shundan iboratki, muayyan hududlarda ma'lum bir foydali qazilmalarining ma'lum bir stratigrafik qatlamlarda joylashish qonuniyati mavjuddir. Bu qonuniyatlardan biz stratigrafik mezon sifatida foydalanishimiz mumkin.

Ko'pchilik hollarda bunday qonuniyatlar hududiy xarakterga egadir, ya'ni bu qonuniyatlar faqatgina ma'lum hududlar chegarasida amal qiladi. Demak, bu mezondan foydalanishimiz hududiy jihatdan chegaralangan bo'ladi.

Bu mezon cho'kindi va nurash zonasiga (qoldiq) konlarini qidirish va bashoratlash uchun muhim ahamiyatga egadir.

Endogen konlar uchun ikkinchi darajali ahamiyatga ega bo'lib, konlar joylashish uchun qulay gorizontlarda to'planganda, ba'zi stratigrafik qatlamlarning ekran vazifasini bajarishi va shunga o'xshash hollarda amal qiladi.

Qamrovchi jinslar bilan singenetik (bir vaqtida hosil bo'lgan) bo'limgan hollarda stratigrafik mezonning ahamiyati yanada ham kamayib ketadi.

Stratigrafik mezon ko'mir, yonuvchi slanes, galogenid tuzlar, fosforit, temir, marganes, aluminiy kabi cho'kindi konlar uchun katta

ahamiyatga ega. Bu konlarning paydo bo'lishi cho'kindi to'planishi bilan bir vaqtida sodir bo'ladi. Demak, - ular ma'lum bir stratigrafik qatlaml bilan bog'liq .

Ko'pgina foydali qazilmalarning paydo bo'lish tarixini o'rganish orqali yer po'stining vujudga kelish jarayonida ular uchun juda qulay davrlar aniqlangan. Masalan: temir zaxirasining 90% dan ortig'i dokembriy davrida sodir bo'lgan jarayonlar bilan bog'liq. Demak, ularni dokembriy davri yotqiziqlarida qidirish lozim.


Ko'mirning to'planishi toshko'mir, perm, yura, paleogen davrlariga to'g'ri keladi. Masalan, Kuzbass hududi (Rossiya Federatsiyasi) toshko'miri faqat Perm davri yotqiziqlari bilan bog'liq. Markaziy Osiyoda esa sanoatga yaroqli toshko'mir konlari yura davri yotqiziqlarida uchraydi. Yevropa qit'asidagi toshko'mir konlari esa toshko'mir davri yotqiziqlarida joylashadi. Bu yotqiziqlar hosil bo'lgan davrni Toshko'mir davri deb atalishining sababi ham aynan shu yotqiziqlarda juda ko'p ko'mir qatlamlari topilganidadir.

Ayrim cho'kindi konlarning paydo bo'lishida cho'kindi to'planishida sodir bo'ladigan tanaffusning o'rni juda katta. Masalan, Uralning sharqiy-yon bag'rida tarqalgan boksitlar va ayrim fosforit, oltin sochilma konlari transgressiya zaminiga joylashgan. Ayrim epigenetik konlar ma'lum stratigrafiya qismlari bilan bog'liq. Sanoatga yaroqli slyudali pegmatitlar eng qadimiy qatlamlarda tarqalgan.


Butun dunyoda ko'mir, cho'kindi mis ma'danlari, uran, qo'rg'oshin va rux, pirit, oltingugurt, fosfatlar va boksitlar, cho'kindi temir va marganes, sochilmalar, gillar, karbonatlar, vanadiy va tuz konlari muayyan bir necha stratigrafik gorizontlar bilan bog'liq (1-rasm).

Umuman olganda, cho'kindi yotqiziqlar orogen harakatlarning kuchsizlanishi va transgressiya jarayonining boshlanishi davrlarida vujudga keladi.

Ko'mirning geosinklinal yotqiziqlari ko'proq paleozoyda kuzatilgan bo'lsa, geosinklinaldan platforma sharoitiga o'tish davrlariga xos ko'mir yotqiziqlari mezozoy davridan boshlab ko'paya boshlagan. Platformalar uchun xos ko'mir yotqiziqlari kaynozoy davri uchun eng asosiy o'rinni egallaydi.



1-rasm. Cho'kindi yotqiziqlarning shakllanish davrlari
(N.M.Straxov, 1962 bo'yicha).



2-rasm. I-rasm uchun shartli belgilari va ularning izohi.

1 – mezozoy va kaynozoydagi 20 mln. yil, paleozoydagi 200 mln. yil va tokembriydagи 2000 mln. yilga mos keluvchi davrlar; 2 – orogen faollik bilan bog'liq ko'mir hosil bo'lish jarayonini ko'rsatuvchi chiziq. A – G'arbiy Yevropa va AQSHdagi varis orogenezi; B, S – Sobiq Ittifoq va Xitoydagi varis orogenezi; D - Sobiq Ittifoq va Xitoydagi kimmeridj orogenezi; E – Rossiya shimoli-sharqidagi erta bo'r davri orogenezi; F – Shimoliy Amerikadagi Laramid orogenezi; 3 – 1000×10^9 tonna ko'mirga mos keluvchi segment; 4 – 1947-yilda kollektor jinslardan dunyoda qazib olingan neftning 5%ga mos keluvchi segment; 5 – 10×10^9 tonna temir zaxiralariiga mos keluvchi segment; 6 – temirli kvarsitlar; 7 – gidrogetit-shamozit-sideritli dengiz cho'kindi ma'danlari; 8 – kontinental (qoldiq va ko'l) temir ma'danlari; 9 – paralik basseynlarning sideritlari; 10 – dengiz osti eksgalyatsiya temir ma'danlari; 11 – yirik marganes konlari soni; 12 – yirik boksit konlari soni; 13 – cho'kindi mis ma'danlari; 14 – cho'kindi Pb-Zn ma'danlari; 15 – galogenezning nisbiy intensivligi; 16 – fosforitlar dunyo zaxiralaring alohida formatsiyalardagi ulushlari

Kembriygacha bo'lган davrning temirli kvarsitlari hozirgi kundagi okeanlar suvlaridan farqli o'laroq, tuzlanganlik darajasi pastroq va CO₂ miqdori ko'proq, demakki, pH ko'rsatkichi pastroq bo'lган okeanlarda vujudga kelgan. Natijada uch valentli temir (Fe⁺³) qirg'oqlardan ancha uzoqqa ko'chib borib, kremlniyli cho'kindilar bilan birgalikda cho'kkan. Tokembriydan devon davrigacha suv osti eksgalyatsion temir ma'danlari vujudga kelgan.

Keyingi davrlardagi formatsiyalarda esa bunday ma'danlar kuzatilmagan. Botqoqlik ma'danlarning ahamiyati silur davridan, literit turga mansub ma'danlarning ahamiyati yura davridan boshlab ortib boradi.

Slyuda va regional-metamorfik grafitning sanoatbop to‘plamlari faqatgina dokembriy davri jinslarida uchraydi. Odatda qalayi, volfram, simob va surma konlari meozoy va kaynozoy intruzivlari bilan bog‘langan. Lekin ko‘pincha, intruzivlarning yoshi bunday konlarni qidirishda unchalik katta ahamiyat kasb etmaydi.

Cho‘kindi konlarni muayyan hududda qidirish, nafaqat, dunyoviy birinchi darajali stratigrafik mezonlarni, balki mahalliy stratigrafik va minerallashuv xususiyatlarini bilishni talab qiladi.

O‘rta Osiyoning paleogen davri yotqiziqlarida yonuvchi slaneslar joylashgan. Qizilqum sahrosi hududida meozoy erasining bo‘r va paleogen davri yotqiziqlarida infiltratsion uran konlari joylashgan. Toshkent viloyati (Chotqol va Qurama tog‘larida) hududidagi oltin konlari toshko‘mir davriga mansub vulkanogen jinslarda joylashgan.

Markaziy Qizilqumning oltin konlari quyi paleozoy yotqiziqlarida (asosan besapan svitasi va uning analoglari) joylashgan (3-rasm).

Xulosa qilsak, har qanday hudud uchun stratigrafik mezonlarni ishlab chiqish mumkin. Buning uchun hududning stratigrafik kolonkasi tuziladi va bu kolonkaga foydali qazilmalarning joylashgan vaziyatlari belgilanib chiqadi. Ma’lum turdagи foydali qazilmalarning muayyan stratigrafik qatlamlarga bog‘liqligini aniqlash natijasida shu hudud uchun stratigrafik mezonlar aniqlanadi.

| SISTEMA | | BO'LIM | | YARUS | | VENLOK | | SVITA | | KOLONKA | | QALINLIK | | JINSLARNING LITOLOGIK TAVSIFI | | |
|---------|---------|------------------------|-----------|-------|-----------|----------------|-------|----------------|----------------|-----------|--|----------|--|----------------------------------|--|---|
| SILUR | ORDOVIK | QUYI | YUQORI | QUYI | LLANDOVER | D ₁ | INDEX | D ₁ | D ₁ | NIMS VITA | | | | | | |
| | | $PR_2; \epsilon - D_1$ | D_{1-2} | D_2 | D_{2-3} | $D_3 - D_1$ | | | | | | | | | | <i>Dolomit, ohaktosh, konglomerat.</i> |
| | | | | | | | | | | | | | | | | <i>Kvatsil va kvarts-slyudali qum tashlar, alevrolit, argillitli slanets. Elsenachitina bilan birga.</i> |
| | | | | | | | | | | | | | | | | <i>Alevrolit, kvartsli qum tashlar, argillitli slanets.</i> |
| | | | | | | | | | | | | | | | | <i>Qum tash, gravelit, kvarsli alevrolit, argillitli slanets, andezit va uni tufi, ohaktoshli va kremlinli lizalar. Margochitina margaritana (Els).</i> |
| | | | | | | | | | | | | | | | | <i>Alevrolit, argillitli slanets qum tash qotilmlari bilan, gravelitlar. Lagernochitina capax Tenkins.</i> |
| | | | | | | | | | | | | | | | | <i>Qum tash, uglerodli-slyudall-kvartsli alevroldilar, argillitli slanets gravelit qotilmlari bilan. Conochitina celanidis Els.</i> |
| | | | | | | | | | | | | | | | | <i>Uglerodli-kremniyli slanetslar, uglerodli-kvartsli-slyudall metalevrolit, kremniyli jinslar qotilmi. Tsograptus aff. Caducens nanus (Rued).</i> |
| | | | | | | | | | | | | | | | | <i>Uglerodli-kremniyli slanetslar, uglerodli-karsil-abitil-slyudall metalevrolitlar, dolomit. Desmochitina minor ornacca Els.</i> |
| | | | | | | | | | | | | | | | | <i>Uglerodli kremniy, ohaktosh, dolomit, kristallangan slanets metaterigeniklari, metawulkan jinslari. Desmochitina minor f. coca Els. Tranchysphaeridium minutissimum. N.Umr., Nubecularites antis Z.Zhur.</i> |
| | | | | | | | | | | | | | | | | |

3-rasm. Muruntau ma'danli maydonining stratigrafik ustuni
(Stratigrafik mezon).

2.3. Qidirish va bashoratlashning fatsial-litologik mezonlari

Litologiya – petrografiya fanining bo‘limi sifatida cho‘kindi jinslarning xususiyatlarini o‘rganadigan fan hisoblanadi.

Fatsiya so‘zining ma’nosi esa cho‘kindi jinslarning hosil bo‘lish sharoitlarini ifodalaydigan umumlashtiruvchi tushunchadir.

Fatsial-litologiya mezoni ayrim foydali qazilma konlarining ma’lum bir fatsiya yoki cho‘kindi tog‘ jinslarning turlari bilan bog‘liqligiga asoslangan. Bunday bog‘liqlik shu turdagи konlarni bashoratlash va ularni qidirish uchun mezon bo‘lib xizmat qiladi.

O‘z-o‘zidan ko‘rinib turibdiki, bu mezon birinchi navbatda cho‘kindi hosil bo‘lish jarayonlari bilan bog‘liq bo‘lgan konlarni qidirish va bashoratlashda o‘rinli bo‘ladi. Bunday mezonlar temir va marganes ma’danli gorizontlarni va ular bilan bog‘liq bo‘lgan opoka, spongalit, yashma konlarini aniqlashda foydalaniladi. Masalan, dengiz fatsiyasi bilan bog‘liq temir ma’danli qatlamlar bo‘laklarida asosan oolitlar, organika qoldiqlari uchraydi, sementlarida esa gematit, shamozit, sideritlar uchraydi. Marganes-oolitli bunday ma’danlar esa sanoat ahamiyatiga egadir. Shu bog‘liqlikni fatsial-litologik mezon sifatida ishlatish mumkin.

Ko‘mir qatlamlari asosan mayda chaqiq terrigen materiallardan tashkil topgan yotqiziqlar orasida joylashgan bo‘ladi. Bunday yotqiziqlar rivojlangan hududlar ko‘mir uchun ijobiy baho beradigan mezon bo‘ladi. Bunga nisbatan aksincha, odatda kesimda yirik chaqiq jinslarning (konglomeratning) bo‘lishi ko‘mirli maydonlarni baholashda salbiy mezon hisoblanadi.

Cho‘kindilarga taalluqli bo‘Imagan tog‘ jinslarida ham litologik mezon namoyon bo‘lishi mumkin. Masalan, ba’zi magmatik jinslarning yemirilishidan kelib chiqadigan foydali qazilmalar uchun birlamchi magmatik jinslarning tarkibi qidirish mezoni bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Masalan, ko‘pchilik boksit konlari asosan granit, sienitlarda rivojlangan nurash po‘stlariga joylashgan. Demak, granitlar va sienitlarning nurashi hisobiga paydo bo‘ladigan boksit konlari uchun yer yuzasiga chiqib yemirilib boshlagan bunday jinslar boksit konlarining litologik mezoni bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Silikatli nikel ma’danlari esa, o‘ta asos jinslarda rivojlangan nurash po‘stlarida

uchraydi. Demak, o'ta asos jinslar rivojlangan hududlar nikel konlari uchun qidirish mezoni bo'lishi mumkin.

Litologik mezon neft va gaz konlарини qidirish va bashoratlashda ham juda muhim rol o'ynaydi. Chunki neft va gaz uyumlari o'z bo'shliqlarida neftni va gazni yig'ib olish qobiliyatiga ega bo'lgan g'ovak jinslar – kollektorlarda uchraydi. Bu g'ovak jinslarning bo'shliqlari neftni saqlovchi rezervuar vazifasini bajaradi. Bunday jinslarga qum, g'ovak qumtosh va darzlangan ohaktoshlar kiradi. Demak, cho'kindi yotqiziqlarning tarkibida g'ovak qatlamlar – kollektor jinslarning borligi ijobiy litologik mezon sifatida qabul qilinadi.

Litologik mezon ba'zi hollarda endogen konlarni qidirish va bashoratlashda ham qo'llanilishi mumkin. Masalan, endogen konlar hosil bo'lishi jarayonida ma'dan minerallarining joylashishi uchun muhit vazifasini bajaruvchi qamrovchi jinslar sifatida birinchi navbatda kimyoviy faol xususiyatga ega bo'lgan karbonat jinslar (ohaktoshlar, dolomitlar, ohakli slaneslar va qumtoshlar) eng qulay muhit bo'lib xizmat qilishi mumkin. Demak, cho'kindi yotqiziqlar tarkibida karbonat jinslarning mavjudligi ijobiy qidirish va bashoratlash mezoni deb hisoblanadi.


Endogen ma'danlarni qidirishda temir, mis, volfram, molibden, qalay, qo'rg'oshin, rux va boshqa ma'danlar bilan bog'liq bo'lgan karbonat jinslar va skarnlar katta ahamiyatga ega. Bundan tashqari, karbonat jinslarda flyuorit, barit konlari uchraydi. Vulqon-cho'kindi jinslari bilan polimetall konlari, listvenit bilan simob konlari (Markaziy Osiyo); terrigen-qumtoshli slanes jinslar bilan qalay, qalay-volframli ma'danlar bog'liq.

Ko'pchilik muskovit, flogopit, grafit konlari metamorflashgan slaneslarda uchraydi, kvarsitlarda esa tog' billuri konlari tarqalgan.


Konlarning muayyan turlari bilan tog' jinslari ma'lum bir fatsiyalarining bog'liqligi 4- va 5-rasmlarda ko'rsatilgan. Hududning yoki formatsiyalarning paleoiqlimiylar sharoitlarini o'rganish muhim ahamiyatga ega, chunki quruq iqlimda hosil bo'lgan yotqiziqlar assotsiatsiyasi nam iqlimda paydo bo'lganlaridan sezilarli darajada farq qiladi.

Cho'kindi konlarni topishda paleogeografik va fatsial sharoitlarning ahamiyatini marganesni qidirish yaqqol ko'rsata oladi.

Marganesning cho'kindi ma'danlari ko'rfaqlar va shelf atrofida joylashgan tog' jinslarining yemirilishi natijasida paydo bo'lishi mumkin. Buning uchun tog' jinslari tarkibidagi Mn miqdori uning klarkidan faqatgina bir tartibga balandroq bo'lishi yetarli bo'lishi mumkin.



4-rasm. Aridli zonada cho'kindilarning hosil bo'lishini ko'rsatuvchi fatsiyalar profillari (N.M.Straxov, 1962 bo'yicha).



5-rasm. Nam tropik zonada cho'kindilarning hosil bo'lishini ko'rsatuvchi fatsiyalar profillari (N.M.Straxov, 1963 bo'yicha).

Endogen ma'danli konlarni qidirishda magmatogen mezonlar bilan birga ma'dan tashuvchi intruzivlar kirib borgan jinslar litologiyasini inobatga oluvchi mezon bиринчи darajali ahamiyatga ega. Tog' jinslarining uchta xususiyati ularning minerallashuvi uchun qulay sharoit yaratadi. Bular:

1) g'ovaklik hisobiga o'tkazuvchanlik (qumtoshlar, konglomeratlар, g'ovak lavalar, tektonik buzilgan jinslar);

2) kimyoviy faollik (gidrotermal eritmalar bilan reaksiyaga kiri-shish ma'dan minerallarining cho'kishiga olib keladi; masalan, karbonat jinslar);

3) mo'rtlik (magmatik jinslar, kvarsitlar va dolomitlar ba'zi ohaktosh va slaneslardan keskin farq qiladi – 6-rasm).

Nordon va o'rtacha intruziyalar kesib o'tuvchi karbonat jinslarning mayjudligi polimetall, mis, qalayi, volfram, molibden, surma va boshqa konlar, kontakt-metasomatik (skarn) va gidrotermal-


metasomatik (masalan, kristallangan magnezit) konlarning genezisi uchun nihoyatda qulaydir.

Masalan, oltin ma'danli Morning Star (Avstraliya) konida oltinli tomirlar mo'rt monsonitdagи darzliklarni to'ldiradi, lekin atrofdagi plastik slaneslarda davom etmaydi (6-rasm).

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, foydali qazilma konlarining ko'pchiligi ishqorli dala shpatlariga boy jinslarda (nordon effuziv va intruziv jinslar, arkozalar, dala shpatli kvarsitlar) yoki tarkibida magniy va kalsiy bo'lgan karbonat jinslarda joylashgan. Gilli slaneslar, fillitlar va slyudali slaneslarda esa ular kam uchraydi (6-rasm).

Sochilma konlar uchun tog' jinslari litologiyasi alohida ahamiyatga ega. Litologik o'zgaruvchan jinslarning tanlangan holda yemirilishi natijasida yuzaga kelgan daryo o'zanlarining chuqurliklarida allyuvial yotqiziqlarning tabiiy yuvilishi natijasida og'ir minerallarning to'planishi va sochilmalarning hosil bo'lishiga olib keladi (8-rasm).


Allyuvial yotqiziqlardagi gilli qatlamlar og'ir zarrachalar (masalan, oltin) uchun to'siq bo'lganligi uchun, «aldamchi poydevor» yuzaga keladi. Aks holda og'ir zarrachalar o'zan tubigacha tushib ketishi mumkin bo'lardi (9-rasm). Bu holda gilli qatlam ekran vazifasini bajarib, og'ir mineralning pastga tushib ketishidan saqlaydi. Aksincha holat endogen oreollarning yuqoriga harakatlanishida yuzaga keladi. Bunda, yuqoriga harakatlanuvchi gidrotermal eritmalarining yo'lini gilli slaneslar va fillitlar qatlamlari to'sib qoladi va foydali qazilma uyumi to'siqning tagida to'planadi.




6-rasm. Oltin ma'danli Morning Star (Avstraliya) koni bo'yicha qirqim (Makkinstri, 1948 bo'yicha). Tog' jinslari fizik xususiyatlarining darzliklar hosil bo'lishi va minerallashuv joylashishiga ta'siri; oltinli tomirlar mo'rt monsonitdagi darzliklarni to'ldiradi, lekin atrofdagi plastik slaneslarda davom etmaydi: 1 – massiv monzonit; 2 – slanes; 3 – ma'danli tomirlar.

| Rocks | Acid | Arkose | Mica sch. phyllite | Shales | Basic rocks | Ultrabasic rocks | Carbonates |
|------------|-------------------|---------|-----------------------|--------|----------------|---------------------|------------|
| Metals | effus. pyrocl. | intrus. | | | | | |
| Na, K | ← | | | | | | |
| Ca | | | → → | ● | → | → | |
| Mg, Fe | | → | | | → | → | |
| Fe | | — | | | | | |
| Mg | | | — | | | | |
| Cu | ■ | ■ | ■ | — | — | | |
| Pb, Zn, Ag | ■ | ■ | ■ | — | — | ■ | ■ |
| Sn | ■ | ■ | ■ | ■ | ■ | | |
| Hg | ■ | ■ | ■ | ■ | ■ | ■ | ■ |
| Sb | ■ | ■ | ■ | — | — | | |
| As | ■ | ■ | ■ | — | — | | |
| Au | ■ | ■ | ■ | ■ | ■ | ■ | |

7-rasm. Gidrotermal va pnevmatolit ma'danlar joylashishi uchun qulay tog' jinslari (K.N.Ozerov, 1949 bo'yicha).



8-rasm. Daryo o'zanlarining chuqurliklarida differensial eroziya natijasida hosil bo'lgan og'ir minerallarning to'plamlari: 1 – mustahkam jinslar; 2 – yumshoq jinslar; 3 – og'ir minerallar.



9-rasm. «Aldamchi» va haqiqiy tub jinslar va ulardagı og‘ir minerallar konsentratsiyalari: 1 – tub jins; 2 – oralıq gil qatlami; 3 – qum va graviy; 4 – og‘ir minerallar.

2.4. Qidirish va bashoratlashning magmatik mezonlari

Magmatogen mezonlarga foydali qazilmalarning magmatik jinslar bilan bog‘liqligini ko‘rsatuvchi hamma geologik omillar kiradi. Endogen konlar magmatik jinslarning ma’lum bir fazasi bilan fazoviy va genetik bog‘liq bo‘ladi. Ayrim magmatik jinslar turlarining parchalanishi natijasida cho‘kindi va nurash konlari paydo bo‘lishi mumkin. Endogen konlarining magmatik jinslar bilan bog‘liqligi turli darajada va ko‘rinishda kuzatilishi mumkin:

- 1) bog‘liqlik yaqqol ko‘rinadi (magmatik jins bilan FQ bir xil tarkibga ega va FQ magmatik jinsning ichida joylashgan);
- 2) magma bilan FQ bog‘liqligi ehtimoli juda katta (masalan pegmatitlar va karbonatitlar);
- 3) magmatizm va FQ bog‘liqligi (ehtimoli bor deb) faraz qilinadi;
- 4) FQ manbai qayerdaligi noma’lum va bog‘liqlik yo‘q darajada hisoblanadi.

Endogen konlarning magmatik jarayon bilan bog‘liqligini ko‘rsatuvchi asosiy belgilar sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

- birgalikda hosil bo‘lish;
- hosil bo‘lishning bir xil fatsial-chuqurlik sharoitlari;
- muayyan tarkibli magmatik jinslarning ma’lum bir konlar bilan birga uchrashi;
- ma’lum bir konlarning magmatik daykalar bilan bog‘liqligi;

– konlarning intruziv massivlarga nisbatan ma'lum bir fazoviy qonuniyatlar asosida joylashishi;

– magmatik jinslarning o'ziga xos geokimyoviy belgilari.

Asos va o'taasos (peredotit, dunit, piroksenit) jinslarda xrom, platina, titan, olmos, mis, nikel, asbestos, talk konlari uchraydi. Bu guruh jinslarning nurashi natijasida ikkilamchi nikel, kobalt, platina, olmos sochilma konlari paydo bo'ladi.

Nordon magma jinslari bilan ko'pchilik endogen konlar bog'liq. Ma'dan xarakteri va magmatik jinslar hosil bo'lishi chiqurligi orasida ma'lum bog'liqlik mavjud.

Gipabissal kichik intruziyalar bilan ko'pincha polimetall, oltin, ba'zan mis, qalay konlari bog'liq.

Granit batolitlari bilan volfram, ma'danli pegmatit, qalay, oltin va molibden konlari bog'liq.

Nordon tarkibli magmatik jinslarning parchalanishi natijasida monatsit, oltin, qalay va boshqa metallarning elyuvial, delyuvial, allyuvial sochilma konlari paydo bo'ladi.

Ishqorli intruziv jinslarda esa neobiyning katta karbonatit konlari ma'lum. Shuningdek ishqorli jinslarda juda katta Xibin apatit koni joylashgan.

Agar daykaning ma'dan uyumlari bilan fazoviy bog'liqligi aniqlansa, unda endogen ma'danlarni qidirishga ancha yordam beradi.

Foydali qazilmalarni qidirishda magmaning kimyoviy tarkibini, uning differensiatsiyasi va kristallanganligini, tog' jisnlarning o'zgarishlarini, magmatik jinslar zarralarining o'lchamlarini, intruziyalarning o'lchamlari va tuzilishini, magmaning qotish chiqurligini o'rGANISH MUHIM Ahamiyatga ega.

2.4.1. Ma'dan konlarining magmaning kimyoviy xususiyatlari bilan bog'liqligi

Magmatik jinslar bilan bog'liq bo'lgan ma'dan konlari ikki sharoitda hosil bo'ladi: 1) Agar magma o'z tarkibida yetarli miqdorda ma'dan elementlariga (Sn, W, Mo, Pb, Zn, Cu, Hg va h.k.) ega bo'lsa; 2) Agar magma o'z tarkibida yetarli miqdorda uchuvchan elementlarga, ya'ni F, B, Cl, S, As ga ega bo'lib, ma'dan elementlarini ko'chirish va muayyan joylarda toplash qobiliyatini namoyon qilsa.


Asos va o'taasos magmalar tarkibida yetarli darajada ma'danli elementlarni saqlaydi, lekin ular tarkibida uchuvchan komponentlarning miqdori juda oz. Shuning uchun ular uchuvchan elementlar yordamida to'planadigan ma'danlar uyumlarini hosil qilmaydi va Pt, Os, Ir, Cr, Ti, Ni va Cu ma'danlarining uyumlarini hosil qiladi. Bu elementlar uchuvchan birikmalar hosil qilmaydi, lekin magmaning differensiatsiyasi jarayonida magmatik jinsning pastki qismlarida to'planadi va segregatsion konlarni hosil qiladi. Yuqorida keltirilgan metallarga qo'shimcha tarzda ba'zi sanoatbop minerallardan olmos, asbestos, korund, talk va magnezit kabi minerallar asos va o'taasos jinslar bilan bog'liqdir.

Nordon magmalar tarkibida yetarli darajada yuqori miqdorda uchuvchan elementlar mavjud, lekin ma'dan elementlarining miqdori past. Greyzen turiga mansub konlar (Sn, W, Li) nordon magmalarda to'plangan ma'danlarning yagona turidir. Ular bilan asosan slyuda, dala shpatlari, kvars, berill, monatsit va boshqalar kabi sanoatbop minerallar konlari bog'liq.


Granodiorit turiga mansub o'rtacha tarkibli magmalar ma'dan konlari hosil bo'lishi uchun eng qulay tarkibga ega. Endogen konlarning 95% ga yaqini o'rtacha va nordon magmalar bilan bog'liqdir. O'rtacha magma tarkibida yetarli darajada ma'dan elementlar va uchuvchan komponentlar mavjud bo'lib, odatda ularning kontaktlari va tevarak atroflarida Cu, Pb, Zn, Ag va boshqa ma'dan konlarni hosil qiladi. Oltin, qo'rg'oshin-rux va mis-porfir konlari ko'pincha o'rtacha va nordon magmaning kichik gipabissal intruziyalari bilan bog'liq holda hosil bo'ladi.

Apatit, korund, sirkon va evdialit konlari ishqorli jinslar intruziyalari bilan bog'liq. Ular, xuddi asos va o'taasos jinslar bilan bog'liq bo'lgan konlar singari, intruziyalarning ichida yoki yaqin atroflarida hosil bo'ladi (10-rasm).

Ma'dan konlari va magmatik jinslarning fazoviy bog'liqligi bir qancha tasniflash sxemalarining kelib chiqishiga sabab bo'lgan. Bulardan birinchilardan bo'lib mashhurlikka erishgan tasnif Emmons (1940) sistemasidir. Biroq Emmons, batolitlar va ma'dan konlari orasidagi murakkab bog'liqlikni ma'lum darajada soddalashtirib yuborgan (11-rasm). Amalda uning sxemasidagi 3- va 4-zonalari ko'pincha kuzatilmaydi. Hozirgi zamonda bu sxema ancha eskirgan bo'lsada, geologiya tarixida o'z o'mriga ega bo'lgan va zamonaviy yangi tasniflarning kelib chiqishida katta ta'sir ko'rsatgan.



10-rasm. Ma'danlı konlarning turli tarkibli intruziyalar bilan bog'liqligi (V.I.Smirnov, 1957 bo'yicha).



11-rasm. Batolit eroziyasining olti bosqichi (Emmons, 1940 bo'yicha):
 1 – kriptobatolitik (ohaktoshlardagi teletermal Pb-Zn va Cu konlari; subvulkanik Hg, Sb, Au, realgar, auripigment, barit va flyuorit konlari); 2 – akrobatolitik (o'rtacha va nordon magmalar bilan bog'langan ko'pchilik konlar);
 3 – epibatolitik (ko'p turdag'i ma'danlar va sanoatbop minerallar konlari);
 4 – embatolitik (ba'zi Au, Cu, Zn; Sn-W konlari); 5 – endobatolitik (Au konlari);
 6 – gipobatolitik (faqat kvars va pegmatit tomirlari).

2.4.2. Ma'dan konlari bilan magma differensiatsiyasi orasidagi bog'liqlik

Yuqori haroratlil ma'danli gazlar, bug'lar va eritmalar boshlang'ich magmaning yakuniy differensiatlaridir. Ular magmaning to'liq differensiatsiyasi natijasida paydo bo'ladi. Bundan farqli ravishda dayka jinslari tugallanmagan differensiatsiya natijasi bo'ladi. Dayka jinslarining har xil turlari mavjudligi ishonchli tarzda kuchli differensiatsiya bo'lganini ko'rsatadi. Lekin faqat katta e'tibor bilan o'rganish natijasida differensiatsiya jarayoni ma'danli eritmalar hosil qilish darajasigacha borib yetganligi haqida xulosa chiqarish mumkin, chunki magmaning kimyoviy xususiyatlari ham muhim omildir. Effuziv jins turini o'rganish qidirish jarayonida foydali vosita bo'lishi mumkin. Masalan, oltin konlari kuchli differensiatsiya bo'lgan hududlarda, riolitlar, datsitlar va andezitlar yonma-yon joylashgan yerlarda shakllanadi.

Daykalar va ma'dan konlari o'rtaqidagi bog'liqlik ko'rinishlari har doim ham kattaroq va kichikroq yoshdagi jismlar yoki mezbon va mehmon munosabatlaridek bo'lavermaydi. Oxirgi bog'liqlik ko'rinishi


daykaning uzilma zonalariga kirib borishi natijasida kuzatilishi mumkin. Chunki bu zonalar zaiflashgan yuzalar bo'lib, keyinchalik harakatlanish yuzasi sifatida yoshroq ma'danli eritmalar kirib borishi uchun imkoniyat yaratadi. Dayka jinslari odatda minerallasshuvga nisbatan yoshi kattaroq, faqatgina lamprofirlar minerallasshuv bilan bir yoshda yoki yoshroq bo'lislari kuzatiladi.


2.4.3. Ma'danli konlarning magmatik jinslar kristall zarrachalarining o'lchamlariga bog'liqligi

Magmatik jinslar zarralarining o'lchamlari magmaning sovish tezligiga ishora beradi. Bu esa o'z navbatida bir qator omillarga bog'liq: qotayotgan magmaning chuqurligi, qamrovchi jins kontaktidan uzoqligi (kontaktda magmatik jins maydaroq-donador), magmaning hajmi (hajm qancha katta bo'lsa, sovish jarayoni shuncha sekin), qamrovchi jinslarning issiqlik o'tkazish va issiqlikni saqlab turish qobiliyatları.

Magmaning sovish va kristallanish tezligi ma'danli eritmalarining magmadan ajralish (segregatsiya) vaqtini nazorat qiladi. Segregatsiya vaqtidagi temperatura, o'z navbatida, izotermalar orasidagi masofani, demakki, alohida turga mansub konlar orasidagi masofani va ular bilan magma orasidagi masofani belgilab beradi. Alohida izotermalar bir-birlaridan qancha uzoq bo'lsa, alohida turlarga mansub konlar orasidagi masofa ham shuncha katta bo'ladi.

Magmatik jinslar zarralarining o'lchamlariga qarab qidiruvchi-geolog intruziyaning hosil bo'lish chuqurligini, shuning asosida intruziyadan qalayi va volfram konlarigacha bo'lgan masofani, Pb va Zn, yoki Hg va Sb konlarigacha bo'lgan masofalarni baholashi mumkin (12-rasm).






12-rasm. Granit intruzivi bilan bog'liq bo'lgan ma'dan tanalarining joylashish masofalari: a) yirik donador granit (chuqurroqda kristallangan) intruziv bilan bog'liq Pb-Zn va Hg-Sb konlari denudatsiya natijasida yemirilib ketgan; b) mayda donador granit (kichikroq chuqurlikda kristallangan) bilan bog'liq bo'lgan konlar chuqurlikda saqlanib qolgan: 1 – granit; 2 – qamrovchi jinslar; 3 – granit kristallangan vaqt dagi yer yuzasi.

2.4.4. Ma'dan konlarining intruziyalar o'lchamlari bilan o'zaro bog'liqligi

Pegmatitlar, pnevmatolit va gidrotermal konlar yirik plutonlar bilan bog'liq. O'lchamlari turlichay bo'lgan o'xshash tarkibli ma'dan konlari unchalik yirik bo'lmanagan intruziyalarning gipabissal shtoklari bilan bog'liq, chunki magma va ma'danlovchi eritmalar bir xil zonalar bo'yicha harakatlanadilar. Ular boshlang'ich magmaning chuqurlikdagi differensiatsiyasi natijasida yuzaga keladi (13-rasm). Amaliyotda bu kichik intruziyalarni yirik plutonlarning apikal qismlaridan farqlash muhimdir (35-jadval), chunki konlarning ko'proq turlari kichik intruziyalar bilan bog'liq. Masalan, Sn mineralashuvini uncha katta bo'lmanagan granit gumbazlarining apikal qismlari bilan bog'liq. Massivning chuqurroq qismlarida mineral allashuv asosan asta-sekin pasayib boradigan kontakt zonasini bilan bog'lanadi. Daykalar va endogen konlarning o'zaro munosabatlari 14-rasmida ko'rsatilgan va keng miqyosda X.M.Abdullayev (1957) tomonidan ko'rib chiqilgan.


Kichik intruziv shtoklar bilan yirik plutonlar apikal qismlarining farqi

| <i>Ko'rsatkichlar</i> | <i>Kichik intruziv shtoklar</i> | <i>Plutonlarning apikal qismlari</i> |
|------------------------------|--|--|
| Kirib borishi | Uzilmalar bo'ylab | Joyida to'xtash |
| Tarkibi | granosienit, kvarsli diorit, gabrodiorit, gabbro | markazi: granit yoki granodiorit |
| Qamrovchi jinslar o'zgarishi | Tor kontakt zonası | keng kontakt zonası, granitlanish, pegmatitlashish |
| Kon turlari | gidrotermal | yo'l-yo'l singenetik pegmatitlar, kvars tomirlari |

**13-rasm. Kichik intruziv va u bilan bog'liq tomirlar**

(Kujgart, 1986 bo'yicha):

1 – intruziv shtok; 2 – ma'dan tanalari; 3 – qamrovchi jinslar.




**14-rasm. Daykalar va minerallashuv orasidagi fazoviy munosabatlar
(gorizontal kesimlarda)** (Kujvar, 1986 bo'yicha):

a – daykalar va tomirlar boshlang'ich intruziv atrofidagi radial uzilmalarni to'ldiradi; uzilmalar magmaning yuqoriga harakat qilishi va kristallanganda hajmining kamayishi natijasida vujudga keladi; b – goh yuqori, goh pastki kontakt bo'ylab joylashuvchi ma'dan tomiri; d – narvonsimon tomirlar; e – daykadagi uyasimon va xol-xol ma'danlar (V.I.Smirnov, 1957 dan qayta ishlangan); 1 – boshlang'ich intruziya; 2 – dayka; 3 – xol-xol va tomirsimon ma'danlar.

2.4.5. Ma'dan konlарining intruziyalarning ichki strukturasi bilan o'zaro bog'liqligi

Asos va o'taasos jinslaridagi oqim strukturasi likvatsion va segregatsion konlarning yo'l-yo'l va qatlamsimon shakllarini aniqlab beradi. Intruziyalarning boshqa ichki strukturaviy xususiyatlari gidrotermal minerallashuvning joylashishiga ta'sir ko'rsata oladi (15-rasm).



15-rasm. Intruziv massivning strukturaviy elementlarini ko'rsatuvchi diagramma (V.I.Smirnov, 1957 dan qayta ishlangan): 1 – oqim strukturasi; 2 – chekka uzilmalar; 3 – intruziv yuzasiga parallel darzliklar; 4 – bo'ylama vertikal darzliklar; 5 – ko'ndalang vertikal darzliklar; 6 – qiya darzliklar; 7 – diagonal darzliklar.

2.4.6. Ma'dan konlarining intruziyalarning sovish chuqurligi bilan o'zaro bog'liqligi

Plutonik (abissal) intruziyalar 2000-3000 m dan katta chuqurliklarda kristallanadi va ko'pincha pegmatit dalalarini paydo qiladi. Gipabissal intruziyalar bilan ma'dan konlarining ko'pchilik turlari birga uchraydi. Effuziv fatsiyalar ikkiga, sulfidli konlari bilan bog'liq qari fatsiyalar (paleozoy davriga mansub spilitlar, diabazlar va boshq.) va sulfoarsenidli, sulfoantimonidli va oltin konlari bilan bog'liq yosh (paleogen-neogen davrlariga mansub) fatsiyalarga bo'linadi.

2.5. Qidirish va bashoratlashning tektonik-strukturaviy mezonlari

Tektonik-strukturaviy mezonlar foydali qazilmalarning turli tektonik harakatlar va ular natijasida paydo bo'lgan plifikativ va dizyunktiv strukturalar bilan bog'liqligini ifodalovchi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Yer qobig'idagi strukturalar turli masshtablarga (o'lchamlarga) egadir. Bularning eng asosiy(yirik)lari – burmalangan zonalar (geosinklinallar), platformalar va alohida aktivlashgan zonalar. Yer qobig'inining ana shu asosiy strukturaviy elementlari bir-biridan prinsipial jihatdan turlicha bo'lган geologik rivojlanish tarixiga egadir. Natijada ularda joylashgan foydali qazilma konlari turlichadir.

Masalan, burmalangan zonalar(geosinklinallar)da endogen konlar keng tarqalgan bo'lib, ekzogen konlar esa ko'pincha kuchli o'zgarish-larga duchor bo'lган va yemirilib ketgan bo'ladi. Platformalarda ekzogen konlar keng rivojlangan bo'lib, endogen konlarning faqat ayrim turlari, masalan, o'taasos va asos jinslar bilan bog'liq bo'lган konlar uchraydi. Bu qonuniyatlar umumiy bo'lib, Yer qobig'inining yirik elementlari uchun amal qiladi.

Struktura mezonlarini ular amal qiluvchi hududlarning xususiyatlari qarab bir necha guruhlarga ajratish mumkin:

- a) burmalangan zonalarda va platformalarda tarqalgan ma'dan maydonlari va havzalarning joylashish holatini aniqlovchi;
- b) ma'danli maydonlarda, havzalarda tarqalgan ayrim konlarning joylashish holatini aniqlovchi;
- d) konlardagi alohida ma'dan uyumlarining joylashish holatini aniqlovchi struktura mezonlarini ajratish mumkin.

Birinchi guruh struktura mezoni asosan foydali qazilmalarning umumiy joylashish qonuniyatlarini aniqlaydi. Masalan: yer po'stining asosiy strukturaviy elementlari hisoblangan qalqon, platforma va geosinklinal maydonlar o'zlarining ma'lum metallogenik qiyofasi bilan tavsiflanadilar.

Qalqonlarda slyuda, nodir va radioaktiv elementlar, apatit konlari uchraydi; platformalarda fosforit, neft, gaz, ko'mir konlari; geosinklinal zonalarda esa asosan metalli foydali qazilmalar tarqalgan. Shunday qilib, birinchi guruh strukturalarini o'rganishning maqsadi ma'dan maydonlarining joylashish qonuniyatlarini aniqlashdir.

Qalqon, platforma, geosinklinal zonalarda tarqalgan ma'danli maydonlarning strukturasi odatda yuqori tartibli burma va uzilmalar bilan aniqlanadi. Bunday holatlar foydali qazilma konlariga ham taalluqlidir.

Ma'dan maydonlari va konlarining to'planishi uchun eng qulay struktura sharoitlari – burmalarning murakkablashgan qulf qismi va

uzilmalarning bir-biri bilan har xil yo'nalish bo'yicha kesishgan joylari hisoblanadi.


Cho'kindi konlarning strukturasi ancha oddiyidir. Masalan, platforma turidagi temir konlarining ma'dan uyumlari gorizontal yoki biroz qiya qatlamsimon shaklda joylashadi va turg'un qalinlikga ega bo'ladi. Temirli kvarsit konlari turiga mansub Krivoy Rog konidagi ma'dan uyumlarining yotishi tik va yondosh qatlamlarning yotish elementlariga mos holda joylashadi.

Antiklinal va gumbazsimon strukturalar neft va gaz konlarining joylashishi uchun eng qulay sharoit hisoblanadi.

Konlardagi foydali qazilma uyumlarining joylashish holatini aniqlovchi strukturalar nihoyatda turli-tumandir.

Yer qobig'ining strukturalari foydali qazilma konlari shakllanishini nazorat qiluvchi omildir. Masalan, endogen genezisli ma'danli va noma'dan konlarning ko'pchilik turlari burmalangan hududlar, to'g'rirog'i ularda rivojlangan magmatik jismlarda joylashadi. Bu konlar, odatda, hududlarda sodir bo'lgan oxirgi orogen siklda vujudga keladi. Aksincha, ko'mir, neft, karbonatlar, marganes, boksitlar va ba'zi fosfat konlari past darajadagi burmalangan oraliq zonalarda topiladi (16-rasm).

Ma'danli konlar, o'z o'lchamlari bo'yicha birinchi darajali tektonik strukturalarga kiritiladigan, metallogenik zonalarda to'planigan. Metallogenik zonalarning kelib chiqishini, jumladan, plitalar tektonikasi yordamida tushuntirish mumkin.




16-rasm. Yaqin Sharqda foydalı qazılma konları bilan Yer qobig‘i strukturaları orasidagi bog‘liqlik (Kujvar, 1986 bo'yicha): 1 – Afrika plitasi (Arab yarim oroli, Afrika shimoli); 2 – Alp yoshiga mansub Pontida burmalangan tog' tizmasi; 3 - Alp yoshiga mansub Tavrida burmalangan tog' tizmasi; 4 – Varistsik yoki undan yoshi kattaroq massivlar; 5 – Alp burmalanishining chekkasi; 6 – asosiy strukturaviy birliklarning taxmini chegaralari; 7 – burmalangan zonalarga kirib borgan intruziyalar bilan bog'langan endogen konlar; 8 – oraliq zonalar bilan bog'liq bo'lgan neft konlari; 9 – platformalarda vujudga kelgan neft konlari; 10 – platformalardagi cho'kindi konlar (bo'r-neogen yoshli; P – fosfatlar).

Bu nazariyaga muvofiq Yerda oltita yirik litosfera plitalari – Shimoliy va Janubiy Amerika, Yevroosiyo, Tinch okeani, Avstraliya, Afrika va Antarktika, shuningdek ulardan kichikroq Naska plitasi mavjud (17-rasm).


Metallogenik zonalar ana shu plitalarning chekkalarida rivojlan-ganlar. Bu chekkalarning akkretsiyalanishi va transformatsiya-lanishi kuzatiladi. Boshqa metallogenik provinsiyalar okeanik va kontinental qismlarda yoki kontinentlarning ichki chekkalarida uchraydi. Shuning uchun plitalar tektonikasi nazariyasini o'rganish qidirish va bashoratlashning asosiy strukturaviy mezonlarini aniqlashda birinchi darajali ahamiyatga egadir.

Okeanik qobiqdagi orollar yoylari ansamblar deyiladi (18-rasm). Ensialik orollar yoylarining tub qismlarida kontinental qobiqning qoldiqlari mavjud (masalan, Yaponiya). Ensimatik orollar yoylaridagi metallar (Cu, Ni, Fe, Zn, Cr, Ti) subduksiyalangan okeanik plitaning qisman erishi hisobiga hosil bo'lgan toleit va ishqor-kalsiyli magmalar tomonidan ta'minlanadi. Subduksiyalangan okeanik qobiqdan chiqqan suv bu metallarning asosiy tashuvchisidir. Ensialik orollar yoylarining tipik metallari – Sn, W, Mo.

Metallogenik zona odatda burmalangan tog' tizmasini to'liq qamrab oladi (masalan, Alp-Karpat metallogenik zonasi). Bundan keyingi quyiroq struktura birligi metallogenik viloyatdir. U platformalardagi eng yirik monoparagenetik birlik hisoblanadi. Bu struktura birligi o'z navbatida metallogenik provinsiyalarga bo'linadi. Metallogenik provinsiyalar o'xshash geologik tuzilishga ega bo'lgan hududlar bo'lib, ularda deyarli bir davrda vujudga kelgan o'xshash turlarga mansub minerallashuvlar rivojlanadi. Metallogenik provinsiyalar metallogenik rayonlarga bo'linishi va ular o'z navbatida yanada maydaroq hududlarga bo'linishi mumkin. Turli mamlakatlarda turli mualliflar tomonidan turlicha tasniflar qo'llaniladi.



17-rasm. Benioff zonasasi va asosiy litosfera plitaları usitidagi seysmik zonalar (Billard, 1969 bo'yicha): 1 - zilzillar episentrleri; 2 - markaziy-okeanik tog'lar, okean qobig'ining akkretsiyallangan joylari; 3 - chuqur dengiz botiqqliklari (subduksiya zonalari).



18-rasm. Tashqi yoyi yahshi rivojlangan ensimatik orollar yoyidagi minerallashuvni ko'rsatuvchi sxematik qirqim.
 Vertikal massiflarni barobar kattalashitirilgan (Kuijart, Borxem, 1986): 1 – yugori manтия; 2 – okeanik qobiqning 3-qatlами; 3 – okeanik qobiqning 1- ва 2-qatlamlari; 4 – frontal yoyning tektonik melanjı; 5 – toleit seriyasi magmatik jinslari; 6 – andezitlar; 7 – daisit va riolitlar; 8 – ishqorli seriya magmatik jinslari; 9 – granitoid intruzivlari; 10 – yoylارдаги botiqlik yotqizqlari; 11 – xromitilar; 12 – Kipr turiga mansub mis-sulfidli ma'danlar; 13 – Besshi turiga mansub mis va misli-rux konlari; 14 – Kuroko turiga mansub mis-о'oshin-rux konlari; 15 – sof tug'ma oltингегүр va pirit konlari; 16 – оltin konlari; 17 – simtob konlari; 18 – miss-porfir konlari.


Yer yoriqlari bilan bog'liq bo'lgan ma'danli kamarlar alohida metallogenik provinsiya yoki uning tarkibiy qismlaridan biri sifatida metallogenik rayon (ma'danli maydon) deb yuritilishi mumkin.

Siqilish stressiga uchragan bir jinsli tog' jinsida darzliklar kuchlanish yo'nalishiga parallel tarzda paydo bo'ladi (19-rasm). Unga qo'shimcha sifatida yopiq siljishlar hosil bo'ladi. Bu darzliklar gidrotermal eritmalar harakatlanishi va atrof jinslarni almashtirishi uchun muhimdir. Yoki bo'lmasa, minerallashuvdan oldin notejis darzlik bo'yicha sodir bo'lgan harakat natijasida bo'shliqlar paydo bo'lishi katta ahamiyat kasb etadi (20-rasm).

Muhitning mexanik anizotropiyasi, xuddi yorug'lik nurining turli muhitlardan o'tishida sinish ko'rsatkichi o'zgarganidek, litologik turlicha jinslardan darzlik o'tishida α burchagining (19-rasmga qarang) o'zgarishiga olib keladi.


Tog' jinslarining burmalanishi chog'ida, agar ularning qatlamlari bir-birlariga nisbatan sirpanishlari uchun yetarlicha silliq bo'lmasalar, antiklinal va sinklinal bukilish joylarida bo'shliqlar ochiladi (21-rasm). Bu bo'shliqlarni keyinchalik ma'danlar to'ldirishi mumkin. Ma'danli eritmalar, odatda, antiklinallarda to'planish va sinklinallarda tarqoqlanish xususiyatiga egadirlar. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, ko'pchilik epigenetik konlar antiklinallarda va gumbazlarda hosil bo'ladilar.

Burmalarning chekkalarida, ayniqsa ular ag'darilib yotgan bo'lsa, turli xususiyatli jinslar orasida maydalanish va qisman harakatlanish natijasida hosil bo'lgan, ma'dan minerallarining cho'kib qolishi uchun qulay bo'shliqlar vujudga keladi (22a-rasm). Fleksural burmalar hosil bo'lishida ham bo'shliqlar vujudga kelishi mumkin (22b-rasm).




19-rasm. Yonlama bosim ta'sirida tog' jinsi sferik tanasining deformatsiyasini ko'rsatuvchi sxema (V.I. Smirnov, 1957 bo'yicha):


Ia – boshlang'ich sfera; Ib – deformatsiya ta'sirida deformatsion ellipsoidga aylangan sfera (A – cho'zilish o'qi, C – zichlashish o'qi; siljish yuzalari B o'qi bo'yicha kesishuvchi ikkita doirasimon qismlar bo'yicha paydo bo'ladi. Qisqa ochiq darzliklar bosim yo'naliishiga paralleldir); IIa – boshlang'ich kub; IIb – uzun siljuvchi yuzalar va qisqa darzliklar hosil qilgan paralelepiped.



20-rasm. Notekis yuzali darzlikning yo'naliishiga perpendikular qirqim:
a) – harakatdan oldin va b) – minerallasshuv uchun qulay bo'lgan bo'shliqni hosil qilgan harakatdan keyin.



21-rasm. Qatlamlari bir-birlariga nisbatan sirpanishlari uchun yetarliča silliq bo'lмаган jinslar burmalanganda antiklinal va sinklinallarda bo'shliqlar paydo bo'lishi.



22-rasm. Boshliqlar paydo bo'lishi: a – turli mustahkamlikka ega jinslarning disgarmonik bukilishi paytida; b – fleksural bukilishda:
1 – qiyin buklanadigan jinslar; 2 – oson buklanadigan jinslar;
3 – bo'shliqlar.

V.I.Smirnov (1957) minerallashgan strukturalarni quyida keltirilgan 6 ta asosiy guruhga va 20 ta nimguruhga ajratgan.

I. Stratigrafik qatlamlarga moslashgan strukturalar


1. Bendigo turiga mansub egarsimon riflar antiklinal Burmalardan boshlanadi. Bendigo konida minerallashuv jarayoni Burmanishdan keyin bo'shashgan yuzalar orqali antiklinal uchlariga to'plangan. Hosil bo'lgan egarsimon riflar morfologiysi 23-rasmda keltirilgan. Boshqa hududlarda egarsimon tomirlar Krivoy Rog (Fe) konida, Oltoyda (polimetall tomirlar), Markaziy Qozog'istonda (polimetall tomirlar), Markaziy Osiyoda (Sb-Hg), Sibirda (Au), Kanadaning Nova Skotia va Karibu konlarida (Au).

2. Burmalarda hosil bo'lgan linza shaklidagi tanalar, ko'pchilik hollarda slaneslar va tuflarda joylashadi (24-rasm). Bu turga mansub konlar Kanadaning Xollinger hududida (Kvarsli Au) va AQSHning Arkansas shtatida (polimetall tomirlari, 25-rasm) kuzatiladi.


3. Qatlamlararo sirpanish, bukilish (22a-rasm) va **darzlanish** (26-rasm) zonalaridagi turli mustahkamlikka ega jinslar kontaktidagi burmalar uchlaridagi mineralashuv. Bu turga mansub polimetall konlari Zabaykalye, Qozog'iston (Uspenskoe – Cu, Djekazgan – Cu), O'rta Osiyo va Yugoslaviyada joy lashgan.

4. Alovida qulay qatlamlarda (27-rasm) mineral uyumlari jinslarning kimyoviy faolligi yoki o'tkazuvchanligi tufayli vujudga keladi. Polimetall ma'danlari ko'pincha dolomitlarda, Cu ma'danlari esa qumtoshlarda uchraydi. Masalan, polimetall konlari Qozog'iston, Qirg'izistonda, Abxaziyada, Missisipida (AQSH) va Meksikada, misli qumtoshlar Djekazganda (Qozog'iston), Katangada va Zambiyada (Chambishi koni), arsenopiritga boyigan yotqiziqlar Markaziy Osiyoda, gemitit konlari Kemberlendda (Buyuk Britaniya) uchraydi.


5. To'siq jinslar ostida shakllanadigan ma'danli konlar, jinslar va ular ostidagi qatlamlar orasidagi farqlanish tufayli yoki qulay struktura (masalan, antiklinal) ta'sirida shakllanadi.




23-rasm. Bendigo (Avstraliya) konidagi egarsimon riflar
(Mak-Kinstri, 1948 bo'yicha)




24-rasm. Cho'ziq linza ko'rinishidagi ma'dan tanasi tik yetuvchi qatlamlarning bukilgan qismida joylashgan (V.I.Smirnov, 1957 bo'yicha).



25-rasm. Burmalangan qatlamdagи minerallashgan brekchiya, Arkansas, AQSH (Bateman, 1950 bo'yicha): 1 – dolomit bo'laklariga aralashgan ma'dan; 2 – ohaktosh; 3 – dolomit; 4 – qumtosh.



26-rasm. Qatlamlararo sirpanish zonasidagi linzasimon ma'dan tanalari (zonada maydalanish ham mavjud): 1 – burmalanishga moyil jins; 2 – burmalanishga moyilligi past jins; 3 – ma'dan (minerallashgan brekchiya).




27-rasm. Ma'danlanishga moyil jinslarning uzilma (ta'minlovchi kanal) bilan kesishgan joyidagi metasomatik ma'dan tanalari: 1 – slanes; 2 – ohaktosh; 3 – ma'dan; 4 – uzilma.


II. Regional darzliklar bilan bog'liq bo'lgan ma'dan tanalari

6. Nadvig darzliklari dagi ma'danli konlar, masalan, Mazer Lod koni (Kaliforniya, AQSH) va G'arbiy Sibir, Markaziy Osiyo, AQSH va Ispaniyaning simob konlari. Bunday konlar odatda nadvigning o'zida emas ularning atrofidagi mayda darzliklarda joylashadi.

7. Normal va sbros darzliklardi dagi ma'dan tanalari, nisbatan kam uchraydi, lekin paydo bo'lganda, ular tomir va yassi silindrik shakllar hosil qiladi. Bu guruhga Sibir va Oltoydagi oltin konlari, Shimoliy Kavkaz, Kavkazorti va Germaniyadagi polimetall tomirlari, Meksika (28-rasm), Peru (Morokocha koni) va AQSHdagi (Komstok Loud koni) subvulkanik genezisli auripigment tomirlari kiradi. 29-rasmida murakkab deformatsiyalangan burmadagi o'ziga xos siljish ko'rsatilgan. Gorizontal siljish tik yotuvchi qatlamlarda bukilish hamda gorizontal va qiya yotuvchi qatlamlarda esa uzilishga sabab bo'lgan. Bu yerda keyinchalik mineralлаshuv sodir bo'lgan.



28-rasm. Normal uzilma bilan bog'liq Au-Ag formatsiyasi subvulkanik tomiri. San-Rafael, Meksika (Lindgren, 1926 bo'yicha): 1 – yosh andezit; 2 – ma'dan tomiri; 3 – miotsen davri andezit intruzivi; 4 – yura davri slaneslari va qumtoshlari



29-rasm. Burmalangan jinslarni qisqartiruvchi bukilishning kengaygan qismida keyinchalik minerallahsgan darzlikning shakllanishi. Intersteyt koni, Aydaxo, AQSH (MakKinstri, 1948 bo'yicha).

III. Tektonik kuchlangan zonalardagi ma'dan tanalari


8. Ochiq darzliklardagi ma'dan tanalari qisqa tartibsiz takrorlanuvchi tomirlar shaklida, odatda guruhlarga birlashgan va tutam-lashgan holda bo'ladi. Tomirlar cho'zilish zonalarida, qatlamlar burili-shida, daykalarning ko'ndalang siniqlarida (narvonsimon tomirlar) va intruzivlarning sovish darzliklarida uchraydi. Misollar sisatida Uraldag'i (Beryozovskoe) oltin koni, Missisipi vodiysidagi polimetall ma'danlarining kamerali tomirlari, G'arbiy Avstralaliyadagi Norsimen koni (30-rasm) va Chinoves konidagi (Chexiya) kam qiyalikli cassiterit tomirlarini (31-rasm) keltirish mumkin.

9. Bir tizimga mansub siljish darzliklaridagi ma'dan tanalari.


Ular bo'yicha nisbatan kam harakat sodir bo'lган. Bunday tanalar, odatda, tomirlar maydonlarini tashkil qiladi va ochiq darzliklardagi tomirlarga nisbatan uzunroq va uzlusizroq bo'ladi. Kanadadagi Igl konining auripigmentli kvarts tomirlari bu turga misoldir (32-rasm).

10. Deyarli to'g'ri burchak ostida o'zaro kesishuvchi juft siljish uzilmalaridagi ma'dan tanalari. Agar darzliklar chuqurlikda hosil bo'lgan bo'lsa, vaziyat gorizontal qirqimda ko'rindi (33a-rasm), agar ular yer yuzasiga yaqinda hosil bo'lgan bo'lsa, vertikal qirqimda ko'rindi (33b-rasm). Misol tariqasida Meksikadagi Real del Monte konini (34-rasm) va Perudagi Morokocha konining (35-rasm) Cu ma'danli tomirlarini keltirish mumkin.


11. Juft siljish va ochiq darzliklardagi ma'dan tanalari nisbatan kam uchraydi. Ba'zi ma'danli maydonlar ko'p sonli siljish va ochiq darzliklar guruhlari bilan bog'liq. Ular bir necha tektonik fazalar davomida shakllanib, birin-ketin bir necha turdag'i ma'danlar bilan to'lib borgan (masalan, Germaniyadagi Ag-Pb-Zn ma'danli Frayberg koni).




30-rasm. Minerallashgan ochiq darzlik (bosim yo'nalishi darzlik yo'nalishi bo'yicha). Viking Mayn, G'arbiy Avstraliya (MakKinstri, 1948 bo'yicha).




31-rasm. Kassiterit va wolframit bilan minerallashgan kontraktsion darzliklar (Chillik, Ogurchak, 1965 bo'yicha). 1 – ma'danlashuvdan keyingi uzilmalar; 2 – kassiterit va wolframitli tomirlar; 3 – greyzenlashish zonalari; 4 – litiyli slyudalar zonasi; 5 – granit-porfir; 6 – kvarsli porfir (perm davri).




32-rasm. Siljish uzilmalarining bir tizimida joylashgan oltinli kvars tomirlari. Igl koni, Kanada (V.I.Smirnov, 1957 bo'yicha): 1 –granodiorit; 2 –kulrang qumtosh (rogovik); 3 – ma'danli tomirlar.



33-rasm. Siljish uzilmalarining ikki tizimida joylashgan ma'danli tomirlar (V.I.Smirnov, 1957 bo'yicha). Siljish tizimlari tik joylashganda vaziyat gorizontal qirqimda (a), siljish tizimlari qiya joylashganda vaziyat vertikal qirqimlarda (b) yaxshi ko'rindi.




34-rasm. Siljish uzilmalarining ikki tizimida joylashgan ma'danli tomirlar (28-rasmning a holati). Real del Monte, Meksika (MakKinstri, 1948 bo'yicha).




35-rasm. Siljish uzilmalarining ikki tizimida joylashgan Cu-ma'danli tomirlar (33-rasmning b holati) Morokocha koni, Peru (V.I.Smirnov, 1957 bo'yicha): 1 – xol-xol ma'danlar; 2 – massiv ma'danlar; 3 – ma'danli tomirlar; 4 – kvarsli monsonit; 5 – ohaktosh.


12. Razlomlarga nisbatan diagonal bo'yicha yo'nalgan patlanuvchi mayda darzliklarda joylashuvchi ma'dan tanalari. Agar juft darzliklardan biri razlomga aylansa, patlanuvchi mayda darzliklar paydo bo'lishi mumkin (36-rasm). Boshlang'ich darzliklar keyinchalik razlomga nisbatan patlanuvchi mayda darzliklarga aylanadi. Juft siljish darzliklarining boshqa to'plami boshidanoq rivojlanmay qolishi mumkin, natijada 36-rasmida qalin chiziqlar bilan belgilangan elementlar kuzatiladi. Tog' jinslarining bir jinsli emasligi tufayli patlanuvchi mayda darzliklar razlomning faqat bir tomonida rivojlanadi. Agar patlanuvchi mayda darzliklar juft siljish darzliklarining boshqa to'plamidan rivojlansa, qaytadan patlanuvchi mayda darzliklar paydo bo'ladi. Minerallashgan patlanuvchi mayda darzliklarga misollar quyidagilardir: Tyon-Shondagi Au konlari va, masalan, Byuti (Montana, AQSH) konida ma'lum bo'lган «ot dumи» strukturasi (37-rasm). Bunday strukturalar shaklining kelib chiqishi «sigmasimon sirtmoq» mexanizmi bilan tushuntirilishi mumkin. Shuningdek bunday strukturalar tizimining minerallashganlik misollari ham mavjud (38-rasm).



36-rasm. Razlomlarga nisbatan diagonal bo'yicha yo'nalgan patlanuvchi mayda darzliklar paydo bo'lishi (boshlang'ich uzilma siljish shaklida).



37-rasm. «Ot dumi» strukturasining rivojlanishi: a – sigmasimon egri chiziq; b – sigmasimon sirtmoq; d – murakkablashgan sigmasimon sirtmoq; e – «Ot dumi» strukturası



38-rasm. Murakkablashgan sigmasimon sirtmoq ko'rinishida joylashgan tomirlar (profil). Yupqa patsimon tomirlar yirik tomirlarni birlashtirgan.
Pachuka koni, Meksika (Mak-Kinstri, 1948 bo'yicha).

13. Tartibsiz ravishda joylashgan uzilish va darzliklar hosil qilgan **maydalangan bo'laklar to'plamidagi zonalar**. Molibden, qalayi, polimetall va mis ma'danlari joylashgan uyumlar mavjud (masalan, Chilidagi Chikvikomata mis koni).

IV. Magmatik jinslar kontaktidagi ma'dan konlari

14. Karbonat jinslar bilan *mos intruzivlar kontaktidagi* qatlamsimon skarnlar (masalan, Uraldagi «Gora magnitnaya» koni).

15. Yorib kiruvchi (diskordant) intruzivlar kontaktlarida skarn tanalari linsasimon va uyasimon shakllarni hosil qiladi. Bundan tashqari, intruziv va qamrovchi jisnlar kontaktida bo'shashgan yuza paydo bo'lib, bu yerda tektonik harakatlar natijasida maydalanish va bo'shliqlar hosil bo'lishi kuzatiladi. Keyinchalik sodir bo'ladigan gidrotermal jarayonda minerallashuv joylashishi uchun qulay vaziyat vujudga keladi (39-rasm).


V. Aralashgan strukturalardagi ma'dan tanalari

16. Darzlik va uzilmalarining qulay jinslar bilan kesishgan joylaridagi ma'dan tanalari (masalan, AQSHdagi Syerra Madre polimetall koni va Lidvill koni – 40-rasm, Niderlandiyaning Eshvayler koni). Tektonik jihatdan moyillik bilan birga kelgan qulay litologiya sharoiti Bogemiya massivining (Chexiya) chekkalaridagi rangli metallar ma'danlarining joylashuvini nazorat qilgan.


17. Darzliklarning kesishish joylari va kontaktlari, ularning qo'shilish joylari va uzilmalarining qatlamsimon jinslar bilan kesishgan joylaridagi ma'dan tanalari shtoklar va o'simtalar shakllarini hosil qiladi (41-rasm). Ma'danlashgan tomirlar kesishishining misollari: Au tomirlari – Charters Tauers, Avstraliyada, Ag-Pb – Gvadelupe va Meksikada, Cu – Rudniy Altay, Rossiyada.

VI. Intruziyalardagi ma'dan tanalari


18. Qatlamsimon intruziyalarda o'z joyidagi magma differentsiyasi likvatsion-magmatik nikel konlari (noritlarda), noyob metallar konlari (ishqorli intruzivlarda), nikelli-mis konlari (asos va o'ta asos jinslarda), platina konlari (asos va o'ta asos jinslarda, masalan, Janubiy Afrikadagi Merenski rifi) va xromshpinelidlar konlari (asos va o'ta asos jinslarda – 42-rasm) hosil bo'lishiga olib keladi. Misollar: Bushveld, JAR; Grand Dayk, Zimbabve; Stillouter kompleksi, Montana, AQSH. Yotqiziqlar nisbatan yupqa, lekin «stratigrafik» uzlusiz mos qatlamlar hosil qiladi.




39-rasm. Intruziyalar va qoplama jinslar kontaktlarida rivojlanuvchi ma'dan tomirlari. Tepezala, Aguas Kalentes, Meksika (McKinstry, 1948 bo'yicha): 1 – mezozoy davri yotqiziqlari; 2 – intruziv riolitlar; 3 – intruziv kvarsli porfirlar; 4 – riolit daykalari; 5 – porfirit daykalari; 6 – ma'danli tomirlar.



40-rasm. Ma'danlanishga moyil jinslar va uzilmaning kesishgan joyida hosil bo'lgan ma'dan tanalari. Leadville, Kolorado, AQSH (V.I.Smirnov, 1957 bo'yicha): 1 – allyuviy; 2 – ma'dan; 3 – oq porfirlar; 4 – kulrang porfirlar; 5 – havorang oxaktosh; 6 – kvarsit; 7 – oq ohaktosh; 8 – slanes; 9 – kvarsitlar aralashgan ohaktosh; 10 – kembriy kvarsiti; 11 – granit.



41-rasm. Ma'dan shtoki ikki uzilma kontakti atroflarida rivojlangan.



42-rasm. Qatlamsimon asos tarkibli intruziyadagi mos yotuvchi xromit uyumlari (Bateman, 1950 bo'yicha): 1 – anortozit; 2 – diallagli gabbro; 3 – bronzit-diallagli jins; 4 – xromit; 5 – qoplama jinslar.

19. Likvatsion-magmatik va kechki-magmatik konlar «offset tomir» turiga mansub alohida ma'danli intruziyalarini hosil qiladi. Bu intruziyalar asos va o'ta asos tarkibli boshlang'ich intruzivlarning

atroflaridagi bo'shashgan zonalarda joylashadi. Ular yassi va quvur-simon shakkarga ega. Misollar: Sadberi turiga mansub misli-nikel ma'danlari, titanomagnetit va xromit ma'danlari, platinali xromshpinelidlar.

20. Flyuidal strukturali asos va o'ta asos jinslardagi ma'dan tanalari protomagmatik ma'danli tomirchalar ko'rinishiga ega. Ular jinslardagi chiziqli va tekis oqimlar yo'nalishiga moslashadi. Misollar: xromshpinelidlar va titanomagnetit ma'danlari.

Burmalar, uzilmalar va darzliklar mineralizatsiya bilan bir vaqtida hosil bo'lishi mumkin, lekin endogen konlarning ko'pchiligi tektonik harakatlar (orogeniya) tugagandan keyin vujudga keladi. Antiklinal burmalarda qatlamlararo uzilishlarning ochilishi va ularning o'sha zahoti minerallashuv bilan to'lishi juda kamdan-kam hollarda uchraydi. Burmalanish cho'kindi konlarning shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatishi mumkin; foydali mineral moddalar ko'tarilib borayotgan antiklinallarga nisbatan chuqurlashib borayotgan sinklinallarda kattaroq miqdorda to'planadi.

Sinxron (bir vaqtida) vujudga kelgan uzilmalar va minerallashuv juda kam uchraydi. Lekin minerallashuv joylarida ta'minlovchi kanallar vazifasini bajaruvchi uzilmalar bo'ylab mineralashuvgacha bo'lgan harakatlar ko'proq tarqalgan.

Strukturaviy omillarning (shuningdek magmatik jinslar assotsiat-siyalarining) ijobiy belgilari mavjud bo'lsa ham, minerallashuv, litologiya, sedimentatsiya sharoitlari, qamrovchi jinslarning metamorf-lanish darajasi kabi bilimlar inobatga olinishi kerak. Bunday konsepsiya Broken Hill (Avstraliya), Rammelsberg (Germaniya), Kopper Belt (Zambiya) yoki Kupfershifer (Polsha, Germaniya) kabi stratiform konlarning kelib chiqishini (genezisini) tushuntirib beradi.

2.6. Qidirish va bashoratlashning geokimyoviy va mineralogik mezonlari

Geokimyoviy mezon. Kimyoviy elementlarning har xil tabiiy tog' jinslarida, tuproqlarda, suvlarda tarqalish qonuniyatları geokimyoviy qidirishning asosini tashkil qiladi.

Sanoatga yaroqli yuqori miqdorlarga ega bo'lgan element va ularning yo'ldoshlari tarqalgan joylar qidirishga eng qulay maydon hisoblanadi. Masalan, qo'rg'oshin va ruxning o'rtacha yuqori miqdori

polimetall konlariiga boy ma'danli Oltoyning effuziv-cho'kindi jinslariga xosdir (43-rasm).

Xrom konlari keng tarqalgan janubiy Uraldag'i o'ta asos jinslarda xromning o'rtacha yuqori miqdori kuzatiladi. Element va minerallarning shakl ko'rinishi va ularning paragenetik assotsiatsiyalari qidirish ishlarida katta ahamiyatga ega.


Qidirish bosqichida paragenezis qoidalarini yaxshi bilish asosiylari, ikkinchi darajali va nodir elementlarni aniqlashga yordam beradi.

Masalan, qo'rg'oshin-rux ma'danlarida kumush va kadmiy, mis-rux ma'danlarida kobalt va platina uchraydi. Undan tashqari uran, kobalt, nikel, vismut va kumushdan tarkib topgan besh elementli formatsiyalar ham ma'lum (44-rasm).

Ko'mir konlariда germaniy, uran, vanadiy; galloid suvlarda yod va brom uchraydi. Minerallarning birlamchi va ikkilamchi paragenetik assotsiatsiyalari ajratiladi.


Shunday qilib polimetall ma'danlarning asosiylari birlamchi minerallari – galenit va sfalerit, ikkilamchi paragenetik assotsiatsiyasi esa galenit bo'yicha rivojlangan anglezit, serussit va sfalerit bo'yicha rivojlangan smitsonit hisoblanadi.

Ayrim konlarni qidirishda element-indikatorlarning ahamiyati kattadir.



43-rasm. Mis-kolchedanli ma'dan tanasi va uning birlamchi tarqalish oreolinining joylashish sxemasi (V.M.Kreyter bo'yicha):

1 - porfyrillar; 2 - albitofirlar; 3 - birlamchi tarqalish oreoli; 4 - ma'dan tanasi.



44-rasm. Qo'rg'oshin(a), rux(б), margumush(в)larning qo'rg'oshin-ruxli ma'dan tanalari atrofida vujudga kelgan endogen geokimyoviy oreollari (V.I.Biryukov bo'yicha): 1 - ohaktoshlar; 2 - granodioritlar; 3 - skarnsimon jinslar; 4 – tektonik harakatlar natijalari (darzliklar); 5 – ma'dan tanalari; elementlar miqdori (%): 6 - <0,01; 7 - 0,01 dan 0,03 gacha; 8 - 0,03 dan 0,3 gacha; 9 - >0,3.

Masalan, granitoidlarda litiyning bo'lishi tantalning borligini, marginushning bo'lishi oltin borligini, simob bo'lishi ayrim xalkofil elementlarning ($\text{Cu}, \text{Pb}, \text{Zn}, \text{Sb}, \text{Bi}, \text{Ag}$ va b.) borligini anglatadi.

Qidirish ishlarida magmatik jinslarda uchraydigan biotit, sirkon, sfen, rutil va sulfidlar ham qimmatli ma'lumotlar beradi. Agar granitdagi biotitda litiy uchrasa, unda granit massivida yoki uning yaqinida bu elementlarning yuqori darajada boyigan joylarini kuzatish mumkin. Shuningdek tub jinslardagi, bo'shoq yotqiziqlardagi, tuproqlardagi, o'simliklardagi yer osti va osti suvlaridagi kimyoviy elementlarning yuqori miqdori qidirish mezoni hisoblanadi.

Masalan, chashmalar yoki suv havzalarida, kimyoviy elementlarning yuqori miqdorda bo'lishi suv havzalarining bu elementlar bilan boyiganligidan dalolat beradi. Geokimyoviy mezonlarga ba'zi elementlarning birga kelishi (masalan molibden bilan mis), ba'zi elementlarning esa birga uchramasligi (qalay bilan mis birga uchramaydi) kiritilishi mumkin.

Neft va gaz konlariga yaqin joylardagi suvlarda yuqori miqdorda yod, brom va eruvchan uglevodorodlar uchraydi.

Geokimyoviy qidirishning konseptual modeli. «Journal of Geochemical Exploration» ilmiy jurnalida «Geokimyoviy qidirishning

konseptual modeli» nomi ostida 4 ta keng qamrovli maqolalar e'lon qilingan edi. Konseptual modelning vazafasi – qidirish vazifasini amalga oshirish uchun kerak bo'lgan bilimlar yoki tasavvurlar asosida modelning yer yuzasidagi ko'rinishini ifodalovchi vaziyatlarni shakllantirishdir. Bu tadqiqotlar turli hududlar misolida bajarilgan bo'lib, ular Kanada Kordilyerlari va Kanada qalqoniga (Bredshou, 1975), Shimoliy Arktika regioniga (Kaurann, 1976), AQSHning g'arbiy qismi va Meksika shimoliga (Fortescue, 1975) va Avstraliyaga (Batt, Smit va boshq., 1980) bag'ishlangan. Bu tadqiqotlar monografiya xarakteriga ega bo'lib, regionlarning geologik tuzilishidagi ko'pchilik xususiyatlarni hisobga olgan holda geokimyoviy qidirish uchun mezon bo'ladigan ma'lumotlarni o'z ichiga to'plagan.

Masalan, Avstraliyaga bag'ishlangan monografiyada mualliflar 52 loyiha bo'yicha bajarilgan geokimyoviy ishlar natijalaridan foydalangan holda, geologik va geomorfologik ma'lumotlarni umumlashtirish asosida, 8 ta ideallashtirilgan modelni taqdim etadilar. Geologik vaziyat ikki ko'rsatkich bo'yicha o'ziga xos tasniflanadi: 1) nurash po'sti profilining saqlanganlik darajasi va 2) joyning relyefi (past, o'rtacha va baland) bo'yicha.


Shunday modellardan birining prinsipial sxemasi 45-rasmda keltirilgan. Geokimyoviy usullarni qo'llash imkonini chegaralovchi omillar sifatida quyidagilar ko'rsatiladi:

- kerakli indikator elementni aniqlashning analitik usuli yo'qligi;
- qoplovchi to'rtlamchi davr yotqiziqlarining katta qalinligi;
- geologik tuzilish va elementlar migratsiyasining o'ta murakkabligi;
- aldamchi geokimyoviy anomaliyalarning paydo bo'lishi;
- antropogen faoliyat natijasida ifloslanish va h.q.

Topilishi maqsad qilingan ma'dan tanasining konseptual modeli shuning uchun ham kerakki, «indikator element» (asosiy element) va «yo'ldosh element» (bog'liqligi mavjud, lekin tarqoq holda) deb ataluvchi tushunchalarni geokimyoviy qidirish usullarini qo'llash uchun qurol sifatida ishlatalish imkonini yaratiladi (36-jadval).

Indikator va yo'ldosh elementlar misollari

| <i>Ma'dan assotsiatsiyasi</i> | <i>Indikator elementlar</i> | <i>Yo'ldosh elementlar</i> |
|-------------------------------|-----------------------------|--|
| Mis-porfir | Cu, Mo | Zn, Mn, Au, Rb, Re, Tl, Te |
| Sulfidli ma'danlar | Zn, Cu, Ag, Au | Hg, As, S (SO ₄), Sb, Bi, Se, Cd |
| Asl metalli tomirlar | Au, Ag | As, Sb, Te, Mn, Hg, I, F, Bi, Co |
| Skarn konlari | Mo, Zn, Cu | B |
| Uran (qumtoshli) | U | Se, Mo, V, Rn, He |
| Uran (tomirsimon) | U | Cu, Bi, As, Co, Mo, Ni |
| Ultramafitlardagi ma'danlar | Pt, Cr, Ni | Cu, Co, Pd |
| Flyuoritli tomirlar | F | Y, Zn, Rb, Hg |



45-rasm. Geokimyoviy qidirishning konseptual modeli: nuragan tub jinslar profili, past relyef (Batt, Smit va b., 1980 bo'yicha): A1 – ochilgan tub jins;

A2 – joyida qolgan tuproq; A3 – qoplovchi jinslarga ko'chgan qoldiqlar.

Namunalar materiallari: M – minerallashuv; M(S) – yer yuzidan olingan minerallashuv; PA – ma'danlashuv atrofидаги бирламчи (singenetik) oreollar; SA – nuragan tub jinslar va tuproqlardagi ma'dan elementlarining ikkilamchi oreollar; G(S) – qoldiq ma'dan, yer yuzasida; G(SS) – qoldiq ma'dan, chuqurlikda; OM(S) – oksidlangan ma'dan, yer yuzasi; OM(SS) – oksidlangan ma'dan, chuqurlikda; WB – nuragan tub jins; SL – qoldiq tuproq; TO – ko'chirilgan qoldiqlar. Anomaliya turi: R – qoldiq; M – mekanik; H – gidromorf. Tub va qoplama jinslar tabiatи: 1 – o'zgarmagan tub jinslar; 2 – nuragan jinslar; 3 – tuproqlar; 6 – allyuviy, kallyuviy.

Mineralogik mezon. Shlixlarda ba'zi minerallarning odatdagidan ko'proq uchrashi hududda shu foydali qazilmaning konlari bo'lishi mumkinligidan darak berishi mumkin.

Masalan Markaziy Osiyoda shlixlarda sheelit ko'p uchrashi bu hududda sheelitli skarn konlari keng tarqalganligining ifodasidir. Rossiyaning Zabaykalye va Primorye o'lkkalarida tog' jinslari va shlixlarda cassiterit mavjudligi bu hududlarda qalay konlari mavjudligini ko'rsatadi, amalda esa shunday konlar haqiqatda ham mavjud.

Tog' jinsining ma'dan oldi o'zgarishi – har xil genezisli konlarni qidirishning asosiy mezoni hisoblanadi. Yondosh jinslarning o'zgarishi faqt ma'danli gidrotermal eritmalar ta'siridagina emas, balki nurash jarayonida konlarning parchalanishidan ham paydo bo'lishi mumkin.

Endogen konlardagi yondash jinslarning ma'dan oldi o'zgarishlari skarnlanish, greyzenlanish, kvarslanish, kaolinlanish, dolomitlanish, seritsitlanish va boshqalardan iborat.

Temir, mis, polimetall, volfram, molibden, oltin, qalay, bor va boshqa konlar skarnlar bilan bog'liq.

Greyzenlashgan jinslarda qalay, volfram, molibden, berilliyl, tantal, niobiyl, vismut konlari uchraydi.

Oltin, mis, rux, qo'rg'oshin va nodir metallar konlari seritsitlanish bilan bog'liq.

Kaolinlanish o'rta va past haroratlari qo'rg'oshin, rux, oltin, qalay, flyuorit, simob konlariga xosdir.


Tog' jinslarining ma'dan oldi o'zgarishi katta qidirish ahamiyatiga ega. Chunki ular ko'zga oson tashlanuvchi yorqin ranglarga ega bo'lgan holda foydali qazilma uyumi kattaligiga nisbatan keng maydonlarni egallaydi.

Shuni hisobga olish kerakki, tog' jinslarining ma'dan oldi o'zgarishlari kuzatilgan hududlarda har doim ham sanoatga yaroqli ma'danlar uchramaydi.


Gidrotermal eritmalar va yuqori haroratlari gazlar va bug'larning hosil bo'layotgan ma'dan konlarining atrofidagi qamrovchi jinslarga ta'siri ularning petrografik tarkibining muhim o'zgarishlariga olib keladi.

Shunday qilib, yuqori temperaturali konlar yaqinida granat, shox aldamchisi, piroksen, turmalin va biotit kabi minerallar hosil bo'ladi. Mezotermal konlar yaqinida seritsit, xlorit va karbonatlar; epitermal

konlar atrofida esa, xloritga nisbatan ko'proq seritsit va karbonatlar, adulyar va alunit hosil bo'ladi. Bu o'zgarishlar konning o'ziga nisbatan ancha kattaroq maydonlarni egallaydi va ma'danlashuv topilmasdan oldin shu yerda kon bo'lishi mumkinligidan dalolat berishi mumkin (46-rasm). Bu vaziyat ayniqsa chuqurlikda yopiq holatda bo'lgan konlar uchun muhimdir (47-rasm). Gorizontal kesimda tog' jinslarining o'zgargan qismlari konsentrik nishon ko'rinishida namoyon bo'lib, odatda ellipsoid shakliga ega. Qidiruv ishlari uchun ahamiyatli nishon kutilayotgan konga nisbatan haddan tashqari katta yoki kichkina bo'lmasligi kerak (yaxshisi kon o'lchamidan 10-50 barobar katta bo'lishi ma'qul).



46-rasm. Ko'ndalang kesihganda uchraydigan gidrotermal o'zgargan jinslar ma'dan tanasi mavjudligidan darak berishi mumkin.



47-rasm. Ma'dansiz uzilma atrofida rivojlangan gidrotermal o'zgargan jinslar chuqurlikda yashiringan ma'dan tanasi mavjudligiga ishora berishi mumkin: 1 – tomirsimon ma'dan tanasi; 2 – qamrovchi jinslar; 3 – gidrotermal o'zgargan jinslar; 4 – ma'dansiz uzilma; 5 – yer yuzasi.

2.7. Metamorfogen mezon

Tog' jinsi qatlamlari yer po'stining rivojlanishi jarayonida metamorfizmga uchraydi. Harorat va bosimning o'zgarishi natijasida metamorfizmga uchragan tog' jinslarida yangi metamorfogen konlар paydo bo'ladi.

Flogopit, grafit, temirli kvarsit, marmar, island shpati, granat kabi konlarning paydo bo'lishi metamorfizm bilan bog'liq. Metamorflashgan va metamorfogen konlarning yondosh jinslari uchun o'ziga xos o'zgarishlar xarakterlidir. Masalan, o'ta asos jinslarning serpentinlanishi, gneysning grafitlanishi, ohaktoshning marmarlanishi qidirish mezonlari bo'lishi mumkin. Bunday o'zgarishlar faqat regional metamorfizm ta'siridagina sodir bo'lmasdan, chuqurlikdagи magma ta'sirida ham sodir bo'ladi. Bu esa maydonda qidirishning istiqbollarini ancha oshiradi.

Metamorfik konlar regional metamorfizm jarayonida elementlarning harakatga kelishi va konsentratsiyasi natijasida vujudga keladi. Metamorflashgan konlar birlamchi cho'kindi yoki metamorfogen konlarning kontakt yoki regional metamorfizmi natijasida hosil bo'ladi.

Bu ikkala tur metamorfogen guruhga birlashtirilgan. Metamorfik komplekslarda joylashgan, magmatitlar bilan fazoviy bog'liqligi noaniq bo'lgan ko'pchilik konlar, metamorfik konlar deb taxmin qilinadi. Ular nomagmatik genezisli suvlar ta'sirida vujudga kelgan deb hisoblanadi (masalan, kristallangan slaneslardagi rutil va ilmenit konlari, kvarsitlardagi kvars tomirlari, flogopit va grafit konlari ko'pchilik hollarda shunday turga kiritiladi).

Metamorflashgan konlarning turlari, ayniqsa paleozoygacha va paleozoy davrining cho'kindi va magmatogen konlari orasida ko'p sonlidir (masalan, Rossiyadagi regional metamorflashgan Krivoy Rog temir koni; Avstraliyadagi Broken Xil Pb-Zn koni; JARDagi Vitvatersrand oltin koni; Polshadagi kontakt-metamorflashgan Kovari temir koni; Meksikadagi Sonora grafit koni; Gretsiyadagi Naksos najdak koni). Bu konlarni qidirish tamoyillari xuddi cho'kindi va magmatogen konlarni qidirish tamoyillaridek bo'lsada, qamrovchi jinslarning metamorfizmiga va undan keyingi mineral tarkibidagi farqlar va o'zaro munosabatlar alohida e'tiborga olinishi kerak. 10-20 km chuqurliklarda sodir bo'ladigan anateksis va palingenez bilan bog'langan ultrametamorfizm jarayonidan oldin metallarning (boshqa moddalardan tashqari) mobilizatsiyasi sodir bo'ladi. Bunda ular yuqoriga ko'chib boradi va ma'danli metamorfizm frontini hosil qiladi. Bu metall konlari gidrotermal konlar xususiyatlariiga ega.

Metamorfik fatsiyalar metamorfik konlarning mezonlaridir. Sof tug'ma mis konlari seolitli fatsiyalar bilan bog'liq (Leyk Superior, AQSH); magnetit-gematitli kvartsitlar, oltin, uran, sulfid, najdak, amorf grafit va asbest konlari yashil-slanes fatsiyasi bilan; marganes va ruxning silikatli ma'danlari va magnetitli-amfibol ma'danlari glaukofan fatsiyasi bilan; takonitlar va itabiritlar, temir ma'danlari, kianit, sillimanit, andaluzit, korund, najdak kristallik grafit va ilmenit ma'danlari shox-aladamchili fatsiyasi bilan; amfibol-piroksen-magnetitli kvarsitlar, granat, rutil granulit fatsiyasi bilan; rutil eklogit fatsiyasi bilan bog'liqidir.

2.8. Qidirish va bashoratlashning geomorfologik, paleogeografik va boshqa mezonlari

Geomorfologik mezon. Yer yuzi relyefining paydo bo'lishi tub tog' jinslarining parchalanishi va bo'shoq materiallarning qayta yig'ilishi bilan bog'liq bo'lgan konlarning fazoviy holatini aniqlaydi. Bularga har xil sochilmalar, nurash konlari, gillar, qumlar va shag'allar kiradi. Geomorfologik mezon sochilma konlarni qidirishda katta ahamiyatga ega.

Hozirgi va qadimgi daryo vodiylarining paydo bo'lish tarixini o'rGANISH natijasida har xil nodir metalllar sochilmalarini topishga imkon tug'iladi.

Relyefning asosiy shakllari nurash va muzlik yotqiziqlari rivojlangan maydonlarga xosdir. Juda katta boksit, marganes, nikel, nodir metall konlari tekislangan nurash yuzalari bilan bog'liq. Relyefning muzlik shakllari (ozlar, drumlinlar, kamlar) yuqori sifatlari qum, shag'al konlarini qidirish uchun ishonchli belgi hisoblanadi.

O'zgargan tog' jinsi maydonlarida joylashgan ma'dan uyumlarini qidirishda geomorfologik kuzatishlar katta yordam beradi. Nurashga chidamli ma'dan uyumlari, daykalar o'zgargan maydonlar relyefining musbat shaklini paydo qiladi. Oson nuraydigan oksidlangan sulfidli ma'dan uyumlari, tektonik harakatga uchrab buzilgan tog' jinslari mansiy relief shakllarini hosil qiladi.

Bunday holatlarni aerofotosuratlar yordamida, dala ishlariga chiqish bosqichidan oldin, geomorfologiya belgilari bo'yicha u yoki bu foydali qazilmalarni qidirish uchun qiziqarli maydonlarni ajratish mumkin.

Geomorfologik mezon yer po'stining hozirgi zamon tektonika harakati bilan bog'liq bo'lgan, yosh ko'tarilmalarni aniqlashga va neft, gaz konlarini qidirishga yordam beradi.

Geomorfologik mezonlar ayniqsa sochilma konlarini qidirishda muhim ahamiyatga ega. Bunday mezon bilan qidirish birinchi navbatda geologik jihatdan kamroq o'rGANILGAN hududlarda, masalan, rivojlanayotgan davlatlarda olib borilishi maqsadga muvofiqdir. Shunga qaramay, Chexiyadagi Krasne Gori hududida qalayi sochilma konlarini o'rGANISHDA olingen yaxshi natijalar shuni ko'rsatdiki, foydali qazilmalarni o'zlashtirish borasida 2500 yil tarixga ega bo'lgan

mamlakatlarda ham bu usul foyda berishi mumkin ekan. Ba'zan bilvosita xarakterga ega bo'lgan, tektonik zinalar, izoklinal qoyalar va kuestalar kabi geomorfologik mezonlar hududning tektonik tuzilishini ko'rsatib beradi. Konlarning yer yuzasidagi xususiyatlarini ko'rsatuvchi musbat va manfiy relyef shakllarini bevosita geomorfolik mezonlar deb hisoblashimiz mumkin.


Agar suv oqimlari bir xil darajadagi rivojlanish pog'onasiga yetgan bo'lsa, ularning hududlarida bir necha o'ziga xos zonalarni ajratish mumkin. Bu zonalar muayyan turdag'i sochilmalar bilan xarakterlanadi (48-rasm).

Bilibin (1955), muayyan sochilma turlari bilan bog'liq bo'lgan, daryo vodiylari evolutsion rivojlanishining 4ta bosqichini ajratgan (49-rasm): 1. Qadimiy bosqich – qadimgi eroziya siklining keng vodiysidagi allyuviy yotqiziqlarining tubida joylashgan vodiy sochilmalari; 2. Yosharish bosqichi – vodiyni kesib o'tuvchi yangi o'zan sochilmalari va terrasalarda saqlanib qolgan avvalgi sikl vodiy sochilmalari; 3. Rivojlanganlik bosqichi – vodiyning kengayishi, daryo o'zanidagi sochilmalarning vodiy sochilmalariga aylanishi va terrasalardagi sochilmalarning yemirilishi; 4. Qadimiylik bosqichi – vodiy sochilmalari rivojlangan yangi eroziya sikliga mansub keng vodiy. Barcha to'rt zona (48-rasm) daryo oqimi bo'yicha yuqoriga harakatlanib boradi. To'rtinchi zona borgan sari kengayib boradi va asosiy maydonni egallab oladi.




48-rasm. Soylar sochilmalarining zonalarga ajratilishi (Bilibin, 1955 bo'yicha): I va IV zonalar – vodiy sochilmalari; II zona – terrasalar va o'zan sochilmalari; III zona – o'zan sochilmalarining vodiy sochilmalariga aylanishi va terrasa sochilmalarining yemirilishi.

Paleogen-neogen va bo'r davrining ko'milib ketgan sochilmalari ko'pchilik hududlar qatorida Ural, G'arbiy Sibir va Qozog'istonda ma'lumdir. Allyuvial yotqiziqlardan (vodiy, terrasa va o'zanlar sochilma konlari, 50-rasm) tashqari, og'ir ma'dan minerallariga boyigan sochilmalar muzlik morenalarida, ko'l, delta, litoral va elyuvial (nurash po'stida) yotqiziqlarda ham uchraydi.




49-rasm. Sochilmalar shakllanishining daryo vodiylari evolutsion rivojlanishining bosqichlariga bog'liqligi: a – qadimiy bosqich – vadiv sochilmalari (A); b – yosharish bosqichi – daryo o'zani sochilmalari (C) va terrasa sochilmalari (B); d – rivojlanganlik bosqichi – daryo o'zani sochilmalarining (C) vadiv sochilmalariga (A) aylanishi va terrasa sochilmalarining (B) yemirilishi; 1 – allyuviy; 2 – sochilmalar.



50-rasm. Alyaskadagi Bonanza daryosining ko'ndalang kesimi. Daryo vodisi rivojlanganlik bosqichining boshlang'ich qismida shakllangan oltinli vadiv va terrasa sochilmalari (Bilibin, 1955 bo'yicha): 1 – torf; 2 – vadiv va terrasa sochilmalari; 3 – yuqori terrasaning oltinli mayda shag'allari (eng boy); 4 – tub jinslar.

Tog' yon bag'irlarida va chekkalarida rivojlangan kollyuvial sochilmalar boshqa turga mansub barcha sochilmalarni material bilan ta'minlaydi. Foydali qazilma konlari mavjudligi vodiyning rivojlanish modeli shakliga ta'sir qilishi qiziqarli holatdir. 51-rasmda sulfidli ma'dan tanasining differensial yemirilishi natijasida normal rivojlanish sxemasiga mos kelmaydigan vodiyning evolutsiyasi ko'rsatilgan.



51-rasm. Sulfidli ma'dan tanasining oksidlanish zonasida (shtrixlangan) daryo vodiysining anomal yo'l bilan rivojlanishi (V.I.Smirnov, 1957 bo'yicha).



Paleogeografik mezonlar. Bir guruh foydali qazilma konlari turlari qadimgi relyef shakkiali bilan bog'liqdir. Bunday relyef shakkalarining peneplen zonasida rivojlanganlari bilan nurash po'stining qoldiq konlari; ko'llarda, botqoqliklarda va daryolardagisi bilan – kam sonli, lekin qalin qatlamlı platforma ko'mir konlari; qirg'oq bo'yи tekisliklаридагиси bilan – U- va Cu-li qumtoshlar; qirg'oq bo'yи ko'rfazlar va botqoqliklardagisi bilan – ko'mir konlarining oraliq turlari; ko'rfazlardagisi bilan – tuz, oltingugurt, cho'kindi mis va uran, bitumli slanes konlari; kichik dengizlarning qirg'oq bo'yи zonalaridagisi bilan – fosfatlar, cho'kindi temir va marganes konlari; deltaoldi zonalaridagisi bilan – ko'p sonli, lekin yupqa qatlamlı, kuchli

dislokatsiyalangan va metamorflashgan geosinklinal bosqichning ko'mir konlari bog'langan.


Cho'kindi temir konlarning mineral tarkibi ma'danlarning dengiz qirg'og'idan qancha uzoqlikda cho'kkaligiga bog'liq (52-rasm). Atrof qirg'oqdagi jinslar odatda tekislanib, tropik nurashga uchraydi. Ayniqsa asos jinslarning nurashi natijasida ko'p miqdorda temir ajraladi. Boy yotqiziqlar Amazonka daryosiga o'xshash daryolarning quyilish yeridagi tor daralarda hosil bo'lgan.

Kontinental (ko'l) temir ma'danlari ham xuddi shunday iqlim va topografik sharoitlarda rivojlanadi. Arid zonalardagi dengizlar temir ma'danlari hosil bo'lishi uchun qulay sharoit emasdir. Tokembriy davridan so'ng cho'kindi temir ma'danlari hosil bo'lish o'choqlari chuqur dengiz fatsiyasi (tokembriy davrining temirli kvarsitlari) zonasidan litoral va kontinental (botqoq) fatsiyalar zonasiga ko'chib o'tgan.

Fosfatlar dengiz suvidan 50-80 m chuqurliklarda va katta chuqurlikda kelib chiqqan organik P₂O₅ cho'kishi natijasida hosil bo'ladi. P₂O₅ ning suvda eruvchanligi CO₂ ning dengiz suvidagi partsial bosimiga to'g'ri proporsionaldir. Suv sathi yaqinida CO₂ gazi bosim pastligi uchun uchib ketadi va P₂O₅ esa kalsiy fosfatining konkretsiyalari ko'rinishida qirg'oq chizig'iga parallel zonada cho'kmalar hosil qiladi (53-rasm). Bu zonaning kengligi dengiz tubining qiyaligiga bog'liq bo'lib, epikontinental dengizlarda fosfatlar kengligi 1 km tasma ko'rinishida, geosinklinal dengizlarda esa kengligi anchagina kam, lekin katta qalinlikka ega bir necha qatlamlarda to'planadi. Yuqoriga ko'tariluvchi dengiz oqimlari tarkibida CO₂ va P₂O₅ bo'lgan sovuq suvlarni shelf zonasiga olib keladi va fosfat cho'kindilarni hosil qilishi mumkin.

a**b**

52-rasm. Temirli yotqiziqlar mineral tarkibining dengiz qirg'og'idan uzoqlik darajasiga bog'liqligi: a – Bo'r davridagi Ural (Krotov bo'yicha); b – Minesottadagi yuqori proterozoy davri djespillitlari (Ruxin, 1962 bo'yicha).



53-rasm. Fosfatlar hosil bo'lishini ko'rsatuvchi diagramma (N.M.Straxov, 1962 bo'yicha): 1 – qirg'oq bo'yish shag'al va qum fatsiyasi; 2 – fosfat fatsiyalar; 3 – ohakli yotqiziq fatsiyalar; 4 – maksimal miqdorda CO_2 va P_2O_5 bo'lgan zona (CO_2 ning partsial bosimi $12 \cdot 10^{-3}$ mPa, P_2O_5 – 300-600 mg/m³); 5 – quruqlik massivi; 6 – plankton cho'kindilarining cho'kishi; 7 – oqimlar yo'nalishlari.

Foydali qazilmalarni qidirishda muhim bo'lgan paleogeografik mezonlarni bir necha tabaqalarga bo'lish mumkin. Ularning har biri alohida e'tiborga loyiqidir. Bular: 1) ta'minlovchi va cho'kish hududlarining relyeflari; 2) iqlim sharoiti; 3) qadimiy yuvilish zonasi; 4) qirg'oq chizig'ining shakli; 5) cho'kindi to'planish joyidagi (daryo, ko'l yoki dengizda) oqimlar yo'nalishi; 6) vulkan markazlarining mavjudligi. Bu omillarning barchasiga tektonizm ta'sir ko'rsatadi.

Iqlim mezoni. Iqlim mezoni iqlim sharoiti bilan mineral paydo bo'lishi jarayonlarining bog'liqligini ko'rsatadi. Albatta, iqlim sharoiti faqatgina Yer yuzasida sodir bo'layotgan jarayonlargagagina ta'sir ko'rsata oladi. Demak, bu mezon bilan Yer yuzasida yoki katta bo'Imagan chuqurliklarda sodir bo'ladigan jarayonlar natijasida paydo bo'ladigan konlarni qidirishimiz mumkin ekan. Shuningdek, katta maydonlarda cho'kindi paydo bo'lish bilan cho'kindi to'planishi sharoitlari aniqlanadi.

Nam iqlimli rayonlar oltin, platina, olmos va ayrim og'ir metall sochilma konlari, boksit, kaolin, temir, marganes ma'danlari, ko'mir konlarining paydo bo'lishi juda qulay sharoit hisoblanadi.

Quruq iqlimli rayonlarda esa cho'kindi mis ma'danlari, qo'rg'oshin, rux, gips, galit, kaliyli tuz, flyuorit, borat, bromidlar paydo bo'ladi deb taxmin qilish mumkin.

Biz oddiy ko'z bilan Kaspiy dengizi qirg'oqlarida o'ziga xos sharoitda sanoatbop miqdorda dengiz suvida cho'kkан mirabilit paydo bo'lishini kuzatishimiz mumkin.

Paleoiqlim mezoni. Paleoqliim mezonlari nurash po'sti bilan bog'liq bo'lgan konlarni qidirishda ayniqsa muhimdir. Ba'zi tog' jinslarining qoldiqlari nurash jarayoni natijasida qiyin ko'chuvchi elementlar bilan boyib boradi va iqtisodiy qiziqarli to'plamlar hosil qiladi. Masalan, serpentinitlar ustidagi Ni-gidrosilikatlari, tarkibida temir kam bo'lgan jinslar ustidagi aluminiyga boy jinslar, dala shpatlariga boy jinslar ustidagi kaolinlar, marganesga boy jinslar (masalan, gonditlar) ustidagi Mn oksidlari, muayyan birlamchi jinslar ustidagi tarkibida Au, Pb va Fe bo'lgan qoldiq konlar shular jumlasidandir. Bu turdag'i nurash jarayonlari eng qadimgi davrlardan beri sodir bo'lib keladi. Masalan, kaolin toshko'mir davridan boshlab paydo bo'lib boshlagan. Qoldiq va ko'pchilik cho'kindi konlar tropik iqlim sharoitida hosil bo'ladi. Agar biz, turli geologik davrlardagi ekvatorning taxmini vaziyatini bilsak, kuchli nurash jarayonlari qayerda sodir bo'lganligi haqida xulosa chiqarishimiz mumkin bo'ladi.

Arid iqlimli zona konlariga dolomit, misli qumtoshlar, Pb va Zn ning cho'kindi ma'danlari, gips, galit, kaliy tuzlari, selestin, boratlar va brom konlari kiradi.

Geofizik mezon. Yer qobig'idagi har qanday foydali qazilma uyumlari ma'lum bir fizik xususiyatlarga ega bo'lganligi uchun ular atrofida tabiiy fizik maydonlar mavjud. Bu maydonlarni aniqlash orqali foydali qazilma uyumlarini qidirib topish mumkin. Bundan tashqari foydali qazilma uyumlari atrofida sun'iy fizik maydonlarni hosil qilish yo'li bilan ham qidirish vazifasini bajarish mumkin. Demak, geofizik qidirish mezonlari tabiiy va sun'iy fizik maydonlarni o'rganishga asoslangan. Bu mezon orqali har xil anomaliyalar ajratiladi. Bu anomaliyalar esa foydali qazilmalarni topishga imkon beradi.

Bunga misol qilib magnit, radioaktiv, gravitatsion va elektr maydoni anomaliyalarini ko'rsatish mumkin. Amalda geofizik izlanishlar jarayonida juda ko'p har xil anomaliyalar ajratiladi. Lekin ularning ayrimlarigina foydali qazilmalar bilan bog'liq bo'ladi.

Magnit anomaliyalari orqali temir va mis-nikelli ma'danlarni qidirish mumkin. Radioaktiv anomaliyalar uran, radiy va toriy konlarini qidirishda mezon bo'lib xizmat qiladi. Gravitatsion anomaliyalar neft va gaz konlarini qidirishning mezonlari bo'lishi mumkin. Elektr maydoni anomaliyalari ko'pchilik sulfidli konlarni qidirishda mezon vazifasini bajarishi mumkin.

3. FOYDALI QAZILMA KONLARINI QIDIRISH VA BASHORATLASH BELGILARI

Qidirish belgilarining klassifikatsiyasi

Yer qobig‘ining biron bir nuqtasida foydali qazilma borligidan yoki bor bo‘lishi mumkinligidan darak beruvchi dalillar - ***qidirish belgilar*** deyiladi.

Darak beruvchi faktlar va hodisalarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- konlarning hosil bo‘lishi, o‘zgarishi va yemirilishi jarayonlarining izlari;
- foydali qazilmalar va qamrovchi jinslarning fizik, kimyoviy va mineralogik xususiyatlari;
- insonlar faoliyati haqida tarixiy ma’lumotlar.

Yer qobig‘ining biron bir nuqtasida foydali qazilma borligidan yoki bor bo‘lishi mumkinligidan ***to‘g‘ridan-to‘g‘ri*** darak beruvchi dalillar – ***bevosita*** qidirish belgilari deyiladi.

Yer qobig‘ining biron bir nuqtasida foydali qazilma borligidan yoki bor bo‘lishi mumkinligidan ***biron-bir vosita orqali*** darak beruvchi dalillar – ***bilvosita*** qidirish belgilari deyiladi.

Bevosita qidirish belgilari quyidagicha tasniflanadi:

1. FQ larning yer yuzasiga chiqishi (ma’danli jinslarning tabiiy va sun’iy ochilmalari);
2. FQ larning oreollari va tarqalish oqimlari;
3. FQ larning alohida fizik xususiyatlari;
4. tarixiy ma’lumotlar.

Bilvosita qidirish belgilari quyidagicha tasniflanadi:

1. ma’danoldi o‘zgarishlari;
2. tomirsimon minerallarning mavjudligi;
3. FQ va qamrovchi jinslarning fizik xususiyatlaridagi farqlanish (geofizik anomaliyalar);
4. relyefning o‘ziga xos xususiyatlari;
5. gidrogeologik belgilari;

6. botanik belgilar;
7. va boshqalar.

3.1. Foydali qazilma konlarini qidirish va bashoratlashning bevosita belgilari

Yuqorida keltirilganidek, foydali qazilma borligidan yoki bo'lishi mumkinligidan to'g'ridan-to'g'ri darak beruvchi dalillar - *bevosita qidirish belgilari* deyiladi. Ular to'rtta turga ajaratiladi.

1) Ma'danli jinslarning tabiiy va sun'iy ochilmalari

Tog' jinslari va FQ larning yer yuzasiga chiqib qolgan joylari umumiy tarzda ochilmalar deyiladi. Kelib chiqishi bo'yicha ochilmalar tabiiy yoki sun'iy ravishda hosil qilinganlar bo'lishi mumkin.

Foydali qazilmalarning yer yuzida tabiiy va sun'iy holda ochilib qolishi eng ishonchli qidirish belgisi hisoblanadi.

Bularga qattiq foydali qazilma minerallarining to'planishi. Har xil tabiiy sharoitlarda neft va gaz uyumlарining paydo bo'lishi, suv manbalarining minerallanishini ko'rsatish mumkin.

Foydali qazilmaning tub ochilmasiga qarab minerallashishning chuqurliklarga tarqalishi, u yoki bu elementlarning miqdori, foydali qazilmalarning sifati to'g'risida fikr yuritish mumkin.

Foydali qazilmalarning sun'iy ochilmalari har xil xaritalash va qidirish ishlari jarayonida o'tqaziladigan tog' qazilmalarida (burg'ilash qudug'ida, kanavada, shurfda) namoyon bo'ladi. Ba'zi hollarda qurilish ishlari jarayonida, ayniqsa yo'llar qurilishi paytida sun'iy ochilmalar ko'p hosil bo'ladi.

2) Foydali qazilmalarning oreollarini va tarqalish oqimlari

Foydali qazilma uyumlari va ularning parchalanish mahsulotlaridan hosil bo'lgan anomaliyalar "tarqalish oreollar" deb ataladi.


Ular tub tog' jinslarida (litogeokimyoviy oreol), bo'shoq jinslarda, tuproqlarda, suvlarda (gidrogeokimyoviy oreol), o'simliklarda (biogeokimyoviy oreol), tuproq havolarida (atmogeokimyoviy oreol) keng rivojlanadi.

Foydali qazilma tanalari Yer qobig'ining muayyan joylarida to'planar ekan, bu to'planish notejis xarakterga ega bo'ladi. Odatda, foydali qazilmaning eng ko'p to'plangan qismi iqtisodiy talablarga javob beradigan bo'lib, uning atrofida sanoat talabiga javob bermaydigan foydali qazilma

to'plamlari paydo bo'ladi va ular oreollar deb yuritiladi. Hosil bo'lish davriga qarab, oreollar ikki turga bo'linadi: birlamchi va ikkilamchi oreollar.

Birlamchi oreollar foydali qazilma tanalari bilan bir jarayonda va deyarli bir vaqtida paydo bo'ladi (54-rasm).


Ikkilamchi oreollar esa foydali qazilma tanasi va uning atrofidagi birlamchi oreollar hisobiga, ularning yemirilishi va boshqa joyga ko'chishi natijasida paydo bo'ladi. Ularni ba'zan tarqalish oqimlari ham deyiladi (55-rasm).



54-rasm. Mis-kolchedanli ma'dan tanasi va uning birlamchi

tarqalish oreolining joylashish sxemasi (V.M.Kreyter bo'yicha):

1 - porfiritlar; 2 - albitofirlar; 3 - birlamchi tarqalish oreoli; 4 - ma'dan tanasi.



55-rasm. Ikkilamchi oreollar shakllari:

1 – birlamchi ma'dan tanasi; 2 – nuragan ma'dan bo'laklari; 3 – relyef chiziqlari.

Birlamchi oreollar ularni o'rabi turuvchi qamrovchi jinslarga nisbatan: singenetik (qamrovchi jinslar bilan bir vaqtida paydo bo'lganlar) va epigenetik (qamrovchi jinslarga nisbatan keyinroq paydo bo'lgan) turlarga ajratiladi.

Oreollarning yer yuzasiga nisbatan joylashishiga qarab: ochiq (yer yuzasiga chiqqan) va yopiq (yer yuziga chiqmagan) turlarga ajratiladi. Yopiq oreollar o'z navbatida, nima bilan yopilganiga qarab: ko'r («слепые» - ya'ni yer yuzasiga chiqmagan) va ko'milgan («погребенные» - avval ochilib, keyinchalik ko'milib ketgan) turlarga ajratiladi.

Oreollar o'zining ko'lamiga (kattaligiga) qarab: ma'dan tanalarining oreollarri; konlarning oreollarri va ma'danli maydonlarning oreollariga ajratilishi mumkin.

Oreollarning xususiyatlari (shakli, o'lchami, tarkibi) ko'p sabablarga bog'liq, shulardan eng muhimlari:

- oreol tarkibiga kiruvchi elementlar geokimyosi;
- ma'danlarning tarkibi, tuzilishi, morfologiyasi, genezisi;
- qamrovchi jinslarning fizik-kimyoviy xususiyatlari va yotish elementlari.

Qidirish ishlarida foydali qazilmalarning tarqalish oreollarri katta ahamiyatga ega. Har xil geokimyoviy jarayonlar natijasida tog' jinslarida, bo'shoq yotqiziqlarda, tuproqlarda, tabiiy suvlarda, o'simliklarda kimyoviy elementlarning o'rtacha miqdori odatdagiga nisbatan ancha yuqori bo'lib anomaliyalar paydo bo'ladi.

Masalan, galenit, sfalerit, magnenit, xalkopiritdan tashkil topgan qo'rg'oshin, rux konlaridagi *birlamchi tarqalish oreollarida* qo'rg'oshin, rux, marginush, mis va boshqa elementlarning yuqori miqdori kuzatiladi.

Ikkilamchi tarqalish oreollarida esa ma'dan uyumlarining eng ko'p tarqalgan elementlarigina uchraydi.

Masalan, mis-kolchedan konlaridagi suv oreollarida mis, qo'rg'oshin, rux kuzatiladi. Molibden konlaridagi suv oreollarida molibden, volfram, qo'rg'oshin, rux va boshqa elementlar kuzatiladi.

3) Foydali qazilmalarning alohida fizik xususiyatlari

Foydali qazilma borligini bevosita ko'rsatuvchi belgilar sifatida foydali qazilmalar va ular tarkibidagi minerallarning alohida fizik xususiyatlari qo'llanishi mumkin. Masalan:

- kuchli radioaktivlik mavjudligi;

- temir konlarini ko'rsatuvchi kuchli magnit maydoni;
- mis ma'danlarini ko'rsatuvchi ikkilamchi ko'k-yashil minerallar;
- temir konlarini ko'rsatuvchi sarg'ish-qo'ng'ir rangli «zanglagan» jinslar;
- va h.k.lar.

Radioaktiv anomaliyalar radioaktiv xomashyolarni qidirish jarayonida ishchili qidirish belgisi hisoblanadi. Chunki ma'dan tarkibida radioaktiv elementlarning mavjudligi va ular miqdorining balandligi yuqorida aytilgan anomaliyaning vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Bunday anomaliya to'g'ridan-to'g'ri radioaktiv elementlar – uran (U), toriy (Th) ba radiy (Ra) borligini ko'rsatishi uchun bevosita qidirish belgilari guruhiga kiritiladi.

Kuchli magnit maydoni hosil qilgan magnit anomaliyalri asosan ikki mineral, ya'ni magnetit va pirrotin borligidan dalolat beradi. Shuning uchun bunday anomaliyalar temir ma'danlarining bevosita belgisi sifatida qabul qilinadi.

Mis va temir ma'danlari yer yuzasiga yaqin oksidlanish zonalarida tashqi belgilari bo'yicha oson aniqlanadigan ko'k-yashil rangli azurit, malaxit va boshqa mis minerallari hamda sarg'ish-qo'ng'ir rangli «zanglagan» temir minerallaridan tashkil topgani uchun bevosita belgi sifatida qabul qilinadi.

4) Qidirishning bevosita belgilari sifatida tarixiy ma'lumotlar

Bevosita belgi sifatida qo'llaniladigan tarixiy ma'lumotlarga quyidagilar kiradi:

- qadimgi qazilmalar, ma'dan uyumlari, qayta ishlash qoldiqlari;
- tarixiy yozuvlar, xaritalar va h.k.lar.

Tarixiy dalillarga qadimiy tog' qazilmalari, ularning qoldiqlari, shlak qoldiqlari, qadimiy arxeologiya topilmalari, konchilik va metalluriya asbob-jihozlari (qazish va maydalash qurollari, chiroqlar, mustahkamlovchi sinchlari), tarixiy o'tmishga taalluqli hujjatlar va boshqalar kiradi.

Joylarning nomlariga alohida e'tibor berilishi lozim. Chunki yer yuzida mavjud bo'lgan ko'pgina tog'larga, ko'l va dengizlarga inson tomonidan qo'yilgan nomlar qaysi tilda bo'lishidan qat'i nazar, kon qidirish yoki konchilik taraqqiyot etgan joylarni anglatadi.

Masalan, bularga Oltinsoy, Konsoy, Tuzkon, Oltintog', Gazli, Tosqozg'an, Jezqozg'an, Chormitan, Zarafshon, Ko'mirli, Tillatog', Kumushkon, Qo'rg'oshinkon, Saraxan, Cho'yansoy, Tillakon, Haydarkon, Cho'yankon, Eskikon, Simob, Gaurdak, Tuzkene, Moylisuv, Moylisoy, Tashko'mir, Koni Mansur, Terekkon, Oltintopgan, Kon, Yangikon va bashqalarni ko'rsatish mumkin.

Shuning uchun geologik xaritalash va qidirish ishlarini olib borishda har xil joyning nomini diqqat bilan o'rghanish talab qilinadi.

Bu esa joy nomlariga asoslanib yangidan-yangi foydali qazilma konlarining topilish imkoniyatlarini ochib beradi.

Buning uchun har xil masshtabdagi va turli davrlarga oid geografiya, geologiya xaritalaridan joy nomlarini diqqat bilan o'rghanish lozim. Zamonaviy davrgacha faqat oltin, mis, qalayi, kumush, temir, qo'rg'oshin, surma va simob konlari o'zlashtirilgan. Boshqa metallar konlari qadimda qazib olinmagan.

3.2. Foydali qazilma konlarini qidirish va bashoratlashning bilvosita belgilari

I) Tog' jinslarining ma'dan atrofidagi o'zgarishlari

Tog' jinslarining ma'dan atrofidagi o'zgarishlarini qidirish mezoni sifatida qabul qilinishiga sabab shundan iboratki, ma'dan hosil bo'lish jarayoni biron bir nuqtada foydali minerallar to'planishiga olib kelar ekan, atrofdagi qamrovchi jinslarga ham ta'sir o'tkazishi muqarrardir. Demak, ma'dan hosil bo'lish jarayoni doimo atrofdagi tog' jinslarining ma'lum miqdorda o'zgarishiga olib keladi. Lekin tog' jinslaridagi har qanday o'zgarish ma'dan to'planishiga olib kelmasligi mumkin. Shuning uchun bu belgi bilvosita belgilari guruhiga kiritiladi. Yondosh jinslarning o'zgarishi faqat ma'danli gidrotermal eritmalar ta'siridagina emas, balki nurash jarayonida konlarning parchalanishidan ham paydo bo'lishi mumkin.

Endogen konlardagi yondosh jinslarning ma'dan oldi o'zgarishlari skarnlanish, greyzenlanish, kvarsitanish, kaolinlanish, dolomitlanish, seritsitlanish va boshqalardan iborat.

Skarn va skarnli jinslar kuchsiz nordon va o'rtacha tarkibli magmatik intruziyalarning karbonatli cho'kindi yoki vulkanogen-cho'kindi jinslar bilan kimyoviy reaksiyasi natijasida vujudga keladi.

Ular granat, piroksin va kalsiy-temirli silikatlar qatoridagi vollastonit, skapolit, epidot va amfibollardan iborat bo'lib, ko'pincha shu intruziyalarning tashqi chegarasida joylashadi.

Temir, mis, polimetall, volfram, molibden, oltin, qalay, bor va boshqa konlar skarnlar bilan bog'liq.

Greyzenlar nordon tarkibli granit intruziyalari bilan bog'liq bo'ladi va ularning apikal qismlaridan joy egallaydi. Greyzenlar tarkibi: kvars, muskovit, biotit, sinnvaldit, topaz, turmalin, flyuoritlardan iborat.

Greyzenlar intruziyalarning yuqori qismidagi ona tog' jinslari orasida qolib ketgan kvarsitlar, kvarsli qumtoshlar va nordon effuzivlarga ham o'tishi mumkin.

Greyzenlashgan jinslarda qalay, volfram, molibden, berilli, tantal, niobi, vismut konlari uchraydi.

Oltin, mis, rux, qo'rg'oshin va nodir metallar konlari seritsitlanish bilan bog'liq.

Kaolinlanish o'rta va past haroratli qo'rg'oshin, rux, oltin, qalay, flyuorit, simob konlariga xosdir.

Kvarslanish ko'pchilik gidrotermal konlar uchun xos jarayondir. Kvarslanish ikki xil ko'rinishda: jins massasi bo'yicha va turli qalinlikdagi tomirlar ko'rinishida bo'lishi mumkin.

Tog' jinslarining ma'dan oldi o'zgarishi katta qidirish ahamiyatiga ega. Chunki ular ko'zga oson tashlanuvchi yorqin ranglarga ega bo'lган holda foydali qazilma uyumi kattaligiga nisbatan keng maydonlarni egallaydi.

Shuni hisobga olish kerakki, tog' jinslarining ma'dan oldi o'zgarishlarida har doim ham sanoatga yaroqli ma'danlar uchramaydi.

Nordon va o'rta tarkibli intruziv jinslarning gidrotermal jarayonda o'zgarishi ikkilamchi kvarsitlar hosil bo'lishiga olib keladi va ular tarkibida kvars bilan birga seritsit, kaolinit, andaluzit, alunit, pirofillit hamda rutil, turmalin va ma'danli minerallar (pirit, xalkopirit, gemmatit, molibdenit) bo'ladi. Bundan tashqari, ikkilamchi kvarsitlar formatsiyasi bilan misli, mis-molibdenli, molibdenli konlar bog'liq bo'ladi.

Djasperoidlarni qo'rg'oshin, rux, surma va simob konlarida uchratish mumkin. Bunday jinslar asosan karbonatlar (kalsit, dolomit) va kvarsdan tashkil topgan bo'ladi.

Berezitlar – gidrotermal jarayonlar natijasida o'zgargan granitoid tarkibli (granit-porfir, kvarsli-porfirlar) jinslarda rivojlanadi hamda kvars, seritsit, pirit va rutil kabi minerallardan iborat bo'ladi. Oltin konlarida va molibden, volfram, misli obyektlarda berezitli o'zgarishlar keng miqyosda uchraydi.

Undan tashqari, ma'danlarni qamrovchi jinslarning tarkibiga mos ravishda gidrotermal jarayonning ta'siri quy'idagicha bo'ladi:

– asos tarkibli magmatik jinslarda joylashgan gidrotermal foydali qazilma konlarida odatda, karbonat-kvars paragenezisli metasomatik o'zgarishlar (listvenitlar) uchraydi. Listvenitlar tarkibida pirit, xlorit, talk, seritsit, serpentin va aktinolit minerallari bo'ladi;

– o'ta asos tarkibli tog' jinslarida serpentinlanish va "talklanish" jarayonlari uchraydi hamda vulkanogen tog' jinslariga bog'liq bo'lgan oltin va kumushli-surma va qo'rg'oshin-rux konlarida "propilitlanish" kuzatiladi. Propilitlanish jarayonida birlamchi tog' jinslari tarkibida xlorit, karbonat, epidot va pirit minerallari paydo bo'ladi.

"Temir shlyapalari" – getit, gidrogetit, gematit, xalsedon, opal, pirit, malaxitlardan iborat sulfidli ma'danlarning o'zgarishlari ishonchli izlash belgisi bo'lib, obyekt sifatida sanoatimizni qiziqtirishi mumkin.

2)Minerallarning tomirsimon agregatlari mavjudligi

Tomirsimon minerallarning mavjudligi ham, xuddi o'zgargan jinslar kabi ma'dan hosil qiluvchi jarayonlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Tomirsimon agregatlari hosil bo'lishi uchun avvalambor ular joylashadigan darzliklar kerak. Bu darzliklar esa, o'z navbatida, tektonik harakatlarning natijasida hosil bo'ladi. Demak, tektonik harakatlar va ular bilan bog'langan ma'dan hosil qiluvchi jarayonlar tomirsimon agregatlarni hosil qilishi mumkinligini hisobga olib, ma'danlar bilan tomirsimon minerallar bir-biri bilan bog'liq deyishimiz va tomirsimon minerallarni qidirish belgisi sifatida qo'llashimiz mumkin.

Tomirsimon agregatlar hosil bo'lish usuliga qarab, ikki xil bo'lishi mumkin:

1)ochilgan darzlik bo'shlig'ini to'ldirish usuli bilan hosil bo'lgan tomirsimon agregatlar;

2)darzlik atrofidagi jinslarning mineral hosil qiluvchi eritmalar ta'sirida qayta kristallanishi usuli bilan hosil bo'lgan tomirsimon agregatlar.

3) Foydali qazilmalar va ularni qamrovchi jinslarning fizik xususiyatlaridagi farqlanish (geofizik anomaliyalar)

Geofizik anomaliyalar tabiiy va sun'iy fizik maydonlarni o'rGANISH asosida aniqlanadi. Bu belgini aniqlash orqali har xil anomaliyalar ajratiladi. Bu anomaliyalar esa foydali qazilmalarni topishga imkon beradi.

Bunga magnit, radioaktiv, gravitatsion va elektr maydoni anomaliyalarini ko'rsatish mumkin. Amalda geofizik izlanishlar jarayonida juda ko'p har xil anomaliyalar ajratiladi. Lekin ularning ayrimlarigina foydali qazilmalar bilan bog'liq bo'ladi.

Magnit anomaliyalari orqali temir va mis-nikelli ma'danlarni qidirish mumkin.

Bu qidirish belgisi foydali qazilmalar tanalari o'z fizik xususiyati bilan qamrovchi tog' jinslaridan keskin farq qilishiga asoslangan va natijada geofizik maydonlarda anomaliyalar (miqdoriy o'zgarishlar) paydo bo'lishiga hamda ularni turli qidirish usullari orqali aniqlashga olib keladi. Demak, geofizik anomaliyalar foydali qazilma konlarini qidirish belgilari deb qabul qilinishi mumkin.

Gravitasjon anomaliyalar – yer qobig'i tuzilishi bilan bog'liq bo'lgan gravitatsiya (og'irlik kuchi) o'zgarishi kuzatiladigan uchastkalar paydo bo'lishidir. Katta zichlikka ega tog' jinslari ijobjiy anomaliyalar vujudga kelishiga sabab bo'ladi va ularning manbai temirli ma'danlar, xromitlar, sulfid uyumlari bo'lishi mumkin.

Magnitli anomaliyalar – turli magnit xususiyatiga ega jinslar atrofida hosil bo'ladi, magnitli ma'dan maydonlariga olib keladi va ular o'zgaruvchanligi bilan anomaliyalarga bog'liq bo'ladi. Ko'pincha foydali qazilmalar tanalarida qamrovchi jinslarga ko'ra yuqori miqdordagi magnit minerallar mavjudligi va ma'danlarning turi va hajmiga bog'liq bo'lgan ijobjiy anomaliyalar borligi bilan ajraladi. (Rossiyadagi Kursk magnit anomaliyasi).

Elektr anomaliyalar – elekromagnit ma'danli maydonlar normal holatlari ko'rsatkichlarining ijobjiy (ko'p tomonga) o'zgarishidir. Ma'danli tanalarda elektr o'tkazuvchanlikning kuchayishi, elektr qarshiligining kamayishi holatlari qidirish jarayonida foydalilanadigan belgiga aylanadi.

Foydali qazilma konlarini elektr usullari yordamida qidirish jarayonida tabiiy va sun'iy elektr maydonlarining parametrlarini

o'lchash mumkin va natijada umumiy elektr fonida mazkur dala ishlari maqsadiga muvofiq kerakli obyektlarni aniqlash mumkin.

Qabul qilingan parametr(o'lchov)ga asoslanib, elektr anomaliyalar elektr qarshiligi, elektr maydoni va polyarizatsiya turlariga bo'linadi.

Radioaktiv anomaliyalar radioaktiv xomashyolarni qidirish jarayonida ishonchli qidirish belgisi hisoblanadi. Chunki ma'dan tarkibida radioaktiv elementlarning mavjudligi va ular miqdorining balandligi yuqorida aytilgan anomaliyaning vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Bunday anomaliya to'g'ridan-to'g'ri radioaktiv elementlar borligini ko'rsatishi uchun bevosita qidirish belgilari guruhiga kiritiladi.

Yuqori migratsion (aktiv, faol) xususiyatga ega bo'lgan elementlar hatto ma'dan atrofidagi tog' jinslariga radioaktiv parchalanish natijasida ta'sir etadi va gazsimon bug'lari esa yoriqli tog' jinslarining g'ovakliklariga ham kirib qoladi.

Seysmik anomaliyalarni ajaratish tog' jinslarining xususiyatlari va yotish yo'nalishlariga qarab ulardan ko'ndalang to'lqinlarning o'tish va qaytish xususiyatlarini o'rganishga asoslangan.

To'lqinlarning o'tish vaqtı tog' jinslarining tarkibiga bog'liq va turlariga qarab har xil bo'ladi. Natijada hududga va tog' jinsiga qarab maxsus jadvallar tuziladi (ohaktosh, qumtosh, tirligen va turli ma'dan qamrovchi tog' jinslarida). To'lqinlarning o'tish vaqtı koeffitsiyenti (albatta ko'p tajribalar asosida olingan) ko'rsatiladi. Portlatish burg'ilangan quduqlarda olib boriladi va olingan ma'lumotlar qidirish dala ishlari jarayonida inobatga olinadi.

Anomaliyalarni aniqlashga asoslangan geofizik qidirish usullaridan geologiyada keng miqyosda foydalaniladi. Aniqlangan anomaliya hududning asosiylar geofizik belgilarini ko'rsatadi. Foydali qazilma konlariga bog'liq bo'lgan anomaliyalar nafaqat ma'dan borligini, balki uning ko'rsatkichlari, ya'ni rivojlanish ko'lami (uchastkalarning ajratilishi va ularning shakli), chuqurligi to'g'risida aniq va ishonchli ma'lumotlarga ega bo'lish imkonini beradi.

Geofizik materiallarni (ma'lumotlarni) interpretatsiya (aniqlash-tirish) qilish orqali muayyan uchastkaning geologik tuzilishi, ma'dan tanalari bilan bog'liq bo'lgan va "nazorat" qiluvchi yoriqlarning turi, yo'nalishi va yotishi bo'yicha kerakli xulosalarga kelish mumkin.

4) Ma'danli zonalarning relyefida kuzatiladigan o'ziga xos xususiyatlar

Yer yuzi relyefining paydo bo'lishi tub tog' jinslarining parchalanishi va bo'shoq materiallarning qayta yig'ilishi bilan bog'liq bo'lган konlarning fazoviy holatini aniqlaydi. Bularga har xil sochilmalar, nurash konlari, gillar, qumlar va shag'allar kiradi. Geomorfologik belgilarni sochilma konlarni qidirishda katta ahamiyatga ega.

Hozirgi va qadimgi daryo vodiylarining paydo bo'lish tarixini o'rganish natijasida har xil nodir metalllar sochilmalarini topishga imkon tug'iladi.

Relyefning asosiy shakllari nurash va muzlik yotqiziqlari rivojlangan maydonlarga xosdir. Juda katta boksit, marganes, nikel, nodir metallar konlari tekislangan nurash yuzalari bilan bog'liq. Relyefning muzlik shakllari (ozlar, drumlinlar, kamlar) yuqori sifatli qum, shag'al konlarini qidirish uchun ishonchli belgi hisoblanadi.


O'zgargan tog' jinsi maydonlarida joylashgan ma'dan uyumlarini qidirishda geomorfologik kuzatishlar katta yordam beradi. Nurashga chidamli ma'dan uyumlari, daykalar o'zgargan maydonlar relyefining musbat shaklini paydo qiladi.

Oson nuraydigan oksidlangan sulfidli ma'dan uyumlari, tektonik harakatga uchrab buzilgan tog' jinslari manfiy relyef shakllarini hosil qiladi. Bunday holatlarni aerotosuratlar yordamida, dala ishlariiga chiqish bosqichidan oldin o'rganib chiqish va geomorfologiya belgilari bo'yicha u yoki bu foydali qazilmalarni qidirish uchun qiziqarli maydonlarni ajratish mumkin. Geomorfologik belgilari yer po'stining hozirgi zamon tektonika harakati bilan bog'liq bo'lган, yosh ko'tarilmalarini aniqlashga va neft, gaz konlarini qidirishga yordam beradi.

Konlarning ochilmalari masofadan turib ham kuzatilishi mumkin. Mustahkam tomirlar uzun qator qoyalarni hosil qiladi (musbat relyef), biroq ularning eng yorqin namoyon bo'lganlari ko'pincha ma'dansiz (masalan, kvarsli) tomirlardan tashkil topgan bo'ladi. Agar, tomirlarning ma'danlashgan qismlari nurashga uchragan bo'lsa, ularning o'rni relyefda chuqurlashgan joylar (manfiy relyef) hosil qiladi.

Cho'ziq shaklli depressiyalar (manfiy relyef) yemiriluvchan tomirlarning yer yuziga chiqqan joylari bo'ylab, masalan karbonat jinslar, limonit va grafit konlari, kuchli tektonik buzilish zonalari va gidrotermal o'zgargan jinslar (seritsitlashgan, xloritlashgan, dolomitlashgan, talklashgan, kaolinlashgan va karbonatlashgan) yer yuziga

chiqqan zonalarda rivojlanadi. Shuningdek depressiyalar, xuddi Arizonadagi (AQSH) Bisbi konida kuzatilganidek, yuqori qismi oksidланish va hajman qisqarishga uchragan chuqurlikda joylashgan yotqiziqlar o'stida ham rivojlanishi mumkin (56-rasm). Bunday depressiyalar silikatli Ni va boksit konlarining belgilari bo'lishi mumkin.



56-rasm. Chuqurlikda yashiringan sulfidli ma'dan koni oksidlangan qismining ustida yer yuzining o'pirilishi (V.I.Smirnov, 1957 bo'yicha):
1 – sulfidli ma'dan konining oksidlangan qismi; 2 – yer yuzidagi qoplovchi jinslar.


5) Foydali qazilmalarni qidirishning gidrogeologik belgilari

Har qanday foydali qazilma yer bag'rida ma'lum miqdorda namlangan, ya'ni uning bo'shlqlari va darzliklari suv bilan to'lgan bo'ladi. Bu yer osti suvlari ma'danlar tarkibidagi komponentlarni o'zida eritib olib, oddiy suvlarga nisbatan ma'dan tarkibiga kiruvchi kimyoviy elementlarga boyigan holga kelib qoladi. Agar bu suvlardan namunalar olib, tarkibi tekshirilsa, chuqurlikdagi ma'danlar haqida qandaydir ma'lumotlarga ega bo'lismiz mumkin.

Lekin suvlar tarkibidagi kimyoviy elementlarning anomaliya miqdorida ko'payishi har doim ham foydali qazilma uyumi bilan bog'liq bo'lmasligi mumkin. Buning butunlay boshqa sabablari ham bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, yer osti suvlarning yuqori mobilligi, ya'ni suvlarning katta masofalarga ko'chib borish imkoniyati borligini nazarda tutsak, bu belgini fazoviy jihatdan aniq maydonlarga bog'lash qiyinligini e'tiborga olishimizga to'g'ri keladi. Shuning uchun hidrogeologik belgilarni bilvosita qidirish belgilari kiritiladi.

6) Foydali qazilmalarni qidirishning botanik belgilari

Ba'zi hududlarda foydali qazilmalarning borligidan darak beruvchi ma'lumot sifatida muayyan turdag'i o'simlikning tarqalish xususiyatlardan foydalanish mumkin. Agar bu o'simlik muayyan foydali qazilma bor joyda yaxshi o'sa olmasligi aniqlangan bo'lsa, demak, shu o'simlik keng tarqalgan hududlarda bu foydali qazilmani qidirish kerak emas. Aksincha biron bir o'simlik turi muayyan foydali qazilma bor joyda yaxshi o'sishi kuzatilgan bo'lsa, shu foydali qazilmani aynan shu o'simlik keng tarqalgan joylardan qidirish mumkin. Bunday belgilar fanda turli hududlar uchun hali yetarlicha ishlab chiqilmagan. Lekin kelajakda, ayniqsa yuzasi to'rtlamchi davr yotqiziqlari bilan qoplangan cho'l va yarimcho'l hududlarda qidirish ishlarini olib borishda bunday usulni qo'llash variantlari ishlab chiqilsa, yaxshi samara berishi mumkin. Ba'zi hududlardagi o'simliklar tarkibida muayyan kimyoviy elementlarning anomal miqdorda, ya'ni elementning klark miqdoridan 3-4 va undan ortiq marta ko'proq bo'lishi geobotanik anomaliyalar deyiladi va qidirish belgisi bo'lib xizmat qilishi mumkin (57-rasm).



57-rasm. O'simliklar radioaktivligining uran konlari bilan bog'liqligi:

1 – tarkibida normal (fon) miqdordagi uran bo'lgan o'simliklar; 2 – tarkibida anomal miqdordagi uran bo'lgan o'simliklar; 3 – uran uyumlari; 4 – qumtoshlar

4. FOYDALI QAZILMA KONLARINI QIDIRISH VA RAZVEDKA QILISH USULLARI

4.1. Qidirish usullari. Geoxaritalash usuli

Qidirishning ***bosh maqsadi*** – FQKni qidirib topish. Qidirishning bosh maqsadini muvaffaqiyatli, planli, va ilmiy asoslangan holda bajarish uchun ***quyidagi vazifalarni amalga oshirish zarur:***

- 1) FQKlari joylanishini belgilovchi qonuniyatlar (faktorlar – mezonlar)ni bilish va ularni tahlil qilib chiqish;
- 2) turli sharoitlardagi konlarning qidirish belgilarini o'rganish;
- 3) samarali qidirish usullarining kompleksini ishlab chiqish va ularni tabiiy sharoit va qidirish belgilariga qarab ishlatish sharoitlarini aniqlab olish;
- 4) qidirish ishlarining natijalari bo'yicha konning sanoat uchun ahamiyatiga baho berish va sanoat uchun yaroqsiz obyektlarni o'z vaqtida «brakovka» qilish.

Qidirish usullari klassifikatsiyasi

Qidirish usullarini tasniflash turli tamoyillar bo'yicha bajarilishi mumkin. Bulardan ikkita assosiysini ko'rib chiqamiz. Birinchi tasnif usullarga prinsipial (nazariy) jihatdan yondashish bo'lsa, ikkinchi tasnif usullarning amaliyotda qo'llanilishi qulayligidan kelib chiqqan holda yondashishdir.

***Prinsipial jihatdan* qidirish usullarini ikkiga bo'lish mumkin:**

- tanlangan nuqtalarda kuzatish (метод выборочных наблюдений);
- masofadan turib kuzatish (метод дистанционный).

Tanlangan nuqtalarda kuzatish

Alohibda nuqtalardan olingan axborotlar shu nuqtalar atrofidagi muayyan masofadagi maydonga tatbiq qilinadi. Natijada hudud haqidagi umumlashgan ma'lumot paydo bo'ladi.

Alovida nuqtalardan olingan axborotlar yig'indisi obyekt haqidagi umumiyyatni bermaydi.

Ma'lumotlarni generalizatsiyalash (umumlashtirish) faqat analogiya (o'xshatish) tamoyiliga tayanib, ketma-ketin yaqinlashtirish va ilgarilama-tanlov asosida detallashtirish tamoyillariga amal qilgan holda mumkindir.

Masofadan turib kuzatish

Bu usul asosan turli fizik asboblar yordamida hududlarni o'rganishga asoslangan. Bu tekshirishlar optik va radiodiapazonlarning turli qismlarida bajariladi. Eng ko'p ishlatiladigan diapazonlar: ko'zga ko'rindigan, infraqizil va radioto'lqinlar. Imkoniyatlari – obyektlarning asosiy geologik-strukturaviy xususiyatlarini o'rganish. Kamchiligi – mineral tarkibni o'rgana olmaslik. Masofaviy kuzatuv usullarini quyidagi turlarga ajratish mumkin:

a) Kosmik kuzatuv usullari kosmik apparatlar yordamida tasviriy suratlarni (rangli, spektrozonal va boshqa maxsus rasmlar) o'rganib chiqish va tahlil qilish (декодирование) natijasida ma'lumotlarga ega bo'lishdir;

b) Aerogeologik kuzatuv usullari aerovizual (aerokuzatish) geologik kuzatuv natijalarini o'rganib chiqish va tahlil qilish natijasida ma'lumotlarga ega bo'lishdir;

d) Aerogeofizik kuzatuv usullari aviatsiya vositalariga o'rnatilgan geofizik qurilmalar yordamida olingan aeromagnitometrik, aerogravimetrik, aeroradiometrik va boshqa ma'lumotlarni o'rganib chiqish va tahlil qilish natijasida ma'lumotlarga ega bo'lishdir.

Qidirish usullarining asosiy tasnifi. Qo'llaniladigan usullarning xarakteriga qarab geologiya-qidiruv amaliyotida qidirish usullari 4 turga bo'linadi: *geologik xaritalash; mineralogik; geokimyoviy; geofizik usullar.*

Geologik xaritalash usuli. Qidirish bosqichida olib boriladigan geologik xaritalash ishlari hududning geologik-geografik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda uch xil yo'l bilan olib boriladi: geologik qirqimlar tuzish; marshrutlar bo'yicha nuqtalar orqali qidirish; tog'lahimlarini o'tish va ularni hujjatlashtirish.

Bu uchta yo'lidan qay birini tanlab olishda asosiy e'tibor hududning tub tog' jinslari qay daraja to'rtlamchi davr yotqiziqlari bilan qoplanganligiga qaratiladi. Tub tog' jinslari ochiq va qisman ochiq


hududlarda qirqimlar tuzish yoki marshrutlar o'tish yo'li qo'llanilsa, yopiq hududlarda tog' lahimlari o'tish qo'llaniladi.

Bu jarayonda o'rganiladigan maydonning litologik kesim turlariga, tarqalish qonuniyatlariga, tog' jinslari kontaktlariga, magmatik jinslarning xususiyatlariga, har xil foydali qazilmalarining qidirish mezonlari va belgilariga, o'zgargan tog' jinslari maydonlariga, burma, uzilma va ularning rivojlanish va yotish elementlariga, tog' jinslarining mineralogik tarkibi, tekstura va struktura xususiyatlariga e'tibor berilishi lozim (58-rasm).

Amalda geologiya xaritalarini tahlil qilish yo'li bilan u yoki bu foydali qazilmalarga istiqbollari yuqori bo'lgan maydonlarni ajratish, qidirish ishining kelajak yo'nalishini va usulini aniqlash mumkin (59-rasm).


Kompleks qidirish ishlari jarayonida har xil masshtabli geologik xaritalash ishlari o'tqaziladi va natijada geologik, geomorfologik, gidrogeologik, tektonik va boshqa xaritalar tuziladi.

Ayrim aniq foydali qazilmalar uchun o'tqaziladigan qidirish ishlari natijasida maxsus geologik, geomorfologik, gidrogeologik, struktura xaritalari tuziladi. Bu xaritalarda qidirish mezonlari va belgilari o'z aksini topadi.



58-rasm. Kochkar konida yer osti tog' lahimlarini mufassal geologik hujjatlashtirish misoli (A.P.Smolin bo'yicha):

1 – plagiogranitlar; 2 – kontakt-metasomatik o'zgargan jinslar; 3 – slaneslashgan jinslar; 4 – varaqsimon biotitli jinslar; 5 – ma'danli kvars; 6 – ma'dansiz kvars; 7- tektonik uzilmalar; 8 – ishqalanish brekchiylari.



59-rasm. Strukturaviy-geologik xaritalash jarayonida geologik kuzatuv nuqtalarini joylashtirish tizimi:

1 – magnetitli ma’danlar; 2 – skarnlar; 3 – rogoviklar; 4 – daykalar; 5 – tayanch chiziqlar; 6 – yordamchi chiziqlar; 7 – mufassal geologik hujjatlashtirish va namunalash uchastkalari; 8 – mufassal razvedka quduqlari; 9 – portlatish quduqlari; 10 – marksheyderlik nuqtalari; 11 – karyer devorlari.

Bunday turdag'i qidirish ishlaridan radioaktiv elementlarni, oltin, platina, olmos sochilma konlarini, neft va gaz konlarini topishda kam foydalaniildi.

Geologik xaritalash bo'yicha dala ishlari masshtabiga (tuziladigan xaritalar masshtabi) ko'ra umumiy (1:1000000), mayda (1:1000000-1:500000), o'rta (1:200000-1:100000) va yirik (1:50000-1:10000) masshtablilarga ajratiladi.

1:50000 mashtabdagi davlat geologik xaritalash ishlari. Bu bosqichdagi ishlar qidirish bosqichidan oldin bajarilishi tufayli uning asosiy vazifasiga foydali qazilmalarni qidirish kirmaydi, lekin har qanday xaritash ishlarining bajarilish tamoyillari o'xshash bo'lganligi uchun qidirishning ba'zi vazifalari yo'l-yo'lakay bajarilishi mumkin. Shuning uchun geologik xaritalash usulini ta'riflash mavzusida 1:50000 mashtabdagi davlat geologik xaritalash ishlarining asosiy vazifalarini ochib berish o'rinni bo'ladi.

1. 1:50000 mashtabdagi geologik xaritalash ishlari O'zbekiston Respublikasi hududining geologik tuzilishini yirik mashtabda rejali o'rganishning, xalq xo'jaligining hamma tarmog'ini bir tizimga keltirilgan va shu jumladan to'liqligi va mufassalligi bo'yicha

yo'riqnomalablariga javob beradigan xaritali geologik axborot bilan ta'minlash maqsadida, foydali qazilma konlarini ochish uchun istiqbolli alohida maydonlarni hamda tuzilmalarni ajratishning asosiy turi hisoblanadi. Bunday ishlar birinchi navbatda ma'danli konlar atrofida va sanoat miqyosida o'zlashtirilgan rayonlarda bajarilishi lozim. O'rganilayotgan rayonning geologik tuzilishi yoki foydali qazilmalarning namoyon bo'lish xususiyatlari juda murakkab bo'lganda istisno tariqasida ushbu bosqich ishlari 1:25000 mashtabda bajarilishi mumkin.

2. Xalq xo'jaligining manfaatdor tarmoqlarini rayonning geologik tuzulishi to'g'risida bir tizimga solingan axborot bilan ta'minlash, mazkur bosqich vazifalaridan kelib chiqqan bunday axborot foydali qazilmalarni bashorat qilish va qidirishning ilmiy asosi, shuningdek qurilishlarni loyihalash, melioratsiya va o'rganilayotgan hududni o'zlashtirish bo'yicha amalga oshiriladigan boshqa tadbirlarga kerakli davlat geologik xaritalash majmuasini tuzish yo'li bilan tayyorlanadi.

Mazkur bosqich ishlari natijalarining imkon boricha katta bo'lishini ta'minlash uchun oldindan tayyorgarlik tadqiqotlarining katta majmui; aerosuratli syomka, radiolokatsion, issiqlik va shunga o'xshash masofadan turib syomka qilishning boshqa turlari, maydonni geofizik syomka qilish (magnitli, gravimetrik, gamma-spektrometrik va boshqalar), kimyoviy (litogeokimyoviy, biogeokimyoviy, gidrogeokimyoviy va boshqa tadqiqotlar) va mexanik tarqalish oreollarini o'rganish, shuningdek 1:50000 mashtabli Davlat geologik xaritalarining tayanch shartli belgilari majmuasini tayyorlash bo'yicha stratigrafik, litologik, petrografik va boshqa tadqiqotlar bajariladi.

3. 1:50000, 1:25000 mashtabli geologik xaritalash ishlari graflarga bo'lingan xaritalar bo'yicha, yirik maydonlarda esa guruhli uslubiyot yo'li bilan bajariladi. Yosh yotqiziqlar tarqalgan rayonlarda, ayniqsa, qimmatli metall va mineral sochilmalari bor deb taxmin qilingan joylarda geomorfologik xaritalash va to'rtlamchi yotqiziqlarni xaritalash ishlari bajariladi. Sanoat va qishloq xo'jaligi miqyosida o'zlashtirilgan rayonlarda yalpi gidrogeologik va muhandislik geologiyasi xaritalash ishlari olib boriladi.

4. Ma'lum rayonlar uchun ilgari 1:50000 mashtabda geologik xaritalar tuzilgan bo'lsa, lekin ular o'zgarib ketgan, talablarga to'g'ri kelmasa va qidirish ishlari uchun to'la qiymatli asos vazifasini o'tay

olmasa yoxud u joyda foydali qazilmalar topilishining yangi istiqbollari mo'ljallangan bo'lsa, xuddi o'sha mashtabda eng yangi ma'lumotni olish uchun geologik o'rghanishni taqozo etadigan yo'nalishlar ajratilgan holda qo'shimcha geologik o'rghanish ishlari bajariladi.

5. Tabiiy ochilmalar va yer yuzasidagi tog' inshootlari bo'yicha bajarilgan geologik xaritalash ishlari, zarurat bo'lganda, chuqurlik bo'yicha geologik xaritalash bilan to'ldiriladi. Yopilib qolgan tog' jinslari majmuasini chuqurlik bo'yicha xaritalash shunday maydonlarda topilgan, qazib olish mumkin bo'lgan chuqurlikda yotgan foydali qazilmalarning istiqbollari mavjudligidan dalolat beradi. Bu ish yer yuzasini geologik syomka qilish (qo'shimcha o'rghanish) bilan bir vaqtida yoki 1:50000 mashtabli tayyor geologik asosda mustaqil ravishda, burg'i quduqlarini kavlash yo'li bilan va geofizik, geokimyoiy hamda aerokosmik tadqiqot uslubiyotlaridan foydalangan holda bajariladi. Geofizik uslublarni qo'llash, xaritalash uchun burg'ilashdan oldin amalga oshirilishi va zarurat bo'lgan hollarda yordamchi uslub sifatida qo'llanishi lozim.

6. Chuqurlik bo'yicha geologik xaritalash natijalariga ko'ra anchagina keyin shakllangan yotqiziqlar ostidagi tog' jinslarining ko'milib ketgan yuzasi xaritasi, chuqurlik bo'yicha kesimlar yoki gorizontlarning xaritasi tuziladi. Ular turli chuqurlikdagi foydali qazilmalarning istiqbollarini yoritib beradi, chuqurlik bo'yicha o'rghanilayotgan regionning istiqbolli ekanini baholagan holda bashorat qilinadigan metallogenik xaritalash jarayonida tuziladigan xaritalarning mashtabi aniq geologik shart-sharoitlarga bog'liq ravishda hozirgi yuzaning geologik xaritalarining mashtabiga mos kelishi yoki undan maydaroq bo'lishi mumkin.

7. Istiqbolli strukturalarni o'rghanish va istiqbolli geofizik hamda geokimyoiy anomaliyalarning tabiatini aniqlash uchun yer yuzasida tog' inshootlari qaziladi va mayda burg'ilash quduqlari, shuningdek bitta-ikkita geologik asoslangan qidirish burg'i quduqlari kavlanadi.

8. Geologik ishlar olib borilayotgan yoki chuqurlik bo'yicha xaritalash paytida foydali qazilmalarning aniqlangan namoyon bo'lish joylaridan namuna olib sinash ishlari bajariladi, olingan ma'lumotlar bir tizimga keltiriladi va P₂ toifasidagi bashorat qilingan resurslar aniqlangan holda ular istiqbollilik darajasi bo'yicha baholanishi kerak. Keraklicha asoslar bo'lsa, hududda olib borilayotgan geologik

xaritalash ishlari tugallanishiga qadar qidirish ishlarini boshlash mumkin.

Mazkur ishlarni bajarish jarayonida olingan axborot bajarilgan ishlarning mufassalligiga va topilgan istiqbolli obyektlarning maydon parametrlariga mos keladigan yirik masshtabli xaritalarda va qirqimlarda aks ettirilishi kerak.

9. 1:50000, 1:25000 masshtabli Davlat geologik xaritasi, foydali qazilmalarning bashorat qilingan hamda joylashish xaritalari geologiya-xaritalash ishlaringin so'nggi natijasi hisoblanadi. Oxirgi xarita P₂ toifasidagi bashorat qilingan foydali qazilma resurslarining assoslangan geologik-iqtisodiy baholanishi bilan birga tuzilishi mumkin, bunda keyinchalik o'rganilishi lozim bo'lgan obyektlar ajratiladi. Shuningdek geomorfologik, gidrogeologik, geokimyoiy, geoekologik va boshqa xaritalar hamda rayonning chuqurlik bo'yicha tuzilishini ko'rsatuvchi sxemalar va kesimlar tuziladi.

Yirik masshtabli geologik xaritalash bilan bir vaqtida bajariladan qidirish usullari. Yirik masshtabli geologik xaritalash jarayonida qidirish usullarining asosiy maqsadi – yer yuzidagi hamma foydali qazilma ochilmalarini topish va chaqiq yotqiziqlar bilan qoplanib yotgan foydali qazilma uyumlarining joylashishi uchun qulay geologik maydonlarni ajratishdan iborat.

Yirik masshtabli geologik xaritalash maydonlaridagi tarqalgan tog' jinsi turlari va ma'dan uyumlarining elektr tokini o'tqazuvchanligi, magnitlashganligi, radioaktivligiga qarab magnitometriya, radiometriya va boshqa usullardan foydalaniadi. Ma'danli maydonlarni chegaralash maqsadida kon va ma'danli maydonlarda keng ko'lamma litologik izlanishlar olib boriladi. Bunday izlanishlar yaxshi ochilgan ma'danli maydonlardagi tub tog' jinslarini va ma'danlarni namunalashga asoslangan. Olingen namunalar laboartoriya yo'li bilan tahlil qilinadi.

Bashoratlash xaritalari. Qidirish mezonnari va belgilari asosida bashorat qilingan ma'danlar ko'rsatilagan xaritalar bashoratlash xaritalari deyiladi.

Ma'lumki, har qanday geologik xarita ma'lum miqdorda bashoratlovni o'z ichiga oladi. Bashoratlash xaritalari oddiy geologik xaritalardan shunisi bilan farq qiladiki, bunday xaritalarda hududning geologik tuzilishini ifodalovchi axborotlardan tashqari, hali aniqlanmagan yoki faqat qismangina kuzatilgan foydali qazilma obyektlari

(minerallashgan nuqtalar, ma'dan tanalari, ma'danli zonalar, ma'dan namoyonlari yoki foydali qazilma konlari) bashoratlangan ko'rinishda maxsus shartli belgilar yordamida ifodalangan bo'ladi. Quyidagi jadvalda turli bosqichlarda bashoratlanadigan obyektlar ko'rsatilgan.

Turli bosqichlarda bashoratlanadigan obyektlar

| <i>Nº</i> | <i>Geologiya-qidiruv ishlaringin bosqichlari</i> | <i>Asosan bashoratlanadigan obyektlar</i> | <i>Ba'zan bashoratlanadigan obyektlar</i> |
|-----------|--|---|---|
| 1 | Regional geologik tadqiqotlar (1:100000 dan 1: 1000000000 gacha masshtablarda olib boriladi) | Ma'danli provinsiya Ma'danli maydon | FQK, ma'dan namoyoni |
| 2 | Davlat geologik xaritalash ishlari (1:50000 yoki 1:25000 masshtablarda olib boriladi) | Ma'danli maydon Ma'dan namoyoni | Foydali qazilma koni |
| 3 | Qidirish ishlari (1:25000; 1:10000 yoki 1:5000 masshtablarda olib boriladi) | Foydali qazilma koni Ma'dan namoyoni | Ma'danli maydon, minerallashgan nuqta |
| 4 | Baholash ishlari (1:5000 dan 1:1000 gacha masshtablarda olib boriladi) | Ma'dan tanalari Ma'danli zonalar | FQK, ma'dan namoyoni |
| 5 | Razvedka ishlari | Ma'dan tanalari va ularning geologik- sanoat parametrlari | Ma'danli zonalar |
| 6 | Qo'shimcha razvedka ishlari | Ma'dan tanalaringin geologik-sanoat parametrlari | Ma'dan tanalari Ma'danli zonalar |
| 7 | Ekspluatatsion razvedka ishlari | Ma'dan tanalaringin geologik-sanoat parametrlari | |

Bashoratlash xaritalari ko'pincha qidirish ishlarini bajarish uchun loyiha tuzish jarayonida, shu hududda ilgari bajarilgan barcha ishlarni ko'rib va tahlil qilib chiqish asosida tuziladi. Bu xaritada qidirish ishlarining maqsadini ifodalovchi "ishchi gipoteza"ning nimalarga asoslanganligi ko'rinish turadi va xarita qidirilishi rejalashtirilgan bashoratlangan obyektlarning grafik ifodasi bo'lib xizmat qiladi. Bunday xaritalar geologiya-qidiruv ishlarining har bir bosqichi oxirida, to'plangan materiallar asosida tuzilishi ham mumkin. Bundan tashqari, maxsus tematik (ilmiy tadqiqot) ishlari natijalari asosida ham deyarli har doim hududlarning bashoratli xaritalari tuziladi.

4.2. Mineralogik qidirish usullari. Shlixlash xaritalari

Mineralogik qidirish usullari gipergenez maydonida rivojlangan mexanik oreol sochilma konlarini aniqlash va o'rganishga asoslangan. Bu usul insonlar tomonidan qadim zamonlardan foydalaniladi. Mexanik oreollarning xarakteriga qarab mineralogik usullar daryo vodiysida jinslarning chaqiq bo'laklari bo'yicha; muzlik yotqiziqlari bo'yicha; shlixlash usullariga ajratiladi.

Mineralogik usullar klassifikatsiyasi:

- daryo vodiysida jinslarning chaqiq bo'laklari bo'yicha;
- muzlik yotqiziqlari bo'yicha;
- shlixlash usuli.

a) daryo vodiysida jinslarning chaqiq bo'laklari bo'yicha qidirish usuli

Bu usul foydali qazilma bo'laklarini yoki shag'al toshlarini, o'zgargan tog' jinslarini daryo tarmoqlari bo'yicha topish va kuzatishga asoslangan. Kuzatish asosan daryo oqimiga qarama-qarshi tomonga qarab olib boriladi. Kon yoki tub ma'dan ochilmasiga yaqinlashgan sari bo'laklar soni ko'payib boradi va ularning yumaloqlanish darajasi kamayadi. Allyuviy yotqiziqlarida foydali qazilma shag'al toshlarining yo'qolishi bilan qidirish ishlari vodiyning qirg'og'i bo'yicha yuqoriga qarab olib boriladi.

Olingen ma'lumotlar orqali bo'laklarning yelpig'ich sxemasi tuziladi, keyin bo'laklarning tub manbasi tog' qazilmalar orqali o'rghaniladi. Daryo bo'yicha ma'dan shag'al toshlarini kuzatish bilan bir qatorda tog' etaklari va yon bag'rida to'plangan ma'danli jinslarning bo'laklarini diqqat bilan o'rghanish talab qilinadi.

b) muzlik yotqiziqlari bo'yicha qidirish usuli

Bu usul qalnligi 15-20m bo'lgan muz yotqiziqlari (muzlik morenasi) bilan qoplangan shimoliy rayonlardagi (Kola yarim oroli, Kareliya, Shimoliy Ural) foydali qazilmalarni qidirishda foydalaniladi. Morenalarda tog' jinsi bo'laklari va xarsangtoshlar bilan bir qatorda foydali qazilma xarsangtoshlari yoki yondosh tog' jins bo'laklari ham uchrashi mumkin.

Ma'danli xarsangtoshlarining oreol sochilmasi katta maydonlarga tarqalgan bo'lishi mumkin. Ma'lumki, ma'danli harsangtosh tub konlardan 120 km masofaga olib keltirishi mumkin (Shvetsiya).

Qidirishning asosiy maqsadi – qidirish maydonlarida ma'danli xarsangtoshlarni izlash va ularning topilgan joyini geologik xaritaga tushirishdan iborat.

Ma'dan xarsangtoshlarining oreol sochilmasi shakliga qarab uning manbadan ajralishib ketgan yo'nalishini aniqlash mumkin. Odatda ular yelpig'ich shaklida bo'lib, o'zining keng qismi bilan muz harakati yo'nalishiga qaratilgan bo'ladi. Shu bilan qidirishning xarsangtosh-muz usuli tugallanadi. Keyin istiqbolli maydonlar geofizika usullari, tog' qazilmalari, burg'ilash qudug'i orqali mukammal o'rganiladi.

d) Shlixlash usuli

Shlixlash usuli tog' etaklarida, soylarda, suvayg'ichlarda tarqal-gan allyuvial, delyuvial va elyuvial yotqiziqlaridan namunalar olishga va ularni laboratoriya yo'li bilan tahlil qilishga asoslangan. Ma'danli maydonlarda tarqalgan chaqiq yotqiziqlarni shlixlash ikki muammoni hal qiladi.

Birinchidan, litogeokimyoiy namunalash yo'li bilan ma'dan minerallarining mexanik yoyilish oreollarini aniqlaydi. Ikkinchidan, chaqiq yotqiziqlardagi sanoatga yaroqli sochilma foydali qazilmalarini topishda vosita sifatida foydalilaniladi.

Shlixlash usuli har xil masshtabi geologik tasvirlashning tarkibiy qismiga kiradi. Ayrim hollarda shlixlash usuli keng hududlarda mustaqil ravishda o'tqazilishi mumkin. Shlixlashning uch turi; a) marshrutli, b) maydonli, d) mukammal shlixlash usullari mavjud. Marshrutli shlixlash asosan masshtabi 1:1000000, 1:500000 bo'lgan geologik tasvirlashda, maydonli shlixlash esa masshtabi 1:200000 va undan yirikroq geologik tasvirlashda qo'llaniladi. Bunday shlixlash jarayonida shlixda foydali qazilma minerallari ko'p uchrasa, mukammal shlixlash ishlari tashkil qilinadi. Bunday hollarda shlixlash ishlarining sharoit talab qilgan jarayonida quyidagi asosiy vazifalar:

- sochilma konlarni qidirish;
- tub konlarni qidirish;
- ma'dan tanasini namunalash;
- istiqbolli maydonlarni ajratish uchun hududning umumiy metallogenik va mineralogik xususiyatlarini o'rganish;
- sochilma konlarini namunalash;
- har xil geologik va ma'dan majmulariga xos bo'lgan xarakterli og'ir minerallar assotsiatsiyasini aniqlash bajariladi.

Shlix namunalarini olish. Shlix namunalari asosan og‘ir mineral fraksiyalari to‘planadigan joylardan olinadi. Namuna olish uchun eng qulay joy tub tog‘ jinsi ustiga joylashgan kichik qalnlikdagi allyuvial yotqiziqlar hisoblanadi. Shuningdek shlix namunalari daryo, quruq soy va ularning tarmoqlaridan, o‘zanlardan olinadi.

Undan tashqari tub tog‘ jinslaridan namunalar olinib, bo‘laklarining kattaligi 0,2-0,6 mm qilib maydalanib, sun’iy shlix tayyorlanadi. Olinadigan shlix namunasining soni va to‘r zichligi qidirshning mukammalligiga bog‘liq. Masalan: 100 km² maydondan 100 ga yaqin namuna olinishi mumkin. Shlix namunalarini olish nuqtalarining oralig‘i esa 500-2000 m.ni tashkil qiladi. Shlix namunasi asosan maxsus qazilgan o‘rachadan olinadi. O‘rachaning chuqurligi 0,2 dan 1,5m gacha bo‘lishi mumkin. Shlix namunasining og‘irligi 30-50kg.ni tashkil qiladi. Olingan hamma shlix namunalari hujjatlashtirilib, dala daftarida rasmiylashtiriladi. Dala daftarida shlix namunasining tartibi, olingan joyi, tog‘ jinslarining genetik turi, qisqa ta’rifi, olingan chuqurligi, shlix namunasining hajmi, shlix massasi ko‘rsatiladi.

Shlix namunalarini yuvish. Olingan shlix namunasi tarkibidagi mineral kontsentratlarini aniqlash maqsadida yuviladi. Yuvilgan shlix namunasidan 10-15 g qoldiq qoladi. Buning uchun 30-50 kg bo‘shoq jinslar yuvilishi talab qilinadi. Shlix namunalarini yuvish sig‘imi 0,005-0,01m³ bo‘lgan maxsus tovoq(lotok)da amalga oshiriladi.


Yuvish jarayoni 3 bosqichda olib boriladi. Birinchi bosqichda lotokka solingen shlix namunasi suvga cho‘ktirilib, maxsus asbobda yoki qo‘lda shalabbo qilinadi. Natijada gilli zarrachalar ho‘llanadi va lotokdan suv bilan chiqib ketadi. Shu vaqtning o‘zida lotokdag‘i katta tosh bo‘laklari va shag‘allar qo‘l bilan terilib tashlanadi.

Ikkinci bosqichda qum fraksiyalaridan tozalanadi. Keyin lotokdag‘i qolgan shlix namuna materiallarini yuvish davom ettiriladi. Natijada og‘ir fraksiya minerallari lotok tagiga va yengil mineral donalari esa namuna ustida joylashadi. Keyin lotok asta-sekin suvga cho‘ktiriladi va natijada yengil fraksiya minerallari yuvilib ketadi hamda og‘ir fraksiya minerallari saqlanib qoladi. Lotokdag‘i namuna qora shlix qolgunicha yuviladi.

Uchinchi bosqichda shlix namunalari yuvilib, qolgan yengil materiallardan tozalanib, me’yoriga yetkaziladi. Natijada lotok tagida kulrang shlix qoldiqlari qoladi. Keyin, qolgan shlix quyoshda yoki past


olovda quritiladi. Shlixni kuchli olovda quritish man qilinadi. Chunki sulfidlar kuyib, ayrim minerallar uchuvchanligi tufayli parchalanib ketishi mumkin. Shunday qilib yuvilgan shlix qoldiqlari lupa orqali ko'zdan kechirilib, minerallar o'rganiladi. Mukammal tahlil qilish laboratoriya sharoitida olib boriladi.

Shlixlarda kuzatilgan minerallarning miqdori bo'yicha olingan natijalar asosida shlixlash xaritalari tuziladi. Bunday xaritalar aylanali nuqtali (60-rasm), (61-rasm), tasmali (62-rasm) va izochiziqli (63-rasm) ko'rinishlarda bo'lishi mumkin. Bu natijalarni tahlil qilish orqali kelajak qidiruv ishlarining yo'naliishlari belgilab olinadi.




60-rasm. Nuqtali shlixlash xaritasi:

1 – allyuvial yotqiziqlar (Q); 2 – qumtoshlar va slaneslar (devon); 3 – granit;
4 – shlix namunalari olingan joylar va ularning tartib raqamlari.




61-rasm. Aylanali shlixlash xaritasi:

1-minerallar ko'p; 2-minerallar soni o'rtacha; 3-minerallar kam;
4-oltin; 5-kassiterit; 6-sheelit; 7-shlixda minerallar yo'q.



62-rasm. Lentali shlixlash xaritasi:

1-shlix namunasi olingan nuqta; 2-oltin; 3-kassiterit; 4-sheelit.



63-rasm. Izochiziqli shlixlash xaritasi.

- 1 – sheelitning miqdori bitta-yarimta belgidan 0,0001% gacha;
- 2 – sheelitning miqdori 0,0001 dan 0,001% gacha;
- 3 – shlix namunasi olingen nuqta

4.3. Geokimyoviy qidirish usullari. Litogeokimyoviy, metallometrik usullar

Bu usul tub tog‘ jinslarini va bo‘shoq yotqiziqlarni, o‘simlik kollarini, suv va gazlarni namunalash yo‘li bilan geokimyoviy anomaliyalarini aniqlashga asoslangan. Birlamchi va ikkilamchi oreollar bo‘yicha qidirish ishlarini olib borish nihoyatda katta ahamiyatga ega.

Har xil geokimyoviy jarayonlar natijasida tog‘ jinslarida, bo‘shoq yotqiziqlarda, tuproqlarda, tabiiy suvlarda, o‘simliklarda kimyoviy elementlarning o‘rtacha miqdori odatdagiga nisbatan ancha yuqori bo‘lib, anomaliyalar paydo bo‘ladi.

Foydali qazilma uyumlari va ularning parchalanish mahsulotlaridan hosil bo‘lgan anomaliyalar “tarqalish oreollari” deb ataladi. Ular

tub tog' jinslarida, bo'shoq jinslarda, tuproqlarda (litogeokimyoviy oreol), suvlarda (gidrogeokimyoviy oreol), o'simliklarda (biogeokimyoviy oreol), tuproq havolarida (atmogeokimyoviy oreol) keng rivojlanadi.

Tarqalish oreollari paydo bo'lishiga qarab birlamchi va ikkilamchi bo'ladi.

Birlamchi tarqalishi oreollari foydali qazilmalar paydo bo'lgan tog' jinslarida foydali qazilmalar bilan bir vaqtida (bir davrda) paydo bo'ladi. Masalan, galenit, sfalerit, magnenit, xalkopiritdan tashkil topgan qo'rg'oshin-rux konlaridagi birlamchi tarqalish oreollarida qo'rg'oshin, rux, margimush, mis va boshqa elementlarning yuqori miqdori kuzatiladi.

Ikkilamchi tarqalish oreollarida esa ma'dan uyumlarining eng ko'p tarqalgan elementlarigina uchraydi.

Masalan, mis-kolchedan konlaridagi suv oreollarida mis, qo'rg'oshin, rux kuzatiladi. Molibden konlaridagi suv oreollarida molibden, volfram, qo'rg'oshin, rux va boshqa elementlar kuzatiladi.

Hozirgi vaqtida litogeokimyoviy, gidrogeokimyoviy, atmogeokimyoviy, biogeokimyoviy qidirish ishlari qo'llanilmoqda. Bular orasida eng keng qo'llaniladigan albatta – litogeokimyoviy usullar.

a) Litogeokimyoviy qidirish usuli

Bu usul tub tog' jinsi turlaridan, bo'shoq yotqiziqlardan muntazam ravishda namuna olishga va ularda tarqalgan mikroelementlarni aniqlashga asoslangan.

Namunalashni to'rtta guruhga bo'lish mumkin.

a) ikkilamchi yoyilish oreolini aniqlash maqsadida delyuvial va elyuvial yotqiziqlarni, tuproqlarni namunalash;

b) mexanik va toshqin oqimining yoyilish elementini aniqlash uchun daryo va jarliklardagi allyuvial va prolyuvial yotqiziqlarni namunalash;

d) elementlarning chuqurlikdagi yoyilish oreolini aniqlash uchun qoplama yotqiziqlarni namunalash;

e) birlamchi geokimyoviy oreollarni aniqlash uchun har xil darajada nuragan tub tog' jinslarini namunalash.

Litokimyoviy qidirish jarayonida o'rganilayotgan maydonlardan ma'lum oraliq bo'yicha namunalar olinadi.

Namunalash oraliqlarining zichligi qidirish mashtabiga mos keladi. Qidirish ishlarining natijalariga qarab har xil jadvallar, kesimlar, elementlarning tarqalish geokimyoviy xaritasi tuziladi.

Birlamchi oreollar singenetik va epigenetik turlarga ajratiladi (foydali qazilma konlarining genezisiga asoslanib).

Singenetik tur birlamchi oreollar cho'kindi va vulkonogen-cho'kindi (stratiform) genezisli konlar bilan bog'liq. Ular foydali qazilma va o'zlashtiruvchi tog' jinslari bir jarayon natijasida va yaqin vaqtida vujudga kelishi bilan bog'liq bo'ladi. Shuning bilan oreollarda kimyoviy elementlar tarqalishi va yig'ilishi ma'dan tanalariga yaqinlashgan sari ko'payadi (zichlanadi).

Epigenetik oreollar ilgari vujudga kelgan ma'dan qamrovchi jinslardagi turli jarayonlar natijasida hosil bo'ladi va ular tanalarning davomi sifatida qabul qilinadi. Epigenetik oreollar diffuzion va infiltratsion turlarga bo'linadi.

Epigenetik birlamchi oreollar ma'dan tanalari bilan bir strukturaga bog'liq bo'ladi, ya'ni qamrovchi jinslarga yoriqliklar bo'yicha kesib o'tgan holda vujudga keladi.

Umuman olganda, oreppardagi elementlarning miqdori ma'dan tanalari bilan solishtirganda foizi kamroq bo'ladi. Yuqorida tasdiqlanganidek, birlamchi oreollar ma'dan tanalarini o'rab olgandek bo'lib, ular ma'dan tanalarining davomi hisoblanib, ularning chegarasi anchagina sun'iydir. Chunki chegara foydali komponent miqdoriga va boshqa ma'dan xususiyatiga asoslanib o'tkazilib, avvalombor sanoat talablariga, dunyo bozoridagi turli metallarning narxiga (ma'lum vaqtida) va shu elementlarga davlatning muhtojligiga asoslangan bo'ladi. Birlamchi oreppardagi elementlarning vujudga kelishi turlicha shakllarda bo'lishi mumkin. Ko'pincha oreppardagi elementlar ma'dandagi birikmalar(minerallar) ko'rinishida bo'ladi. Ba'zan qamrovchi tog' jinslari minerallarida izomorf qo'shimcha tarzida uchrashi mumkin. Undan tashqari, oreol tashkil etuvchi elementlar ma'dan tanasi atrofidagi jinslarning g'ovaklaridagi suyuqliklar tarkibida ham uchrashi mumkin. Birlamchi oreppardagi tarkibiga kiradigan elementlarning miqdori chuqurlikka (yer yuzasiga nisbatan) va maydon bo'yicha o'zgaradi. Ya'ni ma'danli hududning har xil qismlari ularning sifati bo'yicha, tarqalish doirasi bo'yicha, foydali qazilmaning

ko'rsatkichlari (miqdori, tanalarning qalinligi, qazib olish holati) asosida ajralishi mumkin.

Ikkilamchi oreollar va ularning tarqalish oqimi. Foydali qazilmalar vujudga kelgandan (ma'dan hosil bo'lish jarayoni to'xtagandan) so'ng, turli tabiiy sabablarga ko'ra, uning atrofidagi tog' jinslarida (qamrovchi) yangi ikkilamchi kimyo jarayoni natijasida element va minerallar bilan boyitilishi mumkin (ikkilamchi oreollar). Bular yer yuzasidagi jinslarda, jumladan tuproqlar, argillit, alevrolit (lyosslar), ya'ni nisbatan yosh jinslarda, o'simliklar, yer osti va yer usti suvlar, jinslar g'ovaklaridagi havoda va atmosferada paydo bo'ladi.

Oreollar shakli ko'pincha doirasimon (izometrik) bo'ladi. Mexanik oqimlar shakli esa, yuqorida aytiganidek, mexanik o'zgarish natijasida (sellar, yer o'pirilishi, yomg'ir ta'sirida) uzunchoq, soy shaklida bo'ladi (yuqoridan pastga).

Ikkilamchi oreollar va tarqalish oqimlari o'zgaruvchanlik xarakteriga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

– *mexanik oreollar* kimyoviy mustahkam foydali qazilmalarning maydalanishi, so'ngra iqlim faoliyati natijasida tarqalishi natijasida tashkil topadi. Ular maydalanish darajasi va agregat tarkibiga qarab: yirik qismi (katta toshlar, shag'al), shlix (qumtosh va mayda shag'al) va loyqalarga ajratiladi;

– *tuzli oreollar* ma'danlar tarkibidagi kimyoviy birikmalarning parchalanishi, erishi va qayta tashkil bo'lishi jarayonlari ta'sirida yer yuzasining yaqin qismlarida joylashgan tog' jinslarida kimyoviy elementlar va tuzlar ko'rinishida tashkil topadi. Ularning paydo bo'lishi va o'zgarib turishi yomg'ir, qor va bug'lanish bilan chambarchas bog'liqidir;

– *gidrogeokimyoviy oreollar* yer osti va ustidagi suv sistemasi bilan bog'liq. Gidrogeokimyo oreollari doimiy (chuqur suvli qatlamlar) va vaqtinchalik (yer yuzasiga yaqin, iqlim ta'sirini sezuvchan va yomg'ir suvlar o'tadigan) suv gorizontlariga bo'linadi. Xaydarkon simob obyektida yer osti suvlarida va ular bilan bog'liq chashma-buloqlarda shu element mayjudligi aholi sog'lig'iga salbiy ta'sirini o'tkazadi. Jumladan boshqa tomirsimon minerallar bilan yonma-yon uchraydigan element – marginush ichimlik oqar suvni zaharlashi mumkin;

– *atmogeokimyoviy oreollar* yer ustiga yaqin joylashgan tog‘ jinslari tarkibidagi, g‘ovaklardagi va yer yuzasiga yaqin atmosfera (havo) qismida bug‘ va gaz holatidagi kimyoviy elementlarning mavjudligidan iboratdir. Bunday oreollar gazsimon faza holatidagi elementlarning migratsiyasi natijasida paydo bo‘ladi. Masalan, radioaktiv elementlari bor konlar ustida (atmosferasida) radon, toriy va geliy oreollari; uglevodorod tarkibli obyektlarda yoqimli gaz, geliy, SO₂larning atmogeokimyoviy oreollari vujudga keladi;

– *biogeokimyoviy oreollar* o’simliklarning tarkibida turli elementlarning yuqori miqdori kuzatilishi bilan bog‘liq. Bunday oreollar foydali qazilmalar joylashgan hududlarda paydo bo‘ladi.

b) Gidrogeokimyoviy qidirish usuli

Bu usul yer osti va yer usti suvlarining kimyoviy tarkibini o’rganishga asoslangan.

Bu suvlar ma’dan uyumlari joylashgan joylarga tushib, ulardagi mikroelementlarni yuvadi. Gidrogeokimyoviy usul sulfidli konlarni qidirishda keng qo’llaniladi. Chunki sulfid ma’danlarining oksidlanishi natijasida yengil eruvchan sulfat birikmalari paydo bo‘ladi. Bu usul radioaktiv ma’danlarni qidirishda ham keng qo’llaniladi.

Namunalar suv manbalaridan, quduqlardan, burg‘ilash quduqlaridan, hovuzlardan olinadi. Namunalash to‘rining zichligi qidirish ishlari masshtabiga to‘g‘ri keladi. Namuna hajmi 1 litrni tashkil qiladi. Bu namunalar kimyo-spektral yo‘l bilan tahlil qilinadi.

Gidrogeokimyo usuli simob, oltin, uran, kumush, mis, molibden konlarini qidirishda keng qo’llaniladi.

Masalan, ma’dansiz joylardagi grunt suvlardagi misning miqdori 10 mg/l ga teng bo‘ladi. Ayrim hollarda mis konlarini yuvib chiqayotgan suvda mis miqdori 1000 martaba ortib ketishi mumkin. Bu usul orqali 50-100 metr qalinlikdagi tuproq, qum, shag‘al qatlami tagida yashirinib yotgan konlarni aniqlash mumkin.


Gidrogeokimyoviy qidirish ishlari natijalari bo‘yicha gidrokimyo xaritalari tuziladi va miqdori yuqori bo‘lgan elementlar maydonlari aniqlanadi va chegaralanadi (64-rasm).

d) Atmogeokimyoviy qidirish usuli

Bu usul orqali yer qobig‘idagi yashirin ma’dan konlarini va u bilan bog‘liq holda yer yuziga chiqayotgan gazlar – karbonat angidridi, geliy,

radon, simob bug'larining atmosfera va tuproq havosidagi miqdorini aniqlash mumkin.

Undan tashqari, bu usul neft va ko'mir konlarini qidirishda qo'llaniladi. Chunki bunday foydali qazilmalar atrofida uglevodorod gazlar (ayniqsa metan) oreollari tarqalgan bo'ladi. Bu gazlar ko'paygan hududlarni aniqlash orqali neft va ko'mir konlarini qidirish mumkin.



64-rasm. Gidrogeokimyoviy qidirish xaritasi:

- 1 – to'rtlamchi davr allyuvial yotqiziqlari;
- 2 – yuqori bo'r davri ohaktoshlari;
- 3 – qumtosh-slanesli yotqiziqlar (devon);
- 4 – tarkibida ko'mir-gilli va chaqmoqtoshli slaneslarning qalin qatlamlari bo'lgan diabaz-filitsimon formatsiya yotqiziqlari (ordovik);
- 5 – qumtosh, alevrolit va argillitlardan tashkil topgan yotqiziqlari (proterozoy);
- 6 – mezozoy intruziyalari (granosienitlar);
- 7 – uzilmalar;
- 8 – hidrokimyoviy namunalarning olingan joyi va tartib raqami.

e) Biogeokimyoviy qidirish usuli

Bu usul ma'lum bir foydali qazilma ma'danlari borligi taxmin qilingan maydonlarda o'simlik shoxlari va ildizlarida tarqalgan kimyoviy elementlarning tarqalishini o'rganishga asoslangan. Buning uchun o'simliklarning har xil qismi yoqiladi va olingen kullar kimyo va spektral yo'l bilan tahlil qilinadi. Agar bizni qiziqtirgan elementlarning o'rtacha mikdori klark miqdoridan ancha yuqori bo'lsa, bu yerda tub foydali qazilma ma'danlari borligidan darak beradi. Keyin, qilingan tahlillar natijalariga asoslanib, mikdori yuqori bo'lgan elementlarning anomaliya maydonlari ajratiladi.

Foydali komponentlarning miqdori o'simliklarning turli qismalarida (shoxlar, barglar va ildizlarida) har xil bo'lishi mumkinligini inobatga olish zarur.

Biogeokimyoviy oreollarni o'rganish natijasida kerakli ma'lumotlar olish va ularni foydali qazilmalarni izlash jarayonida unumli qo'llash o'rmonzorlar rivojlangan mamlakatlarning (Kanada, Rossiya, Yevropa, MDX) geolog-tadqiqotchilar ishlarida yetarli darajada yoritilgan.

4.4. Geofizik qidirish usullari

Foydali qazilmalarni qidirishning geofizika usullari foydali qazilma va yondosh tog' jinslarining fizik xossa hamda xususiyatlarining har xil bo'lishiga asoslangan.

Masalan, foydali qazilmalar magnit xossaga ega bo'lishi (temir ma'dani), elektr tokini yakshi o'tqazishi (polimetall ma'danlari), mustaqil elektron maydonlarini hosil qilishi mumkin. Foydali qazilmalarning katta zichlikda to'planishi natijasida og'irlik kuchi tezligi oshadi, kichik zichliklarda esa kamayadi. Shuningdek, ayrim ma'dan uyumlari portlash to'lqinlarining o'tish tezligiga ham ta'sir qiladi, hatto bu to'lqinlarni qaytaradi. Shunday qilib, ma'dan uyumlari joylashgan joyda geofizik anomaliyalar paydo bo'ladi. Ular odatdag'i normal fizik xossalardan farq qiladi. Bunday foydali qazilmalarni qidirish va razvedka qilishning geofizika usullari ma'lum. Bularga magnitometriya, radiometriya, gravimetriya, elektrometriya va seysmetriya usullarini ko'rsatish mumkin.

a) Magnitometriya usuli

Bu usul magnitometrlar yordamida magnit maydonlarini o'lchashga asoslangan. Bu usul o'z tarkibida magnetit, titano-magnetit, gematit va pirrotin bo'lgan magnitlashgan tog' jinslarini qidirishda yaxshi natija beradi.

Magnitometriya usuli bilan yaxshi aniqlanadigan uzilma zonalarda, intruziv jins yonlarida joylashgan magnitlashgan temir ma'danlarini, rangli va nodir metallarni qidirishda aeromagnitometriya usulidan foydalaniladi.

b) Radiometriya usuli

Bu usul tabiiy yotqiziqlarning radioaktivligini aniqlashga asoslangan. Gamma-nurlanishning aktivligini gamma usuli bilan aniqlanadi. Bu usullar yer usti marshrut qidirishida va aerotasvirlashda foydalaniadi. Har xil gamma usullarning xususiyatlariga qarab burg'ilash quduqlarida olib boriladigan karataj ishlarining radiometriya sistemasi ishlab chiqilgan.

d) Gravimetriya usuli

Bu usul ma'danlar va ularni qamrovchi tog' jinslarining mineral tarkibiga va g'ovakligiga bog'liq bo'lgan, har xil zichlikdagi tog' jinslari anomaliyasining yer yuzidagi tortilish kuchi maydonlarini o'rghanishga asoslangan. Bo'shoq jinslarning (qum, tuproq) va toshko'mirning zichligi $2g/sm^3$ atrofida; kvars, dala shpatlari, slyudalar va boksitning zichligi $2,5\text{-}3g/sm^3$ atrofida; temir va marganes karbonati, flyuoritning zichligi $3\text{-}4g/sm^3$ ga yaqin. Tarkibida yuqoridagi keltirilgan minerallar ishtirok etgan tog' jinslari mos ravishda turlichra zichlikka ega bo'ladi. Zichlik gravimetriya yo'li bilan aniqlanadi. Bu usul orqali neft va gaz to'planadigan strukturalarni aniqlash mumkin. Shuningdek bu usuldan temir va xromit konlarini, mis-nikel ma'danlarini, tuz va ko'mir konlarini qidirishda ham keng foydalaniladi.

e) Elektrometriya usuli

Bu usul yordamida tog' jinsi va ma'danlarining har xil elektr xususiyatlari o'rGANILADI. Izlanish jarayonida massa qarshiligi, o'tqa-zuvchanligi, elektr maydonlarining kattaligi o'lchanadi. Bu usul sulfidli polimetall va kolchedan konlarini qidirish va razvedka qilishda, pegmatitlarni, kvars tomirlari, daykalarni qidirishda, xaritalash jarayonida magmatik jinslar, bo'shoq yotqiziq va suvli gorizontlarning qalinligini aniqlashda qo'llaniladi.

f) Seysmometriya usuli

Bu usul burg'ilash quduqlarida maxsus portlatish yo'li bilan hosil qilingan ko'ndalang va bo'ylama to'lqinlarning yer po'stidagi tarqalishi tezligini o'rganishga va bu to'lqinlarni qaytaruvchi tekisliklarni aniqlashga asoslangan. Bu qaytaruvchi tekisliklar turli fizik xususiyatlarga ega bo'lgan tog' jinslaridir.

Tog' jinslaridagi to'lqinlarning tarqalishi tezligi tog' jinsining fizik xossalariiga, yotish chuqurligiga bog'liq. Masalan, magma jinslarda to'lqinning tarqalish tezligi ko'proq, karbonat va qumtosh-gilli jinslarda kamroq, bo'shoq jinslarda esa juda kam bo'ladi. Seysmik to'lqinlar jinslarning to'ljin tarqatish tezligi farqlanuvchi chegaralaridan yaxshiroq qaytadi va bu chegaralar seysmogrammalarda yaxshi ko'rindi. Seysmik tebranishlar seysmik stansiyalar yordamida aniqlanadi. Natijada chuqurlikdagi burmalangan va uzilgan strukturalar aniqlanadi.

4.5. Qidirish va razvedka qilishning texnik vositalari

FQK larini qidirish va razvedka qilishda turli texnik vositalardan foydalilanildi.

Texnik vosita – geologik ma'lumotlarni toplash uchun imkoniyat yaratib beruvchi *kon lahimlari va burg'ilash quduqlari*. Ularning vazifasi – tub jinslar va foydali qazilmaning iloji boricha kamroq o'zgargan qismlarini *ochib berish*.

Bunday texnik vositalarga quyidagilar kiradi: zakopushka (kavlama yoki chuqurcha), kanava (zovur), raschistka (tozalamalar), shurf (quduq ko'rinishidagi kon lahimi), burg'ilash qudug'i, shtolnya, shaxta, kvershlag, shtrek, ort, rassechka (ko'ndalang kesuvchi kon lahimi).

Qidirish va razvedka lahimlarini hujjatlashtirish. Lahimlarni hujjatlashtirish turlari

Qidirish va razvedka lahimlarini hujjatlashtirishning maqsadi – konlarni qidirish va razvedka qilish jarayonida olib boriladigan kuzatish natijalarini turli hujjatlarda qayd etishdir. Shuning uchun hujjatlashtirishning birinchi va asosiy sharti shundan iboratki, faktlar iloji boricha ta'riflar, rasmlar va fotosuratlar yordamida qayd qilinishi kerak.

Bu shartni bajarishda o‘lchov ishlari yetarli darajada aniq, ta’riflar va rasmga tushirishlar esa obyektiv bo‘lishi kerak.

Geologik qidiruv ishlarini to‘g‘ri davom ettirishda, pirovardida foydali qazilma koniga sanoat jihatdan to‘g‘ri baho berishda razvedka lahimlarini hujjatlashtirish ishlarini o‘z vaqtida, kechiktirmay bajarish juda muhimdir. Razvedka lahimlari bo‘yicha yaxshi bajarilgan birlamchi hujjatlar katta qiymatga egadir. Ularning muhimligi va ahamiyatliligining sababi – razvedka lahimlarini qazish paytida olib borilgan kuzatuvlarni (shu jumladan birlamchi hujjatlashtirishni) takrorlash ko‘pchilik hollarda mumkin bo‘lmasligida.

Lahimlarning devorlari nurash va o‘pirilib tushish natijasida o‘zining dastlabki holatini uzoq saqlab qololmaydi. Bundan tashqari lahimlarning ba’zi joylari turli usulda mahkamlanishi zarurligi sababli ularning yuzasi yopilib qoladi. Natijada kuzatuvlarni takroran bajarish mumkin bo‘lmaydi.

Rasmlar, chizmalar, fotosuratlar va ta’riflardan tashqari ashyoviy hujjatlar ham katta ahamiyatga ega. Bularga foydali qazilma yoki uni o‘rab turgan tog‘ jinslarining namunalari kiradi. Razvedka lahimlarning qazilish sharoitlariga qarab bunday namunalar butun bo‘laklar (shtuflar) yoki maydalangan material ko‘rinishida olinishi mumkin. Bu namunalarni o‘rganish kimyoviy, mineralogik, spektral va boshqa analizlar bilan bir qatorda, foydali qazilma sifatini to‘liq aniqlash va uning zaxirasini hisoblashga asos bo‘lib xizmat qiladi. Har bir namuna maxsus daftarda qayd qilinadi va ta’riflanadi. Ulardan eng xarakterlilari kolleksiya tuzish uchun ajratib olinadi.

Geologik hujjatlarning yuqori sifatli bo‘lishi uchun yuqori malakali mutaxassislardan maslahat olish maqsadga muvofiqdir. Agar to‘g‘ri bajarilgan geologik hujjatlar bo‘yicha noto‘g‘ri xulosalar chiqarilgan bo‘lsa, bu hujjatlar asosida xulosalarni qayta ko‘rib chiqib ularni tuzatish mumkin. Lekin geologik hujjatlashtirish noto‘g‘ri bajarilgan bo‘lsa, ko‘pincha uni tuzatish imkonи bo‘lmaydi.

Geologik hujjatlashtirish materiallari saqlanishi zarur. Ishlar bo‘yicha hisobot tuzilgandan keyin bu materiallar odatda arxivga topshiriladi.

Geologik qidiruv ishlari jarayonida olib boriladigan kuzatishlarning turiga qarab bir necha xil hujjatlashtirish turlari mavjud:

1)geologik xaritalash (foydali qazilma konlarining geologik joylanish sharoitlarini, ularning shakli va ichki tuzilishini aks ettirish maqsadida amalga oshiriladi);

2)namunalashni hujjatlashtirish;

3)geofizik hujjatlashtirish;

4) gidrogeologik hujjatlashtirish;

5) injener-geologik hujjatlashtirish;

Bundan tashqari, hujjatlashtirish birlamchi va «yig'ma» turlarga ham bo'linadi.

Birlamchi hujjatlashtirish razvedka lahimplarida bevosita kuzatiladigan narsalarni aks ettiruvchi asosiy boshlang'ich ma'lumotlardan iboratdir. Bunday hujjatlashtirish lahimplarni qazish jarayonida va lahim tayyor bo'lgandan keyin ko'p vaqt o'tqazmay bajariladi. Yig'ma hujjatlashtirish birlamchi hujjatlashtirish asosida tuziladi va bu jarayonda ozmi-ko'pmi interpolatsiya va ekstrapolatsiya usullari qo'llaniladi. Binobarin, yig'ma hujjatlashtirish ma'lum darajada taxminiydir. Shuning uchun, birinchidan, birlamchi hujjatlashtirishga nisbatan ishonchliligi kamroq, ikkinchidan ko'pincha ko'p variantli bo'lishi mumkin.

Quyida turli xil kon lahimplarini geologik hujjatlashtirishning va namunalashni hujjatlashtirishning turli xil usullari keltirilgan.

Geofizik, gidrogeologik va injener-geologik hujjatlashtirish turlari o'z nomlariga mos ravishda geofizika, gidrogeologiya va injenerlik geologiyasi fanlarini o'qish vaqtida batafsil yoritiladi.

Razvedka lahimplarini geologik hujjatlashtirish jarayonida kuzatiladigan obyektlar.

Razvedka lahimplarini qazish va ularni hujjatlashtirish jarayonida kuzatiladigan asosiy obyektlar quyidagilardan iborat:

– foydali qazilma tanasining geologik joylashish sharoitlari;

– foydali qazilma tanasining va uni o'rab turgan tog' jinslarining razvedka lahimi bilan kesib o'tilgan qismining o'lchamlari va yotish elementlari;

– tog' jinslaridagi darzliklar va burmalarning turlari;

– foydali qazilma va atrofdagi tog' jinslari orasidagi chegaranining xususiyatlari;

– foydali qazilma tanasini tashkil etuvchi ma'dan turlari o'rtasidagi chegaralarning xususiyatlari;

– foydali qazilmalarning tarkibi, foydali minerallarning (ularning zarralari va agregatlarning) fazoviy joylashuvi, ya’ni ma’danlarning teksturasi;

– foydali qazilma tanasi yaqinidagi tog‘ jinslarining o‘zgarishi;

– tektonik va boshqa turdagи buzilishlar, ayniqsa, foydali qazilma tanasini kesib o‘tib, uni buzuvchi dislokatsiyalar.

«Geologik joylashish sharoitlari» tushunchasi turli xil ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Bularga foydali qazilmalarni o‘z ichiga olgan tog‘ jinslarining tarkibi, tuzilishi hamda tog‘ jinslari va foydali qazilmaning o‘zaro munosabati kiradi.

Razvedka lahimlarida ma’dan tanalarining o‘lchamlarini va yotish elementlarini aniqlash ba’zan ma’lum qiyinchiliklarni tug‘diradi. Buning sababi, lahimlar ma’dan tanalarini ko‘pincha haqiqiy qalnligiga tik emas, qiyshiq, kesib o‘tadi. Shuning uchun o‘lchamlarning haqiqiy qiymatlari hisob-kitob yoki chizmachilik usullarini qo’llash yordamida aniqlanadi. Ba’zan bunday qiyinchiliklar lahim devorlarining notejisligidan kelib chiqadi. Natijada, aslida to‘g‘ri chiziq, ko‘rinishida bo‘lgan chegaralar qiyshiq bo‘lib ko‘rinishi mumkin. Shuning uchun yer osti lahimlariga oid ba’zi ma’lumotlarni bir devordan ikkinchi devorga davom ettirib o‘rtacha ma’lumotni olish yaxshi natija beradi.

Ma’dan tanalarining o‘lchamlarini va yotish elementlarini burg‘ilash quduqlarida aniqlash o‘ziga xos qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Bunday holatlarda texnik sabablarga ko‘ra (kernning uqalanib ketishi, materialning maydalaniб ketishi, quduqning qiyshayib ketishi) foydali qazilma tanasi va tog‘ jinslari orasidagi chegaraning o‘rni doim ham to‘g‘ri aniqlanavermaydi. Tog‘ jinslarining yotish elementlarini kernning burilib ketganligi natijasida oddiy kuzatish bilan mutlaqo o‘lchab bo‘lmaydi. Faqatgina, birdaniga bir necha burg‘ilash qudug‘i bo‘yicha kerndagi tog‘ jinslarining yotish burchaklari va quduqlarni qiyshayish burchaklarini o‘lchash va bu o‘lchovlar bo‘yicha umumiy hisoblar bajarish yo‘li bilangina tog‘ jinslarining va ma’dan tanalarining yotish elementlarini aniqlash mumkin.

Turli jinslar chegaralarining xususiyatlarini tekshirishda avvalo, quyidagi turdagи chegaralarini (kontaktlarini) farqlay bilish kerak:

1) *aniq (yaqqol) kontaktlar* ko'pincha to'g'ri chiziqli, cho'kindi konlarning qatlamsimon tanalari va bo'shliqlarning to'lishi natijasida hosil bo'lgan ma'dan tanalariga xosdir;

2) *noaniq (yaxshi sezilmaydigan) kontaktlar* odatda noto'g'ri chiziqli, atrof tog' jinslari tarkibida mayda xol-xol ko'rinishdagi foydali minerallarning aralashmalari bo'lgan metasomatik uyumlarga va nurash po'sti konlariga xosdir;

3) *ko'z bilan ilg'ab bo'lmaydigan kontaktlar* foydali qazilma tanasi va bo'sh tog' jinsi orasida sekin-asta bir-biriga aylanish zonasida kuzatiladi.

Kontaktlar yaqqol bo'lsa, ularni o'rganish – kontaktning yotish elementlarini o'lchash va kontakt turini aniqlashdan iborat bo'ladi. Ma'lumki, kontaktlar bir necha xil bo'lib, ularga stratigrafik, intruziv, tektonik va boshqa turdag'i kontaktlar kiradi. Razvedka maqsadlari uchun tektonik va normal stratigrafik kontaktlarni farqlash eng muhim ahamiyatga egadir, chunki razvedka ishlarining kelajak yo'nalishlari ko'p jihatdan shunga bog'liq bo'lib qoladi.

Noaniq kontaktlar birlamchi hujjatlashtirish uchun katta qiyinchiliklar tug'diradi. Bunday hollarda, shartli ravishda turli minerallari bo'lgan alohida zonalar bir-biridan shartli chegara bilan ajratiladi.

Ma'danlarning ko'zga ko'rilmaydigan chegaralari faqat namuna-larni analiz qilish natijalari bo'yicha o'tkaziladi.

Foydali qazilmaning tarkibi hujjatlashtirish jarayonida asosan ko'zga ko'rilmaydigan, ya'ni mikroskopik, mineral assotsiatsiyalar bo'yicha aniqlanadi. Ba'zi hollarda mikroskop yordamida mineralogik tekshirishlar olib borishga to'g'ri keladi. Ma'danlarning tarkibiy xususiyatlarini o'rganish vaqtida foydali qazilmaning strukturasi va teksturasiga katta e'tibor beriladi. Bu ma'lumotlar konning genetik xususiyatlarinigina ko'rsatib qolmay, balki foydali qazilmani qayta ishlash texnologiyasini ham aniqlaydi.

Foydali qazilmalarning sanoat turlarini uzil-kesil ajratish odatda kimyoviy analizlar yoki texnologik tekshirishlardan keyin bajariladi.

Shuning uchun birlamchi hujjatlashtirish chog'ida mikroskopik yo'l bilan ajratilgan foydali qazilmaning sanoat turlari shartli ravishda qabul qilinadi va keyinchalik ko'p jihatdan qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

Ma'dan atrofi tog' jinslaridagi o'zgarishlarni qayd qilish endogen konlarni razvedka qilishda muhimdir, chunki bunday o'zgarishlar

muayyan foydali qazilma uchun xos bo'lgan qidirish belgilarini aniqlashga imkon beradi. Odatda, ko'zga yaqqol ko'rindigan o'zgarishlar qayd qilinadi. Ba'zi hollarda mikroskop yordamiga murojaat qilishga to'g'ri keladi. Mikroskopik tekshirishlar natijalari bo'yicha birlamchi hujjatlarga ba'zi tuzatishlar kiritilishi mumkin.

Tektonik buzilishlar ularning genetik xususiyatlari va ma'dan tanalariga nisbatan morfologik munosabatlari nuqtayi nazaridan tekshiriladi. Eng avvalo, ma'dandan avval, ma'dan bilan bir vaqtida va ma'dandan keyin vujudga kelgan tektonik buzilishlarning turlarini ajratish kerak bo'ladi. Bularning birinchisi, odatda eng katta ahamiyatga egadir; ikkinchisi minerallashuvning mahsuldor davrlarini aniqlashga yordam beradi; uchinchi turlari ba'zan muhim ahamiyatga ega bo'lislari mumkin, qachonki ma'dan tanalari bu buzilishlar bo'yicha bo'laklarga bo'linib, hosil bo'lgan bo'laklar katta masofalarga ko'chirilgan bo'lsa.

Turli kon lahimlarini hujjatlashtirish

Kon lahimlarini hujjatlashtirish quyidagi tarkibiy qismlarni: naturadan qarab chizib olingan rasmlar, qisqacha tavsiflar, foydali qazilmalar va atrof tog' jinslaridan olinadigan namunalarni o'z ichiga oladi. Kon lahimlarining rasmlarida foydali qazilma uyumlarining xususiyatlari, tog' jinslarining yotish elementlari va tektonik buzilishlar aks ettirilgan bo'lishi kerak.

a) Arikchalarini hujjatlashtirish. Arikchalarini geologik hujjatlashtirish tayyorgarlik ishlaridan boshlanadi. Buning uchun arikchaning devori bo'yicha yoki tubi bo'yicha shnur-orientir yoki o'lchov lentasi tortiladi. So'ngra arikchaning gabaritlari o'lchanadi va kerakli masshtabda arikchaning plani chiziladi.

Hujjatlashtirish intervallar bo'yicha yoki qatlamlar bo'yicha birincketin olib boriladi. Tog' yon bag'irlari bo'yicha tik o'tilgan arikchalar pastdan yuqoriga qarab hujjatlashtiriladi.

Arikchalar hujjatlashtirishga tayyor bo'lgach, bajariladigan operatsiyalarning tartibi quyidagicha: arikchani tavsiflash, namunalar olish, o'lchovlar bajarish, rasmini chizish, fotosuratga olish, arikchani reyestrga kiritish. Arikchani tavsiflash deganda u kesib o'tgan va ochilgan geologik kesimning ta'rifi tushuniladi. Bu geologik kesimni tashkil etuvchi tog' jinslarining hammasi alohida-alohida ta'riflanadi.


Ariqchaning rasmini chizishda ochilgan geologik kesimning ariqchaning devorlari va tubi bo'yicha rasmi chiziladi. Odatda, ariqchaning tubi va uzun devorlaridan birining rasmi chiziladi, chunki ariqcha yo'naliishi tog' jinslari yo'naliishiga ko'ndalang bo'lsa, ikkala uzun devorda bir xil geologik kesim kuzatiladi. Lekin ariqcha murakkab geologik kesimni ochgan bo'lsa, u holda ariqcha tubi, ikkala uzun devor va ikkala kalta devorlarining rasmi ham chizilishi mumkin.

Ariqchalarни hujjatlashtirishda zamonaviy fotokameralarning imkoniyatlarini inobatga olib, keng ko'lamda rangli fotografiyadan foydalanish tavsiya etiladi. Buning uchun ariqchaning fotosuratga olinadigan joylari yaxshilab tozalanishi kerak.

Ariqchalar reyestrida ularning nomeridan, joyidan va yo'naliishidan tashqari, ariqchalarning kattaligi (o'lchamlari), namunalar soni, namunalarni tekshirish natijalari va boshqa ma'lumotlar ko'rsatiladi.

b) *Shurflarni hujjatlashtirish.* Shurflarni hujjatlashtirishda bajariladigan ishlar va ularning tartibi ariqchalarни hujjatlashtirishdagiga o'xshashdir.

Odatda shurfning foydali qazilma uyumlarining yo'naliishiga ko'ndalang bitta kengroq devori hujjatlashtiriladi. Lekin ba'zan shurfning bitta emas, ikkita kesishuvchi yoki to'rtta devorining hammasi hujjatlashtirilishi mumkin (65-rasm).



65-rasm. Shurfni hujjatlashtirish (V.I.Biryukov bo'yicha):

1-kaynozoy qatlami; 2- biotitli gneysslar; 3-amfibollli gneysslar; 4-aplit daykasi;
5-pegmatitlar; 6-pegmatitlar (grafik strukturali); 7-kvars-muskovit; 8 - biotit;
9-yoriqlar.

Ko'pchilik shurflarning devorlari mahkamlanishi tufayli ularni hujjatlashtirishni qazish jarayonida mayda intervallarga bo'lib olib borish maqsadga muvofiqdir. Shurflar yuqorida pastga qarab hujjatlashtiriladi. Mayda shurflar ko'pincha to'liq qazib bo'lingandan keyin hujjatlashtiriladi. Bundan tashqari, shurfning tubini hujjatlashtirishga alohida e'tibor beriladi. Shurfning chuqurligi har bir metrga chuqurlashib borganda uning tubi hujjatlashtiriladi. Shurflarni fotosuratlarga olish vaqtida maxsus yoritgich asboblaridan foydalaniladi.

d) Yer osti kon lahimlarini hujjatlashtirish

Vertikal yer osti lahimlarini (shaxtalarni) hujjatlashtirish xuddi shurflarni hujjatlashtirish kabi bajariladi.

Gorizontal yer osti lahimlarini hujjatlashtirish bu lahilmalarning foydali qazilmaga nisbatan joylashishiga qarab ikki xil usulda bajariladi:

- 1) Foydali qazilma uyumlarini ko'ndalangiga kesuvchi lahimlar (kvershlaglar, ortlar, rassechkalar, shtolnyalar).

2) Foydali qazilma uyumlarining yo'nalish chizig'iga parallel o'tuvchi lahimlar (shtreklar, shtolnyalar).

Birinchi turdag'i lahimlarni hujjatlashtirishda ikkala yon devorlar va shiftning rasmi chiziladi va hujjatlashtiriladi. Ba'zi murakkab uchastkalar alohida mashtabda chizilishi mumkin.

Ikkinci turdag'i lahimlar, ya'ni shtreklar va shtolnyalarni hujjatlashtirishda avvalombor lahilmarning old devori (zaboy) lahim chuqurlashgan sari har 2-3 metrda hujjatlashtiriladi. Bundan tashqari, foydali qazilma uyumlari va tog' jinslari qatlamlari gorizontal holatda yoki yotish burchagi kichik bo'lsa, ikki yon devorlari ham hujjatlashtiriladi. Agar foydali qazilma va jinslarning yotish burchagi katta bo'lsa, old devordan tashqari bitta yon devor va lahimning shifti hujjatlashtiriladi.

Vertikal va qiya yer osti lahimlarini hujjatlashtirishda foydali qazilma uyumlarining yotish burchagiga qarab yoki lahimning ikki devori yoki bir devori va tubi (har 2-3 metrda) hujjatlashtiriladi.

Shuni esda saqlash kerakki, hamma rasmlar ma'lum bir marksheyderlik shahobchalariga aniq bog'langan va geografik yo'nalishlar bo'yicha oriyentirlangan bo'lishi kerak. Rasmlarda namunalar olingan joylar ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

Rasmlarda keltirilgan tavsiflar iloji boricha qisqa va aniq, iloji boricha rasmlarda ko'rsatilishi qiyin bo'lgan ma'lumotlarni o'z ichiga olishi kerak. Ma'lum bir intervalni yorituvchi rasm va tavsif mumkin qadar yonma-yon joylashtirilishi kerak.

e) *Burg'ilash quduqlarini hujjatlashtirish*

Burg'ilash quduqlarini o'tish natijasida olinadigan asosiy hujjatlar quyidagilardan iborat: burg'ilash daftari, geologik hujjatlashtirish daftari va kerndan. Burg'ilash daftari – bu asosan ishlab chiqarish hujjati bo'lib, dala sharoitida smena burg'ilovchisi tomonidan tuziladi va texnik-geolog tomonidan nazorat qilib turiladi. Burg'ilash daftarida quyidagi ma'lumotlar: sana, burg'ilash usuli va diametri, chuqurlanish intervali va kernning chiqishi, tog' jinsining qisqacha nomi, tog' jinslarning mustahkamligi, snaryadning tushib ketish va avariya holatlari, avariyalarni bartaraf qilish uchun bajarilgan ishlar, bosim ostida otilib chiqadigan suv va gazlar chuqurligi va hokazolar qayd qilinadi.

Geologik hujjatlashtirish daftari quduqdan chiqarilgan kern maxsus yashiklarga taxlangandan keyin, texnik-geolog tomonidan to‘ldiriladi va uni katta geolog tekshirib, kerak bo‘lsa tuzatadi.

Quduqdan chiqarib olingan kern suv bilan yuvilib, maxsus yashiklarga quduqdan chiqishi tartibida joylashtiriladi va taxlanadi. Har bir kern bo‘lagi tartib bo‘yicha nomerlanadi va yo‘nalishi tush bilan belgilanadi. Bundan tashqari, reysning boshlang‘ich va oxirgi chuqurligi yozib qo‘yiladi. Agar burg‘ilash vaqtida kerndan tashqari maydalangan mahsulotlar (shlam) ham namuna sifatida olinsa, ular maxsus xaltachalarga solinib, reys chuqurligi ko‘rsatilgan birka xaltachaga biriktirib qo‘yiladi.

Ko‘pincha kerndan foydalanib bo‘lingach, ya’ni quduq bo‘yicha kesim tuzilgach va namunalar olib bo‘lingach, uni saqlashga ehtiyoj qolmaydi. Bunday paytlarda tasdiqlangan instruksiyalarga binoan kern qisqartiriladi. Odatda, har bir tog‘ jinslari turlari va foydali qazilma turlaridan bir bo‘lakdan olib qolinib, qolgan qismlari tashlab yuboriladi. Qisqartirilgan kern geologik qidiruv ishlari tugaguncha saqlanadi.

f) Yig‘ma geologik hujjatlashtirish

Ayrim tog‘ lahimlarini va burg‘ilash quduqlarini geologik hujjatlashtirish natijasida yig‘ma geologik hujjatlashtirish tuziladi.

Yigma geologik hujjatlashtirishning asosiy turlariga geologik xaritalar, kesimlar, gorizont bo‘yicha planlar va blok-diagrammalar kiradi.

4.6. Qidirish va razvedka qilish usullari majmuasini tanlash va tanlovga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar

Qidirish ishlaringning uslubiyati deganda eng ratsional usullar majmuasini muayyan ketma-ketlikda qo‘llash tushuniladi. Usullar majmuasini va ularni amalgalashishning ketma-ketligini tanlab olish birinchi navbatda qidiruv hududi uchun xos bo‘lgan foydali qazilma turlariga bog‘liq bo‘lib, ikkinchidan qidiruv ishlarini olib borishning tabiiy sharoitlariga bog‘liqdir.

Qidiruv ishlarini olib borishning tabiiy sharoitlari:

- Sharoitlarning strukturaviy-geologik xususiyatlari.
- To‘rlamchi davrning qoplovchi yotqiziqlarining xossalari.
- Qidirishning geomorfologik sharoitlari.

– Sharotlarning bioqlimiy zonallik xususiyatlari.

Sharotlarning strukturaviy-geologik xususiyatlari bo'yicha geologik tuzilishi bo'yicha keskin farq qiluvchi ikki turdag'i hududlarni ajratish mumkin:

1. Platformalarning quyi strukturaviy qismi va ko'tarilgan burmali zonalar rivojlangan hududlar. Bu hududlarda magmatizm keng rivojlangan, tog' jinslari kuchli dislokatsiyalarga uchragan va metamorfizm keng rivojlanganligi bilan xarakterlanadi.

2. Ikki yarusli tuzilishga ega bo'lган hududlar. Platformalarning quyi strukturaviy qismi yoki burmalangan zonalar chuqurda joylashgan, ularning ustti turli qalinlikdagi kam dislokatsiyalangan cho'kindi jinslar qatamlari bilan qoplangandir. Yuqori yarusda magmatizm odatda rivojlanmagan bo'ladi. Lekin ba'zan qatlam ko'rinishidagi asos-o'ta asos magmatik jinslar uchrashi mumkin.

To'rtlamchi davr qoplovchi yotqiziqlarining xossalari bo'yicha ikkita yoki uchta turdag'i hududlarni ajratish mumkin:

1. Ochiq hududlar – bularda nurash po'sti rivojlangan va uning yemirilish mahsulotlari mahalliy ko'chishga uchragan, ya'ni uzoqqa ketmagan. Bunday hududlarda elyuviy, delyuviy ba'zi joylarda prolyuviy va daryo vodiylarida allyuviy yotqiziqlari uchraydi. Uzoqqa ko'chirilgan yotqiziqlar kam uchraydi.

2. Yopiq hududlar – bularda tub tog' jinslari uzoqdan ko'chirilgan qoplovchi yotqiziqlar bilan to'liq qoplangan bo'lib, bu qoplama turli qalinlikdagi allyuvial, ko'l va dengiz cho'kindilari yoki eol yotqiziqlardan iborat bo'ladi.

3. Yarim yopiq hududlar – bularda yuqorida ko'rsatilgan ikki xil hududning xususiyatlari turli miqyoslarda birgalikda keladi.

Qidirishning geomorfologik sharotlari asosan ochiq hududlarda olib boriladigan qidiruv ishlariga ta'sir ko'rsatadi. Relyefning quyidagi asosiy turlari ajaratiladi:

1. Tog'li relyef. Ko'proq burmalangan zonalarda rivojlangan bo'ladi.

2. Strukturaviy relyef. Bunday relyef plitalar, qalqonlar va qisman burmalangan zonalarda rivojlangan.

3. Skulptura (haykal) relyef. Bunday relyef asosan cho'kindi jinslarning gorizontal yotgan hududlarida rivojlangan bo'ladi.

Tog' relyefli hududlarda quyidagi rayonlarni ajratish mumkin:

1) o‘ta baland tog‘li rayonlar (высокогорные районы). Absolyut balandliklari 7000 dan 2500 m gacha. Nisbiy balandliklar (o‘zgarish chuqurligi) 2000-4000 m;

2) tog‘li hududlar (нагорье), baland va past tog‘li hududlar (высокие и низкие). Balandliklari – 6000 – 2500 m, pastlari – 1900 – 1600 m.

3) o‘rtacha tog‘li hudud (среднегорный район). Absolyut balandliklari 3800 dan 400 m gacha. Nisbiy balandliklar (o‘zgarish chuqurligi) 2000-300 m;

4) past tog‘li hududlar (низкогорный район). Absolyut balandliklari 1000 dan 200 m gacha. Nisbiy balandliklar (o‘zgarish chuqurligi) 300-100 m;

Strukturaviy relyef quyidagi turlarga ajratiladi:

1) yassi tog‘liklar. Absolyut balandliklari 1500 dan 300 m gacha. Nisbiy balandliklar (o‘zgarish chuqurligi) 350-100 m;

2) platolar. Absolyut balandliklari 400 dan 200 m gacha. Nisbiy balandliklar (o‘zgarish chuqurligi) 200-50 m.

Skulptura (haykal) relyefi tekisliklarda rivojlanadi va quyidagi turlari bor:

1) baland tekisliklar. Absolyut balandliklari 300 dan 100 m gacha. Nisbiy balandliklar (o‘zgarish chuqurligi) 100-30 m;

2) past tekisliklar. Absolyut balandliklari 80 dan 60 m gacha. Nisbiy balandliklar (o‘zgarish chuqurligi) 30-10 m.

Sharoitlarning bioiqlimiy zonallik xususiyatlari bo‘yicha ikki xil zona ajratiladi:

1) Sahrolar, cho‘llar va o‘rmon-cho‘llarning janubiy zonasi. Bu yerda tuproqlar va suvlari ishqoriy va neytral xususiyatlari bilan xarakterlanadi;

2) Tuproqlari va suvlari kislotali va neytral xususiyatlari bilan xarakterlanadigan shimoliy zonalar.

5. FOYDALI QAZILMALARNI NAMUNALASH

5.1. Namunalashning maqsadi, vazifalari va turlari

Foydali qazilma konlarini yoki ularning sun'iy uyumlarini namunalash geologiya-qidiruv ishlarining hamma bosqichlarida olib boriladi.

Namunalashning maqsadi – sanoat tarmoqlarining turli mineral xomashyoga bo‘lgan talablaridan kelib chiqqan holda foydali qazilma turlari, sifat va xususiyatlarini aniqlashdir. Shuning uchun namunalash razvedka qilishning asosiy usullaridan biridir. Uning natijasi esa konni baholash bo‘yicha olinadigan ma'lumotning asosiy qismini tashkil etadi. *Razvedka jarayonida namunalash jarayonlari eng avvalo foydali qazilma zaxirasini hisoblash uchun ishlataladi.* Bundan tashqari, namunalash natijalari foydali qazilmani qayta ishslash texnologiyasini tanlashda, qazib olish texnikasini tanlashda va qazib olish jarayonini rejalashtirishda asosiy mezonlardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Deyarli har doim qattiq foydali qazilmalarni *namunalash jarayoni uch qismidan iborat bo‘ladi.* Jarayonning birinchi qismi *namuna olishdir.* Namunalar foydali qazilmalarning tabiiy ochilgan yoki sun'iy ravishda ochilgan joylaridan olinadi. Namuna olinayotganda uning sifati foydali qazilma sifatini to‘g‘ri aks ettiradigan bo‘lishi kerak. Namunalashning ikkinchi qismi *namunaga ishlov berish – birlamchi namuna yoki namunalar guruhining og‘irligini tahlil qilish uchun kerak bo‘lgan minimal miqdorga keltirishdan iboratdir.* Va nihoyat, uchunchi qismi *namunani tekshirishdan iboratdir.*

Namunani tekshirish (analiz qilish) usullari sanoat tomonidan xomashyoning sifatiga qo‘yilgan talablar asosida yoki shu paytgacha xomashyoni qayta ishslash yoki chiqitga chiqarish nuqtayi nazaridan o‘rganilganlik darajasiga qarab aniqlanadi. Ba‘zi hollarda tekshirishlar to‘liq holda, ya’ni xomashyoga to‘liq ishlov berish va qayta ishslash (texnologik tekshiruv) jarayonlarini o‘z ichiga oladi. Boshqa hollarda

esa xomashyoning ba'zi xususiyatlarigina tekshiriladi. Masalan, ma'danlardagi bir yoki bir necha komponentlarning miqdori aniqlanadi. Bu tekshirishlarning ko'pchiligi muhandis geologlar vazifasiga kirmaydi va maxsus mutaxassislar tomonidan bajariladi. Shuning uchun geologning asosiy e'tibori namunalarni olish va ularga ishlov berishga qaratilgan bo'ladi.

Keyingi vaqtarda namuna va namunalash haqidagi tushunchalar kengayib bormoqda. Chunki namunalashning yangi turlari (radio-metriya, lyuminessensiya) paydo bo'lib, ular foydali qazilmalar xususiyatlarini o'sha joyning o'zida fizik xususiyatlaridan foydalaniб aniqlashga imkon beradi. Shunday qilib, «namunalash» deganda biz keng ma'noda «foydali qazilmalarning sifatini aniqlash usullari» deb tushunamiz.

Namunalashning maqsadlari bo'yicha klassifikatsiyasi. Namunalashning maqsadiga qarab to'rtta turga ajratish mumkin: 1) kimyoviy namunalash; 2) mineralogik namunalash; 3) texnologik namunalash; 4) texnik namunalash.

Kimyoviy namunalashning maqsadi ma'dan yoki tog' jinslari tarkibidagi kimyoviy elementlarni aniqlashdan iborat. Bunda namuna tarkibidagi bitta asosiy yoki bir necha elementlarning miqdori aniqlanadi. Ko'pchilik foydali qazilmalarning asosiy sifat ko'rsatkichi ularning tarkibidagi asosiy yoki qo'shimcha komponentlarning miqdori bilan belgilanadi. Foydali qazilma zaxirasini hisoblashda shu ma'lumotlar qo'llaniladi. Shuning uchun barcha kuzatish nuqtalaridan kimyoviy namuna olish talab etiladi. Natijada konlarda eng ko'p olinadigan namuna turi bu kimyoviy namuna bo'lib qoladi.

Mineralogik namunalashning maqsadi ma'dan tarkibidagi minerallar ro'yxati va ularning nisbiy miqdorini aniqlashdan iboratdir. Bu ma'lumotlar konning sanoat turini aniqlashda, ma'danlarning hosil bo'lish jarayonlarini tushunishda va bu orqali foydali qazilmalarni bashoratlashda qo'llaniladi. Bu ma'lumotlar zaxira hisoblashda to'g'ridan-to'g'ri ishlatilmagani sababli, har bir kuzatish nuqtasidan mineralogik namuna olish shart emas. Shuning uchun bunday namunalar soni kimyoviy namunalardek ko'p bo'lmaydi.

Texnologik namunalashning maqsadi ma'danlarni qayta ishslashning turli texnologiyalarini o'rGANILAYOTGAN ma'danlarda sinab ko'rishdir. Bunday namunalarning soni chegaralangan bo'lib, har bir

ma'dan turidan bittadan yoki bir nechta namuna olinadi va ular turli texnologik jarayonlarda sinab ko'riladi. Shuning uchun texnologik namunalar soni ko'p emas, lekin alohida namunalarning miqdori anchagina ko'p bo'lishi mumkin.

Texnik namunalashning maqsadi ba'zi foydali qazilmalarning turli fizik-texnik xususiyatlarini aniqlashdan iborat. Bunday foydali qazilmalar odatda mineral ko'rinishida qo'llaniladi. Shuning uchun ularning fizik-texnik xususiyatlari foydali qazilmaning asosiy foydali xususiyati sifatida tekshirilishi kerak. Bunday xususiyatlarga masalan, mustahkamlik, shaffoflik, o'tga chidamlilik, yonish issiqligi, qattiqlik kabi xususiyatlar kiradi.

5.2. Namunalar olish usullari

Namuna olish usullarini uch guruhga bo'lib ko'rib chiqish mumkin. Ular quyidagilardir: nuqtalar bo'yicha, chiziqli va hajmiy usullardir.

Nuqtali usullar guruhiga shtuf, nuqtaviy va hovuchlab olish usullari kiradi.

Chiziqli usullar guruhiga ariqcha, punktir-ariqcha, nuqtaviy-chiziqli, shpur, kern va shlam usullari kiradi.

Hajmiy usullarga sidirib olish va butunlay to'liq olish usullari kiradi.

Geologiya-qidiruv ishlarining turli bosqichlarida sharoitga qarab namuna olishning turli usullari tanlab olinadi.

Tog' lahimlaridan namuna olish usulini tanlab olishda birinchidan, tog' lahami yo'nalishi bilan foydali qazilma tanasining yo'nalishi orasidagi munosabat, ikkinchidan, lahmni qazish texnologiyasi hisobga olinadi. Bundan tashqari, namuna olish usuli foydali qazilma turi, uning o'zgaruvchanligi, strukturaviy-teksturaviy xususiyatlariga bog'liqdir. Oxir oqibatda namunalash usuli foydali qazilma tanasining qanday ko'rinishda ochilganligiga bog'liq. Namuna olish usullarini ko'rib chiqishni eng oddiy, lekin aniqligi pastroq usullardan boshlab, eng qiyin va ko'p mehnat talab qiladigan, lekin eng aniq ma'lumot beradigan usullari bilan yakunlaymiz.

Shtuf usuli. Namuna olishning eng oddiy – shtuf usuli, tog' jinsi yoki ma'danlardan vazni 0,5-2 kg bo'lgan butun bo'laklarni sindirib olishdan iboratdir. Agar ma'dan tanasi murakkab tuzilishga ega bo'lsa,


shtuflarni har bir ma'dan turlaridan ularning tarqalish darajasiga proporsional miqdorda olish kerak. Shtuflarning ma'danning xususiyatlariga mos kelishi vizual ravishda ma'danning mineral tarkibi va tekstura-strukturaviy xususiyatlariga qarab aniqlanadi.

Namunalashning shtuf usuli keng tarqalgan bo'lib, qidirish ishlari jarayonida birlamchi geokimyoiy oreollarini aniqlashda, hajmiy og'irligi, g'ovakligi, namligi, mustahkamligi va h.k.larni o'rganishda qo'llaniladi.

Shtuf usuli odatda ma'danlarning kimyoviy tarkibini tekshirish va ma'dan tanalarini chegaralashda ishlatilmaydi. Chunki shtuf olish paytidagi subyektivlik katta xatolik hosil qiladi. Faqatgina ba'zi hollarda, agar ma'danlanish juda tekis bo'lsa, shtuf usuli ma'danning kimyoviy tarkibi haqida ma'lumot berishi mumkin.

Shtuf usulining tezkorlik, samaradorlik va tog' lahimlarini qazish jarayoniga xalaqit bermaslik kabi afzallikkleri bor.

Nuqtaviy usul. Bu usul bilan olingen namunaning materiali ma'dan tanasining bir qancha nuqtalaridan sindirib olingen, o'lchamlari 1,5-3 sm va massasi 10-20 g (ba'zan 50 grammgacha) bo'lgan bo'laklardan (birlamchi namunalardan) iborat bo'ladi. Ma'dan tarkibidagi o'r ganilayotgan komponentlarning tarqalish qonuniyatlariga qarab turib, birlamchi namunalar olinadigan nuqtalar ma'lum bir sistema bo'yicha belgilab olinadi. Agar ma'danning namuna olinayotgan tekislikdagi komponentlar konsentratsiyasi ikki yo'nalishda bir xil miqdorda o'zgarib borsa, namuna olish sistemasi kvadrat to'r ko'rinishida bo'ladi. Agar komponentlar konsentratsiyasi bir yo'nalish bo'yicha ikkinchi yo'nalishdagiga nisbatan tezroq o'zgarsa, to'g'ri to'rburchakli yoki rombsimon to'r ko'rinishida tanlab olinadi (66-rasm).



66-rasm. Nuqtaviy usul bilan namuna olish

Namunani tashkil etuvchi birlamchi namunalarning soni 10 tadan 20 tagacha, ba'zan ko'proq ham bo'lishi mumkin. Birlamchi namunalar orasida masofa komponentlarining ma'dan tanasida qay darajada notekis tarqalganiga bog'liq. Komponentlarning joylanishidagi notekislik qanchalik kuchli bo'lsa, birlamchi namunalar orasidagi masofa shunchalik kichik va ular soni shunchalik ko'p bo'lishi kerak. Kvadrat to'r bo'yicha namunalanganda bo'laklar orasidagi masofa 10x10 sm yoki 20x20 sm ba'zan 50x50 sm bo'lishi mumkin. To'g'ri to'rtburchakli to'r o'lchamlari esa 10x20 sm yoki 20x40 sm bo'lishi mumkin. Namunaning umumiy massasi birlamchi namunalarning soni va massiga proporsional ravishda 0,2 kg dan 2 kg gacha o'zgarishi mumkin.

Nuqtaviy usulda namuna olishning ishonchliligi birlamchi namunalarning soniga to'g'ri proporsionaldir. Umumiy namuna birlamchi namunalardan qanchalik ko'p tashkil topgan bo'lsa, uning ishocchliligi shunchalik yuqori bo'ladi.

Bu usulni quyidagi holatlarda ishlatish maqsadga muvofiqliqdir:

- massiv teksturali ma'danlarda;
- xol-xol teksturali va tomirli-xol-xol teksturali ma'danlarda;
- mayda yo'l-yo'l teksturali ma'danlarda;
- monomineral agregatli notekis tarqalgan yirik xol-xol teksturali ma'danlarda.

Oxirgi holatda nuqtaviy usul ariqcha usulidan ham ishonchliroq natija beradi.

Quyidagi hollarda bu usulni qo'llash tavsiya etilmaydi:

- mo'rt minerallardan tuzilgan va darzliklari ko'p bo'lgan ma'danlarda;
- yirik yo'l-yo'l teksturali ma'danlarda (yo'l-yo'llarning kengligi birlamchi namunalar orasidagi masofaga yaqin bo'lsa, sistematik xato kelib chiqadi);
- mustahkamligi turlicha bo'lgan minerallardan tuzilgan ma'danlarda (namunaga mustahkam minerallar ko'proq tushib qoladi va sistematik(tizimli) xato kelib chiqadi).

Nuqtaviy usulda mehnat samaradorligi yuqoriroq bo'ladi. Lekin ishonchlilik darajasi ariqcha usuliga nisbatan biroz pastroq bo'ladi. Shuning uchun bu usul konlarni ekspluatatsiya qilish bosqichida o'lchamlari o'rtacha va yirik bo'lgan ma'dan tanalarini namunalashda qo'llaniladi.

Hovuchlab olish usuli. Bu usulni nuqtaviy namuna olish usulining bir varianti deb hisoblash mumkin. Bu usul bilan qazib olingen ruda yoki rudali jinslarning uyumlaridan namuna olinadi.

Birlamchi namunalar ruda uyumlari yuzasidan, vagonetkalar va ma'dan tashuvchi avtomobillardagi uyumlarning yuzasidan kvadrat yoki to'g'ri to'rt burchak shaklidagi to'r bo'yicha hovuchlab olinadi va bir namunaga birlashtiriladi. Bu to'rlarning o'lchamlari 20x20 dan 50x50 sm gacha yoki 20x40 sm dan 50x100 sm gacha o'zgarishi mumkin. Birlamchi namunalar soni 10 dan 50 gacha o'zgarishi mumkin. Eng kam birlamchi namunalar olish vagonetkalarni namunalashda ishlataladi. Bu usul «konvert» usuli deyiladi va unda 5 ta nuqtadan birlamchi namuna olinadi. Alovida birlamchi namunaning hajmi 20 sm³ gacha, massasi 50 g. dan 600 g. gacha o'zgaradi. Birlamchi namunalar to'rining zichligi ma'dandagi komponentlar tarqalishining notekisligiga, bo'laklarning kattaligiga va bo'laklar kattaligining o'zgaruvchanligiga bog'liq.

Namunalashning ishonchliligi va to'g'riligini ta'minlash uchun namunaga kirgan turli xususiyatlari materiallarning nisbati namunada va namunalanayotgan ma'danda bir xil bo'lishi talab qilinadi. Bu talabni bajarmaslik sistematik xatolikka olib keladi. Bunga yo'l qo'ymaslik uchun har bir birlamchi namuna olinadigan nuqtadan, (ham yirik, ham mayda bo'laklardan) aralash material hovuchlab olinadi. Namunalash to'rining birlashgan bir necha yacheysini egallab turgan yirik ruda bo'laklaridan esa qabul qilingan hajmdagi bo'laklar sidirib olinishi kerak. Agar ma'danning katta bo'lagi yo'l-yo'l teksturali bo'lsa, birlamchi namunalar tekstura yo'nalishiga ko'ndalang yo'nalishda sindirib olinadi.

Hovuchlash usuli yuqori mehnat samaradorligini ta'minlaydi. Chunki u ma'danni sindirib olish yoki kovlashni talab etmaydi. Bu usul tog' lahimlarini qazish ishlariga xalaqt bermaydi. Lekin bu usul bilan namunalash ma'danlarni chegaralashga va turli sortga taalluqli ma'danlarni alovida namunalashga imkon bermaydi.

Ariqcha (borozda) usuli. Bu usul eng ko'p qo'llaniladigan namuna olish usuli bo'lib, miqdori jihatidan faqat kern usulidangina orqada qolishi mumkin.

Ariqchali namuna olishning bir necha xil turlari mavjud bo'lib, ular ichida asosiysi to'g'ri to'rtburchak shaklidagi ko'ndalang kesimli

ariqchadir. Ba'zan «punktir» ariqcha keng ariqcha ko'rinishida olinishi mumkin. Punktir ariqcha deb namuna olinayotgan joydan ko'ndalang kesimi bir xil bo'lgan va namuna uzunligi bo'yicha uzuq chiziq bo'yicha olinadigan ariqchaga aytildi. Ba'zi hollarda ko'ndalang kesimi uchburchak shakldagi ariqchalar ham olinishi mumkin.

Hamma hollarda ariqchaning yo'nalishi ma'danlarning eng yuqori o'zgaruvchanlikka ega bo'lgan yo'nalishga mumkin qadar yaqin bo'lishi kerak.

Bu yo'nalish odatda ma'danning qalinligi bo'yicha o'tadi. Lekin ariqchani olish qulayroq bo'lishi uchun ma'dan tanasining yotish burchagi 45° dan 90° gacha bo'lsa, gorizontal ariqcha, yotish burchagi 0° dan 45° gacha bo'lsa, vertikal ariqcha olish mumkin.






Yer osti gorizontal tog' lahimlarini namunalashda agar ular ma'dan tanalarining yo'nalishi bo'yicha o'tilgan bo'lsa, ariqchalar lahimlarning surilib boruvchi old devorlaridan o'tqaziladi. Biror sabablarga ko'ra buning iloji bo'lmasa, lahimning shiftidan yoki yon devorlaridan ariqchalar o'tqazish mumkin (lekin bu juda noqulay bo'ladi).

Agar gorizontal yer osti tog' lahimi ma'dan tanalarining qalinligi bo'yicha kesib o'tadigan bo'lsa, ariqchalar lahimlarning yon devorlaridan olinadi (bitta yoki ikkala devordan) va ko'pincha gorizontal yo'nalishda bo'ladi.

Agar yer osti lahimlari ma'dan tanalarining yotish burchagi yo'nalish bo'yicha pastga yoki yuqoriga yo'nalgan bo'lsa, ariqchalar bunday lahimlarning yon devorlaridan olinadi. Ariqchalarning yo'nalishi, agar ma'dan tanasining yotish burchagi 45° dan kichik bo'lsa, vertikal holatda bo'ladi. Shaxtalar va shurflarda ariqchalar devorlardan vertikal yo'nalishda olinadi (67-rasm).

Kanavalarni namunalashda yuqorida ko'rsatilgan umumiy qoidalarga riosa qilgan holda kanava tubidan yoki devorlaridan ariqchalar olinadi.

Ba'zi konlarda ma'danlarning yo'l-yo'l qatlamsimon va boshqa turdag'i teksturalari uchrashi mumkin. Turli teksturali ma'danlarni alohida xarakterlash uchun har bir qatlamchadan yoki turli teksturali ma'danlardan olinadigan namuna alohida-alohida olinadi, ya'ni ariqcha bir necha bo'laklarga (seksiyalarga) bo'linadi.



67-rasm. Tog‘ lahimlarining zaboy va devorlarida ariqcha namunalarni joylashtirish sxemalari

Ariqcha shaklidagi namunalarning uzunligi odatda 1m ga teng qilib olinadi. Ba’zi hollarda ariqchalarining uzunligi 2-3 m. dan bo‘lishi mumkin. Eng kalta ariqcha 0,5m bo‘ladi. Undan kalta ariqchalarini olish tavsiya etilmaydi. Ariqchalar ko‘ndalang kesimining o‘lchamlari 2x5 sm dan 3x12 sm gacha olinadi.

Namunalashning ariqcha usuli deyarli hamma turdagи konlarda yaroqlidir. Faqatgina bu usulni ba’zi hollarda qo’llash mumkin emas.


Masalan, brekchiya teksturali va notejis tarqalgan tomirsimon ma’danlarni kesib o’tgan ariqchalarini namunalashda, mayda tanalardan tuzilgan oltin konlarida, qimmatbaho toshlarning konlarida namunalashning ariqcha usuli yaroqsizdir.

Ariqchalarni olishda asosan qo’l mehnatidan foydalaniladi. Bu jarayonni mexanizatsiyalashtirishga qaratilgan ko‘p yillik urinishlar hozircha qoniqarli natija bermagan. Shuning uchun bu usulning eng asosiy kamchiligi ko‘p vaqt va mehnat talab qilishidir.

Shpur usuli. Bu usulning mohiyati shundaki, shpur qazilayotgan paytda hosil bo‘lgan maydalangan materiallar yig‘ib olinadi. Buning uchun lahimlarni qazish paytda o‘tiladigan shpurlardan foydalanish mumkin yoki maxsus shpurlar kovlash mumkin. Shpurlarning yo‘nalishi ma‘dan yo‘nalishiga ko‘ndalang bo‘lishi kerak.

Shpurlarning chuqurligi oddiy perfaratorlardan foydalanganda 7-8 m.ga, maxsus perfaratorlardan foydalanganda esa 50 m, hatto 70 m gacha yetishi mumkin. Shpur qazishda hosil bo‘lgan maydalangan mahsulotlar havo yoki suv yordamida shpurdan chiqarib olinadi va to‘planib namuna sifatida foydalilanadi (68-rasm).

Shpur namunasi 1-2 m. ba’zi hollarda 3 metrli bo‘laklarga (seksiyalarga) bo‘linishi mumkin.



68-rasm. Shpurlardan namuna olish sxemasi:

(**a** - katta qalinlikli jismni namunalashda; **b** - parallel joylashgan ma‘dan tanalarini namunalashda).

Namuna olishning shpur usuli boshqa usullarga qaraganda bir qator afzalliliklarga ega:

1) lahimlarni qazish uchun o‘tilgan shpurlardan namunalash uchun foydalilanadi;

2) namuna olish jarayoni lahimlarni qazish ishiga xalaqit bermaydi;

3) namunaga ishlov berish ishlari ancha kamayadi, chunki mahsulotning bo‘laklari 2 mm dan katta bo‘lmaydi;

4) shpur usuli boshqa usullarga nisbatan ancha tejamkordir.

Bu usulning kamchiliklari esa quyidagilardir:

a) shpur yo‘nalishi ba’zi hollarda ma‘dan tanasiga ko‘ndalang bo‘imasligi;

b) oson yemiriladigan, o'ta darzlangan ma'danlarni namunalashda sistematik xato kelib chiqishi mumkin.

Bu usul bizda ko'p tarqalmagan.

Kern va shlam usullari. Burg'ilash quduqlarini namunalash.

Burg'ilash quduqlarini namunalashda namuna sifatida kern (agar uning chiqishi yetarli bo'lsa), kern bilan shlam (agar kern chiqishi yetarli bo'lmasa), yoki faqat shlam (agar kern butunlay chiqmasa) olinadi. Namuna uzunligi 1m. dan 2-3 m gacha, ba'zi hollarda 5 m gacha olinadi. Ma'dan tanasining ustidan va ostidan 0,25-0,50 m. gacha namunalar olinadi. Ma'dan tanasining chegaralari aniq ko'rinxmaydigan hollarda butun burg'ilash qudug'inining uzunligi bo'yicha namunalar olinishi mumkin.


Namunaga kernning yarmi olinadi. Buning uchun kern uzun o'qi bo'yicha ikkiga bo'linadi va yarmi namunaga olinadi. Yarmi esa mineralogik tekshirishlar uchun va saqlash uchun olib qo'yiladi. Agar burg'ilash quduqlaridan olingan materiallardan texnologik tekshirishlar uchun namuna olish kerak bo'lsa, unda kernning qolgan yarmi yana uzun o'q bo'yicha ikkiga bo'linadi va bir qismi texnologik namunaga, ikkinchi qismi qoldirishga ajratiladi. Bir texnologik namuna uchun o'nlab burg'ilash quduqlaridan olingan kern qismlari to'planadi. Ba'zi hollarda texnologik namuna uchun kernning yarmi, kimyoviy namuna uchun choragi, mineralogik tekshirish va qoldirish uchun chorak qismi ajratiladi.

Suvda eruvchan tuzlarning konlarida o'tilgan burg'ilash quduqlarini namunalashda, quduqdan olingan kernning markaziy qismini namunaga olish tavsiya etiladi. Buning uchun kern tokarlik stanogi yordamida markaziy o'qi bo'yicha 8 mm li parma bilan parmalanadi va parmalash paytida hosil bo'lgan kukun namuna sifatida olinadi.

Shlamdan namuna olish ma'danli konlarda kern chiqishi 60-80% dan kam bo'lgan hollarda bajariladi.

Sidirib olish usuli. Bu usulda tog' lahimlari yoki tabiiy ochilmalar yuzasida ochilgan foydali qazilma tanasidan bir xil qalinlikda qatlama sidirib olinadi. Sidirib olingan namuna uzunligi 1-2 m, qalinligi 5-10 sm bo'ladi. Bunday namunaning og'irligi ma'dan tanasining qalinligiga bog'liq. Bunday namuna olishda asosiy e'tibor sidirib olinadigan qatlamning qalinligi hamma yerda bir xil bo'lishiga qaratilishi kerak.

Shuning uchun namuna olishdan oldin joyning yuzasini oldindan tekislab olish tavsiya etiladi (69-rasm).



69-rasm. Tog' lahimining zaboyidan namuna olish sxemasi:
(**a** - sidirib olish usulida; **b** - nuqtaviy usulda).

Katta qalinlikka ega bo'lgan ma'danlardan sidirib namuna olishga va bunday namunalarga ishlov berishga ko'p vaqt va mehnat sarf bo'ladi. Shuning uchun bu usulning qo'llanilishi cheklangandir. Sidirib olish usulini, boshqa usullar yetarli darajada ishonchli ma'lumotlar bermaydigan quyidagi holatlarda:

1) kichik qalinlikdagi tomirsimon ma'dan tanalarini razvedka qilishda, agar foydali komponent notekis va o'ta notekis taqsimlangan bo'lsa;

2) yer osti lahimlarida mayda tomirsimon ma'danlarni namunalashda;

3) yirik oltin zarralari bo'lgan oltin konlarini namunalashda *qo'llash mungkin*.

To'liq hajmli usul. Bu usulda namunaga tog' lahimlarini qazish vaqtida hosil bo'lgan jinslarning hammasi olinadi. Ko'pincha bunday namunalar yer osti kon lahimlarini qazishda bir yoki bir necha o'tish sikllaridan chiqqan ma'dan mahsulotlaridan iborat bo'ladi.

Bu usul ma'danlar tarkibida foydali komponentlar o'ta notekis tarqalgan joylarda, konlar mayda ma'dan tanalaridan tuzilgan bo'lsa, brekchiyasimon va konglomerat teksturali ma'danlarda, namunani tekshirish turiga qarab (masalan slyudalar) turli maxsus sharoitlarda qo'llaniladi. Bunday namunalarning miqdori 1-1,5 t. dan 2-3 t. gacha yetadi. Bunday usul texnologik tekshirishlar uchun eng muhim

ahamiyatga ega. Chunki bunday tekshirishlar uchun ko'p miqdordagi ma'dan namunasi talab etiladi.

Bundan tashqari ma'danlarning ba'zi fizik, mexanik va kimyoviy xususiyatlarini (hajmiy og'irlik, g'ovaklik, bo'laklanganlik, maydalanish koeffisiyenti va hokazolar) tekshirishda faqat shu usuldan foydalaniladi.

Texnologik tekshirishlar uchun olingan to'liq hajmli namunalar ma'danlarning turli navlari fazoda qanday tarqalganligini, ularning zaxiralarini hisobga olgan holda olinadi.

Namuna olish usulini tanlashga ta'sir ko'rsatuvchi omillar. Biron bir konda namuna olish usulini tanlashga ta'sir ko'rsatuvchi omillar shartli ravishda ikki guruhga bo'linadi: *geologik omillar; umumiy omillar.*

Geologik omillarga quyidagilar kiradi:

- 1) konning sanoat turi;
- 2) ma'danlarning elementar va mineralogik tarkibi;
- 3) ma'dan tanalarining qalinligi va uning o'zgarishi;
- 4) ma'dan tanalarining shakli va o'lchamlari;
- 5) madan tanalarining ichki tuzilishi;
- 6) foydali qazilma minerallari zarrachalarining kattaligi;
- 7) foydali minerallarning fazoviy taqsimlanishdagi notejislik darajasi;
- 8) ma'danlarning mustahkamligi;

Umumiy omillarga quyidagilar kiradi:

- 1) namunaning ishonchliligi;
- 2) namunalashning vazifasi;
- 3) ishlarning ko'lamni (miqdori);
- 4) namunalash ishlarini olib borish sharoitlari;
- 5) namunalash ishlarining dolzarbliji va bu ishlarning lahimlarni qazish davridagi o'rni.

Namunalarni hujjatlashtirish. Olingan namunalar mustahkam xaltaga solinadi va og'zi bog'lanadi. Har bir namuna yorliq va ko'rsatkich bilan ta'minlanadi. Yorliqda namunaning tartib raqami, olingan joyi, olingan kuni va namuna olish uchun mas'ul xodimning familiyasi ko'rsatiladi. Yorliq o'rov qog'oziga o'raladi va namuna solinadigan xaltaga solinadi. Ko'rsatkichga namunaning tartib raqami katta qilib yozib qo'yiladi va xaltaning ustki qismiga bog'lanadi.

Ko'rsatkich sifatida bir bo'lak taxta yoki kartondan foydalanish mumkin. Ba'zi hollarda namunaning tartib raqami xaltaning ustiga ham yozib qo'yilishi mumkin.

Kondan olingen hamma namunalar umumiy bir tartibda raqamlanishi kerak. Majburiy ravishda namunalash daftari to'ldiriladi. Bu daftarda konning nomi, kon bo'lagining nomi, tog' lahimlarining nomi va raqami, namunalar tartib raqami, namunaning xossalari (qisqacha mineralogik ta'rifi) yoziladi.

Namuna olingen joy dala daftarchasiga tog' lahimlarini hujjatlashtirish paytida aniq qilib chizib ko'rsatiladi va shu kuni namunalash daftariga ko'chiriladi. Rasmlarni 1:20-1:25 mashtablarda chiziladi. Rasmlarda ishlatilgan shartli belgilar daftarning birinchi betida beriladi.

Namunalashning umumiy yakunlovchi hujjati sifatida namunalash planlari va razvedka kesimlari tuziladi. Bu planlar marksheyderlik asoslardida 1:200, 1:500 (ba'zan 1:100) mashtablarda tuziladi hamda lahimlarni o'tish va ularni namunalash jarayoni bilan birlashtirishda, ma'lumotlarning to'planishiga qarab to'ldirib boriladi. Bu planlarda aniq tartibda namunalashning tartib raqami, namuna olingen ma'danning qalinligi (namuna uzunligi), aniqlangan komponentlarning konsentratsiyasi ko'rsatiladi. Agar ba'zi namunalar birlashtirilgan bo'lsa, ular planda maxsus belgilar bilan ko'rsatiladi.

Tog' lahimlari zich joylashgan planlarda odatda faqat asosiy komponentning miqdori ko'rsatiladi, qo'shimcha komponentlarning miqdori shu planning chetida berilgan jadvallarda ko'rsatiladi. Bu jadvalda namunalash haqidagi hamma ma'lumotlar ham ko'rsatilishi mumkin.

Burg'ilash quduqlarini namunalash ishlarini hujjatlashtirish jarayonida burg'ilash jurnalida kern va shlamning batafsil ta'rifi, kern chiqishining foizi, kern va shlamning og'irligi ko'rsatiladi. Har bir quduq uchun kesim tuziladi. Bu kesimda quduq konstruksiyasi va geologik ma'lumotlar ko'rsatiladi.

Quduqning ma'danli joyida seksiylar bo'yicha foydali komponentlar konsentratsiyasining o'zgarish diagrammasi tuziladi.

Ma'lum vaqt ichida to'plangan namunalar ro'yxati tuzilib, bu ro'yxat bo'yicha namunalar maxsus laboratoriyalarga tekshirish uchun topshiriladi.

Foydali qazilma sifatini namuna olmay aniqlash. Keyingi paytlarda foydali qazilmalarning sifatini namuna olmay turib aniqlash usullari keng miqyosda qo'llanilmoqda. Buning uchun birinchidan sifat ko'rsatkichlarining geologik omillar bilan qonuniy bog'liqligidan foydalanimoqda.

Geofizik usullar turli-tumandir. Bular orasida magnitometrik, yadroviy-fizik va radiometrik usullarda ma'dan sifatini aniqlash eng ko'p tarqagan.

Magnitometrik usullar asosan magnetitli ma'danlarni o'rganishda ishlataladi. Bu usul bilan magnetit miqdori 5-20 % aniqlik bilan topiladi.

Yadroviy-fizik usullar ba'zi hollarda kimyoviy namunalashning o'rmini egallamoqda. Bu usullar ma'dan va jinslarni radioaktiv izotoplarning turli nurlanishlari bilan faollashtirishga asoslangan. Nurlarning atomlar yadrolari va elektronlari bilan o'zaro muloqoti natijasida sodir bo'lgan jarayonlarga javoban ikkilamchi nurlar hosil bo'ladi. Shu nurlarni o'lhash natijasida ma'dan yoki jinslardagi kimyoviy elementlarning miqdorini aniqlash mumkin.

Radiometrik usullar yadro-fizik usullar orasida eng oldin va yaxshi ishlab chiqilgan usullardir. Ular ma'danlarning tabiiy radioaktivligini o'lhashga, asosan, radioaktiv elementlar (uran, toriy, kaliy) parchalanishidan hosil bo'lgan gamma-nurlanishni o'lhashga asoslangan.

Gamma-gamma usul (GGU) – asosan jinslarning va ma'danlarning zichligini aniqlashda qo'llaniladi.

Rentgen-radiometrik usul (RRU) – ma'dan tarkibidagi birdaniga ikki-uchta kimyoviy element miqdorini 10-25% xatolik bilan aniqlab beradi. Bu usul bilan ko'pchilik metallar (qo'rg'oshin, rux, temir, volfram, molibden, qalay va boshqalar) ni aniqlash mumkin.

Gamma-neutronli usul (GNU) – asosan ma'dandagi berilliyl miqdonini aniqlash uchun qo'llaniladi. Usulning sezgirligi 0,004 %, xatoligi 10 %.

Yadroviy-gamma-rezonans usuli (YAGRU) – Messbauer effektiga asoslangan bo'lib, ma'dan tarkibidagi kassiterit miqdorini aniqlab beradi.

Shuni aytib o'tish kerakki, amalda turli geofizik usullar yakka holda emas, kompleks holda ishlataladi.

5.3. Namunalarga ishlov berish. Texnikasi va sxemasi

Namunalarga ishlov berishning maqsadi konlarni razvedka qilish jarayonida tog' lahimlaridan va burg'ilash quduqlaridan olingen namunalarni laboratoriya yoki boshqa tekshirishlarga tayyorlashdir.

Bunday tayyorlovnning zaruriyat shundaki, namunaga odatda ko'p material (qancha ko'p bo'lsa shuncha yaxshi) olinadi. Laboratoriya tekshiruvlarini esa faqat ozgina miqdordagi material bilan olib borish mumkin.

Ba'zi hollarda namunalash sharoitlari va vazifalariga qarab namunalarni qo'shish yoki oldindan «boyitish» ishlarini bajarish zarurati tug'iladi. Bunday ishlov berishlar odatda namunani olgan geologik tashkilot tomonidan bajariladi.

Namunalarni birlashtirish juda ko'p namuna olinadigan (mufassal va ekspluatatsion razvedka) bosqichlarda olib boriladi. Uning asosiy qoidalari:

- 1) faqat yonma-yon olingen namunalarni birlashtirish mumkin;
- 2) faqat bir xil materialdan tashkil topgan namunalarni birlashtirish mumkin.

Kimyoviy va ba'zan mineralogik tekshirishlar uchun olingen namunalarga ishlov berish kerak. Buning maqsadi tekshirish uchun zarur bo'lgan miqdorgacha namunani qisqartirish va zarur yiriklikkacha maydalashdir. Eng ko'p tarqalgan analizlar uchun zarur bo'lgan namunaning miqdori 50-100 g, ba'zan 200 g ni tashkil qiladi. Spektral analiz uchun 5-20 g, probir analiz uchun 0,5-1 kg namuna kerak. Namuna materiali kimyoviy va spektral analizlar uchun kukun holatigacha, mineralogik analizlar uchun esa 0,1 mm gacha maydalangan bo'lishi kerak.

Namunaga ishlov berish jarayoni birin-ketin bajariladigan maydalash, elash, aralashtirish va qisqartirish operatsiyalaridan iboratdir. Bu operatsiyalar ma'lum konlar turlari, xususiyatlariga rivoja qilgan holda olib boriladi. Natijada namunaning boshlang'ich xususiyatlari oxirida hosil bo'lgan namuna materialida ishonchli saqlab qolinishi kerak.

Richards-Chechett tamoyili va tenglamasi. Amerikalik olim Richards aniqlagan qonuniyatni rossiyalik olim Chechett tenglama ko'rishda ifoda etgan.

$$Q = kd^2$$

Bu yerda, Q – qisqartirilgan namunaning ishonchli massasi, kg; d – eng katta zarrachaning diametri, mm; k – foydali qazilmaning xususiyatlariga bog‘liq bo‘lgan ishlov berish koeffitsiyenti (0,05 dan 1,0 gacha).

Ishlov berish koeffitsiyenti – k ma’danlarning xossalariiga qarab quyidagicha o‘zgaradi:

- a) komponentlar o‘ta tekis va tekis tarqalganda $k = 0,05$;
- b) komponentlar notejis tarqalganda $k = 0,1$;
- c) komponentlar o‘ta notejis tarqalganda $k = 0,2 \div 0,3$;
- e) komponentlar nihoyatda notejis tarqalganda $k = 0,4 \div 0,5$;
- f) oltin zarralari 0,6 mm dan katta bo‘lgan oltin konlarida $k = 0,8 \div 1,0$.

Namunaga ishlov berish bir necha bosqichda bajarilishi mumkin. Har bir bosqich yuqorida keltirilgan beshta operatsiyadan iborat bo‘ladi.

Namunani maydalash maxsus mexanizmlar yordamida bajariladi. Yirik, kichik va o‘ta kichik zarralargacha maydalovchi maydalagichlar mavjud. Birinchi maydalagichdan o‘tgan namuna tekshiruv elagidan o‘tqaziladi. Keyin aralashtiriladi va mumkin bo‘lgan miqdorgacha qisqartiriladi. Qisqartirish mumkin bo‘lgan miqdor yuqoridagi tenglamadan har bir bosqich uchun alohida hisoblanadi. Har bir bosqichda tenglamadagi d o‘zgaradi. Shunga asosan namunaga ishlov berish sxemasi tuzib chiqiladi.

5.4. Namunalarni tahlil qilish usullari

Olingan va ishlov berilgan namunalar tahlil qilishga yuboriladi. Tahlil turi foydali qazilmaning xususiyatlariga, uning mineralogik va kimyoviy tarkibi, tekshirish vazifalari, talab qilinadigan aniqlik darajasi va konning o‘rganilganlik darajasiga qarab aniqlanadi.

Ba’zan tekshirishlar geologiya qidiruv partiyalarining o‘zida, boshqalari esa maxsus laboratoriyalarda bajariladi.

Kimyoviy tarkibni aniqlash. Kimyoviy tarkibni aniqlash eng keng tarqalgan tekshirish turidir. Tekshirishning talab qilinadigan aniqligi va sezgirligiga qarab spektral, kimyoviy, probir, yadro-fizik va boshqa

analizlar qo'llanilishi mumkin. Bu analizlarning har biri o'ziga xos muammolarni hal qilishga imkon beradi.

Spektral analiz konlarni qidirish va razvedka qilish jarayonida keng qo'llaniladi. Bu analiz yordamida foydali qazilmalarni geokimyoviy usulda qidirish ishlari bajariladi. Razvedka ishlari jarayonida spektral analiz ba'zi bir, ayniqsa qo'shimcha komponentlarning juda past miqdordagi konsentratsiyalarini aniqlashga imkon beradi. Ba'zi hollarda kimyoviy va probir analizga yuboriladigan namunalar avval spektral analiz bilan tekshirib ko'rildi.

Spektral analiz juda sezgir, arzon, yuqori darajadagi mehnat unumdoorligiga egadir. Bu analiz birdaniga ko'pchilik komponentlarni aniqlashga imkon beradi. Boshqa turdag'i analizlardan kamchilik tomoni anqlik darajasidir. Ayniqsa komponentning miqdori ko'payganda spektral analiz aniq natija bermaydi. Spektral analiz uchun 1-2 g namuna kifoyadir.

Kimyoviy analiz ko'pchilik ma'dan va noma'dan foydali qazilmalarni tekshirishda asosiy usuldir. Spektral analizga nisbatan uning sezgirligi pastroq, anqligi esa yuqoriroqdir. Kimyoviy analiz natijalari bo'yicha ma'danlarning chegaralari o'tqaziladi va undagi foydali komponentlarning zaxiralari hisoblanadi. Kimyoviy analizga yuboriladigan namunalarning massasi 50-100 g bo'lib aniqlanadigan komponentlarning soniga bog'liq. Qancha ko'p komponentlarni aniqlash kerak bo'lsa, shuncha ko'p miqdorda namuna kerak.

Probir analiz namunadagi asl metallarning (oltin, kumush, platina va platinoidlar) miqdorini aniqlashga mo'ljallangan. Bu analiz qimmat turadigan analiz bo'lib, yuqori darajada sezgir va aniq ma'lumotlar beradi. Uning yordamida 0,01 g/t gacha miqdordagi asl metallarni aniqlash mumkin. Analiz uchun 250-500 g massali namuna talab qilinadi. Bu analizning qimmatligini hisobga olib, undan oldin namunalarni boshqa arzonroq usul (masalan spektral analiz) bilan tekshirib ko'rish kerak.

Yadroviy-fizik usullar zamонавији usul bo'lib, juda ko'p komponentlarni aniqlashda yuqori darajada sezgirlik va anqlikni ta'minlaydi. Bu analizlar ko'p mehnat talab qilmaydi, namuna materiali sarf bo'lmaydi va uni qayta ishlatish mumkin. Analiz uchun bir necha grammdan 50-200 g gacha namuna talab qilinadi. Faqatgina bu analiz uchun qimmat turadigan apparatura kerak bo'ladi.

Mass-spektrometrik analiz zamonaviy analiz turlaridan bo'lib, hozirgi kundagi eng ishonchli usullardan biri sifatida qo'llaniladi. Bunda namuna tarkibidagi kimyoviy elementlar miqdori ularning atom massalarini tekshirish orqali aniqlanadi. Mass-spektrometrlar namuna tarkibidagi nafaqat kimyoviy element turini, balki ularning izotoplari miqdorini ham aniqlaydi.

Mineralogik tarkibni aniqlash. Ma'danlarning mineral tarkibini aniqlash usullarini tanlash tekshirish vazifalari, talab qilingan aniqlik va namuna materialining holatiga bog'liq. Namunalarni mineralogik analiz qilishning to'liq va qisqartirilgan turlari mavjud. To'liq analiz namunadagi hamma minerallarning miqdorini aniqlashni talab qilsa, qisqartirilgan analizda faqat ba'zi minerallarning namunadagi miqdori aniqlanadi. Bu analizlar odatda mikroskop yordamida bajariladi. Mineralogik tekshirish jarayonida ma'danlarning tekstura-strukturaviy xususiyatlari va minerallarning kimyoviy tarkibi aniqlanadi. Zich va mustahkam ma'danlarni tekshirishda silliqlangan shtuflar, shliflar va anshliflardan foydalaniladi.

Sochiluvchan ma'danlarni tekshirishda ularning tarkibidagi minerallar gravitatsion, flotatsion, magnit yoki elektromagnit separate-siya usullari bilan ajratib olinadi va miqdori aniqlanadi. Minerallarning tarkibini aniqlash uchun monomineral namunalar olinadi, ya'ni tekshirilayotgan mahsulotdan biron bir usul bilan faqat bir mineral zarachalari ajratib olinadi. Monomineral namunalar ma'dandagi qo'shimgacha komponentlar qaysi mineral bilan bog'langanligini aniqlash imkonini beradi.

Texnologik tekshirishlar. Texnologik namunalar ma'danlarning tabiiy turlarini, sanoat turlarini, konning bo'laklarini va butun bir konni ifoda etishi mumkin. Bundan tashqari tekshirishning vazifalaridan kelib chiqqan holda namunalar laboratoriya tekshiriladigan, yarimzavod sharoitida tekshiriladigan namunalarga bo'linadi. Ma'danlarning alohida sanoat turlaridan olinadigan texnologik namunalar eng ko'p qo'llaniladi.

Laboratoriya namunalari yangi texnologik tizimlarni ishlab chiqish yoki mavjud texnologik tizimlarda ma'danlarning texnologik xususiyatlarini tekshirib ko'rish uchun qo'llaniladi. Yiriklashtirilgan laboratoriya namunalar uzlusiz texnologik jarayon sharoitida

ma'danlarning texnologik xususiyatlarini tekshirish va ularni qayta ishlash texnologik ko'rsatkichlarini aniqlash imkonini beradi.

Yarimzavod namunalar faqatgina yangi turdag'i mineral xomashyolar o'zlashtirilayotgan yoki yangi texnologik tizimlar ishga tushirilayotgan sharoitlardagina qo'llaniladi.

Namunalarning massasi mineral xomashyo turiga qarab, keng miqyosda o'zgaradi. Laboratoriya namunalarining massasi o'nlab-yuzlab kilogrammlarni, yiriklashtirilgan laboratoriya namunalari massasi tonnalarni, yarimzavod namunalari massasi o'nlab, hatto ming-lab tonnalarni tashkil etishi mumkin.

Ko'pchilik foydali qazilmalar, ayniqsa ma'danlar, qayta ishlash jarayonida boyitiladi. Shuning uchun ko'pincha «mahsulot chiqishi», «mahsulot tarkibi» va «komponentlarning ajratib olinishi» kabi texnologik ko'rsatkichlar aniqlanadi.

Har bir konda odatda bir emas, bir necha texnologik namunalar turli ma'danlardan va maydonlardan olinadi. Shuning uchun ko'pincha ma'danlarni boyitish ko'rsatkichlari va ma'dan xususiyatlari orasida munosabatlarga baho berish imkonи tug'iladi.

Mineral xomashyonи texnologik tekshirish razvedka ishlarining asosiy tarkibiy qismlaridan biridir. Ma'danlarni texnologik sinovlardan o'tqazmay turib, konning sanoat ahamiyatiga to'g'ri baho berish va pirovardida razvedka ishining asosiy vazifasini bajarish mumkin emas.

Texnik tekshirishlar. Texnik tekshirishlar hamma konlarda olib boriladi. Eng murakkab texnik tekshirishlar ba'zi noma'dan foydali qazilmalarga (qurilish materiallari, slyuda, asbestos, optik xomashyo va boshqalarga) xosdir. Bunday hollarda texnik tekshirishlar jarayonida xomashyoning fizik xususiyatlaridan tashqari, uni qayta ishlash texnologik tuzimi ham ishlab chiqiladi.

Eng ko'p hollarda aniqlanadigan ko'rsatkichlar: hajmiy massa, namlik, granulometrik tarkib, maydalinish koeffitsiyenti va boshqalardir.

Razvedka jarayonida bajariladigan texnik tekshirishlarni uch guruhga bo'lish mumkin:

1)zaxirani hisoblash uchun kerak bo'lgan tekshirishlar;

2)konni ekspluatatsiya qilishning kon-texnik sharoitlarini aniqlash uchun kerak bo'lgan tekshirishlar;

3)xomashyo sifatini aniqlash uchun kerak bo'lgan tekshirishlar.

5.5. Namunalash jarayonini nazorat qilish

Namunalash natijalarining ishonchliligi namuna olish, unga ishlov berish va tahlil qilish usullariga bog'liq. Lekin bu usullarni to'g'ri tanlab olishning o'zi namunalash ishonchliligini to'la ta'minlay olmaydi. Buning uchun namuna olish, unga ishlov berish va tekshirish operatsiyalarini aniq va to'g'ri bajarish talab etiladi. Shunday qilib, namunalash jarayonida turli uslubiy va ishlab chiqarish xususiyatlariga ega bo'lgan sabablar tufayli ko'pchilik xatoliklar vujudga keladi. Namunalashni nazorat qilish doimo, asosiy va nazoratlangan ma'lumotlar o'rtasidagi tafovutni baholashdan iborat bo'ladi. Bu baho to'g'ri bo'lishi uchun, tafovutlarning kelib chiqishi haqida to'g'ri tushunchaga ega bo'lish va ularni tahlil qilishning to'g'ri usulini tanlash kerak.

Namunalash jarayonida paydo bo'ladigan hamma xatoliklar odatda ikkita asosiy guruhga bo'linadilar: 1) tasodifiy; 2) sistematik.

Bular orasida eng xavflisi sistematik xatoliklar bo'lib, ular ko'rsatkichlarni faqat kattalashtirib yoki faqat kichiklashtirib ko'rsatadi, ya'ni bir belgili xatoliklardan iborat bo'ladi. Tasodifiy xatoliklar turli belgiga ega bo'lib, o'zaro bir-birini kompensatsiyalaydilar va umumiyoq ko'rsatkichlarga katta ta'sir ko'rsatmaydilar.

Namunalash jarayonini nazorat qilishning asosiy mazmuni sistematik xatoliklarni aniqlash, ularni keltirib chiqaruvchi sabablarni topish va iloji bo'lsa yo'qotishdir. Agar xatolikni keltirib chiqaruvchi sababni yo'qotish mumkin bo'lmasa, aniqlangan ko'rsatkichlarga ma'lum tuzatishlar kiritish lozim.

Namuna olish jarayonini nazorat qilish. Namuna olish jarayonini nazorat qilish geologik partiyaning bosh geologi yoki yetakchi geoglari tomonidan bajarilishi lozim. Bunda birinchi navbatda olinayotgan namunaning miqdori uning massasiga qarab kuzatilib boriladi. Namunani olish jarayonida uslubiy xatoliklarga yo'l qo'yilmaslikni ta'minlash talab etiladi. Tanlangan namuna olish usuli to'g'rilingini tekshirish uchun namuna olingan joydan qaytadan namuna olish yoki boshqa ishonchliroq usul bilan nazoratlovchi namunalar olish kerak. Bunda umumiyoq namunalarning taxminan 10% qismini nazorat qilish talab etiladi. Nazorat namunalari yangi raqam ostida tahlilga yuborilib, olingan natijalar solishtirib ko'rildi. Agar natijalar 15%

gacha farqlansa, natijalar ishonchli deyish mumkin. Agar farq undan oshib ketsa, xatoliklar bor deb hisoblanadi.

Namunalarga ishlov berishni nazorat qilish. Bu nazorat turi olingen namuna bilan unga ishlov berib maydalashning bir necha martda kamayishi natijasida, qisqartirilgan qismini solishtirganda tarkibida farq qilishiga asoslangan.

Shu jarayondagi nuqson ham tasodifiy va sistematik, metodik yoki texnik sabablariga ko'ra kelib chiqishi mumkin. Nuqsonlarga quyidagi uchta empirik (amaliy materiallarga asoslangan) holda baho berish usullari mavjud:

– Richard-Chechyott sxemasi bo'yicha namuna qisqartirligandan so'ng, 10-50-100 grammlni namunalarni laboratoriyyaga jo'natiladigan ishonchli qismiga ega bo'lgach, qolgan materialni birlashtirib, takroran shu jarayonni o'tkazishadi va ishonchli olingen naveska oldingisi bilan solishtiriladi. Natijada hosil bo'lgan miqdorlarning farqi ishlov berish nuqsoni deb qabul qilinadi.

– namunaning ishonchli qismi olingandan so'ng, qolgan materialni birlashtirib qisqartirmasdan kerakli diametrgacha (0,1-0,07 mm) maydalanadi va birdaniga djonson uskunasi yordamida kerakli og'irlikkacha qisqartiriladi.

– namuna materiali qisqarqartirilishi bilan dubl nazorat olinadi va tahlildan o'tkaziladi. Bu usul yordamida keyingi qisqartirish bosqichida nuqson vujudga kelganligini aniqlash va tegishli chora-tadbirlarni o'tkazish mumkin.

Ushbu usullar bilan namunaga ishlov berishdan kelib chiqadigan nuqsonlarni yo'qotish mumkin.

Namunani tahlildan o'tkazish sifatini nazorat qilish. Hamma laboratoriyalarda xatoliklarning oldini olish va hisobga olish uchun ham ichki, ham tashqi nazorat o'rnatiladi. Bundan maqsad – laboratoriyaning o'zida bir qism tekshirishlar ikkinchi marta qayta bajariladi va natijalar solishtirilib ko'rildi. Bir qism namunalar bo'yicha esa dublikatlar boshqa turdosh laboratoryalarga yuboriladi va ularning natijalari ham solishtirib ko'rildi.

Tahlildan o'tkazish jarayonining ishonchlilagini va nuqsonlarini aniqlash tegishli nazorat tadbirlari orqali har oy yoki har chorakda o'tkazilishi shart. Geologik nazorat ichki, tashqi va arbitraj turlarga bo'linadi.

Ichki nazorat turi – tahlil jarayonida sodir bo‘lgan tasodifiy nuqsonlarni aniqlash va tahlil uslubining geologiya ishlariga tegishli Davlat qo‘mitasi ko‘rsatmasiga mosligini aniqlashdan iborat.

Tashqi nazoratda qabul qilingan namunaning ishonchli qismi asosida tahlil qilish uslubi bo‘yicha, dublikatlar asosida nazorat qilish maqsadida boshqa laboratoriyada o‘tkaziladi va olingan natijalardan tegishli xulosa chiqariladi.

Tashqi nazorat jarayonida laboratoriyada sistematik nuqsonlar bor yoki yo‘qligi aniqlanadi hamda tahlillar orqali ma’danning hamma turlariga (sifati bo‘yicha ajratilgan) ma’lumot beriladi. Kerakli nazoratlovchi namunaning ichki nazoratdan o’tgan qismlari dublikatlaridan olinadi va boshqa laboratoriyaga shu nazoratni o‘tkazishga tahlil usuli yetkaziladi, chunki tashqi nazoratga boshqa usul bilan tahlil qilish uchun yuborilishi kerak.

Arbitraj nazoratining mazmuni: tahlil o‘tkazish jarayonida asosiy yoki nazorat ishlarini olib borgan va doimo sistematik nuqsonlar sodir bo‘lishiga sababli laboratoriyalarni aniqlash; shu nuqsonlar mayjudligi sababini aniqlash va ularni yo‘qotish bo‘yicha tadbirlarni ishlab chiqish; sistematik nuqsonlarning salbiy ahamiyatini tasdiqlash va ularning ta’sirini yumshatish maqsadida, haqiqatga yaqinlashtirish raqamlari (koeffitsiyent)ni kiritish va h.k.lardan iborat.

6. FOYDALI QAZILMA KONLARINI RAZVEDKA QILISH

6.1. Razvedka qilish vazifalari va tamoyillari

I) Umumiy qoidalar. «Razvedka qilish» deganda muayyan konning sanoat ahamiyatiga ega ekanligini aniqlashga qaratilgan izlanishlar va ularni bajarish uchun zarur bo‘lgan ishlar kompleksi tushuniladi.

Razvedka ishlari foydali qazilma konida, avvalo undagi foydali qazilmaning miqdori va sifatini aniqlash maqsadida olib boriladi. Bundan tashqari, konning tabiiy va iqtisodiy joylashish sharoitlarini o‘rganish ko‘zda tutiladi.

Foydali qazilmaning sifati sanoat tomonidan muayyan mineral xomashyoga qo‘yiladigan talablarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ifodalovchi ko‘rsatkichdir. Turli foydali qazilmalar uchun bu talablar keskin farq qiladi. Ma’danlarning sifatini aniqlovchi asosiy ko‘rsatkich ular tarkibidagi foydali metallar yoki minerallarning foiz miqdoridir. Mineral yoqilg‘ining asosiy sifat ko‘rsatkichi bo‘lib – kaloriyalilik miqdori xizmat qiladi. Ko‘pchilik noma’dan foydali qazilmalarining, xususan qurilish materiallarining sifati ularning fizik xususiyatlari bilan belgilanadi. Shunday qilib, foydali qazilmaning sifat ko‘rsatkichlarini aniqlash, razvedka ishlaringin birinchi eng muhim vazifasidir.

Foydali qazilmaning miqdori u egallab turgan hajm bilan belgilanadi. Demak, bu borada razvedka ishlaringin maqsadi o‘rganilayotgan konning shakli va o‘lchamlarini aniqlashdan iborat bo‘ladi. Foydali qazilmaning miqdori va sifati zaminni o‘rganuvchi mutaxassis-geolog oldida ajralmas birlikda namoyon bo‘ladi. Chunki, bir tomonidan, konning shakli sanoatbop foydali qazilma tanalarining chegaralarini aniqlab beruvchi minimal sifat ko‘rsatkichlari (konditsiyalar) bilan bog‘liq ravishda belgilanadi. Ikkinchi tomonidan, foydali qazilmaning sifati konni hosil qiluvchi muayyan tana shaklining ichiga joylashgan bo‘lib, zaminning bu shakldan tashqarisidagi joylarda hisobga olinishi mumkin emas.

Foydali qazilma tanasining shakli faqatgina foydali qazilmaning miqdorini aniqlabgina qolmay, balki ma'lum darajada uning geologik joylashish sharoitlarini (yotish elementlari, yer yuzi relyefiga munosabati, qamrovchi tog' jinslari bilan munosabatlari va boshqalar) ham aniqlab beradi. Shunday qilib, foydali qazilma tanasining shaklini va uning asosiy o'lchamlarini bilish, konning geologik joylashish sharoiti haqida tessavurga ega bo'lish mumkin.

Foydali qazilmaning sifatini aniqlash faqatgina ma'danlarning kimyoviy va mineral tarkibini, tabiiy turlarini aniqlash uchun chegaralanmasdan, balki ularning texnologik xususiyatlarini va texnologik navlarini aniqlashni ham ko'zda tutishi kerak.

Foydali qazilma tanasining joylashishi haqidagi geologik ma'lumotlardan tashqari, razvedka ishlari jarayonida konning joylashish sharoitlarini xarakterlovchi boshqa ma'lumotlarni ham yig'ish lozimdir. Bular, birinchidan, tog'-texnik sharoitlar: joylashish chuqurligi, maydonning suvlanganligi, ma'danlar va qamrovchi jinslarning fizik xususiyatlari, konni ochish va qazib olish imkoniyatlardir; ikkinchidan, iqtisodiy sharoitlar: hududning o'zlashtirilganlik darajasi, energetik resurslari, transport imkoniyatlari, ichimlik va texnik ehtiyojlar uchun suvning, qurilish materiallarining mavjudligi va boshqalar.

Razvedka qilishning sanab o'tilgan asosiy vazifalari majmuidan ko'rinib turibdiki, bu ish o'z mohiyatiga ko'ra geologik, texnik va iqtisodiy muammolarning yig'indisidan iboratdir. Odatda geolog, birinchi navbatda, muammoning geologik-mineralogik tomoniga e'tibor beradi. Biroq, ko'pchilik hollarda, foydali qazilma konining sanoat uchun ahamiyatiga baho berish chog'ida kon-texnik va iqtisodiy shart-sharoitlar hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Demak, yaxshi sifatli va yetarlicha miqdorli foydali qazilmani topish kifoya qilmaydi, balki tabiiy va texnik sharoitlar bu foydali qazilmani iqtisodiy samara bilan zamindan qazib olish, tashib keltirish va xalq xo'jaligi ehtiyojlarida samarali qo'llash imkoniyatini berishi kerak.

2) Razvedka qilish tamoyillari. Foydali qazilma konlarining tabiatdagi turli-tumanligiga qaramay, har qanday konni razvedka qilish asosida bir xil tamoyillar yotishi mumkin. Chunki geologiya-qidiruv jarayoni ishlab chiqaruvchi kuchlarning ma'lum bir rivojlanish bosqichida olib boriladi va pirovard natijada bir maqsadga

yo'naltirilgan, ya'ni zamindagi sanoatbop zaxiraga ega bo'lган foydali qazilma koni aniqlanadi.

Razvedka qilish jarayonining ilmiy negizi bo'lib geologiya fanlarining to'liq majmui xizmat qiladi. Boshqa geologiya fanlaridan ajratilgan «Foydali qazilma konlarini qidirish va razvedka qilish haqidagi ta'limot» o'z ma'no-mohiyatini yo'qotib, amaliy ahamiyatga ega bo'lmay qoladi. Shuning uchun razvedka qilish tamoyillarining har biri alohida va hammasi birgalikda geologiya asosida, avvalo geostrukturaviy tushunchalar asosida qurilgan.

Shu bilan birga, qidirish va razvedka qilish haqidagi ta'limot, amaliy geologik fan bo'lib, sanoatbop foydali qazilma konlarining joylashish sharoitlarini va ularni topishning eng samarali metodlarini aniqlaydi. Shuning uchun bu ta'limot ham, geologiya-qidiruv ishlari amaliyoti ham xalq xo'jaligini yuritishning umumiy tamoyili – iqtisodiy samaradorlik tamoyiliga bo'yundirilishi kerak. Shunga binoan quyida ko'rib chiqiladigan xususiy tamoyillar umumiy iqtisodiy samaradorlik tamoyiliga tayanadi.

Razvedka qilish muammolarini ko'rib chiqishda shuni esdan chiqarmaslik kerakki, o'rganilayotgan obyekt tabiiy jismidir. Uning xususiyatlari ma'lum darajadagi o'zgaruvchanlikka ega, FQK larining shakli va zaminda joylashishi hamda kon ichida ma'danli jinslarning joylashishi turli-tuman qonuniyatlariga bo'ysinadi. Foydali qazilma-larning sanoatbop zaxiralarini qidirib topish qiyin vazifadir. Faqtgina razvedka qilishning asosiy tamoyillariga tayangan holda bu vazifani muvaffaqiyatli yechish mumkin. *Bu asosiy tamoyillar jumlasiga quyidagilar kiradi:*

- 1) To'liq tekshirish tamoyili;
- 2) Bosqichma-bosqich «yaqinlashib» borish tamoyili;
- 3) Bir tekis tekshirish (bir xil ishonchlilik) tamoyili;
- 4) Eng kam mehnat va materiallar sarflash tamoyili;
- 5) Eng kam vaqt sarflash tamoyili.

Birinchi tamoyil razvedka ishlaring pirovard maqsadini, ya'ni foydali qazilma zaxirasini iloji boricha to'liq aniqlash kerakligini ifoda etadi. Keyingi ikki tamoyil razvedka jarayonining metodikasini aniqlab beradi. To'rtinchi va beshinchi tamoyillar ijtimoiy ishlab chiqaruvchi kuchlarning muayyan rivojlanish davrida mavjud bo'lган texnik-iqtisodiy imkoniyatlari va sharoitlarini hisobga oladi. Boshqacha qilib

aytganda, foydali qazilma koni to‘liq, oqilona ketma-ketlikda, bir tekis, tejamkor va imkon qadar tez razvedka qilinishi kerak.

To‘liq tekshirish tamoyili, avvalo, razvedka qilinayotgan kon egallab turgan joyning hammasini ma’lum darajada aniqlik bilan tekshirish zarurligini ifodalaydi. Bu tamoyilga rioya qilmaslik xalq xo‘jaligiga zarar yetkazadi, ortiqcha sarf-xarajatlarga olib keladi yoki foydali qazilmaning bir qismmini «yo‘qotilishiga» olib keladi. Bu tamoyil to‘rtta asosiy talablarni o‘z ichiga oladi:

1) konning hamma chegaralarini to‘liq aniqlash yoki konni tashkil qiluvchi hamma foydali qazilma uyumlarini chegaralash;

2) razvedka lahimplari foydali qazilma tanalarini yoki ma’danli zonalarni to‘liq kesib o’tishi kerak;

3) asosiy foydali qazilma va qo‘srimcha foydali mineral uyumlarining ham sanoatbop, ham sanoat uchun vaqtinchacha yaroqsiz (balansdan tashqari) turlarining sifatini to‘liq va har tomonlama tekshirish;

4) razvedka lahimplarini qazish yordamida olingan va boshqa kuzatuvlar natijasida to‘plangan barcha ma’lumotlardan foydalanish.

Lekin, to‘liq tekshirish tamoyili o‘rganilayotgan konni oxirigacha to‘liq o‘rganishni nazarda tutmaydi. Balki, bu nisbiy tushuncha bo‘lib, muayyan davr talablari bilan chegaralanadi.

Bosqichma-bosqich, yaqinlashib borish tamoyili kon haqidagi bilimlarni ma’lum bosqichlarda ketma-ket ko‘paytirib borishdan iboratdir. Bu tamoyil to‘liq tekshirish tamoyili bilan uzviy bog‘liqdir. Amalda har qanday kon haqidagi yetarlicha aniq va to‘liq ma’lumotlarni birdaniga to‘plash mumkin emas (ayniqsa bu kon yirik yoki murakkab bo‘lsa).

Shunday qilib, razvedka qilish jarayoni muqarrar ravishda bir necha bosqichlarga bo‘linadi. Bu bosqichlarning har birida kon ortib boruvchi aniqlik bilan o‘rganilib boradi. Hozirgi paytda O‘zbekiston Respublikasida qabul qilingan «Yo‘riqnomaga» binoan razvedka ishlarini to‘rtta bosqichga bo‘lish mumkin, bular: baholash, razvedka, qo‘srimcha razvedka va ekspluatatsion razvedka bosqichlaridir. Lekin bu tamoyilning asl ma’nosiga e’tibor bersak, har bir o‘tilgan yangi razvedka lahimi to‘liq ma’lumotga «yaqinlashtiruvchi yangi bosqich»ni paydo qiladi.

Bu tamoyilning to‘g‘riliği ko‘p yillik tajribada sinalgan. Konni o‘rganishning har bir bosqichida o‘ziga xos metodlar va texnik vositalar qo‘llaniladi. Avvaliga odatda, soddarоq va osonroq, aniqlik darajasi nisbatan uncha yuqori bo‘lmagan metodlar va vositalar qo‘llanilsa, keyinchalik borgan sari aniqroq va to‘liqroq ma’lumotlar beruvchi, ko‘proq mehnat talab qiluvchi metod va vositalardan foydalaniladi.

Bu tamoyilning qo‘llanilishi har bir konkret konning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda olib borilishi zarur.

Bir tekis (bir xil ishonchlilikda) tekshirish tamoyili razvedka qilinayotgan konning hamma xususiyatlarini bir tekis yoritish zaratidan kelib chiqadi. Bu tamoyilning asosida yotadigan asosiy tushuncha shundan iboratki, foydali qazilmalarning tabiiy uyumlari o‘zining shakllari va sifatlarining o‘zgaruvchanligi bilan tavsiflanadi hamda bu o‘zgaruvchanlikni qayd etish uchun razvedka lahimplari va namunalash joylari kon egallab turgan fazoda «bir tekis» taqsimlangan bo‘lishi kerak. Bu tamoyil quyidagi talablarning bajarilishini taqozo etadi:

1)konning yoki uning alohida qismlarining xususiyatlarini razvedka qilishda ularning hamma yeri bir tekis razvedka lahimplari yordamida yoritilishi kerak;

2)razvedka lahimplari va kon qismlarining butun ko‘lamni bo‘yicha namuna olish punktlari bir tekis joylashtirilishi kerak;

3)konning turli qismlarida bir-biriga solishtirish mumkin bo‘lgan natijalarini beruvchi razvedka qilishning texnik vositalari qo‘llanilishi kerak, ya’ni ularning ishonchlilik darajasi iloji boricha bir-biriga yaqin bo‘lishi kerak;

4)foydali qazilma tarkibini tekshirishda aniqligi va ahamiyati jihatidan yaqin bo‘lgan metodlarni qo‘llash kerak.

Eng kam mehnat va materiallar sarflash tamoyili razvedka qilish vazifasini bajarishni ta’minlaydigan eng kam miqdordagi lahimplarni qazish, namunalar olish, tekshirishlar o’tkazishni nazarda tutadi.

Bu tamoyilning talablarini bajarish ancha qiyinchiliklar tug‘diradi. Chunki minimal darajada yetarli bo‘lgan geologiya-qidiruv ishlaringni miqdorini aniqlash har doim ham muvaffaqiyatli bajarila olmaydi. Bu tamoyilni ratsional qo‘llash ko‘p miqdordagi mablag‘larni tejash va razvedka ishlaringning samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Eng kam vaqt sarflash tamoyili razvedka ishlarini eng qisqa vaqtarda bajarish kerakligini taqozo qiladi. Razvedka qilish jarayonini ko'pinchalik anchagina yirik tashkilotlar bajaradi. Ularning esa yordamchi va xizmat ko'rsatuvchi bo'limlari bo'lib, bular ko'p miqdordagi mablag' talab qiladi. Ko'rsatilgan tamoyil talablarini bajarish va razvedka vaqtini qisqartirish qo'shimcha mablag'larni sarflashdan saqlaydi.

Bundan tashqari ba'zi paytlarda davlat ahamiyatiga ega bo'lgan resurslarning zaxirasini tezda to'ldirish maqsadida boshqa tamoyillarni qisman buzgan holda razvedka qilish ishlarini qisqa vaqtarda bajarish talab etilishi mumkin.

Shunday qilib, eng kam vaqt sarflash tamoyilidan kelib chiqadigan asosiy vaziyatlar quyidagilardan iborat:

1) geologiya-qidiruv ishlarini doimo, boshqa razvedka tamoyillarini buzmagan holda, eng qisqa vaqtarda o'tkazish maqsadga muvofiqdir;

2) ayrim maxsus hollarda geologiya-qidiruv ishlarini, boshqa razvedka tamoyillarini qisman buzgan holda, o'ta qisqa vaqtarda bajarish mumkin.

Bir qarashda razvedka qilishning alohida tamoyillari bir-birini inkor etuvchi narsalardek tuyuladi. Lekin aslida ular antagonistik xarakterga ega bo'limgan tushunchalardir. Amaldagi geolog bu tamoyillarni o'zaro muvozanatda ushlab tursa, eng ratsional va yetarli razvedka ishlarini olib borish imkoniyatiga ega bo'ladi.

6.2. Razvedka qilish usullari, bosqichlari

Konlarni razvedka maqsadlarida guruhash. O'r ganilayotgan konning konkret sanoat turiga mansubligini aniqlash ma'lum darajada uni razvedka qilish sistemasini tanlashga yordam beradi. Shuning oqibatida qidirish-baholash ishlari bosqichidayoq konning sanoat turini puxta aniqlash masalasini ko'rish lozim bo'ladi. Shu bilan birga, bir tomonidan, bir xil sanoat turidagi konlar ko'pincha ma'dan tanalarining har xil o'lchamlari va shakllari bilan, shuningdek, ichki tuzilishining har xil murakkabliklari bilan tavsiflanadi. Ikkinci tomonidan, har xil sanoat turidagi konlarning razvedka qilish metodikalari va razvedka to'rining zichligini aniqlovchi ko'rsatkichlari ko'p hollarda juda yaqin.

Konlarni razvedka qilishning amalda qo'llanuvchi metodikalari, texnik vositalari, razvedka to'rlarining geometriyasi va zichligi, namunalash va boshqa ish turlarining metodikalarini aniqlashda, ma'dan jismlari tuzilishining strukturaviy-morfologik xususiyatlari, ularning o'lchamlari, tuzilishining murakkabligi, shakli va qalinligining o'zgaruvchanlik darajasi, foydali komponentlarning taqsimlanishi hisobga olinadi. Shuning uchun razvedka qilishning sistemasi, texnik vositalari va metodlarini to'g'ri tanlash uchun konlarni razvedka qilish va qazib olish jarayonlarida to'plangan tajribalarni inobatga oluvchi, razvedka qilish maqsadida konlarni geologik tuzilishining murakkabligi bo'yicha guruhash muhim ahamiyat kasb etadi.

Konlarni bunday guruhash ikkinchi muhim masalani, razvedkaga sarflanadigan xarajatlar va vaqtini qisqartirishni ham hal qiladi. Buning oqibatida konning qidirilganlik darajasiga qo'yiladigan talablar har xil bo'ladi. Bu esa konning sanoatda o'zlashtirishga tayyorlanganlik darajasini aniqlaydi.

Hozirgi vaqtida geologiya-qidiruv ishlari amaliyotida, konlar zaxiralarini va qattiq foydali qazilmalarning bashorat qilingan resurslarini tasniflash hamda ulardan foydalanish yo'rinqomalarida keltirilgan «konlarni guruhash»dan foydalaniladi. Bu guruhash konlar geologik tuzilishining xususiyatlari bilan bir qatorda, iqtisodiy omillarni – geologiya-qidiruv ishlarini o'tkazishga sarflangan mablag' va vaqtini ham hisobga oladi. Tasnifda konlarni guruhlarga ajratishning asosiy tamoyillari keltirilgan va ularning har biri uchun razvedka qilingan har xil toifadagi zaxiralarning me'yoriy nisbatlari aniqlangan. Bu esa konning sanoatda o'zlashtirishga tayyorlanganlik darjasini belgilovchi asosiy mezonlardan biri deb hisoblanadi.

Yo'rinqomalarda ushbü guruhlarga kiruvchi ayrim konlarning sanoat turlari ko'rileyotgan metall ma'danlarining o'lchamlari, shakli va ma'dan jismlarining yotish shart-sharoitlarini, ma'dan sifatining o'zgaruvchanligini, ya'ni oqilona razvedka qilish metodikalarini ta'minlovchi hamma asosiy omillarga bog'liq ravishda aniqlanadi. Bu guruhlar ko'rsatilgan me'yoriy hujjatlarga binoan quyidagi ko'rinishlarda bo'ladi.

1-guruh. Oddiy geologik tuzilishga ega bo'lgan konlar (uchastkalar). Ular zaxiralarining katta qismi buzilmagan yoki ozgina buzilgan foydali qazilma tanalarida joylashgan. Ma'dan tanalarining

qalinligi, ichki tuzilishi va foydali qazilma sifati kam o'zgaruvchan bo'lib, ulardagi asosiy qimmatbaho komponentlar bir tekis taqsimlangan. Bular razvedka jarayonida B toifasiga taalluqli zaxiralarni (umumiylar 20% igacha) aniqlash imkoniyatini beradi. Yuqorida qayd etilgan talablarga cho'kindi *temir* va *marganes* konlari, *titan* ma'danlarining magmatogen konlari javob beradi. Bu guruhga *qo'rg'oshin* va *rux* konlari orasida – Mirgalimsoy stratiform konining yirik ma'dan tanalari; *mis* konlari orasida – Jezqazg'an misli qumtoshlar koni va Kounrad shtokverk mis-porfir koni, shuningdek sulfidli mis-nikel konlari (Talnax-Oktyabrskoe va Norilsk-1 konlarining mayda hol-hol teksturali ma'dan uyumlari); *volfram* ma'danlari orasida – Verxne-Kayraktinskoe kvars-sheelitli shtokverk koni kiradi.

2-guruh. Bu guruhga murakkab geologik tuzilgan, o'zgaruvchan qalinlik va ichki tuzilishli yoki yotishi buzilgan foydali qazilma tanalari, foydali qazilma sifati o'zgaruvchan yoki qimmatbaho komponentlari notejis taqsimlangan kon(uchastka)lar kiradi. Ushbu guruh kon(uchastka)larining zaxiralari B (umumiylar 20% gachasi) va C₁ toifalari bo'yicha razvedka qilinadi.

2-guruhga kiruvchi *temir* konlariga: yirik o'lchamli, nisbatan murakkab ichki tuzilishga va kam o'zgaruvchan sifatlari ma'danlarga ega bo'lgan, murakkab burmali yoki uzilmalar bilan buzilgan qatlamlar, qatlamsimon va linzasimon uyumlar (Mixaylovskoe, Lebedinskoe, Olenegorskoe kabi temirli kvarsit konlari); yirik va o'rtacha kattalikdagi, linza-, shtok-, ustun- va quvursimon, murakkab tuzilgan yoki ma'danlarining sifati o'zgaruvchan bo'lgan jismlar (Rossiyadagi Kochkanar va O'zbekistondagi titan-magnetitli Tebinbuloq konlari, Qozog'istonidagi qo'ng'ir temirtoshning vulkanogen-cho'kindi Zapadniy Karajal koni va O'zbekistondagi Temirkon koni) kiradi.

2-guruhga kiruvchi *mis* konlari, ko'p sonli bo'lib, har xil sanoat turlariga mansub. Ular yirik va o'rtacha o'lchamli qatlamsimon va linzasimon uyumlar, tomirsimon jismlardan iborat bo'lib, bir xil bo'limgan tuzilishga va o'zgaruvchan qalinlikka yoki misning nisbatan notejis taqsimlanishiga ega (Gayskoe, Udokan, Orlovskoe, Molodejnoe). Shuningdek yirik va o'rtacha shtokverk va murakkab shakldagi shtoksimon jismlardan tashkil topib, tuzilishi bir xil bo'limgan, misning taqsimlanishi notejis konlar (O'zbekistondagi Qalmoqqir, Dalnee).

Bu guruhdagi *qo'rg'oshin* va *rux* konlariga yirik va o'rtacha o'lehamli, ichki tuzilishi o'zgaruvchan, *qo'rg'oshin* va *rux* notekis taqsimlangan linzasimon va uzun qatlamsimon uyumlar kiradi. (Belousovskoe, Irtishskoe, Berezovskoe konlari).

2-guruhgaga kiruvchi *volfram* konlariga yirik shtokverklar (Bogutinskoe, Kara-Oba konlari) va murakkab morfologiyalı skarn uyumlari (Ingichka, Vostok-2 konlari) yoki volframning taqsimlanishi notekis zonalar (Qizilqumdagı Saritov va b.) shuningdek, qalinligi o'zgaruvchan va volfram notekis taqsimlangan yirik tomirlar yoki tik yotuvchi ma'danlashgan zonalar kiradi (Xoltosonskoe, Akchatauskoe konlari).

2-guruhnинг *oltin* konlariga yirik minerallashgan va tomirlı zonalar (uzunligi 1 km dan ortiq, qalinligi 5-10 m va undan ortiq) yoki shtokverklar (maydoni 1 km²dan ortiq); o'lehamlari bo'yicha yirik uyumlar (cho'zilishi bo'yicha 1-3 km, yotishi bo'yicha bir necha yuz metrlar, qalinligi birinchi metrlar va undan ko'proq); uzun (1 km dan ko'p) va qalin (3-4m) tomirlar kiradi. Ma'dan mineralizatsiyasi notekis taqsimlangan (Muruntov).

Umuman olganda 2-guruuh konlari qora metallar, boksitlar, shuningdek *qo'rg'oshin-rux*, nikel, molibden va volfram ma'danlari uchun xos; qalayi, surma va oltin ular uchun xos emas.

3-guruuh. Konlar(uchastkalar)ning geologik tuzilishi juda murakkab, qalinligi va ichki tuzilishining keskin o'zgaruvchanligi, foydali qazilma jismlarining yotishi keskin buzilgan yoki foydali qazilmaning sisati notekisligi, asosiy qimmatbaho komponentlarining taqsimlanishi ham juda notekisligi bilan ajralib turadi. Ushbu guruuh konlarida razvedka ishlari natijasida yuqori toifali zaxiralarni aniqlash maqsadga muvofiq emas, chunki ularni razvedka qilish narxi juda baland bo'lib, samaradorligi past bo'ladi. Bu guruuh konlari (uchastkalari)ning zaxiralari asosan C₁ toifasida, qisman C₂ toifasida razvedka qilinadi.

3-guruhgaga mansub *mis* ma'danlarining konlari o'rtacha va kichik o'lehamdagi, qalinligi va mis miqdori o'zgaruvchan bo'lgan, linza-, qatlam- va tomirsimon uyumlardan (Makanskoe, Krasnogvardeyskoe, Oktyabrskoe, Tarnaverskoe, Chusovkoe, Aleksandrovske konlari) hamda uncha katta bo'Imagan, juda murakkab tuzilgan ustunsimon va shtoksimon jismlardan, murakkab shoxlab ketgan, tarkibidagi mis o'ta

notejis tarqalgan, linzasimon metasomatik uyumlardan va tomirlardan tashkil topgan.

3-guruhning qo‘rg‘oshin-rux konlariga o‘lchamlari o‘rtacha va kichik bo‘lgan, qalinliklari, qo‘rg‘oshin va ruxning miqdori o‘zgaruvchan linzasimon va qatlamsimon uyumlar, cho‘ziq tomirli zonalar va tomirlar (Grexovskoe-II, Sadovskoe, Rubsovskoe, Novozolotushinskoe va boshqa konlar); katta bo‘lman o‘ta murakkab ichki tuzilishli, qalinligi keskin o‘zgaruvchan, qo‘rg‘oshin va rux o‘ta notejis taqsimlangan quvursimon va linzasimon uyumlar (Zambarak, Guslyakovskoe, Arxonskoe, Sumsar, Kanimansur, Tuyuk konlari; Kengsoy guruhi) kiradi.

Xuddi shunday morfologik turlar 3-guruh *volfram* ma’danlarining konlariga ham xos. Bular – o‘lchamlari o‘rtacha bo‘lgan tomirlar (Ultinskoe, Bom-Gorxonskoe), murakkab qatlamsimon va linzasimon (Lermontovskoe, Yaxton, Chorux-Dayron) qalinligi o‘zgaruvchan, volframning taqsimlanishi notejis bo‘lgan skarn uyumlari.

Ushbu guruhga mansub *surma konlari* morfologiyasi juda murakkab bo‘lgan, qalinligi o‘zgaruvchan va surmaning taqsimlanishi juda notejis bo‘lgan o‘rtacha va kichik uyumlar, tomirlar va linzalardan tuzilgan (Udereyskoe, Djijikrut, Tereksay).

3-guruhga mansub oltin konlari keng tarqalgan. Ularga o‘rtacha (yuzdan ming metrgacha cho‘zilgan) va yirik minerallashgan va tomirli zonalar, uyumlar (cho‘zilishi va yotishi bo‘yicha birinchi yuz metrlar, qalinligi 1-2 m) va murakkab tuzilgan tomirlar (o‘zgaruvchan qalinlikdagi, bir necha sm dan 3m gacha) kiradi. Ma’danlashuvning taqsimlanishi juda notejis, ba’zida uzuq-uzuq (Ko‘kpatas, Daugiztov, Zarmiton, Ko‘chbuloq va boshqalar). Umuman 3-guruhga rangli metallar va oltinning ko‘pchilik konlari kiradi.

4-guruh. Bu guruhga o‘ta murakkab geologik tuzilishga ega bo‘lgan metall va noma’dan xomashyo konlari (uchastkalari) kiradi. Ular qalinligi va ichki tuzilishining keskin o‘zgarishi yoki foydali qazilma tanasining intensiv buzilganligi, shuningdek ma’dan sisatining izchil emasligi va asosiy komponentlarining taqsimlanishi o‘ta notejis ekanligi bilan tavsiflanadi. Ularni razvedka qilish uchun juda katta hajmlarda yer osti tog‘ lahimplarini o‘tish kerak bo‘ladi. Bu guruhdagi konlar (uchastkalar)ning zaxiralari C₁ va C₂ toifasida razvedka qilinadi. Bu kon (uchastka)larda razvedka ishlarining davomi ularning ustini

ochish va qazib olishga tayyorlash bilan qo'shib olib boriladi. 4-guruh konlari faqat ba'zi bir metallar uchun mustaqil sanoat ahamiyatiga ega. Avvalo bular – simob ma'danlari, ba'zida oltin va kobaltning tub ma'danlari, oltin va platinaning ba'zi bir sochilmalari.

Razvedka qilingan konlar (kon qismlari) bazasida yangi kon korxonasini loyihalash, faqat Davlat zaxiralar Komissiyasi (DZK) tomonidan ular sanoatda o'zlashtirishga tayyorlangan deb topilgandagina ruxsat etiladi. Konlarni sanoatda o'zlashtirishga topshirish uchun soydali qazilmaning moddiy tarkibi, mineral xomashyoning texnologik xususiyatlari va konlarni ekspluatatsiya qilishning tabiiy sharoitlari, mineral xomashyoni qayta ishslash texnologik sxemasini loyihalash uchun yetarli va konni (uchastkani) qazib olish loyihasini tuzish uchun zarur bo'lgan birlamchi ma'lumotlar toplashni ta'minlaydigan darajada o'rganilgan bo'lishi zarur. Bunda, birinchi navbatda qazib olishga mo'ljallangan konning uchastka va gorizontlarini mufassalroq o'rganishga e'tiborni qaratish kerak.

6.3. Razvedka sistemalari (tizimlari), to'rlarining zichligi

Razvedkaning bosh maqsadi bo'lgan har bir geologik-sanoat parametrining qiymatini aniqlash qiyin emas, lekin amalda quyidagi qiyinchiliklar mavjud:

- hech qanday kon butunligicha bizning o'rganishimiz uchun ochiq emas, ya'ni barcha xohlagan nuqtalarimizni o'rgana olmaymiz;
- tabiatda barcha xususiyatlari bo'yicha bir xil konlar yo'q;
- sanoat uchun parametrlarning ham alohida, ham o'rtacha ko'rsatkichlarini hamda bu ko'rsatkichlarning o'zgarish dinamikasini aniqlash muhimdir;
- ma'lumotlar muayyan aniqlikda va ishonchlilikda aniqlangan (o'lchangan) bo'lishi kerak.

Razvedkaning bosh maqsadiga yetish uchun quyidagi vazifalarni bajarish zarur:

- 1) ma'dan tanalari va qamrovchi jinslarni qator nuqtalarda «ochish» va kesib o'tish;
- 2) har bir ochilgan nuqtada geologik-sanoat parametrlarini o'rganish;

3) ma'dan tanalarini barcha ochilgan nuqtalar bo'yicha kuzatib chiqish va chegaralarini belgilash;

4) geologik-sanoat parametrlarining o'zgaruvchanligini o'rganib chiqish;

5) foydali qazilma konini qazib olishga tayyorlash va uni qazib olishning gidrogeologik, injener-geologik, kon-texnik sharoitlarini o'rganish uchun tajriba-sinov ishlarini olib borish.

Yuqoridaq vazifalarni bajarish uchun maxsus texnika, turli yo'llar va usullar talab etiladi. Bularga geologik kesimlar tuzish usullari, namunalash usullari va baholovchi solishtirish usullari kiradi.

Usullar quyidagilardan iborat:

1. Geologik, topografik va marksheyderlik ma'lumotlari asosida (yer yuzasida 1:10000 dan 1:500 gacha va yer ostida 1:1000 dan 1:500 gacha masshtabda) razvedka lahimplari hamda burg'ilash quduqlaridagi kuzatish nuqtalarini tasvirlash ishlariga bog'lab va birlashtirib, belgilangan talabga muvofiq masshtab bo'yicha, katta mashtabli, razvedka maqsadiga to'g'ri keladigan, geologik xaritaga asos yaratiladi.

Razvedka jarayonida lahimplar yoki burg'ilash quduqlarini o'chish natijasida olingan ma'lumotlar ayniqsa qimmatli hisoblanadi. Ishchi geologik xarita va razvedka o'tkazish profillari bo'yicha lahimplar va quduqlardan iborat bo'lgan qirqimlarning dastlabki varianti mufassal baholashda, to'lsasi esa razvedka bosqichida tuziladi.

Bu ishchi geologik xaritada petrografik va formatsiyalari, ma'danlarning chegarasini belgilaydigan gorizontlar(qatlamlar), ma'dan tanalari chegaralari, vujudga kelgan tektonik harakat elementlari, metasomatik o'zgargan tog' jinslari belgilanadi.

2. Kon lahimplari va burg'ilash quduqlarida geofizik tadqiqotlar o'tkazish usullari (karotaj ishlari) hal qilinuvchi masalalar kompleksi bo'yicha universal va yuqori samarali hisoblanadi.

Ular quyidagi holatlarda keng qo'llaniladi: lahimplar va burg'ilash quduqlari ma'danni kesib o'tgan joylarni aniqlashtirishda; interpolatsiya hamda ekstrapolatsiya o'tkazishda; foydali qazilma konlari bo'yicha zaxira hisoblash sifati uchun ko'satkichlarni belgilashda. Burg'ilash quduqlarida geofizik tadqiqotlar keng rivojlangan.

Karotaj o'tkazishning mazmuni quduqlar ichida tabiiy va sun'iy ta'sir orqali vujudga kelgan fizik maydonlarni qo'zg'atish, ularni

maxsus uskuna – zond yordamida raqamlar sifatida hisobga olish yoki boshqa qabul qiluvchi uskunalar yordamida registratsiya qilishdir.

Kon lahimplarda geofizik tadqiqotlardan radiometrik usullar keng qo'llanadi. Uran, sheelit, olmos kabi foydali qazilma konlarini razvedka qilishda lyuminessent usuli yordamida samarali ma'lumot olish mumkin. Lahimplar orasini hamda rassechkalar o'rtasida ma'danli tanalarning "soyasi" orqali qiyofasini aniqlash uchun radioto'lqinli va rentgen usulidan foydalanish ham rivojlangan.

3. Foydali qazilma koni razvedkasida geokimyoiy tadqiqotlar eroziya chuqurligini aniqlashda, ma'danli tanalarni interpolatsiya va ekstrapolatsiya qilishda, ma'dan mavjud bo'lgan chuqur gorizontlarni baholashda kon lahimplari hamda quduqlardan geokimyoiy namuna olish orqali qo'llanadi. Namunalar ishlov berishdan so'ng, laboratoriyaga spektral tahlil bo'yicha ma'lumot olish uchun yuboriladi, so'ngra shunga asoslanib, birlamchi tarqalish oreollarini doirasi tuziladi. Birlamchi tarqalish oreollarini o'rganish razvedka davrida konning chuqurlikda bo'lgan o'zgaruvchanligini (zonalligini) o'rganishda muhim vazifalardan hisoblanadi.

4. Mineralogik tadqiqot ishlari quyidagi vazifalarni yechishga yo'naltirilgan:

- ma'danlarning to'liq mineral tarkibini, ma'dan atrofidagi metasomatitlarni, minerallar vujudga kelish shakllarini, asosiy va qo'shimcha foydali komponentlar hamda foydali va zararli elementlarning joylashuvini aniqlash;

- ma'danlarning mineral tarkibi, tekstura va strukturalari bo'yicha tabiiy turlarni ajratish;

- kesimlar bo'yicha mineralarning yer yuzasidan chuqurlikkacha joylashuvidagi zonallikni o'rganish.

5. Razvedka profillari bo'yicha samarali ma'lumotlarga ega bo'lgan holda kesimlarni tuzish.

6. Razvedka maqsadiga muvofiq, namunalash ishlarini olib borish.

Razvedka sistemalari (tizimlari)

Kuzatish punktlari tizimini hosil qilish uchun qo'llaniladigan texnik vositalardan foydalanishga qarab razvedka tizimlari uch turga bo'linadi:

1. Burg'ilash quduqlar tizimi (70-rasm).

2. Kon lahimplari tizimi (71-rasm).


3. Kon lahimplari va burg‘ilash quduqlaridan foydalanadigan aralash tizim (72-rasm).

Razvedka sistemasiga kiradigan burg‘ilash quduqlari va kon lahimplari ma’lum yo‘nalishli chiziqlarda (profilarda) joylashadi.


Shu quduq va lahimplar ma’dan tanalarini kesib o’tgan joylar nuqta yoki interval tarzida bo‘ladi, ular adabiyotlarda “kuzatuv nuqtalari” deb ataladi.

Ularga asoslanib, turli qirqimlar, gorizont planlari (lahimplar bo‘yicha) tuziladi.


Burg‘ilash tizimini tanlab olish jarayonida konning umumiyligi, mineralogik, strukturaviy, morfologik va boshqa xususiyatlari, geografik va iqtisodiy shart-sharoitlari hisobga olinadi.



70-rasm. Sochilma konini kichik vertikal burg‘i quduqlari bilan razvedka qilish tizimi: 1-o‘simlik qatlami; 2-torf; 3-xarsang toshli gillar; 4-mahsuldor qumlar; 5-tub tog‘ jinslari.



71-rasm. Shaxtadan kvershlaglar va shtreklar o'tish orqali razvedka qilish tizimi. Moyxun koni qirqimi (Janubiy Afrika): 1 – noritlar; 2 – piroksenitlar; 3 – olivinli dunitlar; 4 – gortzonolit-dunitli «trubka»; 5 – gortzonolit-dunit daykalari.



72-rasm. Tomirsimon va minerallashgan zonalarni shaxta, shurf va burg'ilash quduqlari yordamida razvedka qilishning aralash tizimi:

A – yer yuzasi plani; B – shaxta gorizonti plani; V – vertikal qirqim;
 1-2 – dastlabki razvedka quduqlari: 1 – 100m.gacha; 2 – 300m.gacha;
 3 – mufassal razvedka quduqlari; 4 – struktura quduqlari; 5 – gorizontal
 quduqlar; 6 – shurflar; 7 – shaxta; 8 – kanavalar; 9 – shtrek va rassechkalar;
 10 – ma'dan zonasni.

Razvedka to'rlarining shakli, zichligi va yo'nalishi

Razvedka sistemasini tashkil qilgan quduqlar va kon lahimlaridan aniq va ishonchli ma'lumot olish maqsadida, ularni joylashtirishda maksimal o'zgaruvchanlik yo'nalishi (ma'dan qalinligi, ya'ni razvedka profillari yo'nalishi minerallashuv zonasi yo'nalishiga ko'ndalang) bo'yicha, profil chizig'ida joylashgan nazorat (kuzatish) nuqtalarining orasidagi masofa, bu profillar oraliq masofasiga nisbatan ancha kam bo'ladi. Shu holatda bir tomoni uzun to'g'ri to'rtburchakli razvedka to'ri yuzaga keladi.

Agar razvedka ishlari olib borilayotgan ma'dan maydoni izometrik (uch yo'nalish bo'yicha o'lchamlari bir-biriga yaqin) bo'lsa, kuzatuv nuqtalari orasidagi masofalar profillararo va profil ichidagi

yo'nalishlar bo'yicha teng qabul qilinadi va to'r shakli kvadratsimon ko'rinishga keladi.

Razvedka to'rlarining uchta asosiy – kvadrat, to'g'ri to'rtburchak va romb shaklidagilari mavjud. Bundan tashqari, uchburchak va ko'pburchak shaklidagi to'rlar ham uchraydi. Ko'pincha razvedka jarayonida bir to'r shakli boshqasiga o'tishi mumkin.

Kvadrat to'r gorizontal qatlam ko'rinishidagi konlar, shtokverk va izometrik shakldagi konlarni razvedka qilish uchun qo'llaniladi.


To'g'ri to'rtburchakli to'r ikki asosiy yo'nalishda turli darajadagi o'zgaruvchanlikka ega bo'lgan foydali qazilma tanalarini razvedka qilishda qo'llaniladi. Bunda to'g'ri to'rtburchakning uzun tomoni eng kam o'zgaruvchanlikka ega bo'lgan ma'dan tanasi yo'nalishiga mos bo'lishi kerak. Qisqa tomoni esa eng katta o'zgaruvchanlikka ega tana yo'nalishiga parallel bo'lishi kerak.

Romb shaklidagi to'r kvadrat (izotroplikda) va to'g'ri to'rtburchak (yaqqol anizotroplikda) to'rlar uchun oraliq sharoitlarda qo'llaniladi. Kvadrat to'rga nisbatan romb shaklidagi to'r ancha tejamli. 73-rasmda razvedka to'rlarini ketma-ket zinchlash variantlari keltirilgan.

Razvedka to'rining shaklini tanlashda razvedka tamoyillari inobatga olinadi.

To'liq o'rganish tamoyili kuzatuv nuqtalarining ma'lum tartibda joylashuviga asos bo'ladi.

Analogiya (tajriba orqali o'xshash hollarda bir tamoyilni qo'llash) tamoyili, o'xshash foydali qazilma konlarida kuzatuv nuqtalari orasidagi masofa razvedka to'rining shakli va yo'nalishi bo'yicha ma'lumotlardan foydalanishga imkon yaratadi, ayniqsa, mufassal baholash bosqichida yordam beradi.



73-rasm. Razvedka to‘rining zichlanishi:

A – lahimlar o‘rtasidagi masofaning 2 barobar kamayishi bilan razvedka to‘rining zichlanishi; b – konvert usuli bilan razvedka to‘rining zichlanishi; c – kvadrat to‘rning to‘g‘ri to‘rburchak to‘rga aylanishi; g – romb shaklidagi to‘rning to‘g‘ri to‘rburchak to‘rga aylanishi; 1 – birinchi navbatdagi lahimlar; 2 – ikkinchi navbatdagi lahimlar; 3 – uchinchi navbatdagi lahimlar.

Katta maydonda, tadqiqot ishlari natijasiga asoslanib, bir qismiga o‘tib, katta masshtabda geologiya-qidiruv ishlarini unumli davom ettirish tamoyili razvedka to‘rini zichlashga, ya’ni kuzatish nuqtalari orasidagi masofalarни ikki barobar kamaytirishga asos yaratadi.

Tadqiqot ishlarini samarali o‘tkazish tamoyili, ekstrapolatsiya usuli yordamida, ma’danni kesib o‘tgan burg‘ilash quduqlari va kon lahimlari tashqarisida chegaralash doirasini o‘tkazish bilan bog‘liqidir. Geologik-tadqiqot ishlariga unumli mablag‘ va vaqt ketkazish tamoyili razvedka to‘rining optimal (me’yorli) zichligiga bog‘liqidir.

Razvedka tizimini tashkil etuvchi kon lahimlari va quduqlar qabul qilingan razvedka to‘rining kataklar burchaklarida joylashishi kerak. Shu talab ko‘zda tutilsa, razvedka chiziqlari bo‘yicha tuzilgan qirqimlardagi ma’lumotlar ishonchli bo‘ladi.

Ya’ni to‘rning shakli va yo‘nalishi foydali qazilma konlarining geologik tuzilishi xususiyatlariga, jumladan ma’danli tanalar morfologiyasi va ma’dan vujudga kelishi jarayonlarida hosil bo‘lgan

o'zgaruvchanligiga to'la e'tibor berilsa, to'rlar zichligini kengaytirish natijasida vaqt hamda ketadigan mablag'larni unumli tejash mumkin.

6.4. Razvedka jarayonida olib boriladigan gidrogeologik va injener-geologik kuzatishlar

Razvedka jarayonida olib boriladigan gidrogeologik tadqiqotlar quyidagi ma'lumotlarni aniqlashdan iboratdir:

- suvli gorizontlarning tarqalish maydonlari, ularning joylashish sharoitlari va ta'minlanish **hududlari**;
- yer osti va yer usti suvlari rejimlarining asosiy belgilari;
- yer osti suvlari rejimlarining bo'lishi mumkin bo'lgan o'zgarishlari;
- kon lahimlariga oqib kelishi mumkin bo'lgan suv miqdori;
- suv bilan ta'minlash manbalarining tavsisi;
- kondagi injener-geologik sharoitlar.

Gidrogeologik tekshirishlar «откачка», ya'ni suvni so'rib olish yoki «нагнетание», ya'ni suvni yer ostiga kiritish usullari bilan bajariladi. Suvli gorizontlardan suvni so'rib olish bir necha variantlarda bajarilishi mumkin:

- 1) namunaviy – taxminiy ma'lumotlarni aniqlash uchun;
- 2) tajribaviy – bir quduqdan yoki quduqlar dastasidan ma'lumot olish variantlarida bajariladi.

Bular natijasida suvlanganlik darajasini va filtrlanish koeffitsiyentini aniqlash mumkin bo'ladi.

Suvni yer ostiga kiritish («нагнетание ») yo'li bilan xuddi shunday variantlarda jinslarning suv qabul qilishi mumkinligi baholanadi.

Bu ishlar natijasida kon lahimlariga oqib kelishi mumkin bo'lgan suv miqdori va suv tarkibining mavsumiy o'zgarishlarini aniqlash bajariladi.

Razvedka jarayonida olib boriladigan injener-geologik tadqiqotlar

Bu tadqiqotlar kondagi kon-texnik sharoitlarni tekshirish maqsadida bajariladi. Bu tadqiqotlar natijasida quyidagi ko'rsatkichlar aniqlanadi:

- tog' jinslarining qattiqligi;

- tog‘ jinslarining mustahkamligi;
- yer osti kon lahimlarida tog‘ bosimi ta’sirida hosil bo’lgan deformatsiyalar;
- yer usti karyerlaridagi jinslardagi ichki ishqalanish burchagi bilan aniqlanadigan deformatsiyalar.

Injener-geologik tadqiqotlarning asosiy vazifalari quyidagilarni aniqlashga qaratilgan:

- 1) jinslarning mineralogik-petrografik tarkibi va fizik-mexanik xususiyatlarini;
- 2) jinslarning granulometrik tarkibini;
- 3) jinslarning namlik darajasini;
- 4) jinslarning g‘ovaklik darajasini;
- 5) jinslarning maydalanish koefitsiyentini;
- 6) sochiluvchan jinslarning ichki ishqalanish koefitsiyentini;
- 7) gilsimon jinslarning plastiklik xususiyatlarini;
- 8) jinslarning namlanish qobiliyatini;
- 9) gilli jinslarning bo‘kish darajasini;
- 10) jinslar monolitlarining ezilish va cho‘zilishga qarshiligini;
- 11) jinslarning muzloqlikka chidamliligini;
- 12) geotermik kuzatishlar (ayniqsa yong‘inga xavfli konlarda).

7. FOYDALI QAZILMA KONLARINI GEOLOGIK-IQTISODIY BAHOLASH

7.1. Foydali qazilma konlarini geologik-iqtisodiy baholash tamoyillari va bosqichlari

Umumiy qoidalar

Yer osti boyliklari davlat mulki hisoblangan bozor iqtisodiyoti sharoitida, konlarni geologik-iqtisodiy baholashning bosh maqsadi – ularning zaxiralarini hisoblash uchun konditsiyalarni asoslash va mamlakat ehtiyojini qondiruvchi mineral xomashyo manbalari sifatida iqtisodiy ahamiyatini aniqlashdir. Geologiya-qidiruv ishlarining barcha bosqichlarida konlarni to‘g‘ri va o‘z vaqtida geologik-iqtisodiy baholash ulardan oqilona foydalanishning asosi bo‘lib xizmat qiladi.

Foydali qazilmalarni qidirish bosqichidan boshlab, konlarni geologik-iqtisodiy baholash geologiya-qidiruv ishlari har bir bosqichining ajralmas tarkibiy qismidir.

Qidirish va baholash ishlari tugaganidan so‘ng, ularning natijalariga ko‘ra, tadqiqot obyektida razvedka ishlarini olib borish maqsadga muvofiqligi aniqlanadi yoki obyektni salbiy baholash asoslanadi, razvedka ishlarini olib borish navbatlari va maqsadga muvofiqligi aniqlanadi yoki bundan keyin bajariladigan ishlarning to‘xtatilishi to‘g‘risida asosli qaror qabul qilinadi. Razvedka ishlari tugaganidan so‘ng obyektning iqtisodiy ahamiyati yanada aniqlanadi, zaxiralarni hisoblash uchun konditsiyalar belgilanadi, kondagi zaxiralar tasdiqlanadi va u sanoatda o‘zlashtirishga topshiriladi. Ishlab turgan tog‘-kon korxonalarida o‘tkaziladigan ekspluatatsion razvedka ishlari jarayonida konning ayrim uchastkalari va bloklarida ularning tog‘-geologik va texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini aniqlash uchun geologik-iqtisodiy baholash ishlari o‘tkaziladi. Bundan tashqari, tarmoqning mineral xomashyo bazasi o‘zgarganda, tog‘ korxonasi mahsulotining narxlari darajasi o‘zgarganda, yangi texnologiyalar paydo bo‘lganda va kon sanoati iqtisodiyotini sezilarli o‘zgartirib yuboruvchi boshqa shart-

sharoitlar yuzaga kelganda, konlarni geologik-iqtisodiy qayta baholash ishlarini o'tkazish zarurati tug'iladi.

Geologik-iqtisodiy baholash vazifalariga foydali qazilma konlari ning nisbiy xo'jalik samaradorligi va sanoatda o'zlashtirishga j Alb etish navbatini aniqlash kiradi, shuningdek, ishlab chiqarishga balansdan tashqari zaxiralarni yoki yangi konditsion ma'danlarning zaxiralarini j Alb qilish yo'li bilan, ishlab turgan kon korxonalarida ishlab chiqarish hajmini oshirish masalalarini hal qilish kiradi.

Foydali qazilma konlarini razvedka qilish va geologik-iqtisodiy baholash jarayonida asosan quyidagi tamoyillarga amal qilinadi.

Mineral xomashyoga bo'lgan talabni maksimal darajada qondirish. Ayrim korxonalar va sanoat tarmoqlarining mineral xomashyoga bo'lgan ehtiyoji balans metodi bilan, tovar mahsulotni ishlab chiqarish va ishlatish hajmidan kelib chiqib aniqlanadi. Kerakli darajada samaradorlikni ta'minlay olmaydigan konlar, ularni ishlatish uchun muvofiq texnik va iqtisodiy shart-sharoitlar yaratilgunga qadar rezervda hisoblanadi.

Konkret xomashyoga bo'lgan ehtiyojning optimal darajasi. Ushbu tamoyil faqat ushbu xomashyodan foydalanish ko'proq foyda keltiradigan sohalar uchun aniqlanadi. Barcha boshqa holatlarda xomashyoga bo'lgan ehtiyojni qondirish tabiiy resurslarni almashtirish va o'zaro almashtirishni hisobga olgan holda aniqlanadi.

Tovar qiymatiga ega bo'lgan, so'nggi mahsulotlarni olishda minimal sarf-xarajatlar qilib, tabiiy resurslardan maksimal darajada foydalanish. Konlarni baholash ularning zaxiralaridan to'liq va kompleks foydalanishni hisobga olgan holda olib borilishi lozim. Buning uchun birinchi navbatda, geologiya-qidiruv ishlarini yuqori sifat bilan bajarish, ayniqsa razvedka qilingan zaxiralar miqdori va sifati haqidagi ma'lumotlarning ishonchliligini ta'minlash zarur. Ikkinchidan, razvedka qilingan mineral xomashyodan optimal darajada foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish zarur. Bu shartlar baholash ishlarini, foydali qazilmalarni qazib olish va qayta ishslashning eng mukammal texnika va texnologiyasi bazasida va sarf-xarajatlarning muvofiq darajasini hisobga olgan holda olib borishni taqozo qiladi.

Konlarning sanoat qiymatini aniqlaychi omillar

Konning sanoat qiymati ko'p omillar bilan aniqlanadi. Ularni shartli ravishda uch guruhga: ijtimoiy-iqtisodiy, kon-geologik va iqtisodiy-geografik omillarga bo'lish mumkin:

Ijtimoiy-iqtisodiy omillarga quyidagilar kiradi:

– foydali qazilmaning va undan olinadigan mahsulotlarning xalq xo'jaligidagi va mamlakatning iqtisodiy mustaqilligini hamda mudofaa qobiliyatini ta'minlashdagi ahamiyati;

– mamlakatning ushbu foydali qazilma turi bilan ta'minlanganlik darajasi.

Kon-geologik omillar tog'-kon korxonasining miqyosini, konni ishlatalishning tog'-texnik shart-sharoitlarini, shuningdek foydali qazilmani qayta ishlash texnologik sxemasi va undan tayyor mahsulot olishni aniqlovchi ma'lumotlar majmuidan iborat. Bu guruh o'z ichiga kon haqidagi eng muhim ma'lumotlarni oladi: foydali qazilmalarning sifati; foydali va zararli komponentlarning miqdori va ularning zaxiralari; foydali qazilma uyumlarining morfologiyasi, tuzilishi va joylashish sharoitlari; mineral xomashyoning texnologik xususiyatlari va konlardan foydalanishning tog'-geologik shart-sharoitlari.

Iqtisodiy-geografik omillar kon hududining tabiiy va iqtisodiy shart-sharoitlarini tavsiflovchi ma'lumotlar majmuidan iborat: konning iste'molchi-zavodlardan uzoqligi; hududning o'zlashtirilganligi; transport va energetik shart-sharoitlar; suv rejimi; boshqa foydali qazilmalar va materiallar bazalarining borligi; hududning relyefi, iqlimi va boshqalar.

Konlarning sanoat qiymati ko'p jihatdan xalq xo'jaligining xomashyoga bo'lган shu kundagi va istiqboldagi talablari bilan aniqlanadi. Mineral xomashyo ushbu turining balansi tang holatda bo'lмагanda, iqtisodiy-geografik omillar konni baholashda yetakchi ahamiyatga ega bo'ladi. Agar xomashyoga talab katta bo'lib, boshqa konlardan foydalanish bu talabni qondira olmasa, konlarni o'zlashtirishdagi iqtisodiy-geografik omillar roli sezilarli darajada kamayadi.

Konlarni baholashda alohida omillarning ahamiyati har bir konkret holda bir xil bo'lmaydi. Shuning uchun biron bir konni geologik-iqtisodiy baholashda omillarning asosiyлари ajratilib, ularni konning sanoat qiymatiga ta'siri muvofiq ko'rsatkichlar vositasida aks ettiriladi.

Razvedka ishlari natijasida olingen, konning geologik tuzilish xususiyatlari, foydali qazilmalarning moddiy tarkibi va texnologik xossalari, shuningdek konlarni ishlatish shart-sharoitlari haqidagi tasavvurlar geologik axborotning chegaralanganligi tufayli mukammal bo‘lmaydi. Shuning uchun konni o‘zlashtirish bo‘yicha tuzilgan har bir loyiha yechimi ushbu axborotlarning to‘liq bo‘lmaganligi uchun yo‘l qo‘yiladigan xatolar natijasida tavakkalchilik bilan bo‘ladi. Razvedkaning maqsadi ushbu tavakkalchilik ta’sirini iqtisodiy ratsional o‘lchamlargacha kamaytirishdan iborat. Shu munosabat bilan geologiya-qidiruv ishlarining iqtisodiy mohiyatini aks ettiruvchi asosiy tamoyili quyidagichadir – geologiya-qidiruv ishlari bajarilayotgan vaqtda axborot yetishmasligi sababli qo‘srimcha axborot olish zarurati paydo bo‘lganda, ularni to‘ldirishga ketgan sarf-xarajatlar navbatdagi bosqich ishlarini loyihalashda yetishmagan axborot tufayli yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan iqtisodiy yo‘qotuvlar ko‘rsatkichidan ko‘p bo‘lmasligi kerak. Ushbu iqtisodiy tamoyilga rioya qilish konning geologik tuzilishini va ishlatilish shart-sharoitlarini, ma’danlarning moddiy tarkibini va texnologik xossalarni o‘rganishning ratsional darajasini oldindan belgilaydi.

Konlarning uzoq yillar, ba’zida bir necha o’n yillar davomida qazib olinishi va shu davrda ularni qo‘srimcha o‘rganishlarning davom etishi sababli konning har xil qismlarini bir xil darajada o‘rganishga erishish iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq emas. Birinchi navbatda qazib olishga mo‘ljallangan uchastka va gorizontlar yuqori darajada mufassallik bilan o‘rganilib, qazib olinish muddatlari ketma-ket uzoqlashib boruvchi uchastka va gorizontlarning o‘rganilish darajasini shu ketma-ketlikka mos ravishda kamaytirib borish eng ratsional yo‘ldir.

Geologik tuzilishining murakkabligi turlicha bo‘lgan konlardagi bir xil miqdordagi foydali qazilmani (ma’danlarni) razvedka qilish uchun geologiya-qidiruv ishlarini o’tkazishga har xil miqdordagi mablag‘ va vaqt sarf qilish kerak bo‘ladi. Bu narsa bitta kondagi morfologiysi, yotishining murakkablik darjasini, ichki tuzilishining o‘zgaruvchanligi, ma’dan sifati va ulardagи qimmatli komponentlarning taqsimlanishi har xil bo‘lgan ayrim ma’dan tanalarini o‘rganishga ham taalluqlidir.

Yuqorida qayd etilgan, razvedka qilishning iqtisodiy mohiyatini ifoda etuvchi tamoyil geologik tuzilishining murakkabligi bo'yicha farqlanuvchi konlarni, shuningdek bitta konning ayrim bo'laklarini, razvedka qilinganligining iqtisodiy ratsional darajasiga bo'lgan talablarni tartibga solish imkonini beradigan spetsifik tushuncha yaratishni taqozo etadi. Bu tushuncha «zaxiralar toifasi» va «geologik tuzilishining murakkabligi bo'yicha kon guruhi» ko'rinishidagi me'yoriy hujjatlar ko'rinishida ifodalananadi.

Konlarni geologik tuzilishining murakkabligi bo'yicha guruhlarga ajratish ularni o'rganishning iqtisodiy ratsional darajasini reglamentga solish uchun xizmat qiladi.

O'zining asoslanganlik daroji bilan farq qiluvchi «bashorat qilingan resurslar toifalari», shuningdek razvedka qilingan ma'dan zaxiralarini ularning xalq xo'jaligidagi ahamiyatiga qarab ajratish uchun kerak bo'ladi (*«balansdagi zaxiralari»* va *«balansdan tashqari»* zaxiralar) boshqacha tushunchalardir.

Zamindan oqilona foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish talablariga rioya qilgan holda, hozirda sanoatda mavjud yoki o'zlashtirilayotgan ma'danlarni qazib olish va qayta ishlashning progressiv texnika va texnologiyasini qo'llash sharoitida ishlatish iqtisodiy samara beradigan ma'dan zaxiralari va ular tarkibidagi foydali komponentlar – *balansdagi zaxiralarga* kiritiladi. Ma'dan zaxiralari va ular tarkibidagi foydali komponentlardan foydalanish hozirgi kunda iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq bo'lmasa yoki buning texnik va texnologik imkonni bo'lmasa, biroq qazib olish va qayta ishlash texnika va texnologiyasini takomillashtirish, xalq xo'jaligidagi yoki tog'-kon korxonasidagi iqtisodiy ahvolning o'zgarishi natijasida kelajakda o'zlashtirish uchun yaroqli bo'lishi mumkin bo'lsa, bunday zaxiralar *balansdan tashqari zaxiralar* hisoblanadi.

Tog'-kon korxonasini loyihalashda asosiy qazib olish va qayta ishlash obyekti bo'lib ma'danlarning balansdagi zaxiralar hisoblanadi. Shuning uchun konlarning muayyan guruhlari uchun, turli toifadagi balans zaxiralar uchun me'yoriy nisbatlar belgilanadi. Balansdagi va balansdan tashqari zaxiralar, tog'-geologik, texnologik va iqtisodiy tadqiqotlar natijalari asosida ishlab chiqilgan konditsiyalarga muvofiq ajratiladi va chegaralanadi.

Konditsiyalarni asoslash uchun zaxiralarni oldindan hisoblab chiqish kerak. Biroq, konditsiyalarning parametrlarisiz zaxiralarni hisoblab bo‘lmaydi, chunki qazib olinuvchi ma’dan tanalari, ba’zi bir hollarni mustasno qilganda, tabiiy geologik hosila emas, balki chegaralari iqtisodiy mulohazalar bilan aniqlanuvchi uning bir bo‘lagidir.

Shularga ko‘ra, konlarni razvedka qilish, konditsiyalarni asoslash va zaxiralarni hisoblash muayyan konni o‘rganishning har bir bosqichida, o‘zaro bog‘liq va ajralmas bo‘lib, ular birgalikda geologik-iqtisodiy baholash jarayonini tashkil qiladi. Kon bo‘yicha geologiya-qidiruv ma’lumotlarining yig‘ilib borishi bilan avvalambor baholashning to‘laligi, ishonchliligi va aniqligi o‘zgarib boradi va shu jarayonda ketma-ket, ortib boruvchi ishonchlilik bilan, bundan keyingi olib boriladigan geologiya-qidiruv ishlarining yo‘nalishi va metodikasi haqida qaror qabul qilinadi.

7.2. Konditsiyalar

«Foydali qazilmalar konditsiyasi» deb ularning sifatiga va qazib olishning tog‘-texnik sharoitlariga bo‘lgan talablar yig‘indisiga aytildi. Bu talablar konlarni muayyan davrda sanoatda o‘zlashtirishning maqbul texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini hisobga olib qo‘yiladi. Foydali qazilmalar konditsiyalari balansdagi va balansdan tashqari zaxiralarni ajratish, chegaralash hamda hisoblash maqsadlariga xizmat qiladi.

Konditsiyalar vaqtinchalik va doimiy bo‘lishi mumkin. Vaqtinchalik konditsiyalar baholash va razvedka qilish natijalari asosida zaxiralarni tezkor hisoblashga mo‘ljallangan. Doimiy konditsiyalar esa, foydali qazilmalar Zaxiralari bo‘yicha Davlat Komissiyasi (ZDK)ga tasdiqlash uchun taqdim etiladigan zaxiralarni hisoblash uchun asos bo‘lib xizmat qiladilar.

Ikkala konditsiya turlari tarkibida quydagilarni ajratish mumkin:

1) konlarni sanoat tomonidan o‘zlashtirishning iqtisodiy samadarligi inobatga olingan holda aniqlanadigan ko‘rsatkichlar;

2) foydali qazilmalarni qazib olishning mo‘ljallangan texnologiyasini inobatga olingan holda aniqlanadigan ko‘rsatkichlar;

3) foydali qazilmalarni qayta ishslashning mo‘ljallangan texnologiyasini inobatga olgan holda aniqlanadigan ko‘rsatkichlar.

ZDKga tasdiqlash uchun taqdim etiladigan foydali qazilma zaxiralarini hisoblash uchun doimiy konditsiyalarni ishlab chiqish qoidaga ko‘ra loyihalash va ixtisoslashgan ilmiy tadqiqot institutlariga topshiriladi. Bunday amaliyot yakuniy konditsiyalarning hamma ko‘rsatkichlarini asoslovchi iqtisodiy hisob-kitoblar aniqligiga bo‘lgan juda yuqori talablar bilan izohlanadi.

1. Konlarni sanoat tomonidan o‘zlashtirishning iqtisodiy samaradorligi inobatga olingan holda aniqlanadigan konditsiyalar ko‘rsatkichlari.

Ko‘rib chiqilayotgan foydali qazilmalar konditsiya ko‘rsatkichlari guruhiga quyidagilar kiradi:

1) foydali komponentning eng kichik sanoatbop miqdori;

2) foydali komponentlari chegaralashga imkon bermaydigan darajada notejis tarqalgan murakkab konlar uchun yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan ma’danlilik koeffitsiyenti;

3) foydali komponentning chegaraviy(bort) miqdori;

4) ochiq usulda qazib olish ishlari uchun, yopib turuvchi jinslar bilan foydali qazilma qalinligi va hajmlarining eng ko‘p yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan nisbati;

5) konni ochiq usulda qazib olishning eng katta chuqurligi.

Foydali komponentning eng kichik sanoatbop miqdori hamma ma’dan qazilma konlarining zaxiralarini hisoblash konditsiyasi doirasida aniqlanadi. Ko‘rilayotgan guruhnинг boshqa ko‘rsatkichlarini aniqlash zarurati baholanayotgan konning tabiiy xususiyatlariga qarab belgilanadi.

1.1. Foydali komponentning ma’danlardagi eng kichik sanoatbop miqdori

Eng kichik sanoatbop miqdor balansdagi zaxiralarga kiritilgan ma’danlardagi foydali komponent o‘rtacha miqdorining eng past chegarasidir. Foydali komponent miqdori undan kam bo‘lgan zaxiralar balansdan tashqari zaxiralar doirasiga kiritiladi. Eng kichik sanoatbop miqdori belgilangan ma’dan miqdori uchun ma’danning sanoat uchun qiymati bilan ishlab chiqarishdagi xarajatlar (qayta ishslash tannarxi) tengligi shartidan kelib chiqib aniqlanadi. Hisob-kitob korxonaning yillik unumidorligi yoki foydali qazilmaning miqdor birligi ($1t$ yoki $1m^3$) uchun amalga oshiriladi.

Eng kichik sanoatbop miqdori – konning, qabul qilingan o’zlashtirish varianti doirasida zarar ham, foyda ham keltirmay qazib olinadigan, ma’dan sifatini tavsiflovchi hamda bu asosda ayrim hisob bloklari va konni butunligicha o’zlashtirishning rentabellik darajasi xususida xulosa chiqarish imkonini yaratuvchi iqtisodiy ko’rsatkichdir.

Foydali komponentning o’rtacha miqdori eng kichik sanoatbop miqdori darajasida bo’lgan konlarni o’zlashtirish foydasizdir. Shuning uchun eng kichik sanoatbop miqdorni balansdagi ma’danlarda foydali komponent o’rtacha miqdorining eng kam ko’rsatkichi sifatida faqat ayrim bloklar doirasida zaxiralarni hisoblashda ishlatish mumkin.

Eng kichik sanoatbop miqdor aniqlanuvchi eng katta ma’dan blokining hajmidir. Komponentlarning o’rtacha miqdori konning ayrim qismlarida ko’pincha keng ko’lampa o’zgaradi va ko’p hollarda sanoatbop ma’danlarning umumiy chegarasi ichida, foydali componentlarning miqdori bo’yicha sanoat ahamiyatiga ega bo’lмаган bloklar ham kirib qoladi. Shunisi ravshanki, agarda foydali komponent miqdori past yoki sanoatbop bo’lмаган bloklar unchalik katta bo’lмаган va ular nisbatan tekis taqsimlangan bo’lsa, konning bu xususiyati foydali qazilmaning umumiy zaxiralariha sifatiga ta’sir o’tkazmaydi. Va aksincha, bunday bloklarning sezilarli hajmiy ko’rsatkichlarga ega bo’lishi va notekis joylashuvi, qazish davrida bunday ma’danli zaxiralarning kartada o’z vaqtida ajratilmay qolishiga olib keladi. Shunga mos ravishda ma’danlarning umumiy zaxiralari va ulardagi foydali komponent zaxirasi kamayadi, bu esa konni o’zlashtirishning iqtisodiy ko’rsatkichlariga jiddiy ta’sir ko’rsatadi.

Shuning uchun foydali komponentlari o’ta notekis joylashuvga ega konlar uchun eng kichik sanoatbop miqdorni aniqlash bilan birlgilikda eng katta ma’dan bloki hajmini aniqlash vazifasi ham yuzaga keladi. Bu masala doimiy konditsiyalarini tayyorlash jarayonida har bir hisoblangan bloklar, ba’zi hollarda esa (yetarli asoslar keltirilgan bo’lsa) ayrim kon gorizonti yoki qismi uchun eng kichik sanoatbop miqdorni aniqlash talablari doirasida yechiladi.

Mufassal baholash natijalari bilan vaqtinchalik konditsiyalarini ishlab chiqish jarayonida ma’dan bloki hajmini aniqlash masalasi, ravshanki, materiallar tanqisligi tufayli o’zlashtirish va foydali qazilmaga birlamchi ishlov berish texnologiyasini belgilovchi kon geometriyasining asosiy parametrlari va ma’dan sifatiga e’tibor berilgan

holda faqatgina umumiyligi chegaralardagina yechilishi mumkin. Bunday parametrlar doirasiga quyidagilar kirdi:

1) Konning turli qismlaridagi foydali qazilmaning joylashish chuqurligi va sharoitlari. Konning ayrim qismi va ma'dan tanalaridagi bu parametrlarning keskin tafovuti mos ravishda qazib olish uslub va tizimining o'zgarishiga hamda oxir-oqibatda o'zlashtirish qiymat ko'rsatkichlarining o'zgarishiga olib keladi. Shuning uchun eng kichik sanoatbop miqdorni konning yer osti va ochiq usulda qazib olish uchun mo'ljallangan qismlari uchun alohida hamda ma'dan tanalari qalinligi keskin farqlanuvchi qismlari uchun alohida aniqlash zarur. Chunki ma'dan tanalarining juda qalin qismlarida qazib olishning yuqori samarali metodlarini qo'llash mumkin;

2) Foydali komponentning miqdori va foydali qazilmaning faza tarkibi. Konning umumiyligi zaxiralari miqyosidagi ulushi ko'p bo'lgan va alohida joylashuvi kuzatilgan hollarda massiv va tarqoq ma'danlashuv turlari uchun eng kichik sanoatbop miqdorini alohida aniqlash zarur. Xuddi shu qoida konning faza tarkibi bilan farqlanuvchi turli qismlari (masalan, oksidlanish va ikkilamchi sulfidli boyish zonalari) uchun ham taalluqlidir.

1.2. Ma'danlilikning eng kichik yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan koeffitsiyenti

Ma'danlilikning eng kichik yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan koeffitsiyenti ma'danlari o'ta murakkab fazoviy taqsimlanishga ega bo'lgan konlar uchun aniqlanadi. Bunday konlarda ma'dan tanalari uyalar, ustunlar hamda mayda va kalta tomirlar sifatida namoyon bo'ladi. Ayrim ma'dan tanalarini morfologiyasining murakkabligi hamda o'chovlarining kichikligi tufayli chegaralash mumkin emas. Shuning uchun bunday hollarda konditsion ma'danlar hajmi statistik metodlar bilan ma'danlilik koeffitsiyenti orqali aniqlanadi.

Ma'danlilik koeffitsiyenti kiritishni talab qiluvchi sharoitlar quyidagilardan iborat:

1) ekspluatatsion ishlar davomida konning ma'dansiz qismlarining o'z hajmlari bo'yicha ularni o'zlashtirmaslik imkoniyatini yaratuvchi kon qismlarining yetarli kattaligi;

2) konning ma'danli va ma'dansiz mayda qismlarining juda aralashib ketgan hollarida ma'danlarni saralash metodini qo'llash imkoni borligi;

1.3. Foydali komponentning chegaraviy(bort) miqdori

Foydali qazilmaning sanoatbop qismini sanoat ahamiyatiga ega bo'limgan qismidan ajratib turuvchi va uning chegarasini aniqlashda ishlataluvchi ayrim namunalardagi foydali qazilmaning eng kichik miqdori «bort» deb nomlanadi. Bort miqdori foydali qazilma va qamrovchi jinslar orasida yaqqol geologik chegara bo'limgan hollardagina konditsiyalar tarkibida belgilanadi hamda uning vaziyati konning sanoat uchun yaroqli qismida namunalash natijalari bilan aniqlanadi. Foydali qazilma sanoatbop qismining chegarasini belgilovchi parametr sifatida bort miqdorining kattaligi to'g'ridan-to'g'ri hisoblash yoki variantlar metodlari bilan aniqlanadi.

Bort miqdorini to'g'ridan-to'g'ri hisoblash usuli bilan aniqlash. Bu usul xuddi eng kichik sanoatbop miqdorini hisoblash kabi, foydali qazilma qiymati bilan o'zlashtirish xarajatlari tengligi shartini qo'llab hisoblanadi.

Bort miqdorini variantlar usuli bilan aniqlash. Konni chegaralashda qo'llanilgan bort miqdoriga bo'ysungan holda ma'dan zaxirasi va komponentning o'rtacha miqdori ham o'zgaradi. U bilan mos ravishda konning sanoat tomonidan o'zlashtirish variantlarining texnik-iqtisodiy hamda narx ko'rsatkichlari ham o'zgaradi. Ushbu ko'rsatkichlarni taqposlash yo'li bilan konni o'zlashtirishning va bort miqdorining maqbul variantlari aniqlanadi.

Sanoat tomonidan oxirgi davrda o'zlashtirilishi boshlangan bir qator nodir metallar bo'yicha yaqin kelajakda ommaviy iste'mol boshlanishi bilan mo'ljallangan narxlar keskin pasayishi mumkin. Shuning uchun nodir metallarning amaldagi narxlarda hisoblangan bort miqdorlari pasaytirib yuborilgan bo'lishi mumkin.

Bunday metallar bo'yicha bort miqdorlarini belgilashda istiqbolga rejalangan va tasdiqlangan narxlardan foydalanilgani yoki «Kapital mablag'larning iqtisodiy samaradorligini aniqlashning namunaviy metodi»ga binoan keltirilgan xarajatlar metodi bilan hisobni narx ko'rsatkichlarini kiritmay amalga oshirilgani ma'qul.

1.4. Ochiq kon-qazish ishlari uchun qoplab turuvchi jinslar bilan foydali qazilma qalinligi va hajmlarining eng ko'p yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan nisbati. Bu nisbat o'zlashtirish usulini tanlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etib, konni baholashdagi birlamchi operatsiyalardan hisoblanadi hamda bo'lg'usi korxona ko'rsatkichlarini belgilovchi barcha loyihalashgacha bo'lgan yo'nalishlarini aniqlaydi.

Konlarni ochiq usulda o'zlashtirishda quyidagi 2 holat kuzatilishi mumkin:

- 1) yopib turuvchi tog' jinslarining fizik-mexanik xususiyatlari foydali qazilmaniki bilan bir xil yokiunga yaqin;
- 2) yopib turuvchi qatlam zichlanmagan g'ovak yoki plastik tog' jinslaridan (shag'al, qum, gil va boshqalar) iborat.

Birinchi holatda yopib turuvchi tog' jinslarini ochish va foydali qazilmani qazib olish usullari ishlab chiqarish samaradorligi hamda tannarx jihatidan bir xil ko'rsatkichlarga ega bo'ladi. Ikkinci holatda esa, yopib turuvchi g'ovak tog' jinslarini qazib olishda maxsus metodlar qo'llanishi mumkin bo'lgani uchun 1 m^3 ochish ishlari tannarxini keskin kamaytirib, samaradorlikni oshirish imkonи tug'iladi. Shuning uchun 1 m^3 yumshoq jinslarni ochish tannarxi o'xshashlik yoki yiriklashtirilgan ko'rsatkichlar asosida to'g'ridan-to'g'ri hisoblash yo'li bilan aniqlanadi. Tannarxni hisoblash yer osti usuli bilan konni o'zlashtirishning maqbul varianti uchun ham amalga oshiriladi.

Ochiq va yer osti usullari bilan 1 m^3 foydali qazilmani qazib olish tannarxi bo'yicha ma'lumotlar bo'lgan hollarda, ular quyidagi ifoda asosida taqqoslanadi:

$$a + v K_{\text{gr}} < s,$$

bunda, a - 1 m^3 foydali qazilmani ochiq usulda qazib olish tannarxi; v - 1 m^3 yopuvchi jinslarni qazib olish tannarxi; K_{gr} - yopuvchi jinslarni ochishning chegara koeffitsiyenti; s - 1 m^3 foydali qazilmani yer osti usulida qazib olish tannarxi.

Ifodadan shu ma'lum bo'ladiki, yopuvchi jinslarni ochishning chegara koeffitsiyenti

$$K_{\text{gr}} < \frac{c - a}{\sigma} \quad \text{ni tashkil etadi.}$$

2. Qazib olish texnologiyasini inobatga olingan holda belgilanuvchi konditsiyalar ko'rsatkichlari

Konditsiyalar ko'rsatkichlarining ushbu guruhiga quyidagilar kiradi:

1) foydali qazilma tanalarining eng kam qalinligi;

2) balans zaxiralari chegarasiga kiritiluvchi ma'dansiz yoki konditsiyaga to'g'ri kelmaydigan ma'danlar qatlamlarining eng ko'p yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan qalinligi.

Avval ko'rib chiqilgan guruhlarda konditsiya ko'rsatkichlarini aniqlash uchun konning mo'ljallangan o'zlashtirish variantining faqatgina asosiy ko'rsatkichlari hisobga olinadi.

Ulardan farqli ravishda, ko'rib chiqilayotgan guruh ko'rsatkichlarini hisoblashda yanada yuqoriqo nufuzga ega parametrlarni aniqlash talab etiladi. Bu parametrlar qazib olish tizimining konstruktiv elementlari hamda ishlarning xususiyatlari va mexanizatsiya darajasi bilan aniqlanadi.

Ushbu hisob-kitoblar juda murakkabligi tufayli faqatgina loyiha lashtirish tashkilotlari tomonidan bajarilishi mumkin.

Zaxiralarni operativ hisoblash davrida vaqtinchalik konditsiya larni tuzish uchun yuqoridagi ko'rsatkichlarni taqribi anqliash, ushbu hududdagi shart-sharoitlari yaqin konlarni o'zlashtirish tajribasiga tayanib va o'xshashlik metodini qo'llagan holda geologiya-qidiruv tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi. Bunda kerakli ma'lumotlar tegishli loyihalash institutidan olinishi mumkin.

2.1. Foydali qazilma tanalarining eng kam qalinligi. Tik yo'nalgan tomirsimon jismlar uchun eng kam qazib olinadigan qalinlik 0,7-1,0 m atrofida bo'lishi ko'zda tutiladi. Nishab yotuvchi konlarning qatlamsimon turi (temir, marganes ma'danlari va boshqalar) uchun eng kam qazib olinadigan qalinlik 1,4-1,7 metrni tashkil etadi.

2.2. Balans zaxiralari chegarasiga kiritiluvchi ma'dansiz yoki konditsiyaga to'g'ri kelmaydigan ma'danlar qatlamlarining eng ko'p yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan qalinligi. Izohlanayotgan ko'rsatkich miqdoran an'anaviy asbob-uskunalar qo'llanilganda: yer osti ishlari uchun 1-2 m, ochiq usulda esa 2-4 metrni tashkil etadi. Ma'dansiz va konditsiyaga mos emas joylarni alohida kavlab olish qazish ishlarni murakkablashtirib, qiymatini oshiradi. Shuning uchun ma'danlarning fizik xususiyatlari dastlabki yalpi boyitish texnologiyalarini (og'ir

suspenziyalarda va boshqalar) qo'llash imkoniyatini beradigan hollarda, bu arzon hamda samarador metodlar ma'danni birlamchi qayta ishlashning umumiy texnologiya sxemasi doirasiga kiritilishi zarur. Yanada kuchli tog' uskunalari hamda yuqori samarador kavlash sistemalarini qo'llash natijasida qazib olish tannarxining pasayishidan olingan iqtisodiy samara boyitish fabrikasi qurilishiga ketgan qo'shimcha mablag'lar va boyitish tannarxining o'sishidan kelgan qo'shimcha xarajatlarni ortig'i bilan qoplaydi.

3. Ma'danlarni birlamchi qayta ishlashning mo'ljallangan texnologiyasini inobatga olinib belgilanadigan konditsiyalar ko'rsatkichlari

Ushbu konditsiyalar ko'rsatkichlari guruhiga quyidagilar kiradi:

1) qayta ishlash usullarini belgilovchi texnologik xususiyatlari inobatga olingan ma'dan xil va navlarini ajratish to'g'risidagi talab;

2) zaxiralari hisoblanishi lozim bo'lgan hamroh komponentlarning ro'yxati va ularni qayd etish tartibi;

3) ma'danga aralashgan zararli komponentlarning eng ko'p o'rtaча miqdori va ayrim namunalardagi yuqori chegaraviy miqdori.

Ushbu ko'rsatkichlarni belgilashda yuzaga keluvechi muammolar tegishli loyihalash va ilmiy-tekshirish institutlari hamda manfaatdor sanoatni boshqarish organlari bilan maslahatlashish yo'li bilan bartaraf etiladi.

3.1. Qayta ishlash usullarini belgilovchi texnologik xususiyatlari inobatga olingan ma'dan xil va navlarini ajratish to'g'risidagi talab

Geologiya-qidiruv ishlarini to'g'ri o'tkazilgan holatlarda o'rgani layotgan kondagi ma'danlarning texnologik navlari va zaxiradagi ayrim navlarning taxminiy nisbati mufassal baholash bosqichidayoq aniqlanadi. Razvedka natijalari esa ularga yanada aniqlik kiritish bilan birga, ko'p hollarda ayrim navlarning makoniy joylashishi xususida fikr yuritish imkonini yaratadi.

Ma'dan texnologik navlarini ajratish bilan bog'liq barcha muammolar razvedka jarayoni tugallanganicha o'z yechimini topishi zarur. Aks holda ma'dan sifatini o'rganishda qo'yilgan xatoliklar odatda qo'shimcha razvedka ishlarini o'tkazish zaruratinu tug'diradi.

3.2. Zaxiralari hisoblanishi lozim bo'lgan hamroh componentlarning ro'yxati. Hamroh komponentlar ro'yxatiga muntazam ravishda quyidagilar kiritiladi: *asl metallar*, (agar ular mis, qo'rg'oshin-rux,

polimetall va sulfidli nikel ma'danlarida bor bo'lsa); *kadmiy*, (agar u mis, qo'rg'oshin-rux va polimetall ma'danlarida bor bo'lsa); *selen va tellur* (misli kolchedanlarda); *reniy* (molibden ma'danlarida); *skandiy* (volfram va qalayi ma'danlarida).

Ko'rileyotgan ro'yxatga boshqa xalkofil guruhi elementlarini (margimush, surma, talliy, galliy, indiy, germaniy va boshqalar) kiritish zarurati ularning ma'dandagi miqdoriga nisbatan aniqlanadi. Bu elementlarning zaxiralarini hisoblash maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu miqdorini aniqlash masalasi tegishli ilmiy tadqiqot va loyihalash institutlari bilan maslahatlashgan holda hal qilinadi.

Hamroh komponentlarni sanoat miqyosida jalg etish uchun ularning ma'danlardagi o'rtacha miqdori hamda umumiy zaxiralaridan tashqari ularning turli boyitish mahsulotlari orasida taqsimlanishi to'g'risidagi ma'lumotlar ham kerak bo'ladi.

3.3. Ma'danga aralashgan zararli komponentlarning eng ko'p o'rtacha miqdori va ayrim namunalardagi yuqori chegaraviy miqdori

Agar razvedka qilingan mineral xomashyo bazasi ishlab turgan korxonani ta'minlash uchun mo'ljallangan bo'lsa, ma'danga aralashgan zararli komponentlarning eng ko'p o'rtacha miqdori va ayrim namunalardagi yuqori chegaraviy miqdori shu korxona tomonidan olinayotgan tayyor mahsulot (metall) ishlab chiqarish texnologiyasi talablarini inobatga olgan holda belgilanadi.

Qurilishi rejalahtirilayotgan korxonalar uchun xomashyo bazasi sifatida razvedka qilinayotgan ma'danli konlar uchun bu ko'rsatkichlar o'xshatish metodi bilan aniqlanadi. Buning uchun geologlar uchun chiqarilgan «Mineral xomashyo sifatiga sanoat talablari» nomli ma'lumotnomalarning tegishli sonlaridagi ma'lumotlarga va loyihalash institutlarining inaslahatlariga tayaniladi.

Ma'danlarni qayta ishslash texnologiyalarining juda turli-tuman, murakkab va o'zgarishga moyilligini inobatga olgan holda, bu ko'rsatkichlarni belgilashda ehtiyojkorlik zarur. Ma'danlarning juda ko'p komponentlari ilgari zararli deb hisoblangan bo'lishiga qaramay, hozirgi kunda ular yalpi ma'danlar samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan bebaaho komponent sifatida tan olinmoqda. Masalan, temir ma'danlarini domnada eritishtga tayyorlash jarayonini yo'lga qo'yish, ya'ni oltingugurning yonib ketishiga olib keluvchi aglomerat yoki kuyindi ishlab chiqarish, temir ma'danlaridagi oltingugurt miqdori

xomashyoning sifatini yomonlashtiruvchi ko'rsatkich bo'lmay qolishiga olib keldi. Shu bilan bir qatorda, oltingugurtning yuqori miqdori temir ma'dani tarkibida kobaltli pirit yoki sfalerit borligidan darak berishini inobatga olgan holda, ma'dan tayyorlash jarayoniga sulfidlarni flotatsiya qilishni kiritish yoki boshqa metodlarni qo'llash mumkin.

7.3. Zaxiralarni hisoblash

7.3.1. Zaxiralarni tasniflash

O'zbekiston Respublikasi geologiya va mineral resurslar Davlat Qo'mitasi tomonidan 1999-yil 20-iyunda hozir amal qiluvchi «Qattiq foydali qazilma konlari zaxiralalarining va bashorat qilingan resurslarning tasnifi» tasdiqlangan. Bu tasnifda yer ostidagi zaxiralarni, ularning xalq xo'jaligidagi ahamiyati va o'r ganilganlik darajasiga ko'ra hisoblash va davlat hisobiga olishning yagona tamoyillari, shuningdek, razvedka qilingan konlarning sanoatda o'zlashtirishga tayyorlanganligini aniqlash shartlari va qattiq foydali qazilmalarning bashorat qilingan resurslarini baholash tamoyillari belgilangan.

Amaldagi tasnifga ko'ra mineral xomashyoning yer ostidagi umumiylar resurslari razvedka qilingan zaxiralar va bashorat qilingan resurslardan tashkil topadi. Foydali qazilmalarning zaxiralarini geologiya-qidiruv (tog' lahimlari o'tish, burg'ilash va geofizika) ishlari natijalariga ko'ra aniqlangan (geometriyalashtirilgan) chegaralarda hisoblanadi va hisobga olinadi. Bashorat qilingan resurslar ular chegaralarini geometriyalashtirmsandan barcha geologik, geofizik va geokimiyoviy ma'lumotlar yig'indisi bo'yicha baholanadi. Foydali qazilmalar va ular tarkibidagi foydali komponentlarning zaxiralarini hisoblash va qayd qilish, ularni qazib olish, boyitish va qayta ishlash jarayonidagi muqarrar yo'qotishlar va «kambag'allanishlar»ni hisobga olmasdan, yer ostidagi holati bo'yicha bajariladi. Boyitish vaqtida tovar konsentratlarida yoki metallurgik qayta ishlash mahsulotlarida yig'ilib qoladigan qo'shimcha hamroh foydali komponentlarning zaxiralarini, ham yer ostidagi holati bo'yicha, ham ajratib olinadigan minerallardagi holati bo'yicha hisoblanadi va qayd qilinadi.

Zaxiralarni hisoblashda foydali qazilmalarning sifati ulardan qayerda foydalaniishiga va qayta ishslash texnologiyasiga bog'liq ravishda, ulardagi asosiy va qo'shimcha hamroh qimmatli komponentlardan maksimal to'liq va kompleks foydalanish kerakligini hisobga olgan holda aniqlanadi.

Foydali qazilmalarning zaxiralarini, iqtisodiy ahamiyati bo'yicha alohida hisoblanadigan va hisobga olinadigan ikki guruhga: balansdagi va balansdan tashqaridagi guruhlarga bo'linadi.

Balansdagi zaxiralar guruhiga tasdiqlangan konditsiyalar bo'yicha ajratilgan, zamindan oqilona foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish haqidagi qonuniy-me'yoriy hujjatlar talablariga rioya qilgan holda, hozirda sanoatda mavjud bo'lган yoki o'zlashtirilayotgan, ma'danlarni qazib olish va qayta ishslashning progressiv texnika va texnologiyasini qo'llash sharoitida ishlatish iqtisodiy samara beradigan ma'dan zaxiralarini kiritiladi.

Balansdan tashqari zaxiralar guruhiga tasdiqlangan konditsiyalar bo'yicha hozirgi vaqtida ishlatish, iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq emas yoki texnik va texnologik jihatdan mumkin emas bo'lган, lekin keljakda balansdagi zaxiralarga o'tkazilishi mumkin bo'lган zaxiralar kiritiladi. Balansdan tashqari zaxiralarini hisoblash va hisobga olish, faqatgina, konditsiyalarni texnik-iqtisodiy asoslashda ularni keljakda qazib olish uchun zaminda saqlab qolish mumkinligi yoki keljakda foydalanish uchun yo'l-yo'lakay qazib olish, omborlarga joylashtirish va saqlash maqsadga muvofiqligi isbotlangan hollarda amalga oshiriladi. Iqtisodiy, texnologik, gidrogeologik va kon-texnik sabablarga ko'ra balansdan tashqari bo'lган zaxiralar alohida hisoblanadi va hisobga olib qo'yiladi.

Foydali qazilmalarning bashoratlangan resurslari hozirgi yoki yaqin keljakdagagi konlarni qazib olishning texnik-iqtisodiy darajasida ekspluatatsiya qilish mumkin bo'lган chuqurlikkacha, mineral xomashyoning sifatiga va uning texnologik xususiyatlariga bo'lган sanoat talabini hisobga olgan holda baholanadi. Tog'-kon texnologiyasi va iqtisodiyotidagi ilmiy-texnik taraqqiyotning yaqin keljakdagagi istiqbolini hisobga oluvchi konditsiyalar parametrlarining o'zgartirilishi muayyan asoslarga tayangan bo'lishi kerak.

O'r ganilganligi (razvedka qilinganligi) darajasi bo'yicha foydali qazilmalar zaxiralarini uchta (B , C_1 va C_2) toifaga bo'linadi. Foydali

qazilmalarning bashoratlangan resurslari ularning asoslanganlik darajasiga ko'ra ikkita (P_1 va P_2) toifaga bo'linadi. Zaxiralarning razvedka qilinganlik darajasi foydali qazilma tanalarining yotish sharoitlari, shakllari va ichki tuzilishi; mineral xomashyo tabiiy va texnologik turlarining o'zaro munosabati va fazoviy joylashish qonuniyatlar; kon-ekspluatatsiya ishlarini olib borish sharoitlarini aniqlovchi mineral xomashyoning texnologik xususiyatlari va tabiiy omillarni o'rganishning mufassalligi bilan aniqlanadi.

Zaxiralarning B toifasiga kiritish uchun foydali qazilma tanalarining yotish sharoitlari, o'lchamlari va shakllari; ular morfologiyasi va ichki tuzilishining o'zgaruvchanlik qonuniyatlar va xususiyatlari to'liq aniqlanishi; foydali qazilma tanalarining ichidagi ma'dansiz va nokonditsion uchastkalarning ajratilishi va chegaralanishi; ma'dan hosil bo'lgandan keyingi buzilish mavjud bo'lsa, ularning holati va siljish amplitudalari aniqlanishi kerak. Foydali qazilmalarning turli tabiiy xillari, texnologik tur va navlari aniqlanishi va chegaralanishi, ularning tarkibi, xossasi, mineral shakllar bo'yicha qimmatli va zararli komponentlarning taqsimlinishi aniqlanishi kerak. Hamma aniqlangan texnologik tur va navlarning sifati konditsiyalarning ko'zda tutilgan hamma ko'rsatkichlari bo'yicha ta'riflanishi kerak. Mineral xomashyoning texnologik xususiyatlari, uning tarkibidagi sanoat ahamiyatiga ega bo'lgan komponentlarni kompleks tarzda ajratib olishni nazarda tutuvchi qayta ishlashning texnologik tizimini loyihalashtirish uchun zarur bo'lgan birlamchi ma'lumotlar bilan ta'minlab beradigan darajada mufassallik bilan o'rganilishi kerak. Ekspluatatsion ishlarni olib borish sharoitlarini aniqlovchi tog'-geologik omillar esa konni ishlatish loyihasini tuzish uchun zarur bo'lgan mufassallik bilan o'rganilishi kerak.

Zaxiralarning C₁ toifasiga kiritish uchun foydali qazilma tanasining o'lchamlari va o'ziga xos shakllari, yotish sharoitlarining va ichki tuzilishning asosiy xususiyatlari aniqlanishi zarur. Ularning tuzilishidagi o'zgaruvchanlik va mumkin bo'lgan uzulishlar, qatlam shaklidagi konlar uchun esa (qurilish va bezaklovchi tosh konlari uchun ham) kam amplitudali tektonik buzilishlarning, intensiv rivojlangan uchastkalarning mavjudligi ham baholanishi kerak. Foydali qazilmaning tabiiy xillari va texnologik turlari ularning zaminda joylashishining umumiyligini qonuniyatlarini aniqlashni ta'minlovchi mufassallik bilan o'rganilishi kerak. Texnologik tur va navlarning

o‘zaro miqdoriy nisbatlari, foydali va zararli komponentlarning mineral shakllari aniqlanadi, foydali qazilma turlari va navlarining sifati, konditsiyalarda nazarda tutilgan hamma ko‘rsatkichlar bo‘yicha ta’riflanadi.

Mineral xomashyoning texnologik xossalari, razvedka qilingan zaxiralarning sanoat uchun qimmatliliginin asoslash uchun yetarli darajada, tog‘-kon ishlarini olib borish sharoitlarini aniqlovchi omillar esa ularning asosiyo ko‘rsatkichlarini dastlabki tavsiflash imkonini beradigan darajada tavsiflanadi.

C₂ toifasidagi zaxiralar foydali qazilmani bir nechta burg‘ilash qudug‘i yoki tog‘ lahimlari bilan kesib o‘tilishi bilan tasdiqlangan geologik, geofizik va geokimyoviy ma‘lumotlar bo‘yicha belgilanadi. Sanab o‘tilgan ma‘lumotlarning hammasi bo‘yicha foydali qazilma tanalarining o‘lchamlari, shakli, tuzilishi va yotish sharoitlari baholanadi. Mineral xomashyoning sifati va texnologik xossalari ayrim laboratoriya namunalarini tekshirish natijalari bo‘yicha yoki ko‘proq o‘rganilgan boshqa o‘xshash uchastka(kon)larga solishtirish bilan aniqlanadi. Konni ekspluatatsiya qilishning tog‘-geologik sharoitlari ham analogiya bo‘yicha, hududdagi ma‘lum bo‘lgan konlar va razvedka qilinayotgan konning o‘rganilgan boshqa uchastkalariga qarab o‘xshashligi bo‘yicha baholanadi. Razvedka qilingan zaxiralarning chegaralari, konditsiya talablariga mos ravishda, burg‘ilash quduqlari va tog‘ lahimlari bo‘yicha o‘tkaziladi. B toifali zaxiralarning chegaralari ekstrapolyatsiyasiz, C₁ va C₂ toifalari uchun esa ma‘lumotlarni geologik jihatdan asoslangan ekstrapolatsiya qilishga yo‘l qo‘yiladi.

P₁ toifasidagi bashoratlangan resurslar – bu razvedka qilingan, razvedka qilinayotgan va yangi topilgan konlarning resurslaridir. Ular muayyan bir kon zaxiralarning C₂ toifasidagi zaxiralar chegaralarini kengaytirish yoki ularning chegarasidan tashqarida qo‘sishmcha aniqlangan yangi foydali qazilma tanalari hisobiga ko‘payishi mumkinligini aniqlaydilar. P₁ toifasidagi resurslarni baholash foydali qazilma potensial tarqalgan hajmlar doirasida olib borilgan geologik, geofizik va geokimyoviy tadqiqotlarga tayanadi. Shuningdek, konning geologik-sanoat turi haqidagi tasavvurlarni hisobga olgan holda konning razvedka qilingan qismi bo‘yicha olingan ma‘lumotlarni geologik ekstrapolatsiya qilish natijalariga asoslanadi. P₁ toifasidagi resurslar geologiya-qidiruv ishlarining baholash bosqichi natijalari

bo'yicha, razvedka ishlari olib boriladigan obyektlarni asosli tanlash uchun ishonchli tayyorlangan rezerv bo'lishi kerak.

P₂ toifasidagi bashoratlangan resurslar – bu bashoratlangan potensial konlarning resurslaridir. Razvedka qilingan kon(uchastka)lar asosida yangi tog'-kon korxonalarini loyihalashtirishga, faqatgina ular sanoatda o'zlashtirishga tayyor deb topilsa, ZDK tomonidan ruxsat beriladi.

Oxirgi yarim asrdan ko'proq vaqt mobaynida foydali qazilmalar zaxiralarni hisobga olish va hisoblash tamoyillariga qo'yilgan talablar evolutsiyasi ko'rib chiqilsa, quyidagi tendensiyalar diqqatni o'ziga jalb qiladi.

Razvedka qilingan zaxiralarning toifalari orasidagi farqlar o'zlarining asosiy ahamiyatini yo'qotgan. Chunki bir-biriga yaqin o'lchamli foydali qazilma tanalari uchun A, B va C₁ toifalardagi zaxiralalar, aslida, faqat ularning ichki tuzilishini o'rganish mufassalligi bo'yicha farqlana boshlandi.

Sodda tuzilishdagi konlarni razvedka qilishda zaxiralarning to'rtadan uch qismi C₁ toifasi bo'yicha baholangani uchun konni geologik-iqtisodiy baholash uchun A va B toifalardagi zaxiralarning ahamiyati arzimas bo'lib qoldi. Bundan tashqari, faqat C₁ va C₂ toifasida razvedka qilingan murakkab geologik tuzilishdagi konlar sanoatda o'zlashtirishga berilgan va tog'-kon korxonalari tomonidan samarali foydalanilyapti. Amaliyotda A va B toifalarida razvedka qilingan zaxiralarni ajratish, ularni hisobga olish metodikasining va geologiya-qidiruv ishlarning samaradorligini baholashning murakkablashuviga olib keldi. Masalan, foydali qazilmalarni razvedka qilish tannarxini baholash uchun kam aсосланган о'tuvchi koeffitsiyentlardan foydalaniлади. Agar razvedka qilingan zaxiralarning o'rtacha tannarxiga qarab ish tutilsa, bu koeffitsiyentlar keraksiz bo'lib qoladi. Razvedka qilingan zaxiralarni bitta toifa bo'yicha hisobga olishning maqsadga muvofiqligini mineral resurslarni tasniflashning jahon tajribasi ham tasdiqlaydi.

Chet el tog'-konchilik va geologiya-qidiruv kompaniyalarining ish tajribalaridan kelib chiqib, asoslanmagan xarajatlarni kamaytirish zaruratini hisobga olib, hozirgi amaldagi tasnidan A toifasi chiqarib yuborildi (zaxiralalar tayyorlanganligining yuqori darajasi sifatida B toifasi qoldirilgan), qo'shimcha uchraydigan foydali komponent va

qazilmalardan kompleks foydalanish imkoniyatlarini o'rganishga bo'lgan talablar kuchaytirilgan. C₂ toifasidagi zaxiralarni asoslashga yondashish yo'llariga aniqliklar kiritilgan va ularga bo'lgan talablar kuchaytirilgan. O'zining mazmuni jihatidan faraziyligi sababli amaliy ahamiyatga ega bo'lmasagan toifa sifatida *bashoratlangan resurslarning P₃ toifasi* tasnidan chiqarib yuborilgan.

Mamlakatimizda amal qilayotgan zaxiralar va resurslar tasnifi bilan solishtirish uchun quyida BMT shtab-kvartirasining tabiiy resurslar, energetika va transport markazida 1979-yilda tuzilgan va mineral resurslar sohasidagi terminologiya va ta'riflar bo'yicha ekspertlar guruhi tomonidan taklif etilgan mineral resurslarining xalqaro tasnifi keltirilgan. Unda ilg'or kapitalistik mamlakatlar (AQSH, Kanada, Fransiya va boshqalar)da qabul qilingan mineral resurslarining tasniflari ishlatalgan va umumlashtirilgan hamda Atom Energetikasi bo'yicha Xalqaro Agentlik (AEXA) tomonidan qabul qilingan uran resurslari tasnifining tamoyillari hisobga olingan.

Xalqaro tasnidfa zamindagi resurslar o'rganilganlik darajasiga qarab uchta (R-1, R-2, R-3) toifaga ajratilgan. Bundan tashqari sanoatda foydalanish imkoniyati bo'yicha resurslar uchta (E, M, S) subtoifaga bo'linadi.

R-1 toifasiga foydali qazilmani qazib olish va qayta ishslashni tashkil etish uchun zarur bo'lgan mufassallik bilan o'rganilgan konlarning resurslari kiradi. Bu toifadagi zaxiralar, sobiq Sovet Ittifoqida amal qilgan tasnidagi A, B, C₁ toifasidagi zaxiralar yig'indisi bilan o'xshatsa bo'ladi.

R-2 toifasiga avvaldan ma'lum bo'lgan konlar bilan bevosita bog'liq bo'lgan resurslar kiradi. Ular alohida nuqtalar bo'yicha aniqlangan geologiya-qidiruv parametrlari bilan tasdiqlangan kon haqidagi geologik tushunchalarga asoslangan. Ushbu toifadagi zaxiralar taxminan bizdag'i C₂ toifasidagi zaxiralar bilan P₁ toifasidagi bashoratlangan resurslar yig'indisiga mos keladi.

R-3 toifasi aniqlanmagan, lekin geologik, geofizik va geokimyoiy ma'lumotlar majmui bo'yicha bashoratlangan resurslarni hisobga oladi. Ushbu toifadagi zaxiralar bizdag'i P₂ toifadagi bashoratlangan resurslar bilan taqqoslansa bo'ladi. O'rganilganlik darajasiga ko'ra R-1 toifasidagi resurslarni razvedka qilingan, aniqlangan yoki asoslangan desa bo'ladi, R-2 toifasidagi zaxiralar ni

taxmin qilingan yoki bo'lishi mumkin bo'lgan, R-3 toifasidagi zaxiralarni esa potensial yoki bashoratlangan desa bo'ladi.

Resurslarni subkategoriyalarga bo'lish ulardan sanoatda foydalanish imkoniyati bo'yicha amalga oshiriladi. Ular bizdag'i balansdagi va balansdan tashqari zaxiralarga o'xshaydi. Lekin sanoati rivojlangan ko'pgina mamlakatlarda zaxiralarni ikkita emas, balki uchta subtoifalarga ajratadilar.

E subtoifasi (sanoatbop) mavjud bo'lgan sotsial-iqtisodiy sharoitlarda va tog'-kon texnologiyasi holatida foydalanish uchun rentabelli bo'lgan resurslarni o'z ichiga oladi.

M subtoifasi (chegaraviy yoki deyarli sanoatbop) yaqin kelajakda, juda qulay sharoitlarda esa hozirgi vaqtida ham foydalanish uchun yaroqli bo'lishi mumkin bo'lgan resurslarni o'z ichiga oladi.

S subtoifasi (nosanoatbop yoki shartli sanoatbop) ma'lum konlardagi qolgan resurslarni o'z ichiga oladi. Ushbu toifadagi zaxiralar kelajakda sanoat ahamiyatiga ega bo'lishi mumkin.

7.3.2. Zaxiralarni hisoblash usullari

Zaxiralarni hisoblash nafaqat hisoblash operatsiyalarining yig'indisi, balki geologiya-qidiruv ishlari jarayonida olingan barcha geologik, geofizik, geokimyoviy va boshqa eksperimental ma'lumotlarni har tomonlama tahlil qilish va umumiashtirishdir. Zaxiralarini hisoblash natijasida konning uni o'rganishda erishilgan mufassallikni aks ettiruvchi geologik-sanoat modeli yaratiladi; foydali qazilmalarning va ulardag'i foydali komponentlarning zaxiralari va bashoratlangan resurslari, zaxiralarning umumiyligi va muhim geologiya-qidiruv parametrlarining bloklardagi o'rtacha ko'rsatkichlarining ishonchliligi baholanadi.

Foydali qazilma konlarini baholashdagi xatoliklar, odatda, zaxiralarini hisoblash metodikasidagi nuqsonlar emas, balki konning geologik strukturalardagi pozitsiyasi haqida, foydali qazilma uyumlarining morfologik xususiyatlari yoki ularning geologik tuzilish elementlari bilan bog'liqligi haqidagi noto'g'ri geologik tasavvurlar natijasida kelib chiqadi.

Geologik adabiyotlarda zaxiralarini hisoblashning yigirmadan ortiq usuli keltirilgan. Ular bir-birlaridan shakli bo'yicha murakkab

bo'lgan foydali qazilma tanasini, hajmi bo'yicha kattaligi teng bo'lgan, biroq shakli jihatidan oddiyroq bo'lgan geometrik jismlarga almash-tirish metodi va razvedka kesimlaridan olingan eksperimental ma'lumotlarni ular atrofidagi foydali qazilmalar hajmiga tatbiq etish usuli bilan farq qiladi. Geologiya-qidiruv amaliyotida uch usul keng qo'llaniladi: kesimlar, bloklar va statistik metodlar. Eksperimental tadqiqotlar natijasida aniqlanganki, zaxiralarni hisoblashning turli usul-larini qo'llash bilan bog'liq bo'lgan xatoliklar, hisoblash parametrlarini aniqlashdagi hisoblashning texnik operatsiyalari va ayniqsa o'xsha-tishlar bilan bog'liq bo'lgan xatoliklar kattaligidan ko'p bo'lmaydi. Shuning uchun har bir aniq hol uchun zaxiralarni hisoblashning shunday usulini tanlash kerakki, bunda konning geologik tuzilishi xususiyatlari maksimal darajada hisobga olingan bo'lsin hamda hisoblash jarayoni bilan bog'liq bo'lgan vaqt va mablag'lar sarfi kamroq bo'lsin. Zaxiralarni hisoblashning eng mas'uliyatli operatsiyalari bo'lib, ularning chegaralarini aniqlash va bloklarga bo'lish, razvedka kesimlari bo'yicha hisob parametrlarining o'rtacha ko'rsatkichlarini hisoblash va ularni kesimlar atrofidagi foydali qazilma hajmlariga tatbiq etish hisoblanadi.

Zaxiralarni hisoblashning asosiy usullari quyidagilardir:

1. *Statistik (o'rta arifmetik) usul*. Bu usul kondagi ma'dan tanasini qalinlik bo'yicha burg'ilash quduqlari yoki tog' lahimlari bilan kesib o'tilgandagi razvedka jarayonida qo'llaniladi. Bunda ma'dan tanasining murakkab konturi ma'dan tanasi maydoniga teng bo'lgan plastinka shakliga, qalinligi esa razvedkaning barcha texnik vositalari bo'yicha hisoblangan o'rtacha qalinlikka mos keluvchi bir xil figuraga keltiriladi. Ma'dan tanasining o'rtacha qalinligi va foydali komponentning o'rtacha miqdori barcha texnik vositalar bo'yicha ichki kontur chegarasida olingan ma'lumotlardan o'rtacha arifmetik miqdor sifatida aniqlanadi (37-jadval).

Statistik usul bo'yicha zaxiralarni hisoblash formulyari

a) o'rtacha qalintlik va foydali komponent o'rtacha miqdorini aniqlash

| Burg'i qudug'i raqami | Qalinlik, m | Foydali komponent miqdori, % |
|-----------------------|-------------|------------------------------|
| 2 | 8 | 4,8 |
| 4 | 6,5 | 5,0 |
| --- | --- | --- |
| 22 | 4,5 | 4,7 |
| 23 | 3 | 4,9 |
| 25 | 6,2 | 4,6 |
| Hammasi 12 ta | 63,1 | 57,4 |
| O'rtachasi | 63,1:12=5,3 | 57,4:12=4,78 |

b) zaxiralar hisobi

| Maydoni (ming m ²) | O'rtacha qalintlik, m | Hajm (ming m ³) | Hajmiy massa (t/m ³) | Ma'dan zaxiralar (ming tonna) | Foydali komponentning o'rtacha miqdori (%) | Foydali komponent zaxirasи (ming tonna) |
|--------------------------------------|-----------------------------|-----------------------------------|--|--|---|--|
| 462 | 5,3 | 2450 | 2,8 | 6860 | 4,78 | 328 |

2. *Geologik bloklar usuli* – yetakchi geologik-sanoat parametrlari (qalintlik, miqdor, yotish sharoiti, chuqurligi, texnologik xususiyatlari va b.) yaqinligi asosida hisoblash bloklarini ajratish va chegaralab, foydali qazilma zaxiralarini hisoblash.

Bu usul zaxiralarini hisoblashning juda sodda va kam mehnat talab qiladigan usullaridan biridir. Bu usulda foydali qazilma tanasining maydoni alohida bloklarga bo'linadi. Har bir blokda alohida zaxiralarini hisoblash o'rta arifmetik usulda amalga oshiriladi.

Bloklar quyidagi belgilarga ko'ra ajratiladi:

1) zaxiralar hisobi uchun turli toifa bo'yicha turli darajada razvedka qilingan bloklar ajratiladi;

2) turli navlarga mansub ma'danlar alohida bloklarga ajratiladi;


3) bloklarning ekspluatatsiyaga jalb etilish ketma-ketligi inobatga olinib ajratiladi.

Kon bo'yicha foydali qazilmaning umumiy zaxirasи ayrim bloklar bo'yicha hisoblangan zaxiralarini jamlash natijasida olinadi.


3. *Ekspluatatsion bloklar usuli* – zaxiralarini hisoblashning geologik bloklar usuliga o'xshash turi. Bu usulda bloklar ekspluatatsiya

davrida ajratilib, geologik bloklardan kichikroq va 2-3-4 tomonlaridan kon lahimlari bilan chegaralangan bo'ladilar. Chegaralovchi lahimlar bo'yicha ma'danlarning o'rganilganlik darajasi deyarli bir xildir (73-rasm).

4. Geologik kesimlar usuli. Kesimlar usuli bilan zaxiralarni hisoblash razvedka profillari orasida joylashgan zaxiralarni alohida hisoblash va ularni jamlash orqali bajariladi. Profil yuzasida joylashgan ma'danlarning bir metrlik qalinlikdagi tasma ko'rinishidagi zaxirasi hisoblanib, qo'shni profil zaxirasi bilan o'rtachasi profil orasidagi masofaga joylashtiriladi (74-rasm).



74-rasm. Oltin ma'danli tomirni razvedka qilish uchun o'tilgan kon lahimlarining plani (a) va uning vertikal yuzadagi zaxira hisoblash bloklari tasvirlangan proyeksiyasi (b).




75-rasm. Ikkita razvedka profili orasidagi ma'dan zaxirasini kesimlar usuli bilan hisoblash.

7.3.3. Zaxiralarni chegaralash va bloklarga ajratish


Hozir amal qilayotgan tasnifga binoan, foydali qazilma zaxiralari belgilangan chegaralarda (konturlarda) hisoblanadi. Hisob chegaralarini belgilash, tasdiqlangan konditsiya talablariga binoan, foydali qazilmalarning konkret geologik strukturalardagi yotish sharoitlari va fazoviy joylanish qonuniyatlarini aks ettiruvchi, barcha geologik ma'lumotlarni maksimal darajada hisobga olgan holda bajariladi.

Zaxiralarni chegaralash (geometrizatsiyalash) balans zaxiralarni balansdan tashqari zaxiralardan va ularni qamrovchi jinslardan ajratuvchi umumiyo sanoat chegaralarini o'tkazishdan iborat. Umumi chegaralar doirasida geologik va texnologik jihatdan bir jinsli uchastka va bloklar ajratiladi. Ular tuzilishi, tarkibi, morfologiysi yoki foydali qazilmaning razvedka qilinganlik darajasi bilan farq qiladi. Geologik va texnologik jihatdan bir xil bloklarni ajratish «blokirovka» deb yuritiladi (76- va 77-rasmlar).



76-rasm. O'rta avrifmetik usulida zaxira hisoblashda foydali qazilma tanasi shaklini o'zgartirish sxemasi (A.Prokofyev bo'yicha):

a – plan; **b** – qirqim; **d** – o'zgartirilgan ma'dan shaklining aksonometrik proyeksiysi; 1 – qamrovchi jinslar; 2 – ma'dan tanasi; 3 – foydali qazilmani kesib o'tgan (qora) va kesib o'tmagan (oq) kon lahimlari.



77-rasm. Geologik bloklar usuli bilan zaxira hisoblashda foydali qazilma tanasi shaklini turli o'lchamli bir-biriga yondashgan bloklarga o'zgartirish sxemasi (V.I.Smirnov bo'yicha).

Geologiya-qidiruv ishlari natijalariga ko'ra zaxiralarni chegaralash ketma-ket olib boriladi (oldin alohida lahimlar bo'yicha kesishmalardan, so'ng razvedka profillaridan va nihoyat bo'ylama yuzalardan, ya'ni butun kon hajmi bo'yicha) (78-rasm).

Foydali qazilmalarning yonma-yon joylashgan ma'danli oraliqlarini o'zaro ishonchli biriktirish uchun ularning foydali qazilmaning


bitta uyumiga tegishli ekanliklariga ishonch hosil qilish kerak. Agarda bunday ishonch bo'lmasa, bir butun chegarada ayrim ma'dan tanalari emas, balki geologik bir xil, bir-biriga yaqin strukturaviy pastroq darajadagi ma'danli jismlardan iborat oraliqlar birlashtiriladi. Foydali qazilmalarning ichki tuzilishi, morfologiyasi va ayrim uyumlarning yotish sharoitlari haqidagi tasavvurlarni asoslovchi daliliy ma'lumotlarni, konning eng tipik uchastkalaridagi kuzatuvlarni tanlab mufassil-lashtirish yo'li bilan olish mumkin. Keyinroq bunday uchastkalardan etalon sifatida foydalaniladi, kuzatuvar esa o'xshashlik tamoyili asosida bir xil geologik tuzilishli uchastkalarga tatbiq etiladi. Shunday qilib, zaxiralarni ko'ndalang va bo'ylama razvedka kesimlarida chegaralashning asosiy vazifasi – razvedka to'rining qabul qilingan zichligi sharoitida strukturaviy elementlarini geometriyalashtirish mumkin bo'lgan foydali qazilma tuzilishining muayyan darajasini topishdan iborat.

Kesimlar bo'yicha zaxiralarni chegaralashdan oldin geologik ma'lumotlarni umumlashtirish, ma'dan joylashgan geologik strukturlarni chizib, ularni o'zaro bog'lash kerak. Chunki ular turli yo'nalishlarda yaxshi kuzatiladi va ularga joylashgan foydali qazilma tanalariga nisbatan kattaroq o'lchamlarga ega.


Zaxiralarni chegaralashning hamma holatlarida iloji boricha rasmiy geometrik usullardan (yonma-yon kesishmalar oraliq masofasining yarmi, to'rtdan biri va h.k) foydalanishdan qochish kerak. Ular geologik ma'lumotlardan foydalanish imkoniyati batamom tugallangan dan so'ng ishlatilishi mumkin. Biroq ichki va tashqi chegara oralig'idagi masofani tanlash yoki tashqi chegarani o'tkazish usuli ham ma'lum geologik qonuniyatlarini umumlashtirishga asoslanishi kerak.

Geologik chegaralar bo'yicha chegaralashdan farqli ravishda, foydali komponentning berilgan miqdori bo'yicha chegaralash ancha murakkab va har doim bir xil bo'Imagan masala bo'lib, ularni hal qilish nafaqat qabul qilingan chegaraviy miqdordan, balki shu miqdor tarqalgan hajmga ham bog'liq bo'ladi.

Ma'danli tomir plani



Vertikal proyeksiya



78-rasm. Bloklar usuli bilan zaxira hisoblashda tomirning vertikal proyeksiyasida chegaralar turlari va bloklarga ajratish:

- 1 – tektonik uzilmaning geologik chegarasi; 2 – interpolatsiyaning ichki konturi;
- 3 – qisman ekstrapolatsiyalangan tashqi kontur; 4 – chegaralarinmagan ekstrapolatsiyanigan tashqi kontur; 5 – ma'danli quduqlar; 6 – ma'dansiz quduqlar; 7 – kon lahimplari; 8 – kanavalar.

Zaxirani chegaralashda belgilangan chegaraviy miqdor tatbiq etiladigan zaminning elementar hajmiga qarab, uyumlarning chegarasi, ulardag'i foydali komponentning o'rtacha miqdori va ularning ma'danlanish koeffitsiyentlari o'zgaradi. Chegaralash amaliyotida

chegaraviy «bort» miqdor odatda geologik namunaning hajmiga, ya’ni baholanayotgan zaxiralar chegarasidagi hajmga nisbatan juda ham kam miqdordagi hajmga tarqaladi.

Zaxiralarni ularning umumiy sanoat konturi doirasida blokirovka qilish, foydali qazilmaning har xil tabiiy yoki texnologik navlari va turlari zaxiralarini, shuningdek, geologik va texnologik tomondan har turli bo’lgan uyumlar uchastkalarini alohida baholash uchun bajariladi. Geologiya-qidiruv ishlarining mufassalligi oshishi bilan foydali qazilma hisob bloklarining o’lchamlari kichiklashib boradi.

7.3.4. Geologiya-qidiruv parametrlarining kesimlar bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichlarini hisoblash va ularni yon atrofdagi zamin hajmiga tatbiq etish usullari.

Zaxiralarni hisoblash uchun boshlang‘ich geologiya-qidiruv parametrlari bo‘lib, foydali qazilma tanasining(blokinning) hajmi, uning hajmiy massasi, hisoblanayotgan hajmdagi foydali komponentning o‘rtacha miqdori va ko‘pincha, zaxiralarini hisoblash uchun belgilangan tuzatish koeffitsiyentlari xizmat qiladilar.

Foydali qazilma tanalari yoki hisob bloklarining hajmlarini aniqlash tanlangan hisob-kitob usuli bilan bog‘liq bo‘ladi. Zaxiralarni kesimlar usulida hisoblashda, hajmlar ikkita yonma-yon joylashgan kesimlardagi foydali qazilmaning o‘rtacha maydonini ular orasidagi masofaga ko‘paytmasi sifatida hisoblanadi.

Zaxiralarni bloklar usulida hisoblashda hajmlar bloklarning vertikal yoki gorizontal proyeksiyalardagi bo‘ylama yuzalarda o’lchangan maydonlarini foydali qazilmaning blok doirasidagi o‘rtacha qalinligiga ko‘paytmasi sifatida hisoblanadi. Bloklarni vertikal yoki gorizontal tekislikka proyeksiyalashda vujudga keladigan ularning haqiqiy maydonlardan farqlanish xatoliklarini kompensatsiya qilish uchun haqiqiy emas, mos ravishda vertikal yoki gorizontal qalinliklaridan foydalilanadi. Foydali qazilmaning haqiqiy, gorizontal va vertikal qalinliklarini burg‘ilash quduqlari bo‘yicha o’lchashda, burg‘ilash quduqlarining o’lchangan zenit va azimuthal og‘ish burchaklari hisobga olinadi.

Hajmiy massalarning o‘rtacha miqdorini hisoblash o‘rta arifmetik usulda, laboratoriyada aniqlangan ko‘psonli o’lchovlar (100 va undan

ortiq) bo'yicha hisoblanadi. Hisoblangan o'rtacha hajmiy massa to'g'ridan-to'g'ri massivning o'zida (marksheyderlik usulida) aniqlangan nazorat o'lchovlarining natijalari bilan solishtiriladi va kerak bo'lganda, laboratoriya namunalarida hisobga olinmagan darzlilik yoki mikrog'ovaklik uchun tuzatishlar kiritiladi. Foydali qazilmalarning hajm bo'yicha massasi tabiiy namlik uchun tuzatish kiritib (quruq namunadagi yo'qotilgan massaning nam namuna massasiga nisbati) quruq holat uchun hisoblanadi. Og'ir komponentlarining miqdori ko'p va o'zgaruvchan bo'lgan foydali qazilmalar uchun, ishonchli miqdordagi namunalarning sinov va analizlari natijalariga ko'ra hajmiy massaning og'ir komponentlar miqdoriga bog'liqligini ifodalovchi nomogrammalar tuziladi va ular bo'yicha bloklardagi o'rtacha hajmiy massalar aniqlanadi.

Foydali (va zararli) komponentlarning razvedka kesimlari bo'yicha miqdorlari namunalarni analiz qilish natijalari bo'yicha yoki yadroviy-fizik usullar bilan foydali qazilmaning tub yotqiziqlarida aniqlanadi. Umumiy hollarda o'rtacha miqdor amalda namunalangan qalinlik uchun o'rtacha muvozanatlashdirilgan holda hisoblanadi.

Geologiya-qidiruv ishlari amaliyotida blok bo'yicha o'rtacha miqdorni hisoblash uchun amalda namunalangan qalinlik bo'yicha o'rtacha muvozanatlashdirilgan statistika usuli qo'llaniladi. O'rtacha muvozanatlashdirilgan usul o'rtacha arifmetik usuldan afzalroq. Chunki o'rtacha muvozanatlashdirilgan baholar har qanday holda ham o'zgarmay o'z kuchini yo'qotmaydi.

Og'irlik funksiyasini tanlash muammosi bilan «to'foniy namunalar» deb atalmish muammo uzviy bog'liqdir. Foydali minerallarning o'ta boy to'plamlari juda kichik o'lchamlarga ega bo'lganligi tufayli, to'foniy namunalar boshqa namunalardan o'zining amaliy ta'sir etish doirasi o'lchamlarining nihoyatda kichikligi bilan farq qiladi.

To'foniy namunalarni aniqlash va hisobga olish matematik statistika usullarini qo'llashga asoslangan. Bu usullar oldindan bilib turib, blok bo'yicha o'rtacha miqdor ko'rsatkichini kamaytirishni ko'zda tutadi (agar shu miqdor tasdiqlanmasa farq katta bo'lmasligi uchun). Aslida esa tasdiqlanmaslik xavfini ilmiy asoslash uchun hech bo'lmasa, blok bo'yicha o'rtacha miqdorni aniqlashdagi xatolik bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy yo'qotishlar funksiyalarini bilish kerak. Bunday funksiyalar aniqlanmas ekan, har qanday oldini olishlar,

geologiya-qidiruv ishlari amaliyotini umumlashtirishga asoslangan «irodaviy usul» bo‘lib qolaveradi.

To‘foniq namunalarni ajratish va hisobga olishning ilmiy asosi bo‘lib, blok bo‘yicha o‘rtacha miqdor bahosining dispersiyasini minimizatsiya qilish tamoyili xizmat qiladi.

To‘foniq namunalarni hisobga olish, odatda, kon bo‘yicha zaxiralarning ko‘payib ketishini emas, balki ayrim blok bo‘yicha o‘rtacha miqdorlarning ko‘paytirib ko‘rsatilishining oldini olish maqsadida qilinadi. Shuning uchun, an’ anaga zid ravishda, ayrim bloklar bo‘yicha o‘rtacha miqdorning ataylab kamaytirilishi natijasida paydo bo‘ladigan zaxiralar kamomati kon bo‘yicha hamma hisob bloklariga, ulardag‘i zaxiralarga proporsional tarzda inobatga olinmagan zaxiralarini joylashtirish yo‘li bilan to‘ldiriladi.

7.3.5. Hamroh komponentlar zaxiralarini hisoblash xususiyatlari

Foydali hamroh komponentlarni aniqlash va baholash asosiy foydali qazilma bo‘yicha sanoat ahamiyatiga ega bo‘lgan konlarda qazilma hisoblanadi. Shuning uchun hamroh komponentlarning zaxiralarini, asosiy foydali komponentlar zaxiralarini hisoblangan konturlarda hisoblanadi. Odatda, hamroh foydali komponentlar orasida foydali minerallarda tarqoq holda uchraydigan foydali minerallar va elementlar ajratiladi. Ko‘pincha foydali qazilma konlari chegaralarida qoplovchi jinslarda yotuvchi yoki asosiy foydali qazilma uyumlari oraliqlarida yotadigan hamroh foydali qazilmalar ham ajratiladi.

Hamroh foydali qazilmalarining zaxiralarini odatda asosiy foydali qazilmani ochuvchi (kesib o‘tuvchi) razvedka kesimlarini namunalash va hujjatlashtirish natijalari bo‘yicha hisoblanadi.

Hamroh komponentlarning zaxiralarini hisoblash va baholash guruhlangan namunalar analizlari natijalari, ma’danlarning maxsus mineralogik-geokimiyoviy va texnologik tadqiqotlari, xususan, monomineral namunalar, boyitish va qayta ishslash mahsulotlarining miqdoriy analizlari natijalari bo‘yicha olib boriladi.

Ko‘p sonli oddiy namunalarni bitta guruhga birlashtirish hamroh komponentlarning analizlari sonini keskin kamaytiradi. Lekin, shu bilan bir qatorda, hisob bloklaridagi fazoviy joylashuv qonuniyatlarini aniqlashning mufassalligini kamaytiradi. Shuning uchun hamroh

komponentlarning konkret bloklardagi zaxiralarining toifalari asosiy komponentlarning zaxiralaridan pastroq tasniflanadi va odatda C₁ toifasidan yuqori bo'lmaydi.

Boyitiladigan ma'danlardagi tarqoq elementlarning zaxiralarini hisoblash konditsiyalari har bir foydali mineral bo'yicha alohida, ularni foydali mahsulotga ajratib olinishiga qarab belgilanadi. Tarqoq elementlardan foydalanishning maqsadga muvofiqligi, uning zavodda qayta ishslash mahsulotidagi ruxsat etilgan minimal miqdori bilan, ularni tovar mahsulotga ajratish bilan bog'liq bo'lган qo'shimcha sarf-xarajatlarni hisobga olgan holda baholanadi.

7.3.6. Foydali qazilmalar zaxiralarini hisoblashning ishonchliligi

Zamindagi foydali qazilmalar zaxiralarini baholashning ishonchliligi ularning o'rganilganlik darajasi bilan aniqlanadi, bu bиринчи navbatda bajarilgan geologiya-qidiruv ishlarining sifati, to'liqligi va mufassalligiga bog'liq. Konlar zaxiralarining va qattiq foydali qazilmalar bashoratlangan resurslarining amaldagi tasnifi ularni o'rganilganlik va asoslanganlik darajasining faqat sifatiy mezonlarini ishlatishni ko'zda tutgan, bularning rolini foydali qazilmalar zaxiralarining va bashoratlangan resurslarining toifalari o'ynaydilar.

Geologiya-qidiruv ishlarining har qanday bosqichida zaxiralarni baholash bashoratlash xususiyatiga ega. Bu esa zaxiralar bo'yicha olingan ma'lumotlarning noaniqlik darajasini muayyan miqdoriy aniqlash imkoniyatini yo'qqa chiqaradi. Bashoratlanayotgan holat faqat amalga oshirilgandan keyingina, bashoratlashning ishonchliligini baholash mumkin, (ya'ni kon amalda to'liq ishlatib bo'lingandan keyin). Buni esa geologiya-qidiruv ishlarining yakunlanish davriga kelib bilish zarur.

Zamindagi foydali qazilmalarning razvedka qilingan zaxiralarini ishonchliligining baholari, bashoratlangan kattaliklar sifatida ularni tasniflash uchun asos bo'lib xizmat qila olmaydi. Konkret konning zaxiralarini baholashning ishonchliligi esa, etalon qilib olingan konda geologiya-qidiruv va konni ishlatish ishlarining tajribasini qo'llash asosida faqat o'xhatish tamoyili bo'yicha aniqlanishi mumkin. Lekin konni ishlatish natijalari bo'yicha ham faqat qazib olingan zaxiralar aniqlanadi, qazib olingan mineral xomashyoning sifati zamindagi

foydali qazilma sifatidan uning amaliy ifloslanish kattaligi bilan farqlanadi. Shu sababli, solishtirsa bo‘ladigan ma’lumotlarni olish uchun ekspluatatsiya ishlarining butun davri mobaynida foydali qazilma yo‘qotilishining hamma turlarini va ifloslanishini aniqlash bo‘yicha doimiy tadqiqotlarni olib borish kerak.

Foydali qazilmalarning razvedka qilingan zaxiralari miqdori va sifati haqidagi ma’lumotlarning bashoratlanganlik xususiyati ularning ishonchlilikini baholashning faqat bitta aniq yo‘lini qoldiradi (ya’ni o‘xshatish tamoyiliga ko‘ra baholanayotgan konni razvedka qilish natijalarini, mufassallashtirish ishlari olib borilgan uchastkalarda olingan, etalon qilib olingan konni ekspluatatsion razvedka qilish va o‘zlashtirish natijalari bilan solishtirish yo‘li bilan).

Zaxiralarning razvedka qilinganlik darajasini ishonchli baholashning zarur boshlang‘ich mezoni – konning tuzilayotgan geologik modelining haqiqiy tabiiy xususiyatlariga mos kelishidir.

Foydali qazilma konlarining zahiralarini baholashdagi jiddiy xatoliklar konlarning geologik tuzilishini noto‘g‘ri tushunishdan, geologiya-qidiruv ishlari ma’lumotlarini asossiz umumlashtirishdan va noto‘g‘ri geologik bashoratlashdan kelib chiqadi. Bunday xatoliklar murakkab tuzilgan konlar zaxiralarni baholashda ko‘proq uchraydi, lekin amaliy kuzatishlar yetarli bo‘lmasligi va olingan geologik materiallarning salohiyati pastligi sababli oddiy tuzilishdagi obyektlarda ham bu holatlar uchraydi.

Zaxiralarning razvedka qilinganlik darjasasi bo‘yicha toifalariga qarab ishonchlilikini baholash faqat zaminning qat’iy belgilangan hajmlari uchun haqiqiy ma’noga ega. Chunki foydali komponentlarning o‘rtacha miqdorlarini, zaxiralarni hisoblashdagi mumkin bo‘lgan xatoliklarni va ularni o‘rganish mufassalligini tavsiflashda ular taalluqli bo‘lgan aniq hajmlarni ko‘rsatmasdan taqqoslab bo‘lmaydi.

Agar razvedka ishlari natijalariga ko‘ra yaryatilgan geologik modelning modellashtirilayotgan obyektga mosligi haqida dadil xulosa qilish mumkin, bo‘lgandagina zaxiralarni razvedka qilinganlik darajasini miqdoriy baholash ahamiyatga ega. Zaxiralarning ishonchlilik (razvedka qilinganlik) darajasini miqdoriy baholashning asosi sifatida tog‘-kon korxonasining tannarxi, foydasi va rentabellik darajasini hamda konni o‘zlashtirishdagi iqtisodiy tavakkalchilik darajasini aniqlab beruvchi tog‘-konchilik va boyitish ishlarining

iqtisodiy samaradorligiga eng ko‘p ta’sir ko‘rsatuvchi ko‘rsatkichlar majmuasini qabul qilib olish kerak. Bunday ko‘rsatkichlarga: mineral xomashyodagi foydali komponentlarning o‘rtacha miqdorini aniqlashning xatoliklari va foydali qazilma uyumlarining joylanish sharoitlari, shakli, ichki tuzilishi va fazoviy holatini tavsiflovchi ko‘rsatkichlarning xatoliklari kiradi. Foydali qazilmalar zaxiralaring umumiyligi sonlarini aniqlashdagi xatoliklar bo‘lajak kon korxonasi faoliyatining texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlariga nisbatan ancha kam ta’sir qiladi.

Korxona ishga tushirilgan birinchi kundan boshlab, foydali komponentlarning o‘rtacha miqdorini aniqlashdagi xatoliklar foydali qazilmani qayta ishlashdagi texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarda o‘z aksini topib, ishlab chiqarilayotgan mahsulotning sifatiga va tannarxiga sezilarli ta’sir qiladi. O‘rtacha miqdorni baholashdagi xatoliklar, yer qa’ridagi foydali qazilmalarning yotish sharoitlari, chegaralari, tuzilishlari va makonda joylashishlari haqida noto‘g‘ri yoki noaniq tasavvurga ega bo‘lish natijasida, ham foydali komponentlarning bloklar bo‘yicha o‘rtacha miqdorini aniqlashdagi xatoliklar, ham o‘zlashtirish ishlarini loyihalashtirilayotganda qabul qilingan kambag‘allanish koeffitsiyentini aniqlashning hisob-kitoblari bilan bog‘liq. Baholanayotgan foydali qazilmalar uyumlarining makondagi holati haqidagi tasavvurni buzuvchi, zaxiralarni geometrizatsiya qilish xatoligi, konni o‘zlashtirish texnologiyasini o‘zgartirishga va odatda, qazib olinayotgan ma’danning hajm birligiga sarflanadigan xarajatlarning o‘sishiga olib keladi. Qazib olinayotgan mineral xomashyo massasidagi foydali komponentlar o‘rtacha miqdorining tasdiqlanmasligi, chiziqlij joylashtirilgan oddiy namunalarning ma’lumotlari bo‘yicha murakkab uzuq-yuluq tuzilishli foydali qazilmalarni seleksiyalashning hajmlari darajalarini noto‘g‘ri baholash natijasida ham namoyon bo‘lishi mumkin.

Chet ellik tadqiqotchilarning ma’lumotlariga ko‘ra razvedka qilingan mis, polimetall va oltin konlaridagi umumiyligi zaxiralarning o‘rtacha xatoligi $\pm 10\text{--}25\%$ ga yetadi (38-jadval).

38-jadval

Turli toifadagi zaxiralarni baholashda yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan tavofutlar va ishonarli extimolliklarning taxminiy ko'rsatkichlari

| Zaxira toifasi | Yo'l qo'yiladigan xatolik, % | | Ishonchli chtimollik, % | Ehtimollik koeffitsiyenti |
|-------------------|------------------------------|---------------------------------|----------------------------|------------------------------|
| | Geometrizatsiya bo'yicha | O'rtacha qiymatni aniqlashda | | |
| A | < 20 | <10 | 90 | 1,6 |
| B | 20-30 | 10-20 | 80 | 1,3 |
| C ₁ | 30-50 | 20-30 | 70 | 1,0 |
| C ₂ | > 50 | 30-50 | 50 | 0,7 |

GLOSSARIY

Anomaliya (geofizik, geokimyoviy va b.) – ma'lum bir normal (fon, tan olingan) miqdoriy yoki sifat ko'rsatkichlaridan keskin farqlanuvchi og'ishishlarga ega bo'lgan, hududiy ajratilgan maydon.

Atmokimyoviy (gazli) qidirish usuli – tarqoq va ayrim nodir elementlarni gaz fazasida o'rghanishga asoslangan.

Bashoratlash – f.q.larning yangi maydonlarini geologik dalillar asosida, qanday va qayerga joylashganligini, resurslar miqdorini oldindan aytib berish, tavsiya etish, fikr bildirish.

Biogeokimyoviy qidirish usullari – foydali qazilma konlарини aniqlash maqsadida biosferaning turli mahsulotlаридаги kimyoviy elementlarning anomal konsentratsiyalarini yoki organizmlarning muhitdagи kimyoviy elementlar ta'siriga organizmlarning reaksiyasini o'rghanishga asoslangan.

Birlamchi oreol – foydali qazilma tanalari bilan bir jarayonda va deyarli bir vaqtda paydo bo'ladigan tarqalish oqimlari.

Geokimyoviy qidirish usullari – t.j., suv, atmosfera, o'simlik va hayvonot organizmlarida kimyoviy elementlar yoki ular birikmalarining taqsimlanishi hamda tarqalishidagi qonuniyatlarini qo'llagan holda f.q.larni qidirish usuli. Ularning ilmiy asosi – yer qobig'ida kimyoviy elementlarning harakatchanligi haqidagi ta'limotdir.

Geokimyoviy mezonlar – kimyoviy elementlarning Yer qobig'ining rivojlanish jarayonida turli qismlarida yuzaga keluvchi sharoitlariga nisbatan to'planish, tarqalish yoki neytral xususiyatlarini namoyon etishini taqozolovchi geokimyoviy ko'rsatkichlar majmuasi.

Geokimyoviy qidirish – kimyoviy elementlarning litosfera, gidrosfera va biosferadagi taqsimlanish qonuniyatlarini konlarni qidirish maqsadlarida tadqiqot qilishga asoslangan usul. Shuningdek ularning doirasiga atmogeokimyoviy va radiometrik usullar ham kiradi. Ma'danli konlarni qidirishda ayniqsa litokimyoviy usullar juda katta ahamiyatga ega. Geologiya-qidiruv ishlarining barcha bosqichlarida qo'llaniladi.

Geologik blok – geologik-iqtisodiy baholashda muayyan darajada bir xil geologik shart-sharoitlari, foydali qazilma qismlarining qalinligi, tuzilishi, tarkibi, sifati va xususiyatlari, kon-texnik shart-sharoitlari va shu kabilar bilan tavsiflanadigan ma'danli maydon yoki kon uchastkasi.

Geologik bloklar usuli – yetakchi geologik-sanoat parametrlari (qalinlik, foydali komponent miqdori, yotish sharoiti, chuqurligi, texnologik xususiyatlari va b.) yaqinligi asosida hisoblash bloklarini ajratish va chegaralab, f.q. zaxiralarini hisoblash.

Geologik hujjatlashtirish – xaritalarda, planlarda, profil va kesimlarda, maxsus geologik tadqiqotlarni o'tkazishda, geologik xaritalashda, qidirish va razvedka ishlarida, shuningdek, konlarni o'zlashtirishda ish natijalarini har tamonlama hujjatlashtirish (bayon qilish, izoh berish) va grafik tasvirlash. U o'z ichiga geografik bog'lanishni, ochilmalar, kern, kolleksiyalar, har xil namunalar va f.q.lardan olingan namunalarning joylarini izohlashni oladi. Konchilik inshootlarida hamda burg'i quduqlarida olingan ma'lumotlarni standartlashtirishga yordam beradi. Geologik partiyalarda o'tkazilayotgan ish turlariga qarab namunalash jurnallari, kon lahimlarini hujjatlashtirish jurnallari tutish ko'zda tutiladi. Geologik hujjatlashtirish hujjatlariga dala daftarlari, kundaliklar, ochilmalar va konchilik inshootlarining izohlari, namunalash jurnallari, jadvallar, diagrammalar, xaritalar, planlar, tasvirlar, fotomateriallar va b. kiradi.

Geologik xaritalash usuli bilan qidirish – konlarni qidirish majmuidagi asosiy usul bo'lib, f.q. konlarining joylashish qonuniyatlarini aniqlash va qidirish belgilarini topish. Geologik tasvirlash ishlarini, bajarilgan bashoratli chizmalarni tekshirish. Geologik tuzilmalar, qatlamlar va boshqa geologik obyektlar tushirilgan xaritalarni kesimlari bilan tuzishga yo'naltirilgan. Shu asosida hududda topilgan f.q. konlari va namoyonlarining istiqboli baholanadi.

Geologiya-qidiruv ishlarini loyihalash – Geologik (texnik) topshiriqda qo'yilgan masalalarni hal qilish maqsadida geologiya-qidiruv ishlarini loyihasini tuzish. Loyihada tanlangan uslublar majmuasi, bajarish texnikasi va texnologiyasi asoslanadi. Geologiya-qidiruv ishlarini loyihasi va smetasini tuzish bo'yicha tasdiqlangan yo'riqnomalar asosida amalga oshiriladi.

Geofizik anomaliya – geofizik maydonning odatdag'i ko'rsatkichlaridan boshqacha keskin farq qiluvchi ko'rsatkichlarga ega hududi.

Gidrokimyoviy qidirish usuli – turli f.q.larni qidirish maqsadida tabiiy suvlarning (asosan yer osti) kimyoviy tarkibini o'rGANISH.

Gidrotermal eritmalar (gidrotermalar) – magmadan ajralib chiqadigan suv bug'lari va issiq suvli eritmalar. Yer yuzasidagi suvlarning ham chuqurlikka tushib isishi, kuchli minerallanishi va gidrotermal eritmaga o'xshab kon hosil qilishi ehtimoli ham yo'q emas.

Daryo chaqiq tog' jinslari yordamida qidirish usuli – allyuvial, delyuvial va elyuvial yirik bo'lakli yotqiziqlardagi oreollar va mexanik tarqalish oqimlarini o'rGANISHGA asoslangan.

Ikkilamchi oreol – f.q. konlariga ekzogen jarayonlarning ta'siri natijasida hosil bo'lgan ayrim kimyoviy elementlarning anomal konsentratsiyalari zonasi, foydali qazilma tanasi va uning atrofidagi birlamchi oreollar hisobiga, ularning yemirilishi va boshqa joyga ko'chishi natijasida paydo bo'ladi. Ularni ba'zan tarqalish oqimlari ham deyiladi.

Kimyoviy namunalash – f.q. kimyoviy tarkibini zaxira hisoblash, ma'dan jismalari maydoni va qalinligini topish va boshqa maqsadlarda aniqlash.

Kon – Yer qobig'inining ma'lum maydonida turli geologik jarayonlar natijasida vujudga kelgan f.q. to'plangan joy. Konlardagi ma'danlarning miqdori va sifati hozirgi zamon iqtisodiyoti va texnika taraqqiyoti nuqtayi nazaridan sanoat talabiga javob bersa, bunday konlar sanoat ahamiyatidagi konlar deb yuritiladi. Ular zaxirasi, sifati va xalq xo'jaligidagi ahamiyatiga qarab kichik, o'rta hamda katta konlarga bo'linadi.

Konvergensiya – turli kelib chiqish manbalari va yo'llar bilan o'xshash turdag'i mahsulotlarning hosil bo'lishi.

Konni dastlabki baholash – baholash bosqichining boshlang'ich qismi bo'lib, topilgan konning sanoat uchun umumiyligi ahamiyati va f.q.ni geologik joylashish qonuniyatlarini aniqlashga yo'naltirilgan. Shu bilan birga, C₂ toifadagi ma'dan zaxiralari va P₁ toifadagi bashoratlangan resurslar hisoblanadi.

Konni mufassal baholash – f.q. konini sanoat uchun baholash, zaxiralarni C₂ toifasi bo'yicha, birinchi navbatda ishga tushiriladigan

uchastkalarda C₁ toifasi bo'yicha baholab iqtisodiy asoslash uchun o'tkaziladi.

Konni qo'shimcha razvedka qilish – konning chekkalari va chuqur gorizontlarini yangi aniqlangan qonuniyatlar va geologik iqtisodiy ko'rsatkichlar asosida to'liqroq o'rganish.

Kon (ma'dan jismi) modeli – asosan 1:100-1:200 miqqoslarda tuziluvchi yer qobig'ining kon yoki ma'dan tanasini qamrab olgan bo'lagining hajmiy va moddiy tasviri. Obyektning geologik tuzilishi, ma'danlashuvning makondagi joylashuvi, tabiiy turlari va b. xususida ma'lumot olish imkonini beradi.

Konlarning geologik-sanoat parametrlari – f.q. yotqiziqlarining va xomashyo tabiiy xossalaringin miqdoriy geologik tavsifi bo'lib, bu konni o'zlashtirish sharoitlariga va texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlariga, xomashyoni boyitish va qayta ishlashga ta'sir qiladi. Bular yotqiziq qalinligi, moddiy tarkibi, sifati va texnologik xossalari, yotish sharoitlari, kondan foydalanishning texnologik sharoitlaridir.

Ma'dan atrofi o'zgarishlari – ma'dan hosil bo'lishi jarayonlari bilan bog'liq qamrovchi t.j.laridagi o'zgarishlar. Ularga kvarslanish, seritsitlanish va b. kiradi. Ma'danli konlarni bilvosita qidirish belgilari bo'lib xizmat qiladi.

Ma'danli maydonning bashoratlash xaritasi – ma'danlashuvning turli geologik omillar bilan bog'liqligi va bashoratlari xulosalarni ko'rsatuvchi 1:10000 (ba'zan 1:25000) va undan katta miqyosli ma'danli maydonning tuzilmalar xaritasi. Shu bilan birga ma'danli maydon doirasida, xususan chuqurlikda bo'lishi mumkin bo'lgan ma'danlashuvni bashoratlash. Alovida kon va ma'dan namoyonlarini baholash va istiqbolli ma'danli maydonni umumiy miqdoriy baholash uchun (yoki kon va ma'danli t.j.larni aniqlash uchun) xizmat qiladi. U konchilik inshootlari va burg'i quduqlarini joylashtirish bilan birga, keyingi qidirish-razvedka ishlarining yo'naliishlarini asoslab berishi kerak.

Ma'danli (minerallashgan) nuqtalar – sanoat ahamiyatiga ega bo'lmagan (o'lchamlari yoki metallar miqdori bo'yicha) ma'dan namoyonlari.

Ma'dan namoyonlari – ma'dan minerallarining tabiiy holdagi yig'indisi. Ular sifati bo'yicha konditsiya talablariga deyarli javob beradi, lekin miqdori jihatidan shu davr iqtisodiy sharoitida qazib

chiqarish obyekti bo'la olmaydi. Zaxiralari qidirish va razvedka natijasida ko'payganda yoki konditsiya talablari kamaytirilganda kon toifasiga o'tishi mumkin.

Ma'dansiz tog' jinslari - tarkibida ma'danli minerallar bo'limgan t.j.lari (bo'sh jinslar sinonimi).

Ma'danli konlarning genezisi – ma'dan konlarining paydo bo'lishi. U borliq xususidagi juda muhim ilmiy dunyoqarashlarni shakllantirishga xizmat qilishi bilan bir qatorda, ishlab chiqarish maqsadlari uchun baholashda amaliy ahamiyatga ega bo'lgan alohida konni genetik tasniflashning (qaysi guruh va turga mansubligini aniqlash) imkonini beradi.

Ma'dan konlarini qidirishning gidrokimyoviy usuli – tabiiy suvlarning kimyoviy tarkibi haqidagi ma'lumotlardan ma'danli konlarni qidirish maqsadida foydalanish.

Mexanik tarqalish oreollari – bo'shoq t.j.laridagi ma'danli minerallarning ko'paygan miqdordagi tarqalish hududi bo'lib, f.q. yotqiziqlarining yuqori qismlari yoki ularning birlamchi oreollari tarqalishi maydonidagi fizik buzilishlar jarayonida paydo bo'ladi.

Minerallarning paragenetik assotsiatsiyasi – ko'p hollarda minerallar hosil bo'lish bosqichi yoki uning alohida bo'lagida va bir vaqtida qonuniy aralashma sifatida hosil bo'lgan minerallarning birlashmasi tushuniladi.

Mineralogik namunalash – f.q.larning mineral tarkibini sifat va miqdor jihatdan tavsiflash, minerallarining struktura va tekstura xususiyatlari (zarralar o'lchamlari, shakli va nisbatlari), fizik xossalari (zichligi, qattiqligi, mo'rtligi, ulanish tekisligi, radioaktivligi, magnitlanganligi, elektr o'tkazuvchanligi, ho'llanishi, kislotalarda erishi va h.k.), kimyoviy tarkibi, turli tabiiy va sanoat turlaridagi ma'danlarda taqsimlanishini aniqlash bo'yicha olib boriladigan ishlarning majmuasi.

Namunalash – f.q.larning sanoat uchun ahamiyatli sifatlarini aniqlash tadqiqotlarini ta'minlovchi operatsiyalar majmui hisoblanib, ayniqsa konlarni geologik-iqtisodiy baholashda muhim omil hisoblanadi. Uning kimyoviy, mineralogik, texnik va texnologik turlari, amalga oshirish jarayonida esa, namuna olish, namunaga ishlov berish, laboratoriyyada tahlil qilish bosqichlari ajratiladi.

Oreol – kon yaqinidagi zonalar (oreol) bo'lib, ma'dan hosil qiluvchi va boshqa o'ziga xos kimyoviy elementlar miqdorining

atrofdagi t.j.larida ma'dan hosil qiluvchi (birlamchi va singenetik tarqalish oreollari) hamda nurash (ikkilamchi va epigenetik tarqalish oreollari) jarayonlari natijasida boshqalarga nisbatan keskin farqli ko'rsatkichlarga ega bo'lishi. Bundan tashqari, minerallarning porfir ko'rinishidagi kristallari atrofida, asosiy massa hisobiga hoshiyaga o'xshab o'sib borishi ham tushuniladi.

Razvedka to'ri – qidiruv-razvedka inshootlarining joylashish tizimi. T.j. va f.q. jismlarining yotish sharoitiga qarab, uning kvadrat, to'g'ri to'rburchakli, uchburchakli va rombsimon joylanishlari mayjud. Ko'proq kvadrat va to'g'ri to'rburchakli to'rdan foydalaniladi. O'lchamlari konning geologik-sanoat turi va o'zgaruvchanlik darajasiga, shuningdek razvedka bosqichiga bog'liq.

Razvedka tizimi – qidiruv-razvedka inshootlarini o'tish ketma-ketligi, turi, chuqurligi, miqdori va makonda optimal joylashishi bo'lib, f.q. konlarini mufassal razvedka qilish ishlarini olib borishga kam xarajat va vaqt ketishi hamda to'liq ma'lumot olinishni ta'minlashga yo'naltirilgan.

Tog' jinslarining gidrotermal o'zgarishi – atama ma'danlashuv jarayoniga ko'rsatadigan ta'siriga nisbatan turli ma'noda tushuniladi: 1) tarkibida ma'dan minerallari bo'lgan t.j.ining gidrotermal o'zgarishi; 2) ma'dan hosil bo'lishiga faqatgina shartli imkon beruvchi gidrotermal o'zgarishlar; 3) umuman ma'dan hosil bo'lishiga daxlsiz gidrotermal o'zgarishlar.

Tomirsimon minerallar – yer yoriqlarini to'ldiruvchi asosiy minerallar. Bular kvars, kalsit, magnezit, dolomit, barit, flyuorit, gips, ortoklaz, seolit va boshqalardir.

Foydali qazilma – hozirgi paytdagi iqtisodiy, texnik va texnologik nuqtayi nazardan xalq xo'jaligining biron sohasida ishlatishga arziydigan mineral modda.

Foydali qazilma uyumi – sanoat ahamiyatiga ega bo'lgan tabiiy mineral xomashyoning yer yuzasida yoki yer ostida to'planishi.

F.q.larni mineralogik qidirish usuli – turli mineralogik belgilarga (ayrim minerallarning topilishi, zonal tarqalishi, assotsiyalari, morfologiyasi va b.) asoslanib maxsus amalga oshiriladi. Agar mineral topilmaning o'zi f.q. bo'lsa, u bevosita qidirish belgisi bo'ladi.

Foydali qazilma yoki ma'dan jismlarining chegarasini aniqlash – qidiruv-razvedka usullari, geofizik usullar va h.k.lar yordamida

hamda qidirish ma'lumotlari asosida, chegaralarning boshlang'ich (bo'sh jinslardan ajratuvchi) va sanoat talablariga javob beradigan (konditsion) turlari ajratiladi.

Shlixlar xaritasi – shlixli namunalashning umumlashtirilgan natijalarini geologik xaritada tasvirlash.

Shlixli qidirish usuli – bo'shoq t.j.larini muntazam ravishda namunalash, shlix oreollarini kuzatib, chegaralab borib, ular asosida tub va sochilma konklarni topish. Bu usul bir xil xarakterdag'i og'ir fraksiyali qatlamlarni qiyoslash, cho'kindili qatlamlarning hosil bo'lishi, ularning ko'chishi va ta'minlanish manbaini aniqlash imkonini beradi.

Qidirish belgilari – Yer qobig'ining biron bir nuqtasida, ma'lum bir maydon yoki uchastka doirasida f.q. borligidan yoki bor bo'lishi mumkinligidan darak beruvchi dalillar. To'g'ridan-to'g'ri darak beruvchi dalillar bevosita qidirish belgilari deyiladi. Biron-bir vosita orqali darak beruvchi dalillar bilvosita qidirish belgilari deyiladi.

Qidirish mezonlari – Yer qobig'ining biron bir nuqtasida, ma'lum bir maydon yoki uchastka doirasida foydali qazilma konining u yoki bu turini topish imkoniyati borligini ko'rsatuvchi har qanday geologik bilimlar qidirish mezonlari hisoblanadi. Tabiatdagi turli geologik obyektlarning turli-tuman xususiyatlarini o'rganadigan geologik fanlar turli qidirish mezonlarini ishlab chiqishga yordam beradi. Amalda geologik bilimlarni jamlovchi turli geologik fanlarga mos tarzda quyidagi qidirish mezonlarini ajratish mumkin: iqlim, stratigrafiya, fatsial-litologiya, magmatogen, struktura-tektonik, mineral-geokimyoiy, metamorfogen, geomorfologik, gidrogeologik, geofizik va boshqa mezonlar. Ba'zi mezonlar butun Yer qobig'ida amal qiladi, ba'zilari esa faqat muayyan hududlarda amal qilishi mumkin. Har xil genetik turlarga mansub konlarning joylashishini tushuntirib berishda turli mezonlarning ahamiyati turlicha bo'lishi mumkin.

Qidirish chizig'i – bu chiziq bo'y lab t.j. sun'iy ochiladi, geokimyoiy namunalar olinadi yoki geofizik ishlar bo'lganda t.j.larining fizik xossalari o'lchanadi. Ular odatda taxmin qilinayotgan f.q. jismi yo'nalistigiga tik ravishda o'tkaziladi.

Qidiruv ishlari – foydali qazilma konlarini topish va istiqbolini baholashga yo'naltirilgan ishlar majmuasi, alohida maydonning geologik tuzilishini o'rGANISH, qidirish mezonlari va belgilarini tahlil

qilish va geologik xaritalash asosida amalga oshiriladi. 2 bosqichga ixtisoslashgan ilgarilama va xususan qidirish ishlariga bo'linadi.

Qidirish obyekti – geologiya qidiruv ishlarini o'tkazish uchun belgilangan, ma'lum miqdordagi va muayyan sifatli foydali qazilma bor bo'lgan maydon. Bunday obyektlarga: foydali qazilma, minerallashgan nuqta, ma'dan namoyoni, foydali qazilma koni, ma'danli maydon, ma'danli provinsiya va boshqalar kiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirusmanov M.A. Foydali qazilma konlarini qidirish va razvedka qilish asoslari; Ma’ruzalar matni. – Toshkent: ToshDTU, 2018, 144 bet.
2. Поиски и разведка месторождений полезных ископаемых: Учебник для вузов/В.В.Авдонин, Г.В.Ручкин, Н.Н. Шатагин, Т.И. Лыгина, М.Е. Мельников; Под ред. В.В.Авдонина. – М.: Академический Проект; Фонд «Мир», 2007, 540 с.
3. Milos Kuzgart, Miloslav Böhmer. Prospecting and exploration of mineral deposits. Elsevier Amsterdam – Oxford – New York – Tokyo, 1986.
4. Roziqov O.T., Mirxodjayev B.I., Jo’rayev M.N., Tursunov J.A. Foydali qazilma konlarini qidirish va razvedka qilish asoslari; Darslik – Toshkent, Navro’z, 2021, 202 b: (38) rasm; (7) jadval; (8) adabiyot; (10) internet resurs.
5. Шоёқубов Т.Ш., Мирусмонов М.А., Содиқов С.Т. Фойдали қазилма конларини разведка қилиш ва геологик-иқтисодий баҳолаш асослари. Ўкув кўлланма.–Тошкент. ТошДТУ. 2003. 96 б.
6. Геология и полезные ископаемые Республики Узбекистан./Под редакцией Шаякубова Т.Ш. и Долимова Т.Н./, - Ташкент, Университет, 1998, 724 с.
7. Геология. Прогнозирование и поиск месторождений полезных ископаемых. Учебник для бакалавриата, под ред. Рихванова Л.П. –М.: Юрайт. 2014.
8. Геология-қидибув ишларини босқичма-босқич олиб бориш бўйича йўрикнома (каттиқ фойдали қазилмалар). Ўздавгеолқўми. Тошкент, 1999.
9. Каждан А.Б. Поиски и разведка месторождений полезных ископаемых. Том 1. Научные основы поисков и разведки месторождений полезных ископаемых. М.: Недра. 1985.
10. Крейтер В.М. Поиски и разведка месторождений полезных ископаемых. В 2-х томах. М.: Недра, 1961.

11. Фойдали қазилма конларини қидириш ва разведка килиш асослари: Дағслик/Розиков О.Т., Мирходжаев Б.И., Абдурахмонов А.А., Усманалиев Э.А.; ред. Исламов Б.Ф./Ўздавгеолқўм, “Минерал ресурслар илмий-тадқиқот институти” ДК. Тошкент, ТошДТУ, 2016. -90 б.

12. Sodiqov S.T. Foydali qazilma konlarini geologik hujjatlashtirish va namunalash / Darslik. –T.: Sano-standart, 2015-yil. – 144 bet.

13. Jo'rayev M.N., Mirusmanov M.A. Foydali qazilma konlarini qidirish va razvedka qilish asoslari fanidan amaliy mashg'ulotlarni bajarish bo'yicha o'quv-uslubiy qo'llanma. – Toshkent, ToshDTU, 2017.

14. Қаттиқ фойдали қазилма конларининг захиралари ва башпоратли ресурслари таснифи бўйича йўриқнома. Ўздавгеолқўми, Тошкент, 1999.

MUNDARIJA

| | |
|--|-----|
| Kirish..... | 3 |
| 1. FOYDALI QAZILMA KONLARINI QIDIRISH VA RAZVEDKA QILISHNING NAZARIY ASOSLARI | 5 |
| 1.1. "Foydali qazilma konlarini qidirish va razvedka qilish asoslari" faniga kirish..... | 5 |
| 1.2. Fanning nazariy asoslari haqida umumiy tushunchalar.. | 12 |
| 1.3. Qidirish ishlarining bosqichlarga ajratilishi..... | 18 |
| 1.4. Qidirish va razvedka qilishning asosiy obyektlari..... | 23 |
| 1.5. Foydali qazilma konlarini tasniflash tamoyillari..... | 25 |
| 2. FOYDALI QAZILMA KONLARINI QIDIRISH VA RAZVEDKA QILISHNING GEOLOGIK ASOSLARI | 50 |
| 2.1. Qidirish va razvedka qilishning geologik asoslari haqida umumiy tushunchalar..... | 50 |
| 2.2. FQKlarini qidirishning stratigrafik mezonlari..... | 52 |
| 2.3. Qidirish va bashoratlashning fatsial-litologik mezonlari | 58 |
| 2.4. Qidirish va bashoratlashning magmatik mezonlari..... | 65 |
| 2.4.1. Ma'dan konlarining magmaning kimyoviy xususiyatlari bilan bog'liqligi..... | 66 |
| 2.4.2. Ma'dan konlari bilan magma differensiatsiyasi orasidagi bog'liqlik | 69 |
| 2.4.3. Ma'danli konlarning magmatik jinslar kristall zarrachalarining o'lchamlariga bog'liqligi..... | 70 |
| 2.4.4. Ma'dan konlarining intruziyalar o'lchamlari bilan o'zaro bog'liqligi..... | 71 |
| 2.4.5. Ma'dan konlarining intruziyalarning ichki strukturasi bilan o'zaro bog'liqligi. | 73 |
| 2.4.6. Ma'dan konlarining intruziyalarning sovish chuqurligi bilan o'zaro bog'liqligi. | 74 |
| 2.5. Qidirish va bashoratlashning tektonik-strukturaviy mezonlari..... | 74 |
| 2.6. Qidirish va bashoratlashning mineralogik va geokimyoviy mezonlari..... | 98 |
| 2.7. Metamorfogen mezon..... | 105 |

| | | |
|-----------|---|------------|
| 2.8. | Qidirish va bashoratlashning geomorfologik, paleogeografik va boshqa mezonlari. | 107 |
| 3. | FOYDALI QAZILMA KONLARINI QIDIRISH VA BASHORATLASH BELGILARI | 117 |
| 3.1. | Foydali qazilma konlarini qidirish va bashoratlashning bevosita belgilari..... | 118 |
| 3.2. | Foydali qazilma konlarini qidirishning bilvosita belgilari..... | 122 |
| 4. | FOYDALI QAZILMA KONLARINI QIDIRISH VA RAZVEDKA QILISH USULLARI | 130 |
| 4.1. | Qidirish usullari. Geoxaritalash usuli. | 130 |
| 4.2. | Mineralogik qidirish usullari. Shlixlash xaritalari..... | 138 |
| 4.3. | Geokimyoviy qidirish usullari. Litogeokimyoviy, metallometrik usullar..... | 143 |
| 4.4. | Geofizik qidirish usullari..... | 149 |
| 4.5. | Qidirish va razvedka qilishning texnik vositalari. | 151 |
| 4.6. | Qidirish va razvedka qilish usullar majmuasini tanlash va tanlovga ta'sir ko'rsatuvchi omillar. | 160 |
| 5. | FOYDALI QAZILMALARNI NAMUNALASH | 163 |
| 5.1. | Namunalashning maqsadi, vazifalari va turlari. | 163 |
| 5.2. | Namunalar olish usullari. | 165 |
| 5.3. | Namunalarga ishlov berish. Texnikasi va sxemasi. | 177 |
| 5.4. | Namunalarni tahlil qilish usullari. | 178 |
| 5.5. | Namunalashni nazorat qilish. | 182 |
| 6. | FOYDALI QAZILMA KONLARINI RAZVEDKA QILISH | 185 |
| 6.1. | Razvedka qilish vazifalari va tamoyillari. | 185 |
| 6.2. | Razvedka qilish usullari, bosqichlari. | 190 |
| 6.3. | Razvedka sistemalari, to'rlarining zichligi. | 195 |
| 6.4. | Razvedka jarayonida olib boriladigan gidrogeologik va injener-geologik kuzatishlar..... | 203 |
| 7. | FOYDALI QAZILMA KONLARINI GEOLOGIK- IQTISODIY BAHOLASH | 205 |
| 7.1. | Foydali qazilma konlarini geologik-iqtisodiy baholash tamoyillari, bosqichlari..... | 205 |
| 7.2. | Konditsiyalar. | 210 |
| 7.3. | Zaxiralarni hisoblash. | 219 |

| | | |
|--------|--|-----|
| 7.3.1. | Zaxiralarni tasniflash. | 219 |
| 7.3.2. | Zaxiralarni hisoblash usullari. | 225 |
| 7.3.3. | Zaxiralarni chegaralash va bloklarga ajratish. | 229 |
| 7.3.4. | Geologiya-qidiruv parametrlarining kesimlar bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichlarini hisoblash va ularni yon atrofdagi zamin hajmiga tatbiq qilish usullari. | 233 |
| 7.3.5. | Hamroh komponentlar zaxiralarini hisoblash xususiyatlari. | 235 |
| 7.3.6. | Foydali qazilmalar zaxiralarini hisoblashning ishonchliligi. | 236 |
| | GLOSSARIY. | 240 |
| | FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR. | 248 |

MIRUSMONOV MIRVOSIT AGZAMOVICH

**FOYDALI QAZILMA KONLARINI QIDIRISH
VA RAZVEDKA QILISH ASOSLARI**

Toshkent – «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi» – 2022

| | |
|--------------------------------------|--------------------|
| Muharrir: | M.Xayitova |
| Tex. muharrir: | M.Tursunov |
| Musavvir: | A.Shushunov |
| Musahhih: | L.Ibragimov |
| Kompyuterda sahifalovchi: | M.Zoyirova |

**E-mail: nashr2019@inbox.ru Tel: +99899920-90-35
№ 3226-275f-3128-7d30-5c28-4094-7907, 10.08.2020.**

Bosishga ruxsat etildi 14.03. 2022.

Bichimi 60x84 1/16. «Timez Uz» garniturasi.

Offset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog‘i: 16,5. Nashriyot bosma tabog‘i 15,75.

Tiraji: 100. Buyurtma № 22

**«Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi»
bosmaxonasida chop etildi.**

100174, Toshkent sh, Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 7-uy.